G.Nazarova, X.Xalilov,
A.Azimov, I.Xanova

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

65.9
X-21

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

G. Nazarova, X. Xalilov,
A. Azimov, I. Xanova

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

(darslik)

5A 341101 – Xalqaro iqtisodiy munosabatlar

«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2010

БИБЛИОТЕКА
Бух. ТИП и ЛП
№ 75220

BBK 65.5ya73
UDK 338(575.1)(075)

Mas'ul muharrir: prof. A.Sh. Bekmurodov

Taqrizchilar:
B.A. Baxriddinov – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori
A.A. Eshtayev – TDIU «Jahon iqtisodiyoti va XIM» kafedrasi dotsenti

Jahon xo'jaligining barcha jabhalarida integratsiya va globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda dunyo mamlakatlarining asosiy rivojlanish tendensiya va yo'nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning rivojlanish alomatlari o'zgarib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashib, ushbu mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi munosabatlarini tobora kengaytirib bormoqda. Jahonning yirik integratsion markazlari rivojlanishining ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganishdagi yondashuvlar respublikamiz iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega.

Darslik magistr-talabalar, aspirant, ilmiy xodimlar va shuningdek, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini o'rganuvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-99-372-97-9

©«TAFAKKUR», 2010-y.

KIRISH

Jahon xo‘jaligining tobora globallashib borishi jarayonlari negizini mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro integratsiyasi ta’minlamoqda. Ushbu integratsion jarayonlarning aksariyati yirik mintaqalar miqyosida va, shuningdek, ayrim uyushmalar darajasida namoyon bo‘lmoqda-ki, bu jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishida sanoati yuqori darajada rivojlangan davlatlarning iqtisodiyoti va salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu jarayonlarni bilish va mohiyatini tushunib yetish, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishini jadallashtirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishning samarali yo‘nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyatga egadir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «XXI asr shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo‘ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman – butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlik barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur».[1]

Bugungi kunda jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashmay turib, hech bir mamlakat mukammal rivojlana olmaydi. Jahon iqtisodiyotida milliy xo‘jaliklarning baynalmilallashuvi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining zaruriy tomonlaridan biri bo‘lib, u barcha mamlakatlarni, ular qaysi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimga mansubligidan qat’iy nazar, qamrab oladi.

---

[1] I.A. Karimov .O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997. 298-bet.

Jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvini, sifat jihatidan yangi holati (ko‘rinishi) – iqtisodiy integratsiyadir. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon mamlakatlari o‘rtasida ishlab chiqarish va kapitalni baynalmilallashuvini tezlashishiga ham shart-sharoit yaratadi.

Biroq, ta’kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda muayyan ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma’noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni ta’kidlaydi: «Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. ...Shu bois global moliyaviy inqiroz va, birinchi navbatda, uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta’sir etayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi»[2]. Shunga ko‘ra, biz mamlakatimizning xalqaro va mintaqaviy integratsiyalashuv jarayonlarida ishtirok etishida, jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta’sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta’siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi.

«Xalqaro iqtisodiy integratsiya» kursining asosiy maqsadi zamonaviy jahon xo‘jaligining muhim tendensiyalaridan biri hisoblangan integratsiya jarayonlarining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilishdir. Talabalar ushbu kursni o‘rganishlari davomida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyatini, rivojlanish xususiyatlarini kompleks o‘rganib, xalqaro integratsion guruhlarning tashkil topishi va amaliy ahamiyati to‘g‘risidagi qarashlar konsepsiyasiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, talabalar

---

[2] I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari. T.: «O‘zbekiston», 2009. 4-bet.

ushbu kursni o‘rganishda zamonaviy integratsion jarayonlarning rivojlanishida global muammolarni baholash mezonlari, Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda integratsion jarayonlarning borishi to‘g‘risidagi tushunchalarga ham ega bo‘ladilar. Talabalar G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi va, shuningdek, jahonning boshqa integratsion markazlari to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi kabi masalalarni ham alohida o‘rganadilar.

«Xalqaro iqtisodiy integratsiya» fani o‘quv rejasidagi bir qator iqtisodiy fanlar – «Jahon iqtisodiyoti», «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar», «Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti», «Jahon iqtisodiyotining globallashuvi», «Xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyasi» va shuningdek, «Iqtisodiy nazariya», «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» kabi bir qator ijtimoiy – gumanitar fanlar bilan ham uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi.

«Xalqaro iqtisodiy integratsiya» fanini, TDIUning magistratura bo‘limida 5A341101 – «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» mutaxassisligi bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar o‘rganishadi. Ushbu fan mutaxassislik fanlaridan biri bo‘lib, talabalar fanni yaxshi o‘zlashtirishi uchun ko‘p yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan professor o‘qituvchilarning ma’ruzalarini tinglash bilan bir qatorda chop etilgan ko‘plab ilmiy va monografik ishlarni, maqolalarni chuqur o‘rganishlari, jahon xo‘jaligidagi integratsion jarayonlarning hududiy va xalqaro miqyosda borishini tahlil qilishlari ham lozim.

«Xalqaro iqtisodiy integratsiya» fani bo‘yicha darslikni tayyorlashda TDIU «Xalqaro iqtisodiyot» kafedrasi professor-o‘qituvchilari, i.f.d., professor G.G‘.Nazarova, i.f.n., dotsent X.X.Xalilov, i.f.n., dotsent A.E.Azimov, i.f.n., dotsent I.M.Xanovalar ishtirok etdilar. Darslik birinchi bor kafedraning professor-o‘qituvchilari tomonidan yaratilayotganligi tufayli ba’zi bir juz’iy kamchiliklar bo‘lishi mumkin. Ushbu darslikni tayyorlashda o‘zlarining qimmatli maslahatlari, ijobiy va tanqidiy fikrlarini ber-

gan professor-o‘qituvchilarga, shuningdek texnik ishlarni bajarishda yaqindan yordam bergan TDIU katta o‘qituvchisi Z.M.Iminov, assistent X.Shukurovga hamda magistrantlar T.Esanov, F.Saidnazarov va O.Ulug‘ovalarga mualliflar o‘z minnatdorchiligini bildiradilar.

Darslikning kirish, 1,3,5- boblari professor G.G‘.Nazarova va dotsent X.X.Xalilovlar, 2,4,6,7- boblari esa dotsentlar A.E.Azimov va I.M.Xanovalar tomonidan tayyorlandi.

1-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA – JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA

1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati

Jahon xo'jaligi rivojining zamonaviy bosqichida sayyoramizning barcha qit'alarida integratsion jarayonlarning turli shakllarini ko'rishimiz mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yetakchi industrial mamlakatlarning tez taraqqiy etishi, shuningdek, xalqaro transport va kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi natijasida xalqaro tovar va xizmatlarning yuqori sur'atlarda rivojlanishi yuz berdi. Xalqaro savdo bilan bir qatorda ishlab chiqarish omillarining (kapital, ishchi kuchi va texnologiyalar) xalqaro harakati ham rivojlanib bordi. Ya'ni, tayyor mahsulot bilan bir qatorda ishlab chiqarish omillari ham mamlakatlararo ko'cha boshladi. Tovar bahosida o'z aksini topgan foyda nafaqat milliy chegara doirasida, balki xorijda ham yaratildi. Bularning barchasi iqtisodiy integratsiyaning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Iqtisodiy integratsiya – mamlakatlar o'zaro iqtisodiy hamkorligining natijasi bo'lib, u xo'jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya bu – milliy xo'jaliklar (davlatlar) o'rtasida ko'p tomonlama o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.

Hozirgi kunda integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas. Bir guruh

iqtisodchi olimlar integratsiyani jahon mamlakatlari o‘rtasida yangi tovarlar oqimini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo‘li deb talqin etishsa (bu orqali jahon mamlakatlarida nisbatan serxarajat tovarlar ishlab chiqarishga chek qo‘yilib, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, ya’ni, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi), boshqa bir guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turtki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari suradi (masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqalar). Uchinchi bir guruh iqtisodchilar esa integratsiya bu – ishlab chiqarishning barqaror o‘sishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kabi maqsadlarga yengilroq va tezroq erishish imkoniyatini beradi, deb hisoblashadi. Xullas, u yoki bu nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o‘tish kerakki, integratsiya bu – hududiy miqyosda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik komplekslarining o‘zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishi jarayonidir.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosan ikki darajada (mikro – transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali, makro – iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali) amalga oshiriladi.

Mikro darajadagi integratsion jarayonlar bir-biriga hududiy jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari kapitallarining o‘zaro ta’sir doirasi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, ushbu davlatlar o‘rtasida integratsion jarayonlar iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi, kichik shoxobchalar, shu’ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi. Tashkil topgan korxona va firmalar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning tez rivojlanishi tovar almashuvini, xizmat sohalarini, kapital va ishchi kuchining mamlakatlararo erkin harakatini ta’minlashga, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnologik, tashqi iqtisodiy va mudofaa.

moliyaviy va valyuta sohasida yagona siyosatni o‘tkazish zaruriyati tug‘iladi. Yagona valyuta va moliyaviy fondlar, infratuzilmalar va umumiy davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo‘lgan iqtisodiy majmualar yaratiladi.

Makro darajada esa integratsiya davlatlarning iqtisodiy birlashmalarini shakllantirish hamda milliy siyosatlarni muvofiqlashtirish asosida ro‘y beradi.

Iqtisodiy integratsiya asosida bir qator obyektiv omillar yotadi, ularning ichida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

– xo‘jalik hayotining yanada baynalmilallashuvi;

– xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

– umumjahon ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-texnika inqilobi (ITI);

– milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining kuchayishi va boshqalar.

Ushbu obyektiv omillarning barchasi jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi.

Baynalmilallashuv omili mamlakatlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va takror ishlab chiqarishning milliy xo‘jalik doirasidan chetga chiqish jarayonini aks ettiradi (eng avvalo, xalqaro mehnat taqsimoti asosida). Jahon xo‘jalik hayoti baynalmilallashuvining o‘sishi va rivojlanishida TMKlarning ta’sir doirasi katta. YuNKTAD ma’lumotiga ko‘ra hozirgi kunda jahonda 65 mingdan ortiq TMKlar va ularning 850 mingdan ortiq shoxobchalari va shu’ba korxonalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Jahon xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ikkinchi omil – xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasidagi chuqur o‘zgarishlardir (bu asosan ITI ta’sirida yuz beradi). Xalqaro mehnat taqsimoti atamasi, bir tomondan, mamlakatlarning muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini bildirsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish

majburiyatlarning firma ichida va firmalararo taqsimlanishida o‘z ifodasini topadi.

Umumjahon ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-texnik inqilobning hozirgi bosqichi baynalmilallashuvni ham bozor, ham ishlab chiqarish sohasida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynamoqda. ITI tashqi iqtisodiy aloqalarning ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli oshishini ta’minlovchi muhim omildir. ITI u yoki bu mamlakatda boshqalardan ajralgan holda to‘laqonli rivojlana olmaydi.

Jahon xo‘jaligida mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarga yanada chuqurroq kirib borishida milliy davlatlar iqtisodiyotining ochiqlik darajasi muhim rol o‘ynamoqda. Turli mamlakatlarga tegishli firmalarning kooperatsiyalashuvi natijasida ishlab chiqarish va investitsiyalar sohasida yirik xalqaro muammolar kelib chiqmoqda. Milliy davlatlarda ochiq iqtisodiyotning shakllanishida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish ishlari bo‘yicha olib borilayotgan tashqi iqtisodiy strategiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda, albatta xorijiy mamlakatlardan kapital va ilmiy texnologiyalar, malakali mutaxassislarning kirib kelishiga imkon beruvchi huquqiy asoslarni yaratilishi ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi muayyan shart-sharoitlarining mavjud bo‘lishini ko‘zda tutadi. **Birinchidan**, integratsiyalashayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasi bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak. Xo‘jalik mexanizmlari bir-biriga mos tushishi lozim. Kamdan-kam istisnolardan tashqari, barcha hollarda davlatlararo integratsiya industrial mamlakatlar yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida taraqqiy topadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar doirasida integratsion jarayonlar eng faol bo‘ladi va yuqori samara beradi. Rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida integratsion jarayonlar kamdan-kam hollarda yuz beradi. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan

mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro integratsiyalashuv harakatlari yuz bersa-da, bu jarayonlar hozirgi kunda ham o‘zining ilk rivojlanish bosqichida turibdi.

Ikkinchidan, integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligi, ko‘p hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Aksariyat hollarda bir mintaqada bir-biriga geografik jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlar birlashadilar, chunki ular uchun transport, til va boshqa muammolarni yechish oson kechadi. **Uchinchidan**, rivojlanish, siyosiy, iqtisodiy hamkorlik sohasida va mamlakatlar oldida turgan boshqa muammolarning umumiyligi. Bu muammolarni hal etish integratsiyalashayotgan mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini taqozo etadi. Asosiy muammosi – bozor iqtisodiyotining asoslarini yaratish bo‘lgan mamlakatlarning umumiy valyutani joriy qilishni maqsad qilib qo‘ygan davlatlar bilan integratsiyalashuvi mumkin emasligi bunga misol bo‘la oladi.

To‘rtinchidan, integratsion birlashmalarni tuzgan davlatlarda odatda ijobiy iqtisodiy siljishlar (iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tezlashuvi, Inflyatsiyaining pasayishi, ish bilan bandlikning o‘sishi va shu kabilar) ro‘y beradi va bu, shubhasiz, o‘zgarishlarni kuzatib borayotgan boshqa mamlakatlarga muayyan ta’sir ko‘rsatadi va ularni interasion jarayonlarda ishtiriok etishga rag‘batlantiradi. **Beshinchidan**, u yoki bu mintaqadagi mamlakatlarning ko‘pchiligi integratsiyaviy birlashmaga a’zo bo‘lgach, bu birlashma doirasidan chetda qolgan mamlakatlar, shubhasiz, ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar mazkur guruhga kiruvchi mamlakatlar iqgisodiy aloqalarining uzviyligi bilan bog‘liqdir. Bu ko‘pincha, hatto, integratsiya doirasidan tashqarida qolishdan qo‘rqib, integratsiya doirasidan chetda qolgan mamlakatlar bilan savdoni qisqartirishga ham olib keladi. Integratsiya jarayonidan chetda qolgan mamlakatlar ko‘p hollarda qo‘shimcha qiyinchiliklarga duch keladilar. («Domino samarasi»).

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko‘plab integratsion birlashmalar aslida o‘z

Integratsion ittifoqni tuzishdan maqsad – tovarlar, xizmatlar, capital va ishchi kucining erkin harakatiga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlarni kamaytirish, istiqbolda esa butunlay olib tashlash

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) – mamlakatlarning turli faoliyat sohalarida hamkorlik qilishining kompleks shakllari. Unga sherik mamlakatlar iqtisodiyotining bir-biriga kirishib ketishi va ularning uzoq muddatli texnik, texnologik va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi xosdir

Xalqaro iqtisodiy integratsiya rivojlanishida iqtisodiy birlashmalarning shakllari
1 Preferentsial savdo kelishuvlari
2.Erkin savdo hududi
3. Bojhona ittifoqi
4. Umumiy bozor
5. To‘liq iqtisodiy ittifoq

Xalqaro iqtisodiy integratsiya obyektlari – ishlab chiqarish va ilmiy-texnik hamkorlik va almashinuv predmeti bo‘lgan tovarlar,xizmatlar, moddiy-pul va mehnat resurslari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya subyektlari – Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy- texnik hamkorlik va almashinuvni amalga oshiruvchi iqtisodiy alohida tomonlar

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga undovchi omillar

Integratsiyalashayotgan mamlakatlarda daromadlarning o‘sishi va yangi savdo oqimlarining shakllanishi, qator tovar va xizmatlar islab ciqarish xarajatlarining hamda narxlarning pasayishi tufayli farovonlikning ortishsi

Integratsion blokga a’zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlar bilan munosabatlarida iqtisodiy pozitsiyalarini kuchayishi

Mintaqaviy siyosiy hamkorlikni rivojlantirish va integratsion blok a’zo mamlakatlarining uchinchi mamlakatlarga nisbatan siyosiy pozitsiyalari kuchayishi

1-rasm. Xalqaro iqtisodiy integratsiya: mohiyati, maqsadlari va bosqichlari.

oldiga bir-biriga o‘xshash maqsadlarni qo‘yadilar. *Birinchidan,* ishlab chiqarish ko‘lamini ko‘paytirish hisobiga bozorlar hajmini kengaytirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa bir qator afzalliklardan foydalanish. Bu, o‘z navbatida, katta hajmdagi bozorlarga ishtiyoq bilan kirib keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilishga bevosita imkon beradi. *Ikkinchidan,* qulay tashqi iqtisodiy va siyosiy muhitni yaratish. Ko‘plab integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni mustahkamlashdir. *Uchinchidan,* savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko‘pincha, JST doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokarasi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Mamlakatlar bloki nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi. *To‘rtinchidan,* iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga ko‘maklashish. O‘z qo‘shnilarini integratsiya jarayonlariga qo‘shar ekanlar, rivojlanganroq davlatlar ham o‘sha mamlakatlarda to‘laqonli va katta hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining ildiz otishidan manfaatdor bo‘ladi. Yevropa Ittifoqiga yangi a’zolarni qo‘sha turib, ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari shu maqsadlarni ko‘zlagan edi. *Beshinchidan,* mintaqaviy raqobat ustunliklarini shakllantirish hisobiga, birlashmada ishtirok etuvchi mamlakatlarning jahon bozoridagi pozisiyalarini kuchaytirish.

Integratsion birlashmaga qo‘shiluvchi davlatlar o‘zaro aloqalar olib boruvchi hamkorlarga xos umumiy jarayonlarni boshidan kechira boshlaydi.Integratsiya jarayonlari jahonning barcha qit’alarini qamrab olmoqda. Buning natijasida ko‘plab mintaqaviy va submintaqaviy savdo-iqtisodiy tashkilotlar yuzaga kelmoqda. (1- jadval). JST ma’lumotlariga ko‘ra 2004-yilda jahonda 151 ta haqiqatda faoliyat ko‘rsatayotgan mintaqaviy savdo-iqtisodiy kelishuvlar mavjud edi.

1-jadval.

Jahon xo‘jaligining asosiy mintaqalaridagi iqtisodiy integratsion tashkilotlar

№	Tashkilot nomi	A’zolar soni	Tuzilgan yili
1	Yevropa Ittiffoqi (YeI, ingl. EU, oldingi nomi Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati)	27	1957/1992
2	Yevropa Erkin Savdo Assosiasiyasi (YeESA, ingl. EFTA)	4	1960
3	Markaziy Yevropa Erkin savdo hududi (ingl. Central European FTA)	7	1992
4	Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH, ingl. CIS)	12	1991
5	Qora dengiz iqtisodiy hamkorligi (QDIH, rus. ЧЭС)	11	1992
6	Shimoliy Amerika erkin savdo hududi to‘g‘risidagi kelishuv (ingl. NAFTA)	3	1994
7	Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi Forumi (OTIH ingl.APEC)	21	1989
8	Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Assosiasiyasi (ingl. ASEAN)	10	1967
9	Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi (ingl.SAARK)	7	1985
10	Lotin Amerikasi integratsiya Assosiasiyasi (LAIA, ingl. LAIA)	11	1980/1960
11	And pakti (Andean Pact)	5	1969
12	Karib Hamjamiyati va Karib Umumiy bozori (CARICOM)	14	1973
13	Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (ingl.MERCOSUR)	4	1991
14	G‘arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati (ECOVAST)	16	1976

15	Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (ESFCM)	20	1994
16	Janubiy Afrika rivojlanish hamjamiyati (SADK)	11	1992
17	Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy Ittifoqi (ingl. UDEAK)	6	1966
18	Arab iqtisodiy birligi Kengashi (AIBK)	12	1964
19	Fors ko‘rfazi arab davlatlari hamkorligi Kengashi (FKADHK)	6	1981

Manba: Mualliflar tomonidan tuzilgan.

1.2. Iqtisodiy integratsiya: nazariy qarashlar tahlili

Yevropa hamjamiyati yuzaga kelgunga qadar iqtisodiyot fanida «iqtisodiy integratsiya» atamasi madjud emas edi. Biroq, milliy davlatlar orasidagi «bozorlar integratsiyasi» va «siyosat integratsiyasi» kabi jarayonlar uzoq yillardan beri mavjud bo‘lib kelgan. Yagona milliy bozorlar savdoning stixiyali rivojlanishi va mehnat taqsimoti natijasida shakllandi. Bu jarayonlarning yuqori bosqichini birlashgan xalq xo‘jaligi tizimlarining yuzaga kelishida ko‘rish mumkin.

Yevropa mamlakatlari integratsiyalashuvi yo‘li ham shu yo‘ldan bordi. Ya’ni, yagona ichki bozor yaratilib, uzoq-yillar davomida Yevropa hamjamiyati bo‘ylab yagona iqtisodiy qonunchilik tizimi va yagona (yoki hech bo‘lmaganda uyg‘unlashgan) iqtisodiy siyosat olib borildi. Biroq, alohida olingan bir milliy davlat ichidagi birlashtiruvchi jarayonlar bilan davlatlararo birlashtiruvchi jarayonlar orasida sifat jihatidan jiddiy farqlar ham yo‘q emas.

Milliy bozorlarni birlashtirish yo‘lida shaxslar va alohida hududlarning qiziqishlari orasida farqlar mavjud bo‘lib, ular yagona siyosiy hokimiyat tomonidan nisbatan osonlik bilan bartaraf etib

turilgan. Yevropa integratsiyalashuvining asosiy maqsadi – milliy davlatlarni yagona qudratli davlatlar ko‘rinishida birlashtirish uchun uzoq yillar davomida boshlang‘ich omilsiz millatlar va milliy davlatlarning qarama-qarshi iqtisodiy qiziqishlari va iqtisodiy mustaqilligi kabi jiddiy to‘siqlarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelgan edi. Shuning uchun ham Yevropa integratsiyasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berishda Yevropani milliy davlatlar doirasida birlashtirishga «yuqoridan» qaraganda juda murakkab va boy tajribaga ega bo‘lishi ma’lum edi.

G‘arb iqtisodiyoti fani Yevropa integratsiyasining g‘oyaviy manbasi sifatida namoyon bo‘lmaydi. Iqtisodchilar tomonidan integratsiya voqelik sifatida u iqtisodiy reallikning asosiy qismiga aylanishi zahotiyoq o‘rganila boshlandi.

Huquqshunos va siyosatshunos olimlar Yevropa integratsiyalashuvining o‘ziga xos taraflarini o‘rganishda, dunyoda ro‘y berayotgan jarayonlarni esdan chiqargan holda, to‘lig‘icha o‘rganishga harakat qilgan bo‘lsalar, iqtisodchilar esa bundan farqli ravishda, dunyo bozorining universal rivojlanish falsafasini o‘rganishdi. Ya’ni ular integratsiyaning umumiy, butun bir jahon xo‘jaligining rivojlanish qonuniyatlari asosida namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratishdi.

Integratsiya muammosiga boshlang‘ich nazariy yondoshuvlar xalqaro savdoning umumiy nazariyasi yo‘nalishida rivojlangan edi.

G‘arb iqtisodiyoti fani savdoni an’anaviy tarzda boyliklar orttirishning manbai deb hisoblaydi. Shuning uchun, savdo hajmini kengaytirishga olib keluvchi har bir narsa absolyut farovonlikdir, va aksincha uning rivojlanishiga xalaqit qiluvchi har bir narsa jamiyat boyligidan chegirmadir, degan fikrni bildiradi. Ushbu paradigma doirasida nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan besh xil shakldagi hududiy iqtisodiy integratsiyani o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- Erkin savdo hududlari – o‘zaro tovarlar savdosida har qanday to‘siqlarni olib tashlagan bir guruh mamlakatlar.

• Bojxona ittifoqi – tashqi tariflari umumiy bo‘lgan erkin savdo hududi.

• Umumiy bozor – bunda bojxona ittifoqi hamda kapital va ishchi kuchining erkin harakat rejimini ko‘rishimiz mumkin.

• Iqtisodiy ittifoq – umumiy bozor va uni to‘ldiruvchi omillarning erkin harakatini ta’minlash maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni uyg‘unlashtirish, tovar oqimlari buzilishini oldini olish maqsadida makroiqisodiyotni uyg‘unlashtirishdir.

• Iqtisodiy va valyuta ittifoqi – bu umumiy valyuta siyosati bilan to‘ldirilgan iqtisodiy ittifoqdir.

Ushbu shakllarning birortasi ham jahon xo‘jaligida sof ko‘rinishda real ijtimoiy-iqtisodiy hayotda hech qachon mavjud bo‘lmasa-da, bu kabi ko‘rinishdagi tasnif hozirgi kunda ilmiy jihatdan to‘la asoslab berilgan.

Ma’lumki, zamonaviy integratsion tizimning shakllanishi, bojxona ittifoqi yaratilishidan boshlandi. Shu sababli, iqtisodiy integratsiyani nazariy jihatdan tushunishning boshlang‘ich urinishlarini uning shu ideal shaklidan boshlab o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

GATT qoidalari har qanday cheklovlarsiz erkin savdo hududlari va bojxona ittifoqini tashkil etishga ruxsat berardi (XXIV modda). Bunga sabab, ushbu xalqaro tashkilot xalqaro savdoni bo‘g‘uvchi milliy proteksionizmning hukmronligi davrida paydo bo‘ldi. Shuning uchun ham har qanday, hattoki bojxona to‘siqlarini olib tashlash yo‘lidagi chegaralangan qadam shu davrda juda katta yutuq hisoblangan. Faqatgina o‘tgan asrning 50-yillarga kelib tadqiqotchilar erkin savdo hududlarini va bojxona ittifoqlarini tashkil etish shubhasiz dunyo miqyosida erkin savdo paradigmasidan chekinish ekanligiga jamoatchilikning diqqat-e’tiborini qarata boshlashdi.

Integratsiya – integratsion guruh ichida erkin savdoning maksimal rivojini, lekin shu bilan birga ushbu guruh va tashqi olam orasidagi proteksionizmning kuchayishini anglatadi. Shu sababli,

БИБЛИОТЕКА
Бух. ТИП и ЛП
№ 75220

hududiy integratsiyaning ratsionalligi yoki irratsionalligi masalasi, pirovard natijada, ikki o‘zaro qarama-qarshi samaralarning nisbatiga keltiriladi. Agar erkin savdo hududi yoki bojxona ittifoqining yaratilishi natijasida qimmat ichki ishlab chiqarish arzonroq import bilan almashtirilsa, u holda «savdoning shakllanishi» (trade creation) ro‘y beradi. Boshqa tarafdan, agar integratsiya natijasida uchinchi davlatlardan olinadigan arzon import, erkin savdo hududi yoki bojxona ittifoqi bo‘yicha qo‘shni davlatdan olinadigan qimmat import bilan almashtirilsa, u holda «savdodan chetlanish» (trade diversion) ro‘y beradi. Birinchi bor ushbu konsepsiya J.Vinner va M.Biyelar tomonidan 50-yillarda, kuchli «oltilik» davlatlarining bojxona ittifoqini tuzishiga qadar, ilgari surilgan edi.

Bunda, agar:

- tovar va ishlab chiqarish omillari bozorida mukammal raqobat mavjud bo‘lsa;
- barcha resurslar to‘la mashg‘ul bo‘lsa;
- barcha davlatlar biror bir xarajatsiz yangi shart-sharoitlarga avtomatik tarzda moslashsa;
- alohida ajratib olingan davlat ichida omillarning to‘la mobilligi hamda davlatlararo omillar mobilligining absolyut yo‘qligi;
- xarajatlar va narxlarning aniq mosligi kabilar o‘rinli deb qabul qilinsa, u holda N (bojxona ittifoqiga kirishni rejalashtirayotgan mamlakat), davlatlar orasidagi savdoning shakllanishi va savdodan chetlanish orasidagi nisbat, R (N davlatning bojxona ittifoqi bo‘yicha potensial sherigi) va W (dunyoning barcha boshqa davlatlari) quyidagi chizma ko‘rinishida (2-rasm) tasvirlanishi mumkin.

Agar H mamlakat jahonning barcha mamlakatlari bilan erkin savdo rejimiga ega bo‘lsa, talab va taklifning muvozanat nuqtasi shunday R nuqta bo‘ladiki, bunda ushbu tovarning minimal ichki bahosi (OA) ga va ichki iste’molning maksimal hajmi q_S ga erishiladi. Bunda N mamlakat ushbu tovarni o‘zida ishlab chiqarmaydi va bojxona daromadini olmaydi deb faraz qilinadi.

Agarda H mamlakat AD ga teng bo‘lgan nodiskriminatsion t_H

tarif kiritsa, u holda ushbu tovarning H mamlakatdagi samarali taklif chizig‘i BREFQT ko‘rinishni oladi: o‘zining taklif chizig‘i E nuqtagacha, keyin jahon bozorining [S_W (1+t_H)] tarif bilan chegaralangan taklif chizig‘i. Tovarning ichki bahosi bunda OD ga teng, ichki ishlab chiqarish hajmi –Oq_2 , ichki iste’mol hajmi – Oq_3 , import hajmi esa q_2q_3 . H mamlakat import mahsulot uchun q_2 LM=q_3 a ni to‘laydi, o‘z navbatida mamlakat ichidagi iste’molchilar esa q_2 Efq$_3$ (a+b+c). Ular orasidagi farq (LEFM=b+c) davlatning bojxona daromadini tashkil etadi.



2-rasm. Savdoning tashkil etilishi va savdodan chetlanish

Eslatma: 1-rasmdagi koordinatalar o‘qi ma’lum turdagi tovarning narxi va miqdorini anglatadi.

D_H – ushbu tovarga H mamlakatning ehtiyojlik egri chizig‘i;

S_W – ushbu tovarnining jahon bozori yoki W mamlakatlari takliflari egri chizig‘i (taklifning butkul elastikligi va bojxona tariflari yo‘qligi sharti asosida);

S_H – ushbu tovarning H mamlakat tomonidan taklifi egri chizig‘i;

S_{H-P} – H va P lar birgalikdagi (tariflar yo‘qligi sharti asosida) takliflarining egri chizig‘i. Bunda H va P mamlakatlardagi taklif bahosi o‘rta jahon baholaridan yuqori deb faraz qilinadi, aks holda bojxona ittifoqini tuzishdan ma’no bo‘lmay qoladi.

Faraz qilaylik, H va P mamlakatlar bojxona ittifoqini tuzsinlar. Bu holda AD tarif P davlatdan boshqa dunyoning barcha davlatlariga taalluqli bo‘ladi. Unda samarali taklif BRGQT ko‘rinishdagi chiziq bo‘ladi. Bojxona ittifoqi hududidagi narx, H mamlakatdagi ichki ishlab chiqarishning q_1 darajagacha qisqarishi natijasida, OC darajagacha tushadi. Import q_1 q_4 gacha, iste’mol esa Oq_4 gacha ko‘tariladi, Qo‘shimcha importning hammasi P mamlakatdan keladi.

Barcha shu o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy samarani baholash, iste’molchining foydasi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi (bunda ishlab chiqaruvchining qiziqishlari e’tiborga olinmaydi, chunki avvaldan kelishib olgan shartlar bo‘yicha ushbu sohada band bo‘lgan resurslar avtomatik tarzda boshqa sohalarda ishlatila boshlaydi).

Nodiskriminasion tarif shartlarida mavjud bo‘lgan holatga solishtirilganda, iste’molchining yutug‘i CDFG (d+e+c+f) ni tashkil etadi. Yutuqning bir qismi (d) ishlab chiqaruvchilar foydasining kamayishi natijasida, boshqa qismi (c) – bojxona daromadining qaytishi natijasida hosil bo‘ladi. Shu sababli, bojxona ittifoqini sof holda o‘rganish natijasida, faqatgina e va f qismlarnigina hisobga olish darkor.

Ichki ishlab chiqarishning Oq_2 dan Oq_1 gacha kamayishi importning q_1 q_2 kattalikka oshishiga olib keladi. Importning narxi q_1JIq_2 ni, xuddi shu miqdordagi tovarni ichki ishlab chiqarishning narxi esa q_1JEq_2 ni tashkil etadi. Shunday qilib, iste'molchilarning yutug'i ye ga teng bo'ladi. Iste'molning Oq_3 dan Oq_4 gacha o'sishi importning q_3 q_4 kattalikka oshishiga olib keladi. Qo'shimcha importning narxi q_3FHGq_4 ga, import qilingan tovarlar beradigan qoniqtirish kattaligi (shartli miqdoriy ifodasi) esa q_3FGq_4 ga teng bo'ladi. Demak, sof yutuq f ga teng.

Shuni hisobga olish lozimki, erkin savdoda q_2q_3 importning narxi a ga teng bo'lgan bo'lar edi. Bojxona ittifoqi tashkil etilgandan keyin bu raqam a+b gacha oshadi, lekin bunda davlat b ga teng kattalikdagi bojxona daromadini yo'qotadi. Shu bois bojxona ittifoqining samaradorligini yakuniy baholash uchun savdoni tashkil etish (yoki sof yutuq) kattaligini ifodalovchi e+f zonasi bilan, savdodan chetlanish (yoki sof yutqazuv)ni ifodalovchi b zonani solishtirish zarur.

Vinner va Biyelarning konsepsiyasidan yana bir muhim xulosa kelib chiqadi. Agar bojxona ittifoqi tarifning uni man qiluvchi darajaga olib keluvchi kattaligida tashkil qilinayotgan bo'lsa, bojxona ittifoqining o'rnatilishi batamom savdoni tashkil etilishiga olib keladi. Lekin agar N mamlakat bojxona ittifoqiga erkin savdo rejimidan o'tsa, u holda bojxona ittifoqining yaratilishi natijasi batamom savdodan chetlanishga olib keladi.

Savdoni «tashkil etish» va savdodan «chetlanish» tushunchalari xalqaro savdoning «sof» nazariyasi doirasida paydo bo'ldi. Ular butunlay sun'iy shartlar va farazlar asosida qurilgan. Bunda Yevropa Ittifoqi oddiygina bojxona ittifoqi doirasidan anchagina kengroq ekanligi hisobga olinayotgani yo'q. Shu sababli, Yevropa integratsiyasining samarasi batamom savdoni tashkil etish – savdodan chetlanish samarasi bilangina aniqlanib qolmaydi.

1965-yilda A.Kuper va B.F.Massellar asosli ravishda ta'kidlashgan ediki, H mamlakat bojxona ittifoqini tashkil etishdan avval bo'lajak sherigini qo'shgan holda barcha mamlakatlar uchun

bojxona tarifini kamaytirishi mumkin. U holda bojxona ittifoqi OS narxda tashkil etiladi. Bu esa shuni anglatadiki, savdoni tashkil etish natijasida e+f foyda olinadi, savdodan chetlanish bo‘yicha yo‘qotishlar esa bo‘lmaydi, chunki samarali talab yangi chizig‘i BJGU bo‘ladi. Bundan esa H mamlakatga uchinchi mamlakatlardan tovarlar avvalgidek a narx bo‘yicha kelaveradi. Shu bilan birga savdoning tashkil etilishi munosabati bilan kelib chiqadigan barcha qo‘shimcha import arzonroq bo‘ladi.

X.J.Jonsonning iqtisodiy integratsiyaga bag‘ishlangan ishida yaqqol keynscha motivlar ko‘zga tashlandi. Xususan, xususiy va jamoat sarf-xarajatlarini ajratish ko‘rindi. Jonson hukumatlarning tariflardan asosan iqtisodiyotdan tashqari maqsadlar, birinchi navbatda, jamiyat ehtiyojlarini qondirish, milliy sanoat va daromad-ni himoya qilish kabi maqsadlarga erishish uchun foydalanishlarini isbotlashga urinib ko‘rdi. Shunday mulohazalarga asoslangan proteksionizm siyosati o‘zining iqtisodiy ma’nosiga ega. Uning limiti milliy sanoat mahsulotining jamiyat tomonidan iste’mol qilinishing maksimal foydaliligi bilan ishlab chiqarishni xalqaro raqobatdan himoya qilish natijasida yuzaga keladigan maksimal ortiqcha xususiy sarf-xarajatlar orasidagi muvozanat nuqtasi bo‘ladi. Bu sarf-xarajatlar ikki qismdan (ishlab chiqarishning chegaraviy sarf-xarajatlari hamda xususiy iste’molning chegaraviy sarf-xarajatlari) iborat bo‘ladi. Birinchi element ishlab chiqarishning ichki sarf-xarajatlari jahonnikidan qanchalik ko‘p bo‘lishi bilan aniqlanadi. Ikkinchisi esa bojxona tariflarining o‘rnatilishi va ichki bozorda narxlarning ko‘tarilishi natijasida iste’mol talabining kamayishiga teng. Ikkinchi elementning dinamikasi tarif kattaligi hamda talab va taklifning elastikligiga bog‘liq bo‘lib, muvozanat nuqtasi sanoat ishlab chiqarishining jamiyat tomonidan afzal deb topilishining miqdoriy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

Agar bu sxema faqatgina H mamlakatga emas, balki uning bojxona ittifoqi bo‘yicha sherigiga ham qo‘llansa, u holda ikkala mamlakat ham nafaqat savdoni tashkil etishdan, balki savdodan chetlanishdan ham yutishi kelib chiqadi. Bundan tashqari, savdodan

chetlanish H mamlakat uchun maqsadga muvofiqroq, chunki bunda ichki sanoat ishlab chiqarishini qisqartirish talab etilmaydi. Savdoni tashkil etish ham savdodan chetlanish ham ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish hisobiga ijobiy samara berishi mumkin.

Yevropa integratsiyasining jahon iqtisodiyotida mustaqil voqelik sifatida iqtisodiy asoslarini anglash borasidagi birinchi qadamlar 50-yillarning boshlarida golland iqtisodchisi Yan Tinbergen tomonidan amalga oshirildi. U birinchi bo‘lib «salbiy» va «ijobiy» integratsiya orasidagi farqni ko‘rsatib berdi. Salbiy integratsiya, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining chegaralararo harakatlari yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Iqtisodiy nazariyaning an’anaviy qonunlariga ko‘ra, bu avtomatik tarzda raqobatni kuchayishiga, narxlarni tushishi hamda tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining sifati oshishiga va natijada iqtisodiyotning samarali o‘sishiga olib keladi. Ijobiy integratsiya bu – tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari harakatigini yanada oshiruvchi qonunlar qabul qilinishi va shuningdek, institutlarning tashkil etilishidir.

Iqtisodiy integratsiya nazariyasining rivojlanishi yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lib, B.Balassaning ishlari hisoblanadi. U integratsiyaning dinamik samaralarini va ularning integratsiyalashuvchi mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlariga ta’sirini tizimlashtirishga harakat qildi. Shu kabi dinamik samaralar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqarish ko‘lamlarini kengaytirish hisobiga hosil bo‘ladigan samara. Bunday samara, asosan bozorni kengaytirish uchun firmalar va sohalarga integratsion jarayonlar boshlangunga qadar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish imkonini berganda yuzaga keladi;
- firma va sohalar faoliyatiga nisbatan tashqi bo‘lgan samara. Bunday samara butun iqtisoddagi umumiy va xususiy sarf-xarajatlarni kamytirish evaziga yuzaga kelishi mumkin;
- polyarizasiya (qutblanish) samarasi. Bu samaraning mohiyati qatnashuvchi mamlakatlarning boshqa birida savdoni tashkil etishi

yoki ishlab chiqarish omillarining boshqa yoqqa yo‘naltirishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy faoliyatning kumulyativ qisqarishidan iborat;

- real investitsiyalar va hajmlarni joylashtirishga ta’sir;
- umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta’sir.

Ali M.El-Agraaning mulohazalari ham shu yo‘nalishdadir. Uning qarashlar konsepsiyasiga ko‘ra, erkin savdo va bojxona ittifoqi hududlarining afzalliklari qatoriga quyidagilarn kiradi:

- nisbiy afzallik nazariyasiga mos ravishda ixtisoslashishning kengayishi natijasida ishlab chiqarish samarodorligining o‘sishi;
- bozor ko‘lamining kengayishi natijasida hosil bo‘ladigan ishlab chiqarish samarasidan yaxshiroq foydalanish natijasida ishlab chiqarish hajmining o‘sishi;
- savdo-iqtisodiy shart-sharoitlarini yaxshilashga imkoniyat beruvchi, xalqaro maydondagi muzokaralar pozitsiyasining mustahkamlanishi;
- kuchliroq raqobat natijasida ishlab chiqarish samaradorligi sohasidagi zarur bolgan o‘zgarishlar;
- ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida paydo bo‘ladigan va ishlab chiqarish omillarida ham, miqdorda ham, sifat jihatidan ham aks etuvchi o‘zgarishlar va boshqalar.

Iqisodiy integratsiyaning yanada yuqori shakllari quyidagilar natijasida qo‘shimcha ijobiy samara beradi:

- chegaralararo savdoga halaqit qiluvchi to‘siqlarni bartaraf etish natijasida ishlab chiqarish omillari mobilligining o‘sishi;
- pul-kredit va soliq siyosatining muvofiqlashtirilishi;
- to‘la bandlikka o‘tish, tezkor iqtisodiy o‘sish va integratsiyalashuvchi mamlakatlarning umumiy maqsadlarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni adolatli taqsimlash.

Xullas, B.Balassaning ulkan ilmiy hissasi uning iqtisodiy integratsiya bosqichlarining ixcham konsepsiyasini yaratganiligida bo‘ldi, ular quyidagilar:

Birinchi bosqich – erkin savdo hududini yaratish. Bunda qatnashuvchi davlatlar bir-birlari bilan savdoda kvotalar va import

tariflarini bekor qiladi, uchinchi davlatlar bilan savdoda milliy import tariflari va kvotalarni saqlab qoladi. Bu bosqichda hech qanday ijobiy integratsiya yo‘q, qatnashuvchi davlatlar to‘laligicha GATT qoidalari doirasida qoladi.

Ikkinchi bosqich – bojxona ittifoqi. Bu doirada qatnashuvchi davlatlar nafaqat o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etadi, balki uchinchi bir davlat bilan savdoda tarif va kvotalarni tenglashtirishni kelishib oladi. Ular bu bosqichda ham GATT qoidalari doirasida faoliyat ko‘rsatib, ijobiy integratsiya choralarini qo‘llamaydilar.

Uchinchi bosqich – umumiy bozor bosqichi bo‘lib, bunda bojxona ittifoqi qatnashuvchi davlatlar orasida ishlab chiqarish omillarining harakati yo‘lidagi to‘siqlar yo‘qotiladi. Lekin, ularning o‘zaro munosabatlarida hali ijobiy integratsiya ko‘zga tashlanmaydi.

To‘rtinchi bosqich – iqtisodiy ittifoq bosqichi bo‘lib, bunda qatnashuvchi davlatlar umumiy bozorni tashkil qilib, cheklangan maqsadli iqtisodiy siyosatlarini uyg‘unlashtirishga o‘tishadi. Ya’ni, qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy siyosatlarining turli tumanligidan kelib chiqadigan iqtisodiy diskriminatsiyani yo‘qotiladi. Natijada, ijobiy integratsiya ko‘zga tashlanadi.

Beshinchi bosqich – bu to‘la iqtisodiy integratsiya bosqichi bo‘lib, bunda pul-kredit, soliq, ijtimoiy va inqirozga qarshi siyosat, qatnashuvchi-davlatlar uchun qarorlarining majburiy bo‘ladigan millatlararo hokimiyatning yaratilishini va boshqalar nazarda tutiladi.

Shunday qilib B. Balassaning konsepsiyasi iqtisodiy integratsiyaning ilgarilanma harakati mantig‘ini to‘g‘ri ochib beradi, lekin real taraqqiyot shuni ko‘rsatmoqdaki, bu konsepsiya ma’lum bir sxematik kamchilikka ham ega. Aslida iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati anchagina murakkabdir. B.Balassa tomonidan kashf etilgan ushbu bosqichlar o‘zaro kesishib, o‘n-yillar davom etadigan muhim bir oraliq bosqichlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu konsepsiyaning easosiy kamchiligi ijobiy integratsiyaning ko‘lamlari va rolini yetarlicha baholanmaganligidir, vaholanki

aynan ijobiy integratsiya G‘arbiy Yevropadagi integratsiya shakllanishining o‘ziga xosligini aniqlab berdi.

1.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o‘rni

Xo‘jalik hayotida integratsiyalashuv jarayonlari kundan – kunga chuqurlashib bormoqda. Integratsiyalashuv jarayonlari jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo sohasidan tortib ilmiy – axborot, tovar ayiraboshlashgacha bo‘lgan turli ko‘rinishlarini bir-biriga qo‘shilib borishini nazarda tutadi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiya o‘z mazmuni va mohiyati bilan, birinchidan, jahon mamlakatlarida ro‘y berayotgan chuqur xo‘jalik va ijtimoiy-siyosiy, madaniy birlashuv sohasidagi jarayonlarni borishini, ikkinchidan, mustahkam iqtisodiy o‘zaro aloqadorlikni, uchinchidan, milliy xo‘jaliklardagi mehnat taqsimotini, to‘rtinchidan, ishlab chiqarishda turli daraja va shaklda ro‘y berayotgan o‘zaro iqtisodiy hamkorliklarni aks ettiradi. Integratsion jarayonlar asosan bir-biriga yaqin bo‘lgan hududlarda joylashgan davlatlarning o‘zaro iqtisodiy shartnomalarida, xorijiy mamlakatlarda o‘z bo‘limlarini tashkil etishda, xo‘jalik subyektlari (firmalar, korxonalar) o‘rtasidagi kapitalning o‘zaro aloqadorligida namoyon bo‘ladi.

Integratsion jarayonlar mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy birlashuvi va milliy davlatlar siyosiy shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Subyektlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlarning borishi va rivojlanishi asosan davlatlararo ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlarning erkin harakati va xizmatlar sohasida, kapital harakati va ishchi kuchi migratsiyasida, davlatlararo iqtisodiy kelishuvlarda, ilmiy-texnik, texnologik va axborot, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda, shuningdek, mudofaa siyosatida hamda xo‘jalik hayotining ko‘plab boshqa sohalarida namoyon bo‘ladi.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar natijasida butun bir valyuta birligiga (dollar, evro, rubl, so‘m va h.k.lar), moliyaviy byudjetga, davlatlararo yoki millatlararo boshqaruv tizimiga asoslangan mintaqaviy tashkilotlar tashkil topadi (YeI, NAFTA, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari kabi). Bunday tashkilotlar jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega. (2-jadval)

Jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy ko‘rinishlaridan biri, xalqaro savdo sohasida erkin iqtisodiy hududlarining tashkil topishi bo‘lsa, iqtisodiy integratsiyaning murakkab ko‘rinishlaridan biri tashqi savdo tariflari kelishuvi sohasida muhim rol o‘ynayotgan bojxona ittifoqining vujudga kelishidir.

Jahon bozorlarida hukmronlik qilishda dunyo mamlakatlari o‘rtasida kuchli qarama-qarshiliklar yuz bermoqda. Jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida turli xalqaro savdo uyushmalari, birlashmalar, tashkilotlar tashkil topib, ular o‘zaro savdo munosabatini kengaytirib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida savdo-iqtisodiy tashkilotlarning tashkil topishini dastlabki ko‘rinishini mintaqaviy va hududiy erkin savdo hududlarni tashkil etilishida ko‘rish mumkin. Jahon bankining ma’lumotiga qaraganda jahon savdosi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning 42-43 %i erkin savdo hududlari orqali amalga oshirilar ekan.

2-jadval

Jahon xo‘jaligining iqtisodiy ko‘rsatkichlarida yetakchi integratsion birlashmalarning ulushi (%)

Ko‘rsatkichlar	NAFTA	YeI	OTIH (APEC)	MDH
Aholi	5	7	34	5
YaIM (PPP)	26	27	29	3
Davlat xarajatlari	21	40	21	1.5
Eksport	17	43	25	2

Energiya iste'moli	30	18	17	12
Investitsiyalar	19	19	36	3

Manba: World trade Report the WTO 2005 P.19

Jahon iqtisodiyoti va XIM tizimidagi erkin savdo hududlaridan eng muhimi va mashhuri Yevropa erkin savdo uyushmasi (EFTA), Yevropa Ittifoqi (YeI), Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC) va boshqalardir. Dunyo mamlakatlari bo'yicha 9 ta yirik xalqaro savdo uyushmalari va tashkilotlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

• Yevropa Ittifoqi (YeI) . A'zolari – Germaniya, Fransiya, Italiya, Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya, Chexiya Respublikasi, Polsha, Vengriya, Sloveniya, Ruminiya, Slovakiya, Bolgariya, Estoniya, Latviya, Litva, Malta, Kipr davlatlari.

• Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA). A'zolari – AQSh, Kanada, Meksika davlatlari.

• Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EFTA). A'zolari – Islandiya, Norvegiya, Shveystariya, Lixtenshteyn kabi davlatlar.

• Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik (APEC) tashkiloti. A'zolari – Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tayland, Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya, Indoneziya, Filippin, Tayvan, Gongkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, AQSh, Meksika, Chili, Rossiya, Vyetnam, Peru kabi davlatlar.

• Janubiy Afrika mamlakatlari rivojlanish uyushmasi (SADK). A'zolari – Angola, Botsvana, Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiya, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve kabi davlatlar kiradi.

• G‘arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (YuEMOA) uyushmasi. A’zolari – Kot-d-Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali kabi davlatlar.

• Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assostiyasi (SAARK). A’zolari – Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Maldiv, Butan, Nepal kabi davlatlar.

• And pakti. A’zolari – Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya kabi davlatlar.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida bunday mintaqaviy savdo uyushmalarning (tashkilotlarning) tashkil topish jarayoni obyektiv siyosiy, iqtisodiy, tarixiy xarakterga ega bo‘lib, bir tomondan bunday mintaqaviy tashkilotlar xalqaro savdoni jonlantirsa, ikkinchi tomondan xalqaro savdo faoliyatini olib borish uchun barcha shart-sharoitni yaratib beradi, uchinchi tomondan esa a’zo davlatlar uchun jahon bozorlarida yuz berayotgan ziddiyatlarni hisobga olib, real qarorlarni ishlab chiqib, ushbu qarorlar asosida to‘g‘ri yo‘lni tanlab olish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqadorlikni ta’minlashda bir qator qulayliklarni vujudga keltirib, ular birinchidan, xo‘jalik subyektlarini (tovar ishlab chiqaruvchilarni) ko‘plab resurslar bilan (inson resurslari, texnik-texnologik va axborot vositalari) ta’minlaydi, ikkinchidan, jahon bozorlariga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi, uchinchidan, integratsiya jarayonlarida qatnashuvchi barcha davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirib, raqobatdan himoya qiladi, to‘rtinchidan, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining borishi iqtisodiy rivojlanishdan orqada qolayotgan mintaqalarni, hududlarni rivojlanishiga, xalqaro mehnat bozoridagi

holat yaxshilanishiga, iqtisodiy kam ta'minlangan aholining ijtimoiy ta'minoti yaxshilanishiga imkon tug'diradi.

Mavjud integratsion bloklar turli ko'rsatkichlarga ega bo'lsalar-da, ular jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Bu integratsion bloklarda kechayotgan jarayonlar, ular erishayotgan natijalar jahon iqtisodiyoti va XIM tizimiga o'zinig bevosita ta'sirini o'tkazadi. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida integratsion bloklarni ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash mumkin.

3-jadval

Mintaqaviy bloklar ko'rsatkichlari 2004-yil					
Mintaqaviy blok	**Maydon** ($км^2$)	**Aholi**	**YIM (PPP)** ($AQSh) YalM (mln.)	**YalM (PPP)** ($AQSh) aholi jon boshiga **YIM**	**A'zo mamlakatlar**
YeESA (EFTA)	529,600	12,233,467	471,547	*38,546*	4
YeI (EU)	4,325,675	496,198,605	12.025,415	24,235	*25*
YevrOsiyoIH (EurAsEC)	20,789,100	208,067,618	1,689,137	8,118	6
SAARC	5,136,740	*1,467,255,669*	4.074.031	2,777	8
FKAMHK(GCC)	2,285,844	35,869,438	536,223	14,949	6
NAFTA	*21,588,638*	430,495,039	*12,889,900*	29,942	*3*

ASEAN	4,400.000	553,900,000	2.172,000	4,044	10
PARTA	528.151	*7,810,905*	*23,074*	2,954	14+2
CARICOM	462,344	14,565,083	64,219	4,409	14+1
MDH (CIS)	17.339.153	370,158,470	2.868.430	7,749	10
CACM	*422,614*	37,816,598	159,536	4,219	5
Agadir	1.703.910	126,066,286	513,674	4,075	4
BAC (EAC)	1.763.777	97,865,428	104,239	*1,065*	*3*
COMESA	3.779.427	118.950.321	141.962	1,193	5
ECOWAS	5,112.903	251,646,263	342,519	1,361	15
ЦАВЭС (CEMAC)	3.020.142	34.970.529	85.136	2,435	6
SACU	2,693.418	51,055,878	541,433	10,605	5

Manba: World Economic Outlook Database (IMF).

1.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jahon markazlari – G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi

Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda 20 dan ortiq xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalar (uyushmalar) mavjud. Jahon xo‘jaligining YaIMsi va investitsiyalarning asosiy qismi, tovar aylanmaning 2/3 qismi ana shu birlashmalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda yirik integratsion uyushmalarning jahon savdosidagi ishtiroki ham tobora kengayib bormoqda. (4-jadval)

Jahon iqtisodiyotida uchta asosiy integratsion markazlarni (G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi) alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

4-jadval.

Yirik integratsion uyushmalarning jahon savdosidagi ishtiroki (mlrd. AQSh doll.)

	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007
YeI – 27											
Eksport	-	-	2357	2453	2469	2638	3149	3762	4066	4591	5320
Import	-	-	2419	2580	2549	2672	3214	3855	4222	4830	5574
NAFTA											
Eksport	1014	1014	1071	1225	1148	1106	1163	1324	1479	1675	1853
Import	1208	1271	1421	1679	1570	1591	1715	1996	2269	2524	2684
ASEAN											
Eksport	726	759	847	1014	950	982	1083	1291	1487	1669	1779
Import	382	287	310	381	347	365	410	511	603	688	774
MERKOSUR											
Eksport	83	81	74	85	88	89	106	136	164	190	224
Import	101	99	83	90	84	62	69	95	114	141	184

Manba: www.wto.org ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan, 2008-y.

Jahon iqtisodiyotida 50-yillardan so‘ng G‘arbiy Yevropada ikkita yirik integratsion guruhni – Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YIH) va Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasini (YESA) vujudga kelishi natijasida integratsion jarayonlar ushbu mintaqada katta tezlikda rivojlanib bordi.

90-yillarning o‘rtalariga kelib YeIH (1993-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi (YeI) deb atala boshlandi) davlatlari tashkiloti deyarli YeESAni tugashiga sabab bo‘ldi (YeESA o‘z tarkibida Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shvetsariya davlatlarini saqlab qoldi xolos). Jahon iqtisodiyotida YeESA o‘zining faoliyatida bojxona ittifoqini (BI) yaratishdan nariga o‘tmadi, uning tuzilmasi millatlararo yirik zamonaviy tashkilotlar va uyushmalar bilan mustahkamlanmadi.

YeI 1990-yilda va YeESAga a’zo davlatlar Yevropa iqtisodiy makonini yaratish to‘g‘risida kelishib olishdi. Ushbu makon doirasida EESA a’zolarining ishlab chiqaruvchilari YeI a’zolari kompaniyalari bilan bir qatorda *preferensial* (imtiyoz, rag‘batlantirish) bojxona rejimidan foydalanishdi.

Tarixan integratsion jarayonlar G‘arbiy Yevropada integratsiyaning o‘ziga xos modellari «laboratoriyasi» sifatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bunda Yevropa Ittifoqi (YeI) o‘zining yetuk shakllarini oldi. Yevropa Ittifoqida shakllanayotgan mintaqaviy xo‘jalik kompleksi jahon xo‘jaligida integratsiya nazariyalarini amalga oshirishning klassik misoli hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi – AQSH va Yaponiya bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti global tizimining markazlaridan birini tashkil etuvchi, noyob yetakchi integratsion birlashmadir. YEI 27 mamlakati aholisi 496 mln. kishidan ortiq, YeI a’zosi bo‘lgan 15 ta G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) YaIM dagi ulushi 38%dan yuqori, ularning jahon savdosidagi ulushi taxhminan 40% ni (60% dan yuqorisi mintaqa ichidagi tovar aylanishiga to‘g‘ri keladi) tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqi umumiy iqtisodiy siyosatining turli jihatlari tovar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi milliy bozorlarning o‘zaro qo‘shilib, birlashib ketishi jarayonlarining rivojlanishi uchun qulay muhitni yaratishga qaratilgan.

Integrasion birlikni tashkil qilgan davlatlar o‘z mustaqilligi va suverenitetini saqlaydilar. Shu bilan birga o‘zlarining ba’zi suveren va alohida huquqlarini Hamjamiyat tomonidan olib

borishga topshiradilar va natijada «Yagona Yevropa» yuzaga keladi. Mamlakatlarning o‘zaro aloqadorligining va markazga intilish tendensiyalarining kuchayishi natijasida integratsion jarayonlarga yangi ishtirokchilarni tortish ro‘y beradi. 1973- 2008 -yillar davomida Yevropa Ittifoqining o‘z tarkibini 6 marta kengaytirganligi bunga yaqqol dalil bo‘ladi.

2004-yil 1 mayda YeI tarkibiga Yevropaning 10 ta davlati, 2007-yil 1 yanvarda esa yana 2 ta davlat qo‘shildi. 2004-yilning mayiga qadar YeI davlatlari aholisi 453 mln. kishidan ortiq bo‘lib, Yevropaning 25 mamlakatini o‘z tarkibiga birlashtirgan edi. (5-7 jadvallar).

G‘arbiy Yevropada yagona xo‘jalik makonining vujudga kelishi juda tez sur’atlarda amalga oshmoqda. Dastlab G‘arbiy Yevropaning 6 mamlakati o‘rtasida huquqiy – shartnomaviy asosda kelishib olingan munosabatlar, 2008-yilga kelib, yagona ichki bozorga, turli sohalardagi yagona yoki muvofiqlashtirilgan siyosatga, boshqaruvning milliy organlardan ustun organlariga ega 27 mamlakatdan iborat qudratli integratsion birlashmaga aylandi. Integratsiya iqtisodiy o‘sishni kuchli rag‘batlantiruvchi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiriuvchi kuchga aylandi hamda YEIga a’zo mamlakatlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini kuchaytirishga imkon yaratdi.

5-jadval

Yevropa Ittifoqining kengayishi

Ta’sischi mamlakatlar (1957-y.25mart)	Birinchi kengayish (1973-y. 1yanvar)	Ikkinchi kengayish (1981 y. 1yanvar)	Uchinchi Kengayish (1986 y. 1yanvar)	To‘rtinchi kengayish (1995 y. 1yanvar)	Beshinchi kengayish (2004 y. 1 may)	Oltichi kengayish (2007 y. 1yanvar)
Belgiya	Buyuk Britaniya	Gret-siya	Ispaniya	Avstriya	Vengriya	Bolga-riya

Fransiya	Daniya		Portu-galiya	Finlyan-diya	Kipr	Rumi-niya
Germaniya	Irlandiya			Shvesiya	Malta	
Italiya					Latviya	
Lyuksem-burg					Litva	
Nider-landiya					Polsha	
					Slovakiya	
					Sloveniya	
					Chexiya	
					Estoniya	

Manba: Mualliflar tomonidan tuzilgan.

6-jadval

YeI kengayishining ko‘rsatkichlari

	1958-y.	1973-y.	1981-y.	1986-y.	1995-y.	2004-y.
Maydon (ming. kv. km)	1,167	1,524	1,658	2,252	3,234	5,411
Aholi (mln. kishi)	185	273	287	338	370	453
A`zo mamlakatlar soni	6	9	10	12	15	25
Rasmiy tillar soni	4	6	7	9	11	20
YeIK komissarlari soni	9	13	14	17	20	30

Manba: Manba:www.wto.org ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

7-jadval

Yevropa Ittifoqiga nomzod mamlakatlar: ma'lumotlar va ko'rsatkichlar

	Mam-lakat	YEIga nomzodlik	Aholisi	Pul birligi	YAIM (PPP)	Kishi boshiga
1	Xor-vatiya	2004y. rasmiy nomzod	4.493312	Kuna (HRK)	2006: $6821mlrd.	$17000
2	Make-doniya	2005 y. rasmiy nomzod	2,038514	Make-doniya dinori (MKD)	2006: $16,94mlrd	$7645
3	Tur-kiya	2005y. a'zolik haqida rasmiy muzokaralar boshlangan	71158647	Turk lirasi	2007: $708.053 mlrd	$9628

Manba:www.wto.org ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi yirik xalqaro iqtisodiy integratsion markaz Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Ushbu hududda 1994-yilning 1 yanvarida Shimoliy Amerika erkin savdo hududi to'grisidagi kelishuv (NAFTA-North American Free Trade Agreement) kuchga kirdi. Ushbu mintaqaviy kelishuv o'z tarkibiga AQSh, Kanada va Meksika davlatlarini birlashtirgan.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, uch davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar Shimoliy Amerika xo'jalik kompleksining rivojlanishida muhim omil bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarning faollashuviga yo'naltirilgan birinchi harakat «Ebbot rejasi» (1941y.) bo'ldi. Uning asosiy maqsadi AQSh investitsiyalarini Kanadaning yetakchi tarmoqlariga rag'batlantirish edi. Keyinchalik 1959-yilda AQSh

va Kanada amerika standartlarini Kanada harbiy ishlab chiqarishiga joriy etishga imkon yaratgach, birgalikda harbiy ishlab chiqarish to‘g‘risida shartnoma tuzdilar.

AQSh va Kanada munosabatlari keyingi bosqichning rivojlanishida 1965-yilda tuzilgan avtomobilsozlik mahsulotlari savdosini erkinlashtirish to‘g‘risidagi bitim muhim o‘rin egalladi. Bu bitim avtomobil ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa ko‘pgina tarmoqlarning integratsiyalashuvini rag‘batlantirdi.

AQShning Kanada va Meksika bilan savdo-siyosiy birlashuvini tashkil qilish yo‘nalishi Vashington tomonidan XX asrning 70-yillaridan boshlab faol olib borildi. 1979-yilda Amerika Kongressi «Savdo kelishuvlari to‘g‘risida»gi Qonunida «Shimoliy Amerikada erkin savdo hududini yaratish istiqbollarini» o‘rganib chiqish to‘g‘risida AQSh prezidentiga ko‘rsatma qabul qildi.

1988-yilning sentabr oyida uch yillik muzokaralardan so‘ng Amerika–Kanada o‘rtasida erkin savdo hududi to‘g‘risida (SUS-FTA) shartnoma imzolandi. Bunga ko‘ra o‘n yil davomida AQSh va Kanada o‘rtasida erkin savdo hududi shakllanishi lozim edi.

XX asrning 80-yillari oxirida jahondagi siyosiy va iqtisodiy ahvolning o‘zgarishi, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqalarida integratsion jarayonlarning faollashuvi, Yaponiya bilan raqobatning kuchayishi, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy islohotlar AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik, Shimoliy Amerikada erkin savdo hududini yaratish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

NAFTA davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, savdo-iqtisodiy munosabatlarda ro‘y berib turgan kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning YeIga nisbatan o‘ziga xos rivojlanish xususiyati integratsion jarayonlarning simmetrik emasligidir. Kanada va Meksika davlatlari integratsiyalashuv jarayonida AQShga o‘zaro iqtisodiy bog‘liqdir.

8-jadval

NAFTAga a'zo mamlakatlarning asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, 1992-y. (bitim tuzish vaqtida)

–	Aholi (mln. kishi.)	YaIM, mlrd doll.	Aholi jon boshiga YaIM doll.	Eksport, mlrd. doll.	Import, mlrd. doll.
Kanada	27,4	493,6	20710	150,5	153,7
Meksika	89,5	329,0	3470	42,8	52,7
AQSh	255,0	5920,2	23240	640,5	670,1

Manba: Klein L ft, Salvatore D. Welfare effects of NAFTA G'G' Journal of policy modeling. New-York, 1995. Vol. 17. №2.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida uchinchi integratsion markaz Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (OTM) dir. Ushbu markaz boshqa iqtisodiy integratsion markazlarga nisbatan hududi, aholisi va resurslarining miqdori bo'yicha ancha ustundir. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi Tinch okeanining turli tomonlarida – Janub, G'arb, va Sharqda joylashgan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z ichiga oladi. OTMning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati uning salohiyati bilan aniqlanadi. 2004-yil ma'lumotlariga ko'ra OTM mamlakatlari hissasiga jahon YIM ning 60% (26 trln.AQSh doll.), aholisining 40% (2,5 mlrd. kishi), va jahon savdosining taxminan 50% to'g'ri keladi. Iqtisodiy integratsiyaning bu markazi 1990-yillarda integratsion tendensiyalarning yuqori sur'atlari bilan boshqalardan farqlandi. Integratsiyalashuvga turtki bo'lgan asosiy integratsion omillar quyidagilar: iqtisodiy rivojlanishning dinamik sur'atlari, mintaqaning jahonda iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi markaziga aylanganligi (1990-yillarda OTM mamlakatlariga jahondagi

iqtisodiy o‘sishning 70% to‘g‘ri kelgan edi), iqtisodiy bog‘liqlik va o‘zaro to‘ldiruvchanlikning kuchayishi (tovar aylanishi va investitsiyalarning 70%dan ko‘prog‘i o‘zaro aloqalarga to‘g‘ri keladi), Yevropa Ittifoqi ta’sirining o‘sishiga qarshi turishga harakat.

Biroq, integratsiyalashuv yo‘lida Osiyo–Tinch okeani mintaqasida juda ko‘p to‘siqlar (iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik va mada niy farqlar, siyosiy da’volar, hududiy to‘qnashuvlar va boshqalar) mavjud.

Bu mintaqa davlatlari o‘rtasida iqtisodiy o‘sishning eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega davlatlar – Yaponiya AQSh, yangi industrial mamlakatlar (Janubiy Koreya, Gonkong, Singapur, Tayvan), Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assosiasiyasi a’zolari hamda Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishiga ularning samarali siyosati, birgalikdagi harakatlari sabab bo‘ldi. Bu mamlakatlarning o‘xshashlik taraflari quyidagilardan iborat:

- eksportga yo‘naltirilgan siyosat;
- yuqori jamg‘arish normasi;
- xususiy sektorning faol roli, xususiylashtirish siyosatining o‘tkazilishi;
- qishloq xo‘jaligi sohasidagi taraqqiyot va b.

OTM mamlakatlarida integratsion yaqinlashuv TMKlarning jadal kapital qo‘yilmalari hisobiga amalga oshirildi. Yapon TMKlari Sharqiy Osiyoning deyarli hamma bozorlarida yetakchi o‘rinni egallaydilar.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi integratsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, mintaqa mamlakatlarining rivojlanish darajasi, tabiiy resurslarining ko‘p yoki kamligi, madaniy, tarixiy va diniy xususiyatlar jihatidan farqlarning kattaligi tufayli ularning Yevropa Ittifoqi ruhida iqtisodiy integratsiyalashuvi mumkin emasligidir. Mintaqa ichida hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy ichki omil shu turli-tumanlikdan samarali

foydalanish zaruriyati bilan bog‘liq. Bunda mintaqaning transport, aloqa tizimlarining yuqori darajada rivojlanganligi qo‘l keladi. Shu bilan birga mintaqa ichida o‘zaro almashinuv o‘sib borayotgani sababli ikki tomonlama aloqadan ko‘p tomonlama aloqalarga o‘tish ham integratsiyalashuvda muhim omil bo‘lmoqda.

Mintaqada integratsion jarayonlarni rivojlantirishning tashqi omili Yevropa va Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarining kuchayishi hisoblanadi.

Mintaqa ichida o‘zaro munosabatlar, «Kichik Osiyo tizimi» doirasidagi aloqalarning kuchayishi savdo-sotiq, bevosita investitsiyalar, firmalar o‘rtasidagi sheriklik, davlatlararo hamkorlik sohalarida olib borilmoqda.

Mintaqa ichida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikning tashkiliy asoslari XX asrning 60-yillarida nodavlat tashkilotlar: Savdo va rivojlanish bo‘yicha Tinch okeani konferensiyasi, Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha Tinch okeani Kengashi kabilarning tashkil etilishi bilan yaratildi.

OTMda 44 ta submintaqaviy tashkilotlar faoliyat yuritadi (shu jumladan 30ga yaqini Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumi a’zo davlatlarining alohida mamlakatlari o‘rtasida). Osiyo-Tinch okeani mintaqasida bir necha yirik subhududiy iqtisodiy guruhlar – Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumi (APEC), Janubiy Xitoy forumi, Avstraliya va Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Tinch okeani orollari forumi va boshqalar mavjud.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Osiyo –Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi forumi muhim ahamiyatga ega. Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik forumi 1989-yilda tashkil topgan, ushbu tashkilot iqtisodiyoti turli darajada rivojlangan va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida turli mavqelarga ega bo‘lgan 21 davlatni (Avstraliya, Kanada, Meksika, Chili, Papua Yangi Gvineya, Peru, Rossiya, Koreya Respublikasi, AQSh, Yaponiya, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Filippin, Tailand, Bruney, Yangi Zelandiya, Xitoy, Gonkong, Tayvan, Vyetnam) o‘z tarkibiga birlashtirgan. Ushbu davlatlar hissasiga jahon

YIMning 56%, jahon savdosining 49% va dunyo aholisining 40-41% to‘g‘ri keladi. 1994-yil Bogor sammitida hamkorlik forumiga a’zo bo‘lgan davlatlar Osiyo hududida tovar, hizmatlar savdosi va investitsiyalar harakatini rivojlantirish va savdo sohasidagi samaradorlikni yanada ko‘tarish maqsadida 15–20 yilga (2005–2010-yillarga qadar rivojlangan mamlakatlar, 2020-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlar) mo‘ljallangan savdo chegaralarini va chegara bojlarini bekor qilish haqida qaror qabul qilishgan. 1995-yilda bu tashkilotning Osaka shahrida ma’qullagan harakat Dasturi 2010–2020-yillargacha savdo va investitsiyalashni Jahon savdo tashkiloti (JST) standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo‘naltirilgan.

Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlari jahonning ko‘plab mamlakatlarida moliyaviy faoliyatni rivojlantirish, vositachilik, axborotlashtirish va shuningdek, transport xizmatlarini kengaytirish ishlariga hissa qo‘shib kelmoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik forumi hozirgi kunda nafaqat Osiyo mintaqasida, balki jahon mamlakatlari ichida ham yetakchilik roliga da’vogarlik qilib turibdi.

Hozirgi kunda ushbu tashkilot rivojlanish yo‘lining eng yuqori cho‘qqisida turibdi. Garchi ushbu tashkilotda muvofiqlashtiruvchi hujjatlar mavjud bo‘lsada, unga a’zo mamlakatlar bojxona tariflari, transport va boshqa sohalardagi muammolarni hal etish uchun ko‘p tadbiriy ishlarni amalga oshirishlari lozim.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida eng nufuzli birlashmalardan biri Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) bo‘lib, u 1967-yil Bangkokda «ASEAN deklaratsiyasini» imzolash bilan tuzilgan. Dastlab uning tarkibiga Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin kirgan. Keyinchalik Bruney (1984 7 yanvar), Vyetnam (1995-yil 28 iyul), Laos va Myanma (1997-yil 23 iyul), Kambodja (1999-yil 30 aprel) a’zo bo‘ldi. ASEAN ga a’zo mamlakatlar aholisi taxminan 500 mln. kishi, umumiy maydoni 4,5 mln.km.kv., ularning umumiy YIM taxminan 737 mlrd. AQSH doll.

1997-yilda preferensial hudud tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Birlamchi preferensiayalar 20 ta, keyinroq 71 ta tovarlar va 80-yillar oxiriga kelib, 12700 tovar pozitsiyalariga tatbiq qilindi.

1992-yilda Jarubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy yaqinlashuvi natijasida Singapur sammitida 10 yil mobaynida ASEAN mamlakatlari erkin savdo hududi (ASEAN Free Trade Agreement – AFTA)ni shakllantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Umuman 2000-yilga kelib ASEAN mamlakatlari bojlarni 0-5 % gacha qisqartirib asosan erkin savdo hududi (olti mamlakat – Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand Filippin, Bruney uchun) tashkil etildi. Faqat poyafzal va qurol-aslaha uchun bojlar yuqori darajada edi (mos ravishda 6,18 va 5,54%).

2003-yilda Indoneziyadagi sammitda ASEAN mamlakatlari II Baliy deklaratsiyasini qabul qildilar. Unda integratsiya jarayonlarini Yevropa modeli bo‘yicha chuqurlashtirish va 2020-yilgacha ASEANning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy birlashuvi asosida ASEAN Hamjamiyatini shakllantirish maqsadi ilgari surildi. Bugunda ASEAN Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya bilan ham hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va erkin savdo hududini tashkil qilish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda. Bu holat istiqbolda jahon iqtisodiyotida kuchlar muvozanatiga ta’sir qilishi mumkin.

Hamkorlikning iqtisodiy jihatlari Integratsiya va erkinlashtirish, bojxona tarif preferensiyalarini ta’minlashni o‘z ichiga olgan holda ichki hududiy savdo faoliyatini kengaytirish; standartlashtirish va certifikatsiyalash. Asos – ESH, ASEAN (AIA) investitsiyalar hududi va sanoat hamkorligi Sxemasi (AIKO)

Hamkorlikning siyosiy jihatlari Mintaqadagi havfsizlik, tinchlikni mustahkamlash; mintaqada ishonchni ta’minlash va nizolarni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqish; xalqaro miqyosda mintaqa manfaatlari uchun kurashish (aynan ASEAN Kambodja muammosini siyosiy yo‘l bilan himoya qilishda muhim rol o‘ynadi).



3-rasm. ASEAN doirasida xalqaro iqtisodiy integratsiya.

Hamkorlikning ijtimoiy jihatlari Ijtimoiy taraqqiyot va inson resurslarini rivojlantirish, kambag‘allikni, kasalliklarni va savodsizlikni yo‘qotish, daromadi kam aholi guruhlari uchun, ayniqsa, qishloq joylarda, ish o‘rinlari yaratish, giyohvandlikka qarshi kurashish maqsadlarida fan va texnologiyalar sohasidagi, atrof-muhit, madaniyat va axborot, ijtimoiy rivojlanish, ta’lim va boshqarish sohalarida hamkorlik.

Global iqtisodiyotga integratsiyalashuv sharoitida ASEAN mamlakatlari iqtisodiy hamkorligining yangi ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lmoqda:

- a’zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajalari o‘rtasidagi farqni bartaraf qilish;
- axborot va transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- xizmatlar savdosi sohasini erkinlashtirish;
- bojxona tartiblarini takomillashtirish va boshqalar.

ASEAN mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasi paradigmasida muayyan o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda, integratsiyaning maqsadi iqtisodiy hamkorlikni jadallashtirishdangina iborat bo‘lib qolmay, balki global darajada raqobatbardosh bo‘lgan yuqori darajada rivojlangan yagona iqtisodiy mintaqani yaratish bo‘lmoqda.

XULOSA

Xalqaro iqtisodiy integratsiya bu – milliy xo‘jaliklar (davlatlar) o‘rtasida ko‘p tomonlama o‘zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo‘lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining turli daraja va ko‘rinishdagi o‘zaro aloqadorligini ifoda etadi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosan ikki darajada (mikro – transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali, makro – iqtisodiy

siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali) amalga oshiriladi.

Jahon xo‘jaligida iqtisodiy integratsion jarayonlarning asosida bir qator obyektiv omillar yotadi: xo‘jalik hayotining yanada baynalmilallashuvi; xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; umumjahon ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-texnika inqilobi (ITI); milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi kuchayishi va boshqalar.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar natijasida butun bir valyuta birligiga (dollar, evro, rubl, so‘m va h.k.lar), moliyaviy byudjetga, davlatlararo yoki millatlararo boshqaruv tizimiga asoslangan mintaqaviy xo‘jalik tarmoqlari tashkil topadi.

G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo – Tinch okeani mintaqalari Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiya markazlari bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishidagi dolzarb masalalardan biri uning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvidir. Shu bois, yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakat nuqtai nazaridan respublikamiz samarali iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida, dunyo mamlakatlarining integratsiyalashuv strategiyalarini o‘rganish, uni atroflicha tahlil qilish va ular haqida yetarli bilimga ega bo‘lish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. «Xalqaro iqtisodiy integratsiya»ning asosiy tushunchalari va tavsiflari taqqoslanganda, ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi darajasi integratsiyaga ta’rif berishning asosiy omili ekanligi asos bo‘ladi. Real iqtisodiy integratsiya qatnashuvchi mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining muayyan tengligini nazarda tutuvchi ishlab chiqarishning xalqaro umumlashgan darajasini ifodalaydi.

Jahon mamlakatlarining turli xil mintaqaviy uyushmalar bilan o‘zaro aloqadorligi respublikamizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga olib keladi. O‘zbekiston BMT, MDH, YeI, NATO, ASEAN va Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo

davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik qilib kelmoqda. O‘zbekistonning jahon miqyosida, global darajada amalga oshirilayotgan strategik integratsiyaviy vazifasi – mamlakatning barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlariga tashqi dunyo bilan o‘zaro hamkorligi uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga javob beruvchi shart – sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu vazifaning amalga oshirilishi O‘zbekistonning globallashuv jarayonlarida to‘liqroq ishtirok etish imkonini beradi. Shu sababli ham ushbu jarayonlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish nafaqat iqtisodchi mutaxassislar uchun, balki boshqa soha xodimlari uchun ham foydadan holi emas.

Tayanch iboralar: fanning mazmuni, mohiyati, ilmiy-texnik va texnologik rivojlanish, integratsion markazlar, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq, integratsion jarayonlarning mikro va makro darajalari.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya fanining mazmuni va mohiyatini, iqtisodiy fanlar ichida tutgan o‘rnini xarakterlab bering.
2. Integratsion jarayonlarning asosida qanday omillar yotadi?
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqadorlikni ta’minlashda qanday qulayliklarni vujudga keltiradi?
4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jahon markazlari haqida nimalarni bilasiz?
5. G‘arbiy Yevropada integratsion jarayonlarning asosiy jihatlari nimalardan iborat?
6. NAFTA davlatlari kelishuvida asosiy masalalar nimalardan iborat?

2-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING XUSUSIYATLARI VA MILLIY DAVLATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

2.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish shakllari

Integratsion guruhlarga a'zo mamlakatlar iqtisodiyotining mikro va makro darajada o'zaro hamkorligi ushbu davlatlarning bir-biriga iqtisodiy jihatdan chuqur kirib borishida namoyon bo'ladi. Bunda integratsiyaning to'rt ko'rinishini (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlarni) alohida ajratib ko'rsatish mumkin. (9-jadval).

9-jadval

Integratsion birlashmalarning ko'rinishlari

Integratsiyaning asosiy ko'rinishlari	Ittifoq ichida erkin savdo	Uchinchi mamlaktlarga nisbatan yagona savdo – bojxona siyosati	Ittifoq ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi	Qonunchilik, ijtimoiy va valyuta sohalarida iqtisodiy siyosatni muvofiqlash-tirish	Ittifoq ichida a'zo mamlaktlarning yagona iqtisodiy siyosati
Erkin savdo hududi	X				
Bojxona ittifoqi	X	X			
Umumiy bozor	X	X	X		
Iqtisodiy ittifoq	X	X	X	X	
Valyuta ittifoqi	X	X	X	X	
To'liq iqtisodiy integratsiya	X	X	X	X	X

Manba: Авдокушин Е.П. Международные экономические отношения. М.: 2003 г.

Jahon iqtisodiyotida erkin savdo hududi (ESH) xalqaro iqtisodiy integratsiyaning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib hisoblanadi. ESHlar preferensial hudud hisoblanib, u o‘z faoliyatida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartiblariga qat’iy rioya qiladi. ESHlar amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o‘zaro savdosida bojlar, litsenziyalar va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to‘g‘risidagi bitimlarning imzolanishi natijasida shakllanib boradi. Jahon iqtisodiyotida YeI, NAFTA va MERKOSUR tajribasidan ma’lumki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish qat’iy cheklangan.

Jahon iqtisodiyotida ESHlar o‘zida ijobiy va salbiy tomonlarni mujassamlashtirgan. ESHlarning ijobiy tomonlaridan biri ishtirokchi mamlakatlarning Xalqaro savdo siyosatida barqarorlikni o‘rnatishdir. ESHlarga a’zo mamlakatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonini tezlashishiga yordam berib, xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkonini beradi. Erkin savdo hududlarning salbiy tomonlaridan biri esa, ichki bozor raqobatining kuchayishi bilan belgilanadi. Chunki jahon iqtisodiyotida ichki bozor raqobati milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta’sir etib, bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ESHlarning yaratilishi millatlararo tartibga soluvchi tashkilotlarni tashkil etish holatlarida kuzatilmaydi. Bu o‘z navbatida hamkorlikda qarorlar qabul qilishni sekinlashtirib, qarorlarning bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Biroq, Xalqaro integratsiyaning boshlang‘ich bosqichidagi bir qator qiyinchilik va muammolariga qaramasdan, ESHlar jahon iqtisodiyotida keng tarqalishi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyotida Bojxona Ittifoqi (BI) huquqiy nuqtai nazardan ikki va undan ortiq davlatlar o‘rtasida o‘zaro uchinchi bir mamlakatga nisbatan yagona, soddalashtirilgan soliq siyosatining o‘tkazilishini aks ettiradi. Jahon iqtisodiyotida Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan asosiy farqi – ittifoq chegaralarida muvofiqlashtirilgan savdo-bojxona rejimi joriy etilgandadir. Iqtisodiy nuqtai nazardan olganda BIni tashkil etish – yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va ana shu makon doirasida har qanday bojxona chegaralarini bartaraf etishni anglatadi. Jahon iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) davlatlararo tartibga solishning bu ko‘rinishini biz BI qatnashchilari o‘rtasida bojsiz savdoda emas,

balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan boj tariflarini joriy qilish sohalarida ham ko‘rish mumkin. BIning ESHdan farqi ham ana shundadir.

Bojxona ittifoqining shakllanishi unga a’zo mamlakatlar iqtisodiyotining ishlab chiqarish va iste’mol sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarida ham o‘z ifodasini topadi. Ya’ni, talab va takliflar nisbiy ustunlik nazariyasiga mos ravishda o‘zgarib turadi. Ya’ni BI savdoning kengayishiga qarab aholining turmush farovonligini oshiradi. Biroq, ayni paytda ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlaridan qimmatroq tovarlarni ishlab chiqarishga moslashishlari oqibatida aholining turmush farovonligni pasaytirish holatlari ham ro‘y berishi mumkin. Bundan tashqari jahon iqtisodiyotida BI shakllanishi jarayonida ikkita o‘ziga xos yondashuvlarning mavjudligini ham qayd etish lozim. Bu yondashuvlar tovarlarga belgilangan umumiy tashqi tarif miqdorlari orqali o‘lchanadi. Agar milliy davlatlarning yangi tarif tizimi oldingi milliy davlatlarning tarif tizimidan yuqoriroq bo‘lsa, BI ishtirokchisi bo‘lgan mamlakatlar nisbatan arzonroq tashqi manbalardan ittifoq ichidagi resurslari foydasiga voz kechishiga to‘g‘ri keladi. Bunday holatlarga o‘xshash vaziyat BIga a’zo mamlakatlar tomonidan yangi yoqilg‘i resurslari, materiallar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishning boshlanishi holatlarida kuzatiladi. Agar o‘rnatilgan tarif undan oldingi o‘rtacha o‘lchangan tarifdan past bo‘lsa, natijaviy baholarni hisobga olganda tashqi savdoning o‘zgarish vektori uchunchi mamlakatlarga tomon yo‘naladi. Bunday harakatlar odatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida olib boriladi.

Davlatlararo tashqi savdoni tartibga solishning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri BI haqida shuni ta’kidlash lozimki, uning faoliyati uzoq yillar davomida alohida olingan mamlakatning jami tovarlar va xizmatlar nomenklaturasiga keng tarqalmadi. BIning rivojlanish jarayonlari birgalikda tartibga solish sohalarining asta-sekin kengayib borishidan guvohlik beradi. Bosqichma-bosqich olib borilayotgan jarayonlar oqibatda millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar va institutlarni tashkil etish masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

Quyidagi jadvalda integratsion birlashmalarning turli ko‘rinishlariga misollar keltirilgan.

10-jadval

Integratsion birlashmalarning rivojlanish darajasi

Integratsiya darajasi (qo‘yilgan maqsadlar)	Ingliz tilidagi nomlanishi va tashkil etilgan yili	A’zo mamlakatlar
Iqtisodiy va savdo hamkorligi to‘g‘risida kelishuv	EU – FSU (Cooperation and Partnership Agreements), 1994	YeI, Belarus, Qozog‘iston, Rossiya, Ukraina
	EU Association Agreements, 1991-1995	Bolgariya, Chexiya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Estoniya, Latviya, Litva, Sloveniya
	Enterprise for the American Initiative – EAI, 1990	AQSh, Markaziy Amerika va Lotin Amerika mamlakatlarining ko‘pchiligi
Erkin savdo hududi	EACT (European Free Trade Association – EFTA), 1960	Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvetsariya Norvegiya, Shvetsiya
	European Economic Area – EEA, 1994	YeI mamlakatlari, Islandiya, Lixtenshteyn
	Baltic FTA, 1993	Estoniya, Latviya, Litva
	Central European FTA, 1992	Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya
	North American Free Trade Agreement – NAFTA, 1994	Kanada, Meksika, AQSh
	ASEAN Free Trade Agreement – AFTA, 1992	Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand
	Australia – New Zealand Closer Economic Relations Trade Agreement – ANZCERTA, 1983	Avstraliya, Yangi Zelandiya
	Bangkog Agreement, 1993	Bangladesh, Hindiston, Janubiy Koreya, Laos, Shri-Lanka

Bojxona ittifoqlari	Turkey Association Agreement – EU, 1963	YeI, Turkiya
	Arab Com mon Market – ACM, 1964	Misr, Iroq, Iordaniya, Liviya, Mavritaniya, Suriya, Yaman
	Central American Common Mar ket – CACM, 1961	Kosta-Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua
	Colombia, Ecuador, Venezuela – FTA, 1992	Kolumbiya, Ekvador, Venesuela
	Organization of East Caribbean States, 1991	Antigua va Barbuda, Dominika, Grenada, Montserrat, Sent-Kits va Nevis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsent va Grenadiya
Umumiy bozor	The Gulf Cooperation Council, 1981	Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, BAA
	Andean Common Market, Andean Pact, 1990	Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Venesuela
	Latin American Integratsion Association – LAIA, 1960	Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Peru, Urugvay, Venesuela
	Southern Cone Common Market – MERCOSUR, 1991	Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay
	Sagribean Community and Common Market – CARICOM, 1973	Antigua va Barbuda, Bagam orollari, Barbados, Beliz, Dominika, Grenada, Gayana, Yamayka, Montserrat, Sent-Kits va Nevis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsent va Grenadiya, Trinidad va Tobago

	European Communities – EC, 1957, keyinroq European Union – EU, 1993	Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya (1995y.)
	Belgium, Netherlands, Luxemburg Economic Union – BENILUX, 1948	Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg
Iqtisodiy ittifoq	Commonwealth of Independent States, 1992	Armaniston, Ozarbaydjon, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O'zbekiston
	Arab Maghreb Union, 1989	Aljir, Liviya, Mavritaniya, Marokash, Tunis
	Cross -Border Initiative, 1993	Buruney, Komor orollari, Keniya, Madagaskar, Malavi, Mavritaniya, Namibiya, Ruanda, Seyshel orollari, Tanzaniya, Uganda, Zambiya, Zimbabve
	Lagos Plan of Action, 1973	Janubdan Sahroi Kabirgacha joylashgan Afrikaning barcha davlatlari
	Manu River Union, 1973	Gvineya, Liberiya, Serra-Leone
	West African Economic and Monetary Union, 1994	Benin, Burkina-Faso, Kot-d'Ivuar, Mali, Niger, Senegal, Togo

Manba: Киреев А.К. Международная экономика. М.: 2002 г.

Integratsion jarayonlar rivojlanishining eng yetuk ko‘rinishlaridan biri bu – umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqdir. Jahon iqtisodiyotida ko‘plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma’lumki, integratsiya jarayonlarida aynan ana shu umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko‘p diqqatga sazovordir.

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida Janubiy Amerika, Afrika va Osiyoning bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarida tovar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining yagona umumiy bozorlari ko‘rinishidagi xalqaro tashkilotlar tashkil etilganligi to‘g‘risidagi xabarlar keng tarqalgan edi. Ammo hozirgi kunga qadar integratsiyaning bu ko‘rinishini faqat G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo–Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida keng amalda qo‘llanayotganligini ko‘rish mumkin. Jahon iqtisodiyotida umumiy bozorlar qatoriga quyidagi xalqaro tashkilotlarni kiritish mumkin:

– Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR) – o‘z tarkibiga Janubiy Amerikaning Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay davlatlarini birlashtirgan;

– Markaziy Amerika umumiy bozori – o‘z tarkibiga Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvador kabi davlatlarni birlashtirgan;

– Sharqiy va Janubiy Amerika umumiy bozori (KOMESA) – o‘z tarkibiga Lotin Amerikasining 19 ta rivojlanayotgan davlatlarini birlashtirgan;

– Janubi – Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) – o‘z tarkibiga Tinch okeani va shuningdek, Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 10 ta rivojlanayotgan mamlakatlarni birlashtirgan

Jahon iqtisodiyotida BIni umumiy bozorga aylanish jarayonini savdo sohasida emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarida ham ko‘rish mumkin. Iqtisodiyotda ichki bojxona to‘siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Buning natijasida, milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining hech qanday to‘siqlarsiz o‘tishiga shart-

sharoit yaratiladi. Umumiy bozorning hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun jamoatchilik fondlarini yaratish zarurati ham tug‘iladi. Chunki, umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish jarayonida bu fondning ahamiyati kattadir. Bunda millatlararo muvofiqlashtiruvchi xalqaro tashkilotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. YeI, NAFTA, ASEAN va boshqa xalqaro tashkilotlar tajribasidan ma’lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik me’yorlarini soddalashtirish va integratsiyaning umumiy qarorlari bajarilishini nazorat qilish mumkin emas.

Umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning zamonaviy bosqichida YeIning tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ana shu tashkilot hozirgi kunda iqtisodiy integratsiyaning eng yuqori cho‘qqisida ekanligini namoyish etmoqda. Hozirgi kunda YeIga a’zo mamlakatlarning yakuniy natijalari to‘g‘risida gapirishga erta bo‘lsada, iqtisodiy ittifoqqa xos bir qator ijobiy alomatlar (a’zo davlatlar o‘rtasida qonunchilik me’yorlarini yaratilishi, soliq tizimini soddalashtirilishi, ishlab chiqarishda yagona standartlarni joriy etilishi, muvofiqlashtirilgan pul siyosatini o‘tkazilishi, yagona valyuta tizimiga o‘tilishi va boshqalar) ko‘zga tashlanib turibdi.

2.2. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik hamkorliklarning rivojlanish xususiyatlari va asosiy ko‘rinishlari

Jahon xo‘jaligining ishlab chiqarish sohasida xalqaro iqtisodiy aloqalarining rivojlanish dinamikasi ishlab chiqarish va muomala sohasini qamrab oluvchi integratsion jarayonlarning mazmuni va mohiyatini asoslab beradi. Bunda albatta ko‘p hollarda savdo aloqalari ikkinchi o‘ringa qo‘yiladi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish sohasida olib borilayotgan hamkorliklarning bir necha rivojlanish xususiyatlarini xarakterlab o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish sohasida olib

borilayotgan iqtisodiy hamkorliklar – dunyo mamlakatlarining umumiy mehnat taqsimoti hamda xalqaro ixtisoslashuvlar bilan chambarchas bog‘liqligini ifoda etadi. Bunda ishlab chiqarishning bir sohasi (masalan, sanoat sohasi) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni boshqa bir soha mahsulotlariga (masalan, qishloq xo‘jaligi) ayirboshlash jarayonlari rivojlanib boradi.

• Ishlab chiqarish sohasida olib borilayotgan iqtisodiy hamkorliklar – xalqaro mehnat taqsimoti negizida tarmoqlararo ixtisoslashuvning intensiv rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon eng avvalo, moddiy ishlab chiqarish tuzilmasining murakkablashuvi, ya’ni sanoat tarmoqlarining differensiatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu holat ayniqsa, xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning vujudga kelishida o‘z aksini topmoqda.

• Ishlab chiqarish sohasida olib borilayotgan iqtisodiy hamkorliklarning uchinchi xususiyati tarmoqlararo ixtisoslashuv jarayonlarining (xalqaro miqyosdagi) bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Bunda sanoat mahsulotining asosiy qismlari ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi nazarda tutiladi. Bunday ixtisoslashuv, albatta, keng doiradagi koperativ aloqalarning bo‘lishini talab qiladi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ixtisoslashuv va xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyalari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Xalqaro ishlab chiqarish sohasida olib borilayotgan kooperatsiya, bu – turli mamlakatlar huquqiy shaxslarining turli sohadagi o‘zaro bog‘lanib ketgan ishlab chiqarish jarayonlarining bevosita birlashuvidir.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarish sohasidagi hamkorliklarning asosiy ko‘rinishlari – ixtisoslashuv, kooperatsiya asosida ishlab chiqarish, savdoni o‘zaro muvofiqlashtirish, qo‘shma korxonalar, pudrat asosidagi qurilishlar, ilmiy-texnikaviy hamkorliklar va boshqalar hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida bunday ko‘rinishdagi hamkorliklar doimo sof holda mavjud bo‘lavermaydi. Biroq ishlab chiqarish amaliyotida firmalar biror-bir mahsulot ishlab chiqarishi yoki xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha tarmoqlararo ixtisoslashuv jarayonlariga asoslangan holda ishlab

chiqarishni tashkil etishlari ham mumkin. Qo‘shma korxonalarda ilmiy ishlab chiqarish va savdo faoliyatlari uzviy bog‘liqlikda olib boriladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy ixtisoslashuv asosida olib borilayotgan ishlab chiqarish sohalari, integratsion jarayonlarining borishida turli mamlakatlarning firmalari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalar rivojining yuqori darajadaligini ifoda etadi. Xullas, jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- hamkorlar o‘rtasida olib borilayotgan iqtisodiy munosabatlarning uzoq muddatliligi, barqarorligi va doimiyligi;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasining subyektlari sifatida turli mamlakatlarda sanoat korxonalarning (firmalarning) mavjudligi;
- kooperatsiyaning asosiy subyektlari sifatida tayyor mahsulotlarni pudrat asosida ishlab chiqarishni yanada mustahkamlash;
- muvofiqlashtirilgan ishlab chiqarish dasturlari asosida vazifalarning hamkorlar o‘rtasida taqsimlanishi;
- hamkorlar o‘rtasida bir tomonlama tovarlar yetkazib berilishining ishlab chiqarish dasturlarining amalga oshirilishi bilan bog‘liqligi (ya’ni, bu odatdagidek oldi-sotdi shartnomalarini bajarish emasligi).

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiya ilmiy-texnikaviy hamkorliklarni, moliyaviy sohalarni, moddiy resurslarni, ilmiy tadqiqotchi mutaxassislarni yoki tashkilotlarni birlashtirish orqali ilmiy tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari bo‘yicha tuzilgan qo‘shma dasturlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Jahon xo‘jaligida bunday hamkorliklarning eng oqilona va samarali ko‘rinishlari quyidagilardir:

- yangi ilmiy-texnik va texnologik g‘oyalardan, marketing tadqiqotlaridan, shuningdek, iqtisodiy hisob-kitoblardan samarali foydalanish maqsadida ilmiy tadqiqot markazlarini va laboratoriyalarni tashkil qilish;
- firma(korxona)lar ishining texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini

oshirish maqsadida mavjud texnik-texnologik qo‘shma tajribalarni o‘tkazish va takomillashtirish;

• mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish;

• ilmiy-texnikaviy siyosatni muvofiqlashtirish va maslahatlar berish;

• malakali tadqiqotchi kadrlarni tayyorlash va boshqalar.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyada ilmiy-texnikaviy hamkorlikni samarali tashkil etish uchun uning ishlab chiqarishdagi samaradorligini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy – tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishdagi samaradorligi ularning nazariy, texnik va amaliy qiymati bilan aniqlanadi.

2.3. Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning ijobiy va salbiy jihatlari va milliy davlatlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni

Ma’lumki, jahon xo‘jaligida integratsion birlashmaga qo‘shiluvchi davlatlar iqtisodiyoti o‘zaro aloqalarni olib boruvchi hamkorlarga xos umumiy jarayonlarni boshidan kechiradi. Bu jarayonlar ko‘pchilik hollarda milliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, ba’zi hollarda salbiy jihatlarga ham ega bo‘ladi. Jahon iqtisodiyotida har bir milliy xo‘jalik uchun integratsiyaning ijobiy tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• bozor miqyosining kengayishi. Bunda talab va taklifning ko‘payishi munosabati bilan kapital aylanmasining tezligi ortadi. Bu esa milliy bozori cheklangan kichik va o‘rtacha rivojlangan ba’zi mamlakatlar uchun katta ahamiyat kasb etadi;

• integratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi mamlakatlar o‘zlarining milliy xo‘jaliklarida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantiradi;

• integratsion blok a’zosi bo‘lgan davlatlar guruhining obro‘-e’tiborining oshishi, ushbu davlatlar uchun turli savdo-iqtisodiy muzokaralarda yaxshi mavqega ega bo‘lishini ta’minlaydi;

• integratsion bloklarning ishtirokchi mamlakatlarda axborot texnologiyalar bo'yicha ayriboshlash sur'atlarining tezlashishi, eksport mahsulotlarning tannarxi kamayishiga va raqobatbardoshligining oshishiga yordam beradi;

• integratsion jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muammolarni hal etish imkonini beruvchi mamlakatlar o'rtasidagi migratsion aylanmaning kengayishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari mintaqalar miqyosida tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Quyidagi 11-jadval ma'lumotlari mintaqalar iqtisodiyotiga integratsiyaning ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

11-jadval

Mintaqa ichidagi eksportning a'zo mamlakatlar umumiy eksportidagi ulushi (%)

Birlashma nomi	1990	1991	1992	1993	1994	1995	1996	1997	1998	2000	2002
Yevropa Ittifoqi	59,0	58.7	59.5	56,2	56,8	63,5	62,8	62,1	62,5	62,4	61,6
NAFTA	41,4	42,2	43,7	45,8	48,0	46,2	47,6	49,1	51,0	55,7	56,5
Merkosur	8,9	11,1	14,0	18,5	19,2	20,3	22,7	24,8	24,8	21,0	11.5
ASEAN	18,7	19,3	19,1	20,0	22,7	23,0	22,9	22,1	20.6	24,0	24,0
And hamja-miyati	3,8	5,8	7.8	9,8	10,5	11,8	10,4	10,0	10,0	8.9	10,2

Manba: Word Economic Outlook. IMF, Sept. 1999. Word Trade Report. 2003. P, 25.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi salbiy oqibatlarini quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

- iqtisodiyoti kuchsizroq mamlakatlardan resurslarning (tabiiy va inson) iqtisodiyoti kuchli hamkorlar tomonga oqib o‘tishi;
- kompaniyalar (firmalar) oshkor bo‘lmagan o‘zaro kartel bitimlari va birlashmalari natijasida yirik TMKlar ahamiyatining kuchayishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, «sog‘lom» bozor raqobatining cheklanishiga olib keladi;
- integratsion bloklar byurokratik institutlarning faoliyat ko‘rsatishlari natijasida katta miqdordagi xarajatlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, iqtisodchi olimlarning chop etgan ko‘plab asarlarida shunday holat ko‘rinmoqdaki, integratsion guruhda u yoki bu mamlakatlar ishtirok etishining ijobiy yoki salbiy tomonlarini baholash murakkabligicha qolmoqda. Iqtisodiy integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga kambag‘al, jahon YaIMda kam ulushga ega bo‘lgan davlatlar ko‘proq iqtisodiy samara olishi mumkin. Bunday xulosaga asosan turli integratsion tashkilot va uyushmalarning (YeI, NAFTA, ASEAN, And pakti davlatlari va boshqalar) rivojlanish bosqichlarini chuqur o‘rganish va iqtisodiy tahlil qilish asosida kelingan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jahon xo‘jaligining vujudga kelishi, globallashuvi va integratsiyalashuvi natijasida tashkil topgan yirik sanoat va moliyaviy guruhlar (trestlar, sindikatlar, konsernlar) jahon iqtisodiyotida muhim rol o‘ynagan edi. Tashkil topgan ushbu yirik sanoat va moliyaviy guruhlarning global miqyosdagi faoliyati shundan iborat bo‘ldiki, ushbu korporatsiyalar o‘z taktikalarini bir necha o‘n yillar mobaynida takomillashtirib, jahon bozorlarining eng muhim punktlarini, ishlab chiqarishning muhim sohalarini, xalqaro savdoning esa asosiy obyektlarini egallab borgan edi. Jumladan, AQShning «jahon avtomashinasi» hisoblangan «Modeo» bazasidagi avtomobil konserni yengil avtomashinalar

ishlab chiqarish bo‘yicha, shuningdek, Yaponiyaning «Matstusita» (Panasonic) firmalari global strategik ahamiyatga egadir. Ushbu transmilliy korporatsiyalar (TMK) xozirgi kunda uy-ro‘zg‘or buyumlarini, elektr asbob-uskunalarni, sovutkichlarni ham ishlab chiqarib, jahonning 40ga yaqin mamlakatlarida 150 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalariga egadir. Ushbu konsernlar dunyo ilm-fanining zamonaviy texnik-texnologik yutuqlaridan keng foydalanib, turli bozorlar va madaniy markazlarda ITTKI miqyosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shunday TMKlarga turli davlatlarning mutaxassislari ham tortilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyaning «Royall-Datch-Shell» kompaniyasining Londondagi Shtab kvartirasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar 40 ga yaqin millatga mansub bo‘lib, ularning asosiy qismi yirik neft korxonalari joylashgan davlatlarning vakillaridir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi erishgach, ham siyosiy, ham iqtisodiy sohada ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Ularning eng muhimlaridan biri bu – respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etib, milliy manfaatlarga mos keladigan ko‘p tomonlama siyosat yuritishi va shu asosda jahon xo‘jaligida tutgan o‘z o‘rnini mustahkamlab borishdir.

Endilikda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat maydonida borgan sari munosib o‘rinni egallab bormoqda. Qo‘yilgan ko‘pgina amaliy qadamlar O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda uzoq muddatli, istiqbolli yaratuvchilik faoliyatini olib borishiga mo‘ljallangandir.

Xo‘jalik aloqalari baynalmilallashtirish jarayonlarining kuchayib borishida, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda mustahkamlashda integratsiya omili muhim rol o‘ynamoqda. Integratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari va ularning ishlab chiqarish samaradorliligini oshirishga ta’siri milliy iqtisodiy barqarorlikni va uning rivojlanish xarakterini aniqlaydi. Shunga ko‘ra jahon mamlakatlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirishga katta e’tibor bermoqdalar.

Ayniqsa, bu mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa qilish imkoniyatidan mahrum edi. Bundan tashqari xo‘jalik yuritishning yopiq, sotsialistik boshqaruv tizimi sharoitida, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi, valyuta-kredit munosobatlari kabi xalqaro ayirboshlash turlari rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning barchasi O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi tizimiga teng huquqli kirishiga va barcha mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorligini ta’minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy integratsiya davlatning turli ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlararo yaqinlashuvga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Jahon xo‘jaligida har qanday davlat, u xoh kichik, xoh katta bo‘lsin, iqtisodiy integratsiyasiz tez rivojlana olmaydi. Buni jahonning ko‘pgina davlatlari o‘z tajribalarida isbotlashdi. O‘zbekiston Respublikasining siyosati ham yuqorida qayd etilgan yutuqlarga erishishdir. Iqtisodiy integratsiya mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita ta’sir etadi. Jumladan:

- tovar, kapitallar, xizmatlar erkin harakat qiladi;
- raqobat kuchayadi;
- ishlab chiqarishda samaradorlik ortadi;
- sifatli va arzon tovarlar ishlab chiqariladi;
- iste’molchilarning talabi ortib boradi;
- taklif qilinadigan tovarlarning nomenklaturasi ortadi;
- bozorlarning rivojlangan shakllari paydo bo‘lib, umumiy bozorlar tashkil qilinadi;
- ishsizlik darajasi pasayadi;
- milliy iqtisodiyotdagi farqlar yo‘qolib boradi;
- yangi va kuchli umumiy iqtisodiyot shakllanadi;
- milliy iqtisodiyot rivojlanib boradi;
- kishilarning turmush farovonligi yaxshilanadi va h.k.lar.

Iqtisodiy integratsiya bir tomondan, yangi texnologiyalardan, xorijiy sarmoyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni tezda o‘stirishga ko‘maklashsa, boshqa tomondan, O‘zbekistonning boy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlarining jahon xo‘jaligiga qo‘shilishi, uning umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Iqtisodiy integratsiya – O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borishini tezlashtiradi. Shu sababli xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston nafaqat MDH va Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotlari (IHT) miqyosidagi integratsion aloqalarini kuchaytirishi, balki istiqbolda jahondagi boshqa bir qator integratsion uyushmalar bilan ham mustahkam munosabatlar o‘rnatishi lozim.

Xulosa

Integratsion guruhlarga a’zo mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro hamkorligi ushbu davlatlarning bir-biriga iqtisodiy jihatdan chuqur kirib borishida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy integratsiyaning to‘rt ko‘rinishini (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlar) alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Erkin savdo hududi (ESH) preferensial hudud hisoblanib, u o‘z faoliyatida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartiblariga qat’iy rioya qiladi. Jahon iqtisodiyotida Bojxona Ittifoqi (BI) huquqiy nuqtai nazardan ikki va undan ortiq davlatlar o‘rtasida o‘zaro uchinchi bir mamlakatga nisbatan yagona, soddalashtirilgan soliq siyosatining o‘tkazilishini aks ettiradi.

Integratsion jarayonlar rivojlanishining eng yetuk ko‘rinishlari bu – umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqdir. Umumiy bozor sharoitida milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin xarakatiga shart-sharoit yaratiladi. Iqtisodiy ittifoqda a’zo davlatlar o‘rtasida qonunchilik, ijtimoiy va valyuta

sohalarida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish ko‘zda tutiladi.

Jahon xo‘jaligining ishlab chiqarish sohasida xalqaro iqtisodiy aloqalarining rivojlanish dinamikasi ishlab chiqarish va muomala sohasini qamrab oluvchi integratsion jarayonlarning mazmuni va mohiyatini asoslab beradi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarish sohasidagi hamkorliklarning asosiy ko‘rinishlari – ixtisoslashuv, kooperatsiya asosida ishlab chiqarish, savdoni o‘zaro muvofiqlashtirish, qo‘shma korxonalar, pudrat asosidagi qurilishlar, ilmiy-texnikaviy hamkorliklar va boshqalar hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiya ilmiy-texnikaviy hamkorliklarni, moliyaviy sohalarni, moddiy resurslarni, ilmiy tadqiqotchi mutaxassislarni yoki tashkilotlarni birlashtirish orqali ilmiy tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari bo‘yicha tuzilgan qo‘shma dasturlar ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Integratsiya jarayonlari milliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, ba’zi hollarda salbiy jihatlarga ham ega bo‘ladi.

Iqtisodiy rivojlanishning jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir mamlakatning rivojlanish darajasi olib borilayotgan strategiyaga va jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv darajasiga, ko‘lami va nufuziga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiy rivojidagi ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatning integratsiya jarayonlariga imkon qadar tezroq kirishishi, davlat tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun yaratiladigan muayyan iqtisodiy nafni ifodalashi tabiiydir.

Hozirgi kunda Jahonning turli mintaqalarida, turli ko‘rinishdagi integratsion uyushmalar faoliyat yuritib kelmoqda. Bu uyushmalarning eng asosiy maqsadlaridan biri, integratsiyaga a’zo davlatlar iqtisodiy rivojlanishini imkon qadar tezlatishdan iboratdir.

Iqtisodiy integratsiya davlatning turli ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jaddalashtirishga, millatlararo yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Tayanch iboralar: xalqaro savdo, bojxona ittifoqi, valyuta birligi, bandlik, bozor miqyosining kengayishi, infratuzilma, a'zo davlatlar guruhi, axborot texnologiyasi, resurslarning kuchli hamkorlar tomon oqib o'tishi, byurokratik institutlar, TMKlar, xalqaro mehnat taqsimoti, baynalmilallashuv, iqtisodiyotning «ochiqligi».

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflab, erkin savdo va shuningdek, bojxona hududlarining mazmuni va mohiyatini ochib bering.
2. Umumiy bozor tushunchasini tavsiflab bering.
3. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik hamkorliklarning rivojlanish xususiyatlarini xarakterlab bering.
4. Ilmiy-texnikaviy hamkorliklarning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
5. Integratsion jarayonlarning ijobiy va salbiy jihatlari nimalardan iborat?
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiyotida tutgan o'rnini ochib bering.

3-BOB. G‘ARBIY YEVROPADA INTEGRATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

3.1. Yevropa Ittifoqining shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlari Yevropa Ittifoqi rivojlanishining birinchi bosqichi davrida

O‘tgan asrning 50-yillaridan so‘ng ro‘y bergan tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqealar G‘arbiy Yevropada integratsion guruhlarning tarkib topishiga zamin yaratdi. Yevropa Ittifoqining tashkil topishida 1950-yilning may oyida Germaniya va Fransiya o‘rtasida ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishni ko‘zda tutgan Fransiya tashqi ishlar vaziri R.Shumanning taklifi muhim ahamiyatga ega bo‘lganini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Umumyevropa integratsion hamkorligining tashkil topishida «Marshall rejasi» (1948-yil) ham ma’lum ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu reja doirasida G‘arbiy Yevropa davlatlari o‘zlarining xo‘jalik hayotini tiklash va qayta qurish uchun AQShdan juda katta miqdorda (12,4 mlrd. AQSh dollari) moddiy yordam olgan edi. Bundan tashqari 1949-yilda sobiq SSSR boshchiligida Sharqiy Yevropa davlatlarining O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining (O‘IYK) tashkil topishi ham G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining milliy xo‘jaliklarini bir-biriga yaqinlashishiga (integratsiyalashuviga) turtki bo‘ldi. Va nihoyat, mustamlakachilik imperiyalarining (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya va boshqalar) yemirilishi sobiq metropol davlatlarning qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ham olib keldi. 1951-yilning aprelida Ko‘mir va po‘lat bo‘yicha Yevropa birlashmasini (KPYB) ta’sis etish haqidagi Parij shartnomasi imzolandi. Ushbu birlashmaga BENILYKS davlatlari – Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, GFR, Fransiya, Italiya kabi mamlakatlar a’zo bo‘lib kirdi. 1955-yilning iyunida bo‘lib o‘tgan Messin (Fransiya) anjumani qarorlari ham G‘arbiy Yevropada integratsion jarayonlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Ushbu anjumanda G‘arbiy Yevropa integratsiyasining

istiqbollari belgilab olindi. Bundan maqsad G‘arbiy Yevropa milliy xo‘jaliklarini birlashtirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy boshqaruvni muvofiqlashtirish orqali Yevropa umumiy bozorini shakllantirish edi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishning ikkinchi bosqichi davrida. Yevropa Ittifoqi rivojlanishining ikkinchi yirik tarixiy bosqichi 1957-yilning 2 martida Bojxona ittifoqi (BI) va qishloq xo‘jaligi sohasida umumiy siyosat olib borishga yo‘naltirilgan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini (YIH) va atom energetikasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyatini (YevrAtom) tashkil etish to‘g‘risidagi Rim shartnomasining imzolanishi bo‘ldi. Rim shartnomasi kuchga kirishi bilan ko‘mir va po‘lat bo‘yicha Yevropa birlashmasi, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati va Yevroatom tashkilotlari birlashdi. Yuqorida zikr etilgan olti mamlakat – Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, GFR, Fransiya va Italiya YIHga a’zo bo‘lib kirdi. Ushbu hujjatlar integratsion jarayonlarni rivojlantirishga doir asosiy yondashuvlarni, ya’ni, «to‘rtta erkin makon»ni (tovarlar va xizmatlar ko‘rsatish; kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi makonlari) yaratish imkonini berdi. 60-yillarda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati tashkilotining davlatlararo muvofiqlashtiruvchi organlarini shakllantirish jarayonlari amalga oshirildi. Vazirlar kengashi, Yevropa Komissiyasi va Yevropa sudi tashkil topdi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishining uchinchi bosqichi davrida. 1969-yilda Gaaga shahrida (Niderlandiya) bo‘lib o‘tgan majlis YI tarixida ikkinchi bosqich tugab, uchinchi bosqich boshlanganligidan dalolat beradi. Bu davrni Bojxona Ittifoqi bosqichi deb ham atash mumkin. 1973-yilda YeIning «oltilik» davlatlar tarkibiga Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya, 1981-yilda Gretsiya, 1986-yilda Ispaniya va Portugaliya qo‘shildi. 1974-yilda Yevropa Kengashi tashkil topdi. 1979-yilda Yevroparlament faoliyat ko‘rsata boshladi. 1978-yilda Yevropa valyuta tizimi vujudga keldi.

Yevropa Ittifoqini tashkil topishida 1986-yilda imzolangan va 1987-yilning 1 iyulidan kuchga kirgan yagona Yevropa Akti (YYA) ham muhim rol o‘ynadi. Ushbu akt umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning barcha sohalarini (savdodagi barcha to‘siqlarni olib tashlash, a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi davlat

chegaralarini ochish, ilmiy-texnologik ayirboshlashni kengaytirish, yagona valyuta tizimini joriy etish, YI barcha fuqarolarining teng huquqliligi va ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy kafolatlanishi va boshqalar) belgilab berdi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi davrida. YIning zamonaviy bosqichi G‘arbiy Yevropada iqtisodiy ittifoqni yaratishga qaratilgan bo‘lib, u XX – XXI asrlar bo‘sag‘asiga to‘g‘ri kelgan edi. 1990-yilda Yevropa hamjamiyatiga a’zo 12 davlat rahbarlari tomonidan inson resurslari va ishlab chiqarish tovarlarining, kapital va axborot vositalarining erkin harakatlanishi uchun davlat chegaralarini 1993-yil 1 yanvardan ochish to‘g‘risidagi bitimi imzolandi. 1992-yilda YI to‘g‘risida Maastrixt shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomaga ko‘ra quyidagilar ta’sis etildi:

– yagona yevropa fuqaroligi;

– siyosiy ittifoq;

– iqtisodiy hamda valyuta ittifoqi va boshqalar.

Maastrixt shartnomasida YIga a’zo davlatlarning milliy valyutalarini asta-sekin muomaladan chiqarib, yagona Umum-yevropa pul birligini (Yevro) joriy etishdek murakkab jarayonga ilk qadam qo‘yildi. YIH 1993-yilda Yevropa Ittifoqi (YI) deb nom oldi.

1995-yil 26 martida G‘arbiy Yevropa siyosiy – iqtisodiy integratsiya yo‘lida yana bir muhim qadam qo‘ydi. Bunda Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, GFR, Fransiya tomonidan 1985-yilning 14 iyunda imzolangan Shengen bitimi kuchga kirdi. Hozirda (2008 y.) bu bitimni 28 mamlakat imzolagan, ularning 25 tasi YeIda ishtirok etuvchi mamlakatlardir.

1995-yilda YeI ga Yevropaning yana uchta davlati (Avstriya, Finlandiya va Shvetsiya) a’zo bo‘lib kirishi orqali yana bir integratsion birlashma o‘zining zamonaviy ko‘rinishiga ega bo‘ldi.

Hozirgi kunda YI o‘z tarkibida 27 ta davlatni birlashtirgan. YIga a’zo 27 ta davlatda jahon mamlakatlari aholisining 10-15 %, ya’ni 470 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi, jahon savdosining esa 35–40 % to‘g‘ri keladi.

12-jadval

Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar ko'rsatkichlari

	Mamlakat	Maydoni	Aholisi	YAIM(RRR)	Kishi boshiga	Djini indeksi	Inson taraqqiyoti indeksi
1.	Avstriya	83872 km kv.	8316487	2006:$279,5mlrd.	$36000	2000:29,1	0,944
2.	Belgiya	30528km kv.	10584534	2004: $316,2mlrd	$31400	33(o'rta)	0,945
3.	Bolgariya	110910km kv.	7322858	2007:$26.719mlrd	$4.800	29,2(past)	0,816
4.	Kipr	9251 km kv	788 457	$24497mlrd.	$31522	30	0,903(yuqori)
5.	Chexiya	78,866km kv.	10325941	2006: $236536 mlrd	$25345	25,4(past)	0,885(yuqori)
6.	Daniya	43094 km kv.	5457415	2006: $198,5mlrd.	$37000	24,7(past)	0,943(yuqori)
7.	Finlyan-diya	338145km.kv.	5297316	2005: $163mlrd.	$34819	2000:26,9	0,947
8.	Fransiya	674843 km kv.	64102140	2006: $1871 trln.	$30100	26,7	0,942
9.	Germaniya	357021km kv.	82400996	2006: $2585trln.	$31400	28,3	0,932
10.	Gretsiya	131990 km.kv	11170957	2007:$391,395mlrd.	$35167	35,4	0,92
11.	Vengriya	93030 km kv.	10064000	2007:$208,157 mlrd	$20700	24,96	0,869
12.	Irlandiya	70273 km kv.	4239848	2006:$177,2mlrd.	$43600	34,3	0,956

13.	Italiya	301318 km kv.	59206382	2007:$1888trln.	$32319	36	0,940
14.	Latviya	64589 km kv.	2291000	2007:$29,214mlrd.	$18005	37,7	0,845
15.	Litva	65200 km kv.	3575439	2007:$54,03mlrd.	$17104	36	0,857
16.	Lyuksem-burg	2586,4 km kv.	480222	2006:$32 mlrd.	$68800	27	0,945
17.	Malta	316 km kv.	402000	$8122 mlrd.	$20300	27	0,875
18.	Gollandiya	41526 km kv.	16570613	$541 mlrd.	$35078	30,9	0,947
19.	Polsha	312679 km kv	38518241	$631,8 mlrd.	$16599	34,5	0,862
20.	Portugaliya	92345 km kv.	10848692	2006:$229,881 mlrd.	$23464	38,5	0,904
21.	Ruminiya	238,392 km kv	22276056	2007:$256,9 mlrd.	$10661	31	0,805
22.	Slovakiya	49035 km kv.	5447502	2007:$99,19 mlrd.	$20002	25,8	0,856
23.	Estoniya	45226 km kv.	1342409	2005:$13,10 mlrd.	$12203	35,8	0,858
24.	Sloveniya	20273 km kv.	2019245	2007:$47,841 mlrd.	$26576	28,4	0,910
25.	Ispaniya	504030 km kv.	45116894	2006:$1,261trln.(11)	$27950	34,7	0,938
26.	Buyuk Britaniya	244820 km kv.	60587300	2006:$2375 trln.(6)	$35051	36,8	0,940
27.	Shvetsiya	449964 km kv	9142817	2006:$ 291 mlrd.	32200	25	0,951

Manba: http://europa.eu/abc/european_countries/eu_members

Izoh: YaIM(PPP) Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti shu mamlakatda muayyan davr mobaynida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlar qiymatini ifoda etadi. YaIM nominal raqam yoki sotib olish pariteti (qobiliyati) (Purchasing Power Parity, PPP) indeksi orqali aks ettiriladi. Sotib olish pariteti usulida ana shu mamlakatda pulning haqiqiy sotib olish qobiliyati hisobga olinadi.

Djini indeksi: Mamlakatda daromad taqsimlanishining notekisligini ko‘rsatuvchi me’yordir. Indeks qancha yuqori bo‘lsa, daromad taqsimlanishidagi tafovut shunchalik katta bo‘ladi.

Inson taraqqiyoti indeksi (ITI): mamlakatdagi hayot davomiyligi, savod darajasi, ta’lim saviyasi va turmush standartini ifoda etuvchi me’yor. U turmush farovonligi, ayniqsa, bolalar turmushi darajasini aniqlashda qo‘llanadigan standart vositadir. Har bir mamalakat bo‘yicha ITI BMT tomonidan har yili aniqlanadi. 0,5 dan past bo‘lgan ITI mamlakat rivojlanishining past darajasini, 0,5-0,8 oraliqdagi ITI mamlakatning o‘rta me’yorda rivojlanganligini, 0,8 dan yuqori ITI yuksak rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

Xullas, jahon iqtisodiyotida YI asosan uchta asosga (iqtisodiy ittifoq, huquqiy va ichki ishlar sohasidagi hamkorlik, xavfsizlik va tashqi siyosat sohasidagi hamkorliklar) tayanib faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

YIning asosiy maqsadi, Umumyevropa aholisining uzviy aloqasini tashkil etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish, ichki chegaralarsiz umumiy makonni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy sohada aloqalarni kuchaytirishdan iboratdir. YIning eng muhim tamoyillaridan biri – a’zo mamlakatlarning milliy xususiyatlari va inson huquqlariga hurmat bilan qarashdir. YIning shtab-kvartirasi Bryusselda joylashgan. Bu yerda Evropa Kengashi o‘z majlislarini o‘tkazib turadi. Yevropa Parlamenti va sudi esa Lyuksemburgda joylashgan.

3.2. Yevropa Ittifoqining boshqaruv tuzilmasiga tavsif

Yevropa Ittifoqini boshqarishda Yevropa Kengashi muhim ahamiyatga ega. Evropa Kengashining a’zolari davlat, hukumat

rahbarlari, Yevropa Komissiyasi raisidan tarkib topgan. Yevropa Kengashi yarim yilda bir marta o‘tkazilib turiladigan sessiyaga yig‘ilib turadi. Ushbu sessiyalarda eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi qarorlar qabul qilinadi.

YeIning Oliy qonun chiqaruvchi organi Yevropa Parlamenti hisoblanadi. U 650ga yaqin deputatlardan tashkil topgan. Bu deputatlar umumiy saylovlarda 5 yil muddatga a’zo mamlakatlar aholisi soniga qarab saylanadi (eng ko‘p deputat GFRdan saylanadi – 99 ta). Yevropa parlamenti o‘zining umumiy majlislarini oyda bir marta bir hafta davomida Fransiyaning Strasburg shahrida o‘tkazadi. Parlamentning muhim huquqi – YeI byudjetini tasdiqlashdir.

Yevropa Ittifoqi kengashi a’zo davlatlarning hukumat vazirlaridan tashkil topgan. Bu tashkilotning qarorlari ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, bu esa mamlakatlarga muayyan kvotalar berishni talab qiladi. Masalan, Germaniya, Italiya va Buyuk Britaniya har biri 10 tadan, Avstriya va Shvetsiya 4 tadan, Daniya, Irlandiya va Fransiya 3 tadan, Lyuksemburg 2 ta ovozga ega. Vazirlar tarkibi majlis mavzusiga qarab o‘zgarib turishi ham mumkin. Kengash o‘z faoliyatida doimiy vakillar qo‘mitasiga tayanadi. Bu qo‘mita YeIda akkreditatsiyadan o‘tgan 27 ta elchidan tashkil topgan.

Yevropa Ittifoqida Yevropa Komissiyasi oliy ijrochi organ bo‘lib, doimiy ravishda faoliyat yuritadi. Yirik davlatlar komissiyada ikkitadan, kichik davlatlar esa bittadan ovozga ega. Barcha qarorlar ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

YeI tuzilmasining ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir tashkiloti Yevropa Sudi hisoblanadi. Sud a’zo-davlatlarning umumiy roziligiga ko‘ra olti yilga saylanuvchi sudya va prokurordan tarkib topgan. Sud ittifoqning a’zolari, YeIning alohida institutlari o‘rtasidagi bahslarni hal etishda qatnashadi.

YeIning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qo‘mitasi integratsion jarayonlarning YeIda rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qo‘mita maslahat beruvchi organ bo‘lib, u



4-rasm. **Yevropada iqtisodiy integratsiya**

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faoliyatning turli sohalarining vakillaridan iborat 222 ta a'zosini birlashtirgan. Qo'mita tarkibida uchta guruh (ish beruvchilar, ishchilar va boshqa ijtimoiy qatlamlar – fermerlar, iste'molchilar va boshqalar) faoliyat ko'rsatadi. Bu tuzilma mavqei jihatidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan organlarga tenglasha olmasa-da, YeI Kengashi va Yevropa Komissiyasi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy sohadagi qarorlar chiqarishidan oldin qo'mita bilan maslahatlashadi.

Yevropa Ittifoqining tashkiliy-institutsional tuzilmasida 1975-yilda YeIning barcha daromad va xarajatlarini tekshirish maqsadida tashkil etilgan auditorlar palatasi (Hisob palatasi), Valyuta ittifoqining yangi institutlari bo'lgan Markaziy banklarning Yevropa tizimi (MBYeT), Yevropa markaziy banki (YeMB), Iqtisodiy va moliyaviy kengash (IMK) kabilar ham muhim o'ringa ega.

Ittifoqi rivojlanishining eng asosiy muammolaridan biri bu tashkilotning bundan keyingi kengayishi deb qayd etish lozim. YeI tarkibiga kirmoqchi bo'lgan davlatlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq, ushbu davlatlarning YeI tarkibiga kirishiga asosiy to'siq bo'lib turgan muammolardan biri milliy xo'jaliklarning nisbatan past darajada rivojlanganligi va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarining to'liq yakunlanmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, Yevropa Parlamenti vakolatlarini kengaytirish va YeI Kengashi nufuzini asta-sekinlik bilan cheklash alomatlari kuzatilayotganligidir.

3.3. Yevropa Ittifoqida yagona valyuta tizimining shakllanishi

Yevropa Ittifoqining eng muhim vazifasi valyuta islohotlarini o'tkazish, a'zo davlatlar milliy valyutalarini muomaladan chiqarib, yagona valyuta – yevroni joriy etishdan iborat edi. Ushbu jarayon 1992-yilda imzolangan Maastrixt shartnomasida o'z aksini topgan. Valyuta ittifoqi tomon harakat uch bosqichda (1990–1993-yillar

tayyorgarlik, 1994–1998-yillar tashkiliy ishlar, 1999–2002-yillar yakuniy) amalga oshirildi.

Yevro hududiga kirish uchun quyidagilar asosiy mezonlar qilib belgilandi:

– hukumat moliyaviy ahvoliining barqarorligi. Bunda normal sharoitlarda davlat byudjeti kamomadi 2 %dan yuqori bo‘lmasligi;

– davlat qarzi YaIMning 60 % dan yuqori bo‘lmasligi;

– narxlarning yuqori darajadagi barqarorligiga erishish. Bu ko‘rsatkich oxirigi 12 oy bo‘yicha inflyatsiya darajasi bilan o‘lchanadi. Bundan tashqari u YeIning kamida 3 ta narxlari eng barqaror davlatlari bo‘yicha olingan o‘rtacha barqarorlik darajasidan 1,5 % dan ko‘pga farq qilmasligi lozim;

– A’zo mamlakatning YeI doirasida erishgan «yaqinlashish» dinamikasi. Bu ko‘rsatkich uzoq muddatli foiz stavkalari darajasida o‘z aksini topadi. O‘z navbatida bu daraja oxirgi 12 oylik foiz stavkalari orqali aniqlanib, YeIning kamida 3 ta narxlari eng barqaror davlatlari bo‘yicha olingan o‘rtacha ko‘rsatkichdan ko‘pi bilan 2%ga farq qilishi mumkin;

– valyuta kursining tebranishi belgilangan chegaralardan baland bo‘lmasligi va boshqalar.

13-jadval

Yevro hududida qatnashish uchun YeI mamlakatlari tomonidan «o‘tkazish mezonlari»ning bajarilishi

	Davlat byudjeti kamomadi (% YaIM)	Davlat qarzi (% YaIM)	Inflyatsiyai darajasi (%)	Valyuta tebranishi chegaralariga amal qilish	Uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari
O‘tkazish mezoni	3,0	60,0	2,7	Ha	7,8

Avstriya	2,5	66,1	1,1	Ha	5,6
Belgiya	2,1	122,2	1,4	Ha	5,7
Germaniya	2,7	61,3	1,4	Ha	5,6
Irlandiya	-0,9	66,3	1,2	Ha	6,2
Ispaniya	2,6	68,8	1,8	Ha	6,3
Italiya	2,7	121,6	1,8	Ha	6,7
Lyuksemburg	-1,7	6,7	1,4	Ha	5,6
Niderlandiya	1,4	72,1	1,8	Ha	5,5
Portugaliya	2,5	62,0	1,8	Ha	6,2
Finlyandiya	0,9	55,8	1,3	Ha	5,9
Fransiya	3,0	58,0	1,2	Ha	5,5

Manba: Yevrostat.

Valyuta ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarga qo‘yilgan talablarning qattiqligi YeI mamlakatlarini 2 ta guruhga (yevro hududiga kirgan davlatlar – 15 tadan 11 tasi va bu jarayonni ma’lum sabablarga ko‘ra keyinga qoldirgan davlatlar – Buyuk Britaniya, Gretsiya, Daniya, Shvetsiya) saralanib chiqishiga olib keldi. Gretsiya yevro hududiga kirish uchun asosiy mezonlarni bajara olmaganligi sababli, Buyuk Britaniya va Shvetsiya siyosiy qarashlar hamda ehtiyotkorlik yuzasidan, Daniya esa konstitutsional to‘siqlar tufayli yevro hududiga kirmadilar.

Yevrohudud 1999-yilning 1-yanvarida YeI ning 11 mamlakati ishtirokida tashkil topdi. Ular yevroga nisbatan o‘z milliy valyutalari kursini qattiq belgiladilar va yevroni naqd pulsiz muomalaga kiritdilar. Keyinroq 2001-yilning 1 yanvaridan valyuta ittifoqiga Gretsiya ham a’zo bo‘lib kirdi.

2002-yilning 1 yanvaridan boshlab yevro baknotlari va tanga-lari muomalaga kiritildi. Keyinroq, 2002-yilning 30 iyunidan boshlab yevro yagona qonuniy to‘lov vositasi bo‘lib qoldi va G‘arbiy Yevropaning 12 ta davlati milliy valyutalari muomaladan

chiqarildi . Muomalaga yevroning 5 ta tanga puli va 9 ta qog‘oz pullari kiritildi. Barcha hisob-kitob operatsiyalari esa xalqaro elektron tizim «Target» yordamida yevroga o‘tkazildi.

2008-yilga kelib YeI ning 13 ta mamlakati Yevro hududiga kirdi, qolgan 14ta mamlakat esa o‘zlarining milliy valutalarida hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

14-jadval

Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar haqida ma’lumotlar

№	YeI mamlakatlari	Poytaxtlari	Valyuta birliklari
1.	Germaniya	Berlin	Yevro (EUR)
2.	Fransiya	Parij	Yevro (EUR)
3.	Italiya	Rim	Yevro (EUR)
4.	Gollandiya	Amsterdam	Yevro (EUR)
5.	Belgiya	Bryussel	Yevro (EUR)
6.	Lyuksemburg	Lyuksemburg	Yevro (EUR)
7.	Buyuk Britaniya	London	Funt sterling(f)
8.	Daniya	Kopengagen	Daniya kronasi(DKK)
9.	Irlandiya	Dublin	Yevro (EUR)
10.	Gretsiya	Afina	Yevro (EUR)
11.	Ispaniya	Madrid	Yevro (EUR)
12.	Portugaliya	Lissabon	Yevro (EUR)
13.	Shvetsiya	Stogolm	Shved kronasi (SEK)

14.	Finlandiya	Xelsinki	Yevro (EUR)
15.	Avstriya	Вена	Yevro (EUR)
16.	Chexiya Respublikasi	Praga	Chex kronasi (CZK)
17.	Polsha	Varshava	Zlotiy (PLN)
18.	Vengriya	Budapesht	Forint(HUF)
19.	Sloveniya	Lyublyana	Yevro (EUR)
20.	Malta	Valletta	Yevro (EUR)
21.	Slovakiya	Bratislava	Slovak kronasi (SKK)
22.	Kipr	Nikosiya	Yevro (EUR)
23.	Estoniya	Tallin	Eston kronasi (EEK)
24.	Latviya	Riga	LAT (LVL)
25.	Litva	Vilnyus	Litva liti (LT)
26	Ruminiya	Buxarest	LEY (RON)
27	Bolgariya	Sofiya	LEV

Manba: Mualliflar tomonidan tuzilgan.

Xulosa

Jahon xo‘jaligida rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi kunda dunyoda 20 dan ortiq integratsion birlashmalar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ular jahonning barcha mamlakatlarini o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu integratsion birlashmalar ichida Yevropa Ittifoqi eng katta yutuqlarga

erishgan.O‘tgan asrning 50-yillaridan so‘ng ro‘y bergan tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqealar G‘arbiy Yevropada integratsion guruhlarning tarkib topishiga zamin yaratdi.

Yevropa Ittifoqining tashkil topishida 1951-yilning aprelida Ko‘mir va po‘lat bo‘yicha Yevropa birlashmasini (KPYeB) ta’sis etish haqida Parij shartnomasi imzolanishi muhim bosqich bo‘ldi. 1957-yilning martida Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini (YeIH) tashkil etish to‘g‘risidagi Rim shartnomasining imzolandi. YeIHga olti mamlakat – Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, GFR, Fransiya va Italiya a’zo bo‘lib kirdi. 1969-yilda Gaaga shahrida (Niderlandiya) bo‘lib o‘tgan majlis YeI tarixida ikkinchi bosqich tugab, uchinchi bosqich boshlanganligidan dalolat beradi.

Yevropa Ittifoqining tashkil topishida 1986-yilda imzolangan yagona Yevropa Akti (YaYeA) ham muhim rol o‘ynadi. Yevropa hamjamiyatiga a’zo 12 davlat rahbarlari tomonidan inson resurslari va ishlab chiqarish tovarlarining, kapital va axborot vositalarining erkin harakatlanishi uchun davlat chegaralarini 1993-yil 1 yanvardan ochish to‘g‘risidagi bitimi imzolandi.

1991-yilda Gollandiyaning Maastrixt shaxrida Yevropa Kengashinig sessiyasida Yevropa Ittifoqi to‘g‘risida Maastrixt shartnomasining matni ma’qullandi va u 1992-yilning 7 fevralida a’zo mamlakatlar tomonidan imzolandi.

Bu shartnoma 1993-yilning 1 noyabridan kuchga kirdi va YeIH Yevropa Ittifoqi (YeI) degan nom oldi. Hozirgi kunda YeI o‘z tarkibida 27 ta davlatni birlashtirgan. YeIga a’zo 27 ta davlatda jahon mamlakatlari aholisining 10-15 % is’tiqomat qiladi, ya’ni 470 mln. kishidan ortiq aholi, jahon savdosining esa 35-40 % to‘g‘ri keladi.

Yevropa kengashi, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi hisoblanadi Yevropa Ittifoqi boshqaruv tuzilmasining asosiy institutlari bo‘lib.

Yevropa Ittifoqida yagona valyuta tizimining shakllanishi 1992-yilda imzolangan Maastrixt shartnomasida o‘z aksini topdi. Valyuta ittifoqi tomon harakat uch bosqichda (1990–1993-yillar

tayyorgarlik, 1994–1998-yillar tashkiliy ishlar, 1999–2002-yillar yakuniy) amalga oshirildi. 2002-yilning o‘rtalariga kelib G‘arbiy Yevropaning 12 ta davlati o‘z milliy valyutalarini emissiya qilishni to‘xtatdi.

Yelning zamonaviy bosqichi G‘arbiy Yevropada iqtisodiy ittifoqni yaratishga qaratilgan bo‘lib, u XX–XXI asrlar bo‘sag‘asiga to‘g‘ri kelgan edi.

Yevropa Ittifoqining integratsiyalashuv strategiyasini o‘rganish va tahlil qilish boshqa integratsion birlashmalar (erkin bozor iqtisodiyotni barpo etishga harakat qilayotgan mamlakatlar), shu jumladan, O‘zbekiston uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi doirasida integratsion jarayonlar nafaqat chuqurlashib bormoqda, balki ayni vaqtda uning tarkibi ham tobora kengayib, rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlarida jahon mamlakatlarining keng ishtirok etishi milliy xo‘jaliklarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki ushbu jarayonlar a’zo mamlakatlarning mintaqaviy hamkorligi hamda o‘zaro savdo-iqtisodiy va investitsion munosabatlarining kengayishiga ko‘maklashadi. Shu sababli, boshqa milliy davlatlar singari O‘zbekistonda ham mintaqaviy integratsion jarayonlarda keng ishtirok etishga bo‘lgan e’tibor kattadir.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda Yevropa Ittifoqi singari katta tajribaga ega bo‘lgan integratsion guruhning rivojlanish xususiyatlarini va zamonaviy tendensiyalarini o‘rganish hamda uning ijobiy tomonlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar: Yevropa Ittifoqi, Maastrixt shartnomasi, iqtisodiy institutlar, evro valyuta, evro hududiga kirish mezonlari (byudjet, davlat qarzi, yillik inflyastiya, o‘rtacha nominal foiz stavkasi, valyuta kursining tebranishi), bojxona ittifoqi, iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati, moliya va bank tizimidagi islohotlar.

tejamli foydalanishmoqda. Jumladan, 1970–1990-yillarda AQSh sanoat energetikasi iste'molini 40–42 % ga, rivojlangan boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda esa 30–35% ga qisqartirganligini ko'rishimiz mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning barchasida qayta ishlash sohalari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, 90-yillarning o'rtalarida AQShda ishlab chiqarilgan qalayining 72–73%, misning 60–62% , po'latning 50–52% , oltinning 47–48% ushbu sanoat korxonalarida tayyor mahsulot sifatida ishlab chiqarilgan edi.

Jahon xo'jaligi va XIM tizimida sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar(AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya, Kanada, Rossiya) iqtisodiyoti muhim rol o'ynamoqda. 90-yillarning o'rtalarida ushbu mamlakatlar hissasiga rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 79–80% va jahon mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 59–60%, jahon tovarlar eksportining 60 – 61 % va xizmat ko'rsatish sohasining 49–50 % to'g'ri kelgan edi. Hozirgi kunda eksportchi davlatlar sifatida rivojlangan mamlakatlarning roli ortib bormoqda (15-jadval).

15-jadval

Jahonning eng yirik eksportchi va importchi davlatlari, 2007-y.

Jahon savdosidagi egallagan o'rni	Eksportchi davlatlar	Hajmi mlrd. AQSh doll.	Jahon savdosi-ning umumiy hajmiga nisbatan, % dagi ulushi	Jahon savdosi-dagi egallagan o'rni	Importchi davlatlar	Hajmi mlrd. AQSh doll.	Jahon savdosi-ning umumiy hajmiga nisbatan, % dagi ulushi
1	Germaniya	1326.4	9.5	1	AQSh	2020.4	14.2
2	Xitoy	1217.8	8.7	2	Germaniya	1058.6	7.4

3	AQSh	1162.5	8.3	3	Xitoy	956.0	6.7
4	Yaponiya	712.8	5.1	4	Yaponiya	621.1	4.4
5	Fransiya	553.4	4.0	5	Angliya	619.6	4.4
6	Niderlandiya	551.3	4.0	6	Fransiya	615.2	4.3
7	Italiya	491.5	3.5	7	Italiya	504.5	3.5
8	Angliya	437.8	3.1	8	Nider-landiya	491.6	3.5
9	Belgiya	430.8	3.1	9	Belgiya	413.2	2.9
10	Kanada	419.0	3.0	10	Kanada	389.6	2.7
11	Koreya	371.5	2.7	11	Ispaniya	372.6	2.6
12	Rossiya	355.2	2.5	12	Gong Kong (Xitoy)	370.1	2.6
13	Gong Kong (Xitoy)	349.4	2.5	13	Koreya	356.8	2.5
14	Singapur	299.3	2.1	14	Meksika	296.3	2.1
15	Meksika	272.0	2.0	15	Singapur	263.2	1.8
16	Taypey (Xitoy)	246.4	1.8	16	Rossiya	223.4	1.6
17	Ispaniya	241.0	1.7	17	Taypey (Xitoy)	219.6	1.5
18	Saudiya Arabistoni	234.2	1.7	18	Hindiston	216.6	1.5
19	Malayziya	176.2	1.3	19	Turkiya	170.1	1.2
20	BAA	173.0	1.2	20	Avstraliya	165.3	1.2
21	Shvetsariya	172.1	1.2	21	Polsha	162.7	1.1
22	Shvetsiya	169.1	1.2	22	Avstriya	162.4	1.1
23	Avstriya	162.9	1.2	23	Shvet-sariya	161.2	1.1
24	Braziliya	160.6	1.2	24	Shvetsiya	151.3	1.1
25	Tailand	153.1	1.1	25	Malayziya	147.0	1.0
26	Xindiston	145.3	1.0	26	Tayland	140.8	1.0

27	Avstraliya	141.3	1.0	27	BAA	132.0	0.9
28	Polsha	138.8	1.0	28	Braziliya	126.6	0.9
29	Norvegiya	136.4	1.0	29	Chexiya	117.9	0.8
30	Chexiya	122.4	0.9	30	Daniya	99.6	0.7
31	Irlandiya	121.0	0.9	31	Vengriya	95.0	0.7
32	Indoneziya	118.0	0.8	32	Indoneziya	92.4	0.6
33	Turkiya	107.2	0.8	33	Janubiy Afrika	91.0	0.6
34	Daniya	103.5	0.7	34	Saudiya Arabistoni	90.2	0.6
35	Vengriya	94.6	0.7	35	Irlandiya	82.5	0.6
36	Finlandiya	89.7	0.6	36	Finlandiya	81.5	0.6
37	Eron	86.0	0.6	37	Norvegiya	80.3	0.6
38	Janubiy Afrika	69.8	0.5	38	Portu-galiya	78.1	0.5
39	Venesuela	69.2	0.5	39	Gretsiya	76.1	0.5
40	Xitoy	68.3	0.5	40	Ruminiya	69.9	0.5
41	Nigeriya	65.5	0.5	41	Vyetnam	60.8	0.4
42	Kuvayt	62.4	0.4	42	Ukraina	60.7	0.4
43	Jazoir	60.2	0.4	43	Slovakiya	60.2	0.4
44	Slovakiya	58.2	0.4	44	Isroil	59.0	0.4
45	Argentina	55.9	0.4	45	Filippin	58.0	0.4
46	Isroil	54.1	0.4	46	Chili	47.1	0.3
47	Portugaliya	51.5	0.4	47	Venesuela	46.1	0.3
48	Filippin	50.5	0.4	48	Eron	46.0	0.3
49	Ukraina	49.2	0.4	49	Argentina	44.8	0.3

50	Vyetnam	48.4	0.3	50	Kolum-biya	32.9	0.2
	Jami:	13006.4	93.2		Jami:	13097.7	92.0
Umumjahon savdosi		13950.0	100.0		Umum-jahon savdosi	14244.0	100.0

Manba: www.wto.org ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan, 2008 y.

Jahon xo'jaligini rivojlanishida Shimoliy Amerikaning AQSh va Kanada kabi yirik davlatlari muhim rol o'ynamoqda. AQSh yiliga 512 mlrd.dollar miqdorida eksport qilib, uning jahon eksportidagi ulushi eng yuqori ko'rsatkichga – 13%ga yetgan. Kanada esa, 165 mlrd. dollarlik eksport miqdori bilan jahon xo'jaligi eksportining 4 %ni tashkil etgan. Jahon xo'jaligi tizimida ushbu davlatlar asosiy generatorlik rolini o'ynab kelmoqda. Mazkur mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, AQShning YaIM 2000-yilda 4.1 %ga, 2001-yilda 1.2 %, 2002-yilda 2.3 %, 2003-yilda esa 2.5 %ga o'sgan. 2000-yilda AQShning real YaIM keyingi uch yilga nisbatan yuqori darajada o'sgan. (16-jadval)

16-jadval

2001–2003-yillarda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda real YaIMning yillik o'zgarishi (% hisobida)

№	Mamlakatlar	2001	2002	2003
1.	AQSh	1.2	2.3	2.5
2.	Yaponiya	-0.5	-0.7	0.4
3.	Buyuk Britaniya	2.3	1.6	2.4

4.	Germaniya	0.6	0.2	0.8
5.	Fransiya	2.6	1.0	1.6
6.	Italiya	1.8	0.4	1.3
7.	Kanada	1.5	3.3	3.1

Manba: Economic survey of Europe, 2003.

Bu paytda mamlakat eksporti 9.5 %ga, importi esa, 13.4 %ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. 2003-yilda AQSh iqtisodiyotida real YaIM 2000-yilga nisbatan 2.9 %ga, tovar va xizmatlar eksporti esa, 2.7 %ga kamaygan edi. (17-jadval) Shimoliy Amerika mamlakatlarining tashqi savdosi va shuningdek, YaIM o‘rtasidagi bog‘liqliklarni 17-jadval asosida ko‘rib chiqish mumkin.

17-jadval

Rivojlangan davlatlarning eksporti va importidagi yillik o‘zgarishlar

(oldingi yilga nisbatan foizda)

№	Mamla-katlar	YaIM			Eksport			Import		
		2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002
1	AQSh	4.1	1.2	2.3	9.5	-4.6	-1.2	13.4	-2.7	3.4
2	Yaponiya	2.4	-0.5	-0.7	12.4	-6.6	5.5	9.6	-0.6	-1.2
3	Germaniya	3.0	0.6	0.2	13.2	4.7	2.9	10.0	0.1	-1.3
4	Buyuk Britaniya	3.0	2.3	1.6	10.3	4.1	-	11.2	2.5	1.4
5	Fransiya	3.6	2.6	1.0	13.3	1.1	0.4	15.4	-0.2	0.4
6	Italiya	2.9	1.8	0.4	12.3	1.1	-0.7	9.4	0.2	0.1
7	Kanada	4.4	1.5	3.3	7.6	-3.7	1.6	8.1	-5.7	0.3

Manba: Economic survey of Europe. 2003.№ 01.

2001-yilda AQShda iste'mol xarajatlarining 3.6 %ga oshganligi ham mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

2002 – 2003-yillarda AQShda birmuncha iqtisodiy o'sishga erishildi. 2002-yilda mamlakat eksporti jonlanib, 2001-yilga nisbatan 3.4 %ga ko'paydi. 2002-yilda AQSh importida ham jonlanish kuzatilib, butun yil davomida 3.4 %ga o'sdi.

2002-yilda NAFTA aholisinig soni 420 mln. kishidan ortdi va jami YaMM 11,7 trln. dollarni, uning yalpi jahon savdosidagi ulushi 20% ni tashkil etdi. Shunday qilib, bugunda NAFTA jahon iqtisodiyotidagi eng yirik mintaqaviy erkin savdo hududi sifatida namoyon bo'lmoqda.

4.2. Shimoliy Amerika erkin savdo hududida integratsiyaning rivojlanish xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida ahamiyati jihatlardan ikkinchi o'rinda turuvchi yirik xalqaro iqtisodiy integratsion markaz Shimoliy Amerika erkin savdohududi hisoblanadi. 1994-yilning 1 yanvarida Shimoliy Amerika erkin savdo hududi to'g'risidagi kelishuv (NAFTA) kuchga kirdi. NAFTA o'z tarkibiga AQSh, Kanada va Meksika davlatlarini birlashtirgan. Bu kelishuv avvalo tovar va xizmatlar savdosida cheklovlarni olib tashlash, kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirishni nazarda tutadi.

NAFTA sanoati rivojlangan mamlakat ikki va rivojlanayotgan mamlakat o'tasida tuzilgan birinchi shartnoma bolib, bunda o'zining iqtisodiy salohiyati bo'yicha AQSh birinchi o'rinda turadi. NAFTA tarkibidagi uch mamlakat YaIM va sanoat ishlab chiqarishining 85 % AQSh xissasiga to'g'ri keladi. (18-jadval)

NAFTAda Kanada va Meksika o'zaro integratsion faoliyatining sust rivojlanganligi va AQShning ustun holatda ekanligidan kelib chiqqan o'ziga xos xususiyati, ishtirokchi mamlakatlar o'zaro bog'liqligining asimmetrik tarzda ekanligidir. O'z

navbatida Kanada ham, Meksika ham ustun darajada AQSh bilan integratsiyalashuvga intiladi. Ushbu xolat NAFTAning boshqa integratsion birlashmalardan farqini belgilaydi.

18-jadval

NAFTAga a'zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (1999-yil holatiga)

Ko'rsatkichlar	AQSh	KANADA	MEKSIKA	NAFTA
Aholisi (mln. kishi)	278,2	30,5	97,4	406,1
Maydoni (ming km. kv.)	9364	9971	1958	21293
YaIM (mlrd.AQSh doll.)	9152,1	634,9	483,7	10 270,7
YaIM aholi jon boshiga (AQSh doll.)	32 921	20 481	4966	25 291
Dunyo eksportidagi ulushi (%da)	12,8	4,4	2,5	19,7

Manba: ereport.ru

Erkin savdo hududlari (ESH) – xalqaro iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi erkin savdo tartibiga rioya qilinadi. ESH amalda ikki va undan ortiq mamlakatlarning o'zaro savdosida bojlar, litsenziya va kvotalarni muzlatishni asta-sekin bekor qilish to'g'risidagi bitimlarning imzolanishi bilan shakllanib boradi. Bunda, NAFTA, MERKOSUR, YeI tajribalaridan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi bir pozitsiyalarni qamrab oladi.

ESHlarning ijobiy jihatlariga NAFTAdagi ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o'rnatilishini

kiritish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ESHga a’zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga jalb etish jarayoni tezlashishiga yordam beradi. Bundan tashqari, a’zo davlatlar xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniga ham ega bo‘lishadi.

ESHlarning salbiy jihatlari ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi. Chunki, bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta’sir etib, bankrotlik xavfini kuchaytirishi ham mumkin. Bundan tashqari, ESHning barpo etilishi mamlakatlararo tartibga soluvchi organlar tashkil etilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu esa o‘z navbatida birgalikda qarorlar qabul qilishni va bajarilishini sekinlashtiradi. Biroq, integratsiyaning boshlang‘ich bosqichdagi qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, ESHlar jahon iqtisodiyotida keng tarqalib bormoqda.

1988-yilning boshida AQSh va Kanada o‘rtasida ESH to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Ushbu bitim NAFTAning integratsiya guruhi sifatida yuqori bosqichlarga chiqayotganligidan dalolat berdi.

NAFTA doirasida bosqichma–bosqich barcha tarif to‘siqlari olib tashlanmoqda. Ular orasida eksport-import cheklovlarini ta’kidlash lozim. Integratsiya guruhi doirasida, nafaqat tovarlar erkin harakatini ta’minlash, balki, xizmatlar, kapital, yuqori saviyaga ega bo‘lgan ishchi kuchining ham erkin ko‘chib yurishiga zaruriy shart-sharoitlar yaratilmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish uchun milliy rejimlarni ishlab chiqish bo‘yicha a’zo davlatlar o‘z munosabatlarini bildirmoqda. Tomonlar intellektual mulkiy munosabatlar, texnik standartlar, sanitariya normalarini yagona ko‘rinishga keltirish borasida kelishib olishgan. Biroq ushbu bitimda ishsizlik, ta’lim, madaniy sohalardagi muammolarni hal etish ko‘zda tutilmagan.

Mutaxassislar tomonidan Shimoliy Amerika hududida 15–20 yillardan so‘ng uchta yirik milliy davlatlarning ichki bozorlari qo‘shilib ketishi va 400 mln.dan ortiq aholiga ega bo‘lgan erkin

navbatida Kanada ham, Meksika ham ustun darajada AQSh bilan integratsiyalashuvga intiladi. Ushbu xolat NAFTAning boshqa integratsion birlashmalardan farqini belgilaydi.

18-jadval

NAFTAga a'zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (1999-yil holatiga)

Ko'rsatkichlar	AQSh	KANADA	MEKSIKA	NAFTA
Aholisi (mln. kishi)	278,2	30,5	97,4	406,1
Maydoni (ming km. kv.)	9364	9971	1958	21293
YaIM (mlrd.AQSh doll.)	9152,1	634,9	483,7	10 270,7
YaIM aholi jon boshiga (AQSh doll.)	32 921	20 481	4966	25 291
Dunyo eksportidagi ulushi (%da)	12,8	4,4	2,5	19,7

Manba: ereport.ru

Erkin savdo hududlari (ESH) – xalqaro iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi erkin savdo tartibiga rioya qilinadi. ESH amalda ikki va undan ortiq mamlakatlarning o'zaro savdosida bojlar, litsenziya va kvotalarni muzlatishni asta-sekin bekor qilish to'g'risidagi bitimlarning imzolanishi bilan shakllanib boradi. Bunda, NAFTA, MERKOSUR, YeI tajribalaridan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi bir pozitsiyalarni qamrab oladi.

ESHlarning ijobiy jihatlariga NAFTAdagi ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o'rnatilishini

kiritish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ESHga a’zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga jalb etish jarayoni tezlashishiga yordam beradi. Bundan tashqari, a’zo davlatlar xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniga ham ega bo‘lishadi.

ESHlarning salbiy jihatlari ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi. Chunki, bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta’sir etib, bankrotlik xavfini kuchaytirishi ham mumkin. Bundan tashqari, ESHning barpo etilishi mamlakatlararo tartibga soluvchi organlar tashkil etilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu esa o‘z navbatida birgalikda qarorlar qabul qilishni va bajarilishini sekinlashtiradi. Biroq, integratsiyaning boshlang‘ich bosqichdagi qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, ESHlar jahon iqtisodiyotida keng tarqalib bormoqda.

1988-yilning boshida AQSh va Kanada o‘rtasida ESH to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Ushbu bitim NAFTAning integratsiya guruhi sifatida yuqori bosqichlarga chiqayotganligidan dalolat berdi.

NAFTA doirasida bosqichma–bosqich barcha tarif to‘siqlari olib tashlanmoqda. Ular orasida eksport-import cheklovlarini ta’kidlash lozim. Integratsiya guruhi doirasida, nafaqat tovarlar erkin harakatini ta’minlash, balki, xizmatlar, kapital, yuqori saviyaga ega bo‘lgan ishchi kuchining ham erkin ko‘chib yurishiga zaruriy shart-sharoitlar yaratilmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish uchun milliy rejimlarni ishlab chiqish bo‘yicha a’zo davlatlar o‘z munosabatlarini bildirmoqda. Tomonlar intellektual mulkiy munosabatlar, texnik standartlar, sanitariya normalarini yagona ko‘rinishga keltirish borasida kelishib olishgan. Biroq ushbu bitimda ishsizlik, ta’lim, madaniy sohalardagi muammolarni hal etish ko‘zda tutilmagan.

Mutaxassislar tomonidan Shimoliy Amerika hududida 15–20 yillardan so‘ng uchta yirik milliy davlatlarning ichki bozorlari qo‘shilib ketishi va 400 mln.dan ortiq aholiga ega bo‘lgan erkin

savdo hududi tashkil topishi bashorat qilingan. Shu bilan bir qatorda NAFTA doirasida hamkorlikni tartibga solib turuvchi maxsus mexanizm yaratilmagan (Komissiya, Sud, Parlament va boshqalar).

NAFTAning tashkil etilishi ko‘proq siyosatchilarning olib borayotgan faoliyati bilan bog‘liqdir. 90-yillarning boshida «sovuq urush» xavfining tugashi bilan bog‘liq holda jahon xo‘jaligida iqtisodiy vaziyat o‘zgardi. Yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda G‘arbiy Yevropa, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi, Lotin Amerikasi mamlakatlari AQShning rahnamoligidan qutulishga harakat qilishib, o‘zlarining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga ko‘proq e’tibor berishqdi.

Shimoliy Amerika mintaqasida integratsion jarayonlarning rivojlanishida AQShning roli kattadir. Bunga sabab AQShning jahon iqtisodiyotida yetakchilik vazifasini o‘tab kelayotganidir. Bundan tashqari, jahonning barcha mintaqalarida integratsiya jarayonlarining rivojlanib borayotganligi ham Shimoliy Amerika mintaqasida shunday integratsion guruhni tashkil etish vazifasini qo‘ygan edi.

Siyosiy xarakterdagi asoslarga ko‘ra, bitimda ishtirok etuvchi har bir a’zo mamlakat NAFTAda ishtirok etish bo‘yicha bir qator iqtisodiy negizlarga ham egadir. Amerikalik ekspertlarning baholashicha, eksportning o‘sishi ish o‘rinlari sonining ortishiga olib keladi. Ammo ushbu hisob-kitoblar o‘zini oqlamadi. Eng katta umid Meksika hududidagi mehnattalab ishlab chiqarish sohalariga qaratilgan. Chunki, ishlab chiqarishni mazkur hududda tashkil etish, amerika tovarlarini kam xarajat qilish hisobiga ishlab chiqarishni va ularning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Amerikalik siyosatchilarning ta’kidlashicha, NAFTA Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyotiga chuqurroq kirib borishi uchun o‘ziga xos tramplin vazifasini ham bajarib kelmoqda. Bunda Shimoliy Amerikaning NAFTAga a’zo davlatlari feodal «ekspluatator» sifatida emas, balki, haqiqiy hamkor davlatlar sifatida ish olib borishadi.

Kanada iqtisodiyoti Amerika iqtisodiyoti bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Aytish joizki, AQShning Kanada tashqi savdo aylanmasidagi ulushi qariyb 70 %ni tashkil etsa, Kanadaning AQSh tashqi savdosidagi ulushi 20 % ni tashkil etadi[1]. Bu juda katta ko‘rsatkichdir. Agar eng ko‘p integratsiyalashgan YeI guruhidagi mamlakatlarni hisobga olsak, Germaniyaning Fransiya tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 20 %, Fransiyaning ulushi esa 10% dan yuqori emasligi ko‘zga tashlanadi.

80-yillarning oxirida kanadaliklar AQSh bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratgan edi. Bu paytda Kanada firmalarining ishlab chiqarishdagi samaradorligi Amerika firmalarining qo‘lga kiritayotgan natijalariga mos kelgan edi.

Bojxona to‘lovlari olib tashlanganidan keyingi iqtisodiy afzalliklar oldindan hisoblanib qo‘yilgan edi. Xususan, bunday chora-tadbirlar qayta ishlovchi va qazib oluvchi sanoat tarmoqlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan edi. Kanada tomonining hisoblashicha, NAFTA doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, foydani oshirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, mehnatga haq to‘lash Kanadada guruhdagi boshqa hamkor davlatlarga nisbatan ancha yuqoridir.

Shuni ham ta’kidlash joizki, Kanadaning AQSh bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga qarshi bo‘lgan kishilar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

NAFTA doirasida Kanadadagi Amerika firmalari haddan tashqari tajovuzkor bo‘lib, bir qator tarmoqlar uchun, ularning ustidan mahalliy nazoratni yo‘qotib qo‘yish xavfi ham sezilib turadi. Kanadaliklar uchun xavf yana shundaki, u yerda hali iqtisodiy jarayonlarni to‘liq quvvatlab turadigan kuchli huquqiy institutlar yetarlicha yaratilmagan.

---

[1]Международные экономические отношения. Учебник. 2- е издание: – М.:1998.

savdo hududi tashkil topishi bashorat qilingan. Shu bilan bir qatorda NAFTA doirasida hamkorlikni tartibga solib turuvchi maxsus mexanizm yaratilmagan (Komissiya, Sud, Parlament va boshqalar).

NAFTAning tashkil etilishi ko‘proq siyosatchilarning olib borayotgan faoliyati bilan bog‘liqdir. 90-yillarning boshida «sovuq urush» xavfining tugashi bilan bog‘liq holda jahon xo‘jaligida iqtisodiy vaziyat o‘zgardi. Yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda G‘arbiy Yevropa, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi, Lotin Amerikasi mamlakatlari AQShning rahnamoligidan qutulishga harakat qilishib, o‘zlarining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga ko‘proq e’tibor berishqdi.

Shimoliy Amerika mintaqasida integratsion jarayonlarning rivojlanishida AQShning roli kattadir. Bunga sabab AQShning jahon iqtisodiyotida yetakchilik vazifasini o‘tab kelayotganidir. Bundan tashqari, jahonning barcha mintaqalarida integratsiya jarayonlarining rivojlanib borayotganligi ham Shimoliy Amerika mintaqasida shunday integratsion guruhni tashkil etish vazifasini qo‘ygan edi.

Siyosiy xarakterdagi asoslarga ko‘ra, bitimda ishtirok etuvchi har bir a’zo mamlakat NAFTAda ishtirok etish bo‘yicha bir qator iqtisodiy negizlarga ham egadir. Amerikalik ekspertlarning baholashicha, eksportning o‘sishi ish o‘rinlari sonining ortishiga olib keladi. Ammo ushbu hisob-kitoblar o‘zini oqlamadi. Eng katta umid Meksika hududidagi mehnattalab ishlab chiqarish sohalariga qaratilgan. Chunki, ishlab chiqarishni mazkur hududda tashkil etish, amerika tovarlarini kam xarajat qilish hisobiga ishlab chiqarishni va ularning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Amerikalik siyosatchilarning ta’kidlashicha, NAFTA Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyotiga chuqurroq kirib borishi uchun o‘ziga xos tramplin vazifasini ham bajarib kelmoqda. Bunda Shimoliy Amerikaning NAFTAga a’zo davlatlari feodal «ekspluatator» sifatida emas, balki, haqiqiy hamkor davlatlar sifatida ish olib borishadi.

Kanada iqtisodiyoti Amerika iqtisodiyoti bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Aytish joizki, AQShning Kanada tashqi savdo aylanmasidagi ulushi qariyb 70 %ni tashkil etsa, Kanadaning AQSh tashqi savdosidagi ulushi 20 % ni tashkil etadi[1]. Bu juda katta ko‘rsatkichdir. Agar eng ko‘p integratsiyalashgan YeI guruhidagi mamlakatlarni hisobga olsak, Germaniyaning Fransiya tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 20 %, Fransiyaning ulushi esa 10% dan yuqori emasligi ko‘zga tashlanadi.

80-yillarning oxirida kanadaliklar AQSh bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratgan edi. Bu paytda Kanada firmalarining ishlab chiqarishdagi samaradorligi Amerika firmalarining qo‘lga kiritayotgan natijalariga mos kelgan edi.

Bojxona to‘lovlari olib tashlanganidan keyingi iqtisodiy afzalliklar oldindan hisoblanib qo‘yilgan edi. Xususan, bunday chora-tadbirlar qayta ishlovchi va qazib oluvchi sanoat tarmoqlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan edi. Kanada tomonining hisoblashicha, NAFTA doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, foydani oshirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, mehnatga haq to‘lash Kanadada guruhdagi boshqa hamkor davlatlarga nisbatan ancha yuqoridir.

Shuni ham ta’kidlash joizki, Kanadaning AQSh bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga qarshi bo‘lgan kishilar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

NAFTA doirasida Kanadadagi Amerika firmalari haddan tashqari tajovuzkor bo‘lib, bir qator tarmoqlar uchun, ularning ustidan mahalliy nazoratni yo‘qotib qo‘yish xavfi ham sezilib turadi. Kanadaliklar uchun xavf yana shundaki, u yerda hali iqtisodiy jarayonlarni to‘liq quvvatlab turadigan kuchli huquqiy institutlar yetarlicha yaratilmagan.

---

[1]Международные экономические отношения. Учебник. 2- е издание: – М.:1998.

o‘zining iqtisodiy salohiyati bo‘yicha AQSh birinchi o‘rinda turadi. NAFTAda Kanada va Meksika o‘zaro integratsion faoliyatining sust rivojlanganligi va AQShning ustun holatda ekanligidan kelib chiqqan o‘ziga xos xususiyati ishtirokchi mamlakatlar o‘zaro bog‘liqligining asimmetrik tarzda ekanligidir. O‘z navbatida Kanada ham, Meksika ham ustun darajada AQSh bilan integratsiyalashuvga intiladi. Ushbu xolat NAFTAning boshqa integratsion birlashmalardan farqini belgilaydi.

ESHlarning ijobiy jihatlariga NAFTAdagi ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o‘rnatilishini kiritish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ESHga a’zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga jalb etish jarayoni tezlashishiga yordam beradi.

NAFTA doirasida bosqichma–bosqich barcha tarif to‘siqlari olib tashlanmoqda. Ular orasida eksport – import cheklovlarini qayd etish lozim. Integratsiya guruhi doirasida, nafaqat tovarlar erkin harakatini ta’minlash, balki, xizmatlar, kapital, yuqori saviyaga ega bo‘lgan ishchi kuchining ham erkin ko‘chib yurishiga zaruriy shart – sharoitlar yaratilmoqda.

Amerikalik siyosatchilarning ta’kidlashicha, NAFTA Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyotiga chuqurroq kirib borishi uchun o‘ziga xos tramplin vazifasini ham bajarib kelmoqda. Bunda Shimoliy Amerikaning NAFTAga a’zo davlatlari feodal «ekspluatator» sifatida emas, balki, haqiqiy hamkor davlatlar sifatida ish olib borishadi.

Kanada iqtisodiyoti Amerika iqtisodiyoti bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Kanada tomonining hisoblashicha, NAFTA doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, foydani oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Meksika esa NAFTAga a’zo davlatlarlar bilan integratsiyalashuvga katta umid bog‘lagan. Meksika iqtisodiy taraqqiyotini tez o‘stirishga, iqtisodiy islohotlarni joriy etishga e’tibor qaratib, taxminan 10–15 yillardan so‘ng iqtisodiy taraqqiyot darajasini sanoati rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishga harakat

qilmoqda. NAFTA doirasida faoliyat ko‘rsatishdagi samaradorlikni baholash bir oz murakkab, chunki, uzoq vaqt o‘tganligiga qaramasdan, mazkur integratsion guruh doirasida o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Tayanch iboralar: NAFTA davlatlarining rivojlanish xususiyati, jahon tajribasi, xalqaro savdo, ishlab chiqarishning globallashuvi, ishlab chiqarishning kengayishi va samaradorlikni oshishi, ilmiy-texnik va texnologik progress, erkin savdo hududlari, NAFTA davlatlari uyushmasi tajribasining xalqaro ahamiyati.

Nazorat uchun savollar

1. Shimoliy Amerikada erkin savdo hududining tashkil topishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
2. NAFTAning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
3. NAFTA davlatlari jahon xo‘jaligida qanday o‘rin tutadi?
4. NAFTA davlatlarining iqtisodiy rivojida erkin savdo hududlarining ijobiy va salbiy jihatlarini ochib bering.
5. NAFTAning boshqa integratsion birlashmalardan farqini xarakterlab bering.
6. Shimoliy Amerikada erkin savdo hududida bojlarni bekor qilish qanday bosqichlardan iborat?

5-BOB. JAHON XO‘JALIGIDAGI XALQARO AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN GLOBAL TASHKILOTLAR

5.1. Xalqaro iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlarga umumiy tavsif

XX asrning 50-yillardan so‘ng jahon iqtisodiyotida xalqaro ahamiyatgaegabo‘lganiqtisodiy-siyosiyvamadaniytashkilotlarning tashkil topish jarayonlari tezlashib borgan edi. Ta’kidlab o‘tish joizki, birinchi (1914–1918-yillar) va ikkinchi jahon urushlari (1939–1945-yillar), shuningdek, 1929–1933-yillarda jahon kapitalizmida ro‘y bergan chuqur iqtisodiy krizislar xalqaro iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega mintaqaviy tashkilotlar, birlashmalar, uyushmalarning tashkil topish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tashkil topishining 50–60-yillardagi ikkinchi «to‘lqini» (birinchi «to‘lqin» XX asrning boshlariga to‘g‘ri kelgan edi) Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida mustamlakachilik tizimining parchalanishiga olib kelgan bo‘lsa, 60–70-yillardagi iqtisodiy chayqalish va turg‘unliklar bilan bog‘liq jarayonlarning global miqyosda borishi esa mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlarning paydo bo‘lishini yanada tezlashtirgan edi. Va nihoyat, XX–XXI asrlar bo‘sag‘asida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida uchinchi bosqichning boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu davrda jahondagi ko‘plab mamlakatlarining hukumatlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi muammolarni hal eta olmaganliklari uchun ham ularni birgalikda bamaslahat hal etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqa boshladilar.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida dunyo aholisining ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab xalqaro tashkilotlar, birlashma va uyushmalar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ekspertlarning fikriga qaraganda jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlari tizimiga o‘zining sezilarli ta’sir doirasini o‘tkazib kelayotgan 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlar mavjud bo‘lib, ushbu tashkilotlar keng qamrovli faoliyat olib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tipologiyasi haqida fikr yuritganda ikkita mezondan:

geografik keng qamrovli xalqaro iqtisodiy munosabatlar mezoni va shuningdek, keng qamrovli faoliyat ko‘rsatish xususiyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Geografik keng qamrovli xalqaro iqtisodiy munosabatlar mezonidan kelib chiqqan holda uning ikki tomonini (xududiy va global tuzilmalarini) alohida ko‘rsatib o‘tish joizdir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning keng qamrovli faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida fikr yuritganda ixtisoslashgan global tashkilotlarga e’tiborni qaratmoq zarur. Bularning ichida, ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tassarrufidagi iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari alohida o‘ringa ega.

5.2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tasarrufidagi iqtisodiy tashkilotlar

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) 1945-yil 24 oktyabrda 50 ta davlat vakillari, jumladan, Antigitler koalitsiyasi a’zolari (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya) tomonidan tashkil etilgan eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi.

BMTning shtab kvartirasi AQShning Nyu-York shahrida joylashgan bo‘lib, uning tarkibida 190 dan ortiq a’zo davlatlar bor. BMT nizomining 1-moddasida faoliyatning asosiy maqsadlaridan biri – «Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorik qilish» degan bandi yetakchi o‘rinda turadi. BMT iqtisodiy sohada asosan to‘rt yo‘nalish bo‘yicha (global muammolarni hal etish, davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko‘maklashish, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi uzilishlarining oldini olish mintaqaviy va shuningdek, hududiy rivojlanishlarni qo‘llab-quvatlash) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Jahon xo‘jaligining amaliy hayotida ushbu yo‘nalishlarning har biri xalqaro tashkilotlarning moliyaviy, axborot va texnik-texnologik maslahat sohasidagi hamkorliklarini o‘z ichiga oladi. BMTning bosh organlari Bosh Assambleya (BA), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS), Xavfsizlik kengashi, BMTning Xalqaro sudi, BMT vorislik bo‘yicha Kengashi hamda Kotibiyat hisoblanadi.

(6-rasm). BMTning BAsi yilda bir marta (sentyabr, dekabr oylarida) o‘zining sessiyasini o‘tkazib turadi. Ushbu sessiyalarda rais, uning o‘rinbosarlari va qo‘mitalarning boshliqlari saylanadi. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq asosiy masalalar BMTning umumiy majlislarida va shuningdek, maxsus ikkinchi qo‘mita doirasida muhokama qilinadi.

BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (EKOSOS) 1946-yilda tashkil topdi. Jahonning 60 ga yaqin mamlakati ushbu kengashning a’zosi bo‘lib, ularning 1/3 qismi (Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSh, Fransiya davlatlaridan tashqari) 3 yil muddatga saylanadi. Ushbu davlatlar BMTning urush va tinchlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi Xavfsizlik Kengashida bo‘lgani kabi doimiy ravishda EKOSOS tarkibiga ham kiradi.

Kengash odatda bir yilda ikki marta o‘zining sessiyasini o‘tkazib turadi. EKOSOS ijtimoiy-huquqiy va gumanitar masalalar bo‘yicha, shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish muammolari bilan bog‘liq barcha qaror va tavsiyalarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan tashkilotlar faoliyatini ham muvofiqlashtirib turadi. Xozirgi kunda EKOSOS tarkibida 18 ta maxsuslashgan muassasa, jahon oziq-ovqat dasturi, YuNKTAD va JSTning xalqaro savdo markazi ham faoliyat ko‘rsatadi.

BMTning iqtisodiy tashkilotlari tizimida uchinchi bo‘g‘in sifatida kotibiyat ham faoliyat ko‘rsatadi. Kotibiyat bir necha bo‘limlardan (iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Departament va boshqalar) tarkib topgan bo‘lib, ma’muriy-ijrochi tuzilma sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida bir qator muammolarni hal qilishda BMTning savdo taraqqiyoti bo‘yicha Anjumani YuNKTAD (1964-yilning oxirida ta’sis etilgan) va sanoat taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti YuNIDO (1967-yilda tashkil topgan) muhim rol o‘ynaydi.

BMTning savdo va taraqqiyoti bo‘yicha Anjumani YuNKTADga jahonning 186 davlati a’zo bo‘lib, uning shtab-kvartirasi Jenevada (Shveytsariya) joylashgan. YuNKTAD rahbarligida o‘tkazilgan hukumatlararo yig‘ilishlarda bir qator muhim savdo bitimlari imzolangan. Xomashyo mahsulotlari savdosi

sohasidagi holatlarni o‘rganish uchun maxsus ekspert guruhlari tashkil etilgan. YuNKTAD Yevropa va Amerika bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning mahsulotlari uchun muayyan imtiyozlar berish rejasini qo‘llab-quvatlaydi.



6-rasm. BMT tizimidagi tashkilotlar.

BMTning sanoat taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti YuNIDOga jahonning 166 davlati a’zo bo‘lib, uning shtab-kvartirasi Vena shahrida (Avstriya) joylashgan. Ushbu tashkilotning asosiy vazifasi Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Okean orollarida joylashgan iqtisodiyoti past rivojlangan mamlakatlar guruhini iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqish jarayonlarini rag‘batlantirishdan iborat.

YuNIDOning oliy organi ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan bosh Anjumandir. Boshqaruv tuzilmalari esa sanoat taraqqiyoti bo‘yicha Kengash va byudjet masalalari bo‘yicha Qo‘mita hisoblanadi. YuNIDO tashkiloti investitsiya va texnik-sanoat hamkorliklari masalalari bo‘yicha forumlar o‘tkazib turadi. Xorijiy investitsiyalarning ko‘payishiga rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik-texnologik asbob-uskunalarni etkazib berishga yordamlashadi. Bu sohada YuNIDOning sanoat va texnologik axborotlar banki (STAB) samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

5.3. Jahon xo‘jaligida ijtimoiy – iqtisodiy faoliyat sohalari bo‘yicha birlashgan tashkilotlar

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon mamlakatlari guruhining hududiy belgilari va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining muayyan sohalari bo‘yicha birlashgan bir qator iqtisodiy tashkilotlar (xalqaro savdo tashkiloti, xalqaro ishlab chiqarish tashkiloti, xalqaro transport tashkiloti, xalqaro moliya tashkiloti va boshqalar) tashkil topdi (7-rasm). Ushbu belgilarga ko‘ra jahon iqtisodiyotidagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tashkilotlarni quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin:

– huquqiy doirasi keng bo‘lgan va shuningdek, iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar guruhi. Bunday tashkilotlarga BMT, Arab davlatlari ittifoqi, Afrika birdamlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH, Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatini va boshqalarni kiritish mumkin.

– umumiqtisodiy masalalarni muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar guruhi. Ushbu guruhga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotini (IHTT) kiritish mumkin. Ushbu tashkilot iqtisodiy hamkorning

barcha asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha a’zo davlatlar tomonidan olib borilayotgan siyosatni nazorat qiladi.



7-rasm. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

– iqtisodiy birlashgan tashkilotlar guruhi. Ushbu guruhning maqsadi a'zo mamlakatlar doirasida mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi yo'lidagi barcha to'siqlarning oldini olish va yagona iqtisodiy siyosatga asoslangan umumiqtisodiy hududni yaratishdan iborat. Bularga Yevropa Ittifoqini (YeI), Shimoliy Amerika erkin savdo hududi to'g'risidagi kelishuv (NAFTA), Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC), Lotin Amerikasi davlatlarining birlashgan uyushmasini va boshqalarni kiritish mumkin.

– ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar guruhi. Bunday tashkilotlar guruhiga asosan savdo sohasidagi xalqaro tashkilotlarni (GATT yoki 1995-yildan boshlab JST degan nom olgan tashkilot), savdo taraqqiyoti bo'yicha BMTning Anjumani (YuNKTAD) ni, neft eksport qiluvchi davlatlar tashkilotini (OPEK), tabiiy kauchuk va kakao bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarni, shuningdek, energetika, transport, aloqa hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar guruhiga sanoat rivojlanishi bo'yicha tashkilot (YuNIDO), BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO), BMTning ta'lim, fan, madaniyat va sport masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO), umumjahon sog'liqni saqlash tashkilotini, umumjahon pochta ittifoqi va boshqa tashkilotlarni ham kiritish mumkin.

5.4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida moliya-valyuta sohalarini, sarmoyalarni himoyalash bo'yicha xalqaro iqtisodiy tashkilotlar

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida moliya – valyuta sohalarini va shuningdek, sarmoyalarni himoyalash sohasidagi xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib,

bunday xalqaro tashkilotlarga – Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Umumjahon banki (UB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YETTB), Xalqaro hisob banki (XHB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) va ko'ptomonlama sarmoyaviy kafolatlar beruvchi agentliklar, sarmoyaviy bahslarni tartibga soluvchi xalqaro markazlar kiradi. Iqtisodiy xarakterdagi faoliyatni olib boruvchi tashkilotlarga Intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha umumjahon xalqaro tashkilot, Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotni ham kiritish mumkin. BMTning teng huquqli azosi sifatida O'zbekiston Respublikasi ham 1992-yilning 2 martidan beri uning ko'plab iqtisodiy tashkilotlari (XVF, XTTB, XMK, JST, ESKATO va boshqalar) bilan o'zaro aloqalarni olib bormoqda. Bu xalqaro tashkilotlar umumiqtisodiy xarakterga ega bo'lganligi uchun ham jahonning barcha davlatlari ushbu xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT). Ushbu xalqaro tashkilot BMT tarkibiga kirmagan Xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bo'lib, u 1961-yilda tashkil topdi. Shtab-kvartirasi Parijda joylashgan. IHTT ikkinchi jahon urushidan so'ng AQShning moliyaviy yordamidan («Marshall rejasi» va boshqalar) samarali foydalanib, iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1948-yilda tashkil topgan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkilotining vorisi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida «aql markazi», «boylar klubi» deb nom olgan IHTT jahonning 30 ta (2008 y.) davlatini yoki deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni (Isroil va Janubiy Afrika Respublikasidan tashqari) birlashtirgan bo'lib, uning a'zolari AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Norvegiya, Shveytsariya, Turkiya va shuningdek, Yelga a'zo kop'chilik mamlakatlar hisoblanadi. (19-jadval)

IHTT a'zo mamlakatlarning yagona iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va nazorat qilish maqsadida tuzilgan bo'lib, quyidagi muammolarni hal etadi:

– jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ahvoli va kelajakda rivojlanish yo‘llari;

– xalqaro savdoni erkin qo‘yish va tartibga solish;

– valyuta-kredit tizimini barqarorlashtirish;

19-jadval

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkilotiga a’zo mamlakatlar

• Avstraliya	• Ispaniya	• Slovakiya
(7 iyun 1971)	• Italiya	(14 dekabr 2000)
• Avstriya	• Kanada	• AQSH
• Belgiya	• Lyuksemburg	• Turkiya
• Buyuk Britaniya	• Meksika	• Finlyandiya
• Vengriya	(18 may1994)	(28 yanvar1969)
(7 may1996)	• Niderlandiya	• Fransiya
• Germaniya	• Yangi Zelandiya	• Chexiya
• Gretsiya	(29 may1973)	(21 dekabr 1995)
• Daniya	• Norvegiya	• Shveytsariya
• Irlandiya	• Polsha	• Shvetsiya
• Islandiya	(22 noyabr 1996)	• Janubiy Koreya
	• Portugaliya	(12 dekabr 1996)
		• Yaponiya
		(28 aprel 1964)

Manba: Mualliflar tomonidan tuzilgan

Izoh: qolgan davlatlar 1961-yildan a’zo hisoblanadi.

– rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan davlatlar bilan va shuningdek, bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanib borayotgan yangi mustaqil davlatlar bilan munosabatlarni o‘rnatishdagi hamkorliklar.

Jahon iqtisodiyotida «Katta yettilik» yoki «Katta sakkizlik» davlatlari – AQSh, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Italiya, IHTT qo‘mitasining doimiy a’zosi hisoblanadi. Keyingi yillarda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo mamlakatlar Yaponiya va AQSh, G‘arbiy Yevropa davlatlari va AQSh, Rossiya va AQSh, G‘arbiy Yevropa davlatlari va boshqalar o‘rtasida kelib chiqqan keskin iqtisodiy muammolarni hal qilish masalalariga, shuningdek, mustaqillikka erishgan jahonning yangi mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirishga katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi kunda IHTTga a’zo mamlakatlar hissasiga jahonda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar sohasining 2/3 qismi, jahon YaIMning 60% to‘g‘ri keladi.

IHTTning oliy organi Kengash bo‘lib, uning tarkibiga har bir a’zo mamlakatdan bittadan vakil kiradi. Kengash a’zolari oyda bir marta Bosh kotib raisligida (u 5 yil muddatga saylanadi) uchrashib turadi. Bosh kotib Kengashda a’zo davlatlarning tashqi ishlar vaziri, moliya vaziri va iqtisodiy vazirliklar bilan yillik majlislarni o‘tkazadi. IHTTning Ijroiya qo‘mitasining asosiy vazifasi tashkilot faoliyatini nazorat qilish va Kengash majlislarini tayyorlashdan iborat. Tashkilotning 200 dan ortiq qo‘mitasi va ishchi guruhlari, shuningdek, eksport komissiyalari ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan masalalar bilan shug‘ullanadi. IHTT faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri a’zo-mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy masalalar bo‘yicha fikr almashishni yo‘lga qo‘yishdir. Bundan tashqari kapital va xizmatlar sohasining erkin harakatini ta’minlash, poraxo‘rlikka qarshi ku’rash to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilishdir. Jahon xo‘jaligi va XIM tizimida IHTTning amaliy vazifalari asosan quyidagilardan iborat:

– bolalar va ayollar mehnatini, shuningdek, mahsulot bahosini ataylab pasaytirishga qaratilgan harakatlarni cheklash;

– jahonning barcha mamlakatlari uchun mehnatni himoyalash bo‘yicha yagona me’yoriy hujjatlarni qabul qilish;

– global miqyosdagi xorijiy investitsiyalarning kirib kelish rejimini tartiblashtirish;

– sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini ekologik jihatdan xalqaro nazorat qilib turish va boshqalar.

Xalqaro valyuta fondi (XVF). Bretton-Vuds anjumani qaroriga muvofiq 1944-yilda tashkil topgan XVF 1947-yildan boshlab o‘z operatsiyalarini amalga oshira boshladi. Jahon iqtisodiyotida XVF hukumatlararo tashkilot bo‘lib, BMTning muassasi sifatida xalqaro kredit-moliya sohalarini tartibga solish, maslahat berish kabi bir qator vazifalarni bajaradi. Jahonning 185 ta (2008y.) a’zo mamlakatlarining valyuta siyosatini kuzatish, baholash, bashorat qilish masalalari XVFning diqqat markazida turadi. XVFning shtab-kvartirasi Vashingtonda (AQSh) joylashgan.

Jahon iqtisodiyotida XVF zamonaviy valyuta-moliya tizimining institutsional asosi hisoblanadi. Ushbu tashkilotga a’zo davlat ma’lum miqdorda pul badali a’zolik kvotasini amalga oshiradi. Kvota miqdori har besh yilda qayta ko‘rib chiqiladi. Kvota miqdori a’zo mamlakatning jahon yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushiga to‘g‘ri keladi va uning fonddagi ovozlari sonini belgilab beradi. XVFda ovozlarning taqsimlanishida jahonning bir qator mamlakatlari (AQSh 17,5% ovozga ega, Germaniya-5,5%, Yaponiya-56,3%, Buyuk Britaniya-4,9%, Fransiya-4,9%, Saudiya Arabistoni-3,4%, Italiya-3,1%, Rossiya-2,9%) ustunlikka egadir. XVFning boshqaruv tuzilmasida Boshqaruvchilar Kengashi bo‘lib, uning tarkibiga a’zo mamlakatlarning vakillari va ularning o‘rinbosarlari kiradi. Ular o‘z davlatlari tomonidan 5 yilga saylanadi. Odatda bu lavozimga moliya vazirlari yoki markaziy bank boshliqlari o‘tiradi. Kengashning ish shakli har yili o‘tkaziladigan sessiyadir.

Xalqaro valyuta fondining moliyalanishi a’zolik badallaridan tashqari eng rivojlangan mamlakatlardan olinadigan qarzlar hisobiga amalga oshiriladi. XVFning umumiy mablag‘i 290-300 mlrd. AQSh dollarni tashkil etadi. Fondning asosiy vazifasi a’zo davlatlarda valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to‘lov balansini tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun qarz berishdir. Kreditlar XVFning mablag‘laridan yoki jalb qilingan

vositalardan transh ko‘rinishida beriladi. Komission yig‘im kredit hajmining 0,5% miqdorida belgilangan. Foiz stavkasi esa yiliga 6-8% atrofida o‘rnatilgan.

Jahon iqtisodiyotida Xalqaro valyuta fondi kreditlarini taqdim etish shartlariga ko‘ra quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

– kvotaning 25 %gacha miqdorida beriladigan kredit. Odatda bunday kredit a’zo mamlakatlarga bir yilgacha beriladi. (Ba’zida u 4-5 yilgacha ham cho‘zilishi mumkin);

– kengaytirilgan variantda, ya’ni, milliy kvotaning 200%gacha beriladigan kredit (bunday kredit odatda 3 yil muddatga beriladi);

– maxsus fondlardan konpensatsiya yoki shoshilinch to‘lovlar ko‘rinishidagi kredit;

– xomashyo (bufer) zaxiralarini moliyalash ko‘rinishidagi kredit;

– qayta qurish fondi orqali aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi past bo‘lgan davlatlar uchun beriladigan kredit (Bunday kredit 1987-yilda tashkil etilgan) va boshqalar.

Shunday qilib, xalqaro valyuta fondi a’zo davlatlarga texnik yordam ko‘rsatadi. Vashingtondagi instituti orqali moliyaviy tahlil, statistika va buxgalteriya hisobi ixtisosligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug‘ullanadi. XVF badallarining miqdori mamlakatlarning fond kapitalidagi hissasiga bog‘liq bo‘lib, IHTTga a’zo mamlakatlar hissasiga 61–62 %, jumladan, AQShga 19–20 % va rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 37–38 % to‘g‘ri keladi.

Umumjahon banki (UB). 1944-yilda 45 davlat tomonidan imzolangan Bretton-Vuds kelishuviga muvofiq tashkil topdi. Ushbu bank BMTning Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA), Investitsion bahslarni tartibga solish bo‘yicha xalqaro Markaz va shuningdek, Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha xalqaro agentlik (IKXA) kabi bir qator ixtisoslashgan muassasalaridan tashkil topgan banklar guruhidir. UB hissasiga

rivojlanayotgan mamlakatlarga barcha xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag‘larning yillik hajmining qariyb 2/3 qismi to‘g‘ri keladi.

Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot banki (XTTB) Umumjahon bankining asosiy tashkiloti bo‘lib, o‘z faoliyatini 1946-yilda boshlagan. Unga 184 mamlakat a’zo. (2007y.) XTTB a’zo mamlakatlarga yoki kafolat bergan ularning xususiy tashkilotlariga o‘rta va uzoq muddatli kreditni (25 yilgacha) beradi, ularning ish faoliyatini nazorat qiladi. XTTBning boshqaruv kengashida hal qiluvchi ovozga jahonning 8 ta yetakchi mamlakati – AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Italiya, Rossiya ega bo‘lib, ular XTTBning kredit siyosatini belgilaydilar. XTTB asosan ikkita ixtisoslashgan shoxobchaga – Xalqaro moliya korporatsiyasi va Xalqaro taraqqiyot uyushmasiga bo‘linadi.

Jahon iqtisodiyotida Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot bankining shoxobchasi sifatida Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956-yilda tashkil topgan bo‘lib, u mustaqil yuridik tashkilot hisoblanadi. Lekin uning faoliyati XTTB bilan bevosita bog‘liq. 1995-yilda XMKga a’zo mamlakatlarning soni 165 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2008-yilda ularning soni 175 taga yetdi. XMKning asosiy maqsadi – rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab–quvvatlash, xususiy va aralash iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish korxonalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirishdir. XMKning moliyaviy resurslari a’zo davlatlarning to‘lov badallari, XMK foydasidan olingan ajratmalar, XTTBning dotatsiyalari, XTTBdan kreditlar ko‘rinishida olingan mablag‘lar hisoblanadi.

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA). Assotsiatsiya 1960-yilda XTTBning shoxobchasi sifatida tashkil topdi. Unga 163 mamlakat a’zo. (2007-y.) Ushbu assotsiatsiya manfaatdor shaxslar tomonidan boshqariladi. XTUning maqsadi kam rivojlangan mamlakatlarga yordam berishdan iborat. Ushbu uyushmadan kredit olish uchun davlatlar quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

– Kredit oladigan mamlakatlar juda kambag‘al bo‘lishi kerak (1993-yilda bu toifaga aholi jon boshiga YaMM 690 dollar atrofida to‘g‘ri kelgan mamlakatlar kirgan).

– Kredit olayotgan mamlakatlarda iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy barqarorlik bo‘lishi kerak.

– Kredit olayotgan mamlakatlar o‘z boshidan juda katta iqtisodiy qiyinchiliklarni kechirayotgan bo‘lishi kerak.

– Kredit olayotgan mamlakatlar amalda rivojlanishga intilib, bu uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida o‘z aksini topishi kerak.

Jahon iqtsodiyotida Xalqaro taraqqiyot uyushmasning moliyaviy resurslari, birinchidan, 20 dan ortiq rivojlangan mamlakatlar shuningdek, Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklarining konvertastiyalangan valyutadagi badallari hisoblansa, ikkinchidan, kam rivojlangan mamlakatlarning badallari (badallarning 10%i konvertastiyalangan valyutada, 90% esa milliy valyutada to‘lanishi lozim) hisoblanadi. XTU kreditlari asosan jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini va shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Jahon valyuta tizimining rivojlanishida BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari qatoriga kirmaydigan yirik moliyaviy tashkilotlar (valyuta operatsiyalari va kreditlarni xalqaro miqyosda tartibga soluvchi) ham muhim rol o‘ynamoqda. Bunday tashkilotlarga Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YETTB), Xalqaro Hisob Banki (XHB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB), Islom Taraqqiyot Banki (ITB) va boshqalarni kiritish mumkin.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YETTB). O‘z faoliyatini 1991-yilda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga ko‘maklashish maqsadida boshladi. YETTBning ta’sischilari 34 mamlakat hisoblanadi. Ularga Markaziy Yevropa mamlakatlari (RF ham kiradi), AQSh, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Turkiya, Kipr, Malta, shuningdek, EX komissiyasi va Yevropa investitsiya banki kiradi. YETTB faoliyat doirasi birinchidan, turli loyihalarni moliyalash

va kreditlash bo‘lib, bunda resurslarning 60% xususiy bo‘g‘inga, 40 % esa davlat sektoriga qaratilgan. Ikkinchidan, xususiy kapital qo‘yilmalarini kafolatlash. Uchinchidan, iqtisodiyotni qayta qurish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdir. YETTB nizomi kapitalining 51–52 % YeX mamlakatlariga, 14–15 % Sharqiy Yevropa mamlakatlariga, 5–6 % esa Rossiyaga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro hisob banki (XHB). Ushbu bank qisqa muddatli kreditlar berishga ixtisoslashgan bo‘lib, unda G‘arbiy Yevropa davlatlarining mavqei balanddir. Ushbu mamlakatlarning Markaziy banklari XHBning kreditlaridan keng foydalanishadi va o‘z rezervlarini ushbu bankda saqlashadi. Bank o‘zining hisob birligiga ega bo‘lib, bu Shveytsariya franki hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB). O‘z faoliyatini 1967-yilda boshlagan, uning a’zolari Osiyoning 43 davlati hisoblanadi. Bankning maqsadi – rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini va tashqi savdosini yuksaltirish, a’zo mamlakatlarga texnik-texnologik yordam ko‘rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat. OTB o‘z kreditlarining 30%ini imtiyozli shartlarda maxsus fonddan beradi. Osiyoning rivojlangan mamlakatlari bu mablag‘larni G‘arbiy Yevropa bozorlariga jalb etib, ularni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun uzoq muddatli kreditlarga (25–40 yilga) aylantiradi. OTB tomonidan berilgan kreditlar tijorat shartlarida yoki yuqori foizli bozor stavkasi bo‘yicha 10–25 yillik muddatga ham berilishi mumkin.

20-jadval

Osiyo Taraqqiyot Banki mintaqaviy a’zolari

Avstraliya	Afg‘oniston	Bangladesh
Butan	Vanuatu	Vyetnam
Gonkong	Xindiston	Indoneziya
Qozog‘iston	Kambodja	Kiribati

Xitoy	Qirg‘iziston	Laos
Malayziya	Maldiv	Marshall Orollari
Mikroneziya	Mongoliya	Myanma
Nauru	Nepal	Yangi Zelandiya
Kuka Orollari	Samoa	Fidji
Pokiston	Papua Yangi Gvineya	Singapur
Solomon Orollari	Tojikiston	Tailand
Tayvan	Tongo	Tuvalu
O‘zbekiston	Filippin	Shri-Lanka
Janubiy Koreya	Yaponiya	

Osiyo Taraqqiyot Bankining boshqa mintaqalardan a’zolari

Avstriya	Belgiya	Buyuk Britaniya
Germaniya	Daniya	Ispaniya
Italiya	Kanada	Niderland
Norvegiya	AQSh	Turkiya
Finlyandiya	Fransiya	Shveytsariya, Shvetsiya

Manba: www.wto.org. Mualliflar tomonidan tuzilgan

Osiyo Taraqqiyot Bankining yirik loyihalari:

• Trans-afg‘on neftquvuri;

• Indoneziyada bo‘lgan yer qimirlashi va sunamida tez yordam ko‘rsatish loyihasi;

• Mekong daryosidan foydalanish mintaqaviy loyihasi;

• Filippinda qashshoqlik bilan kurashish uchun xususiy sektorning strategik sherikligi.

Islom taraqqiyot banki (ITB). Bank o‘z faoliyatini 1975-yilda boshlagan bo‘lib, uning a’zolari islom dinidagi barcha mamlakatlar hisoblanadi. ITBning maqsadi a’zo mamlakatlarning iqtisodiy

rivojlanish loyihalarini qo‘llab – quvvatlash, tashqi savdoni kreditlash, savdo va sanoat kompaniyalarni sarmoyalashdan iborat.

Savdo va sanoat sohasidagi xalqaro tashkilotlardan biri **Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK).** Ushbu tashkilot 1960-yilda tashkil topdi. 1993-yilda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining 13 mamlakatini (Jazoir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Eron, Iroq, Qatar,Quvayt, Liviya, Nigeriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Ekvador) birlashtirgan. OPEK tashkiloti jahonda qazib olinadigan neftning 39-40 % ustidan nazorat qiladi. Tashkilotda yetakchi o‘rinni Fors qo‘ltig‘i davlatlari egallab, ular jahon neft zaxiralarining 2/3 qismiga egadir.

5.5. Jahon Savdo Tashkiloti xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida

Jahon Savdo Tashkilotining tashkil etilishi. O‘tgan asrning 30-yillarida xalqaro savdoni yagona me’yorlar orqali tartibga solish ehtiyoji yaqqol sezila boshladi. Chunki, mamlakatlar qo‘llayotgan protektsionistik siyosat xalqaro savdo imkoniyatlarini ancha cheklab qo‘ygan edi. Mazkur davrda xalqaro savdoning asosini ikki tomonlama bitim va kelishuvlar tashkil etgan. Bunday bitimlarning kamchiligi shundan iborat bo‘ldiki, ular cheklangan guruh tovarlari va mahsulotlarinigina o‘z ichiga olgan edi. Bunday sharoitda o‘z tomonidan hech qanday qulaylik bermaydigan mamlakatlargina xalqaro savdoda yutardi. Xalqaro savdoning bunday yo‘nalishda borishi jahon xo‘jaligida asosiy eksportchi hamda importchi bo‘lgan AQShning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatgan edi. Shu bois, 1944-yilda AQSh Prezidenti Ruzvelt Kongressga Xalqaro Savdo Tashkilotini tuzish to‘g‘risida o‘z taklifini kiritdi.

Gavanada bo‘lib o‘tgan, Xalqaro savdo tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi muzokaralar AQSh hamda Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi kuchli ziddiyatlar sharoitida bo‘lib o‘tdi. Ziddiyatning

asosiy sababi ovoz berish tartibiga oid edi. «Bir mamlakat – bir ovoz» tamoyilini ko‘zda to‘tgan Yevropacha yondashuv, AQShning ovozlar soni mamlakatning jahon savdosidagi ulushiga proporsional bo‘lishi lozim degan tamoyiliga zid edi. AQSh muzokaralar chog‘ida o‘z yondashuvini himoya qilolmagani bois Kongress Xalqaro savdo tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi bitimni ratifikatsiya qilmadi.

Xalqaro savdo tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi bitimning tarif masalalariga bag‘ishlangan qismi bo‘yicha Jenevada maxsus muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Natijada, savdo va tariflar bo‘yicha bosh bitim (GATT) imzolandi. 1948-yil 1 yanvarda kuchga kirgan mazkur bitim amalda XVFning tashqi savdoni moliya-valyuta ta’minoti bo‘yicha tashkilotining ish faoliyatini to‘ldirgan edi.

GATT matnini imzolagan mamlakatlarning o‘zaro kelishuvi asosida xalqaro savdo tamoyillarini amalga oshiruvchi tashkiliy mexanizm (kotibiyat) tuzildi. Kotibiyat Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashdi. Kotibiyat o‘z faoliyatini konferensiya va sessiyalar doirasida amalga oshirib keldi. Odatga ko‘ra sessiyalar yuqori mansabdor shaxslar uchrashuvi va ular orasidagi muzokaralar (raundlar) bilan boshlanardi.

GATT faoliyatida bojxona bojlarini qisqartirish yoki umuman bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etgan. 1945–1947-yillarda rivojlangan mamlakatlarda bojxona bojlarining o‘rtacha qiymati 40-60 %ni tashkil etardi. Ayrim tovar guruhlari bo‘yicha (masalan, kimyo mahsulotlari) esa bu ko‘rsatkich 70-90 %ni tashkil etgan. Bojxona to‘siqlarini pasaytirish bo‘yicha olib borilgan faol ishlar natijasida boj to‘siqlari 80-yillarga kelib, 3-5 %ga qisqartirildi.

Albatta, buning zamirida yarim asrlik mehnat, tinimsiz muzokaralar yotadi. GATT qoidalari bo‘yicha bir kelishuvga, to‘xtamga kelish qiyin bo‘lgani bois muzokaralar bir necha yillarga cho‘zilib ketardi. Buning sababi, bir mamlakat noroziligi butun kelishuv natijalarini yo‘qqa chiqarishi ham mumkin edi. Ayniqsa, GATTning oxirgi ikki ya’ni Tokio hamda Urugvay raundlari shunday bo‘ldi. Mazkur raundlar o‘zining uzoq cho‘zilganligi

bilan ham muhokama qilingan masalalar doirasi kengligi bilan ham ajralib turgan. Tokio raundida, tariflarni qisqartirish bilan bir qatorda dempingga qarshi kodeks ham qabul qilindi. GATTning notarif to‘siqlari sohasida vakolatni oshiruvchi boshqa kodekslar ham ushbu raundda qabul qilindi. Urugvay raundida esa GATT mexanizmi ancha yaxshilandi, xizmatlar savdosi bo‘yicha umumiy kelishuvlar ishlab chiqilib, Jahon savdo tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi bitim ma’qullandi. Oldingi raundlarda tariflar dinamik tarzda qisqartirilgan bo‘lsa, Urugvay raundida tariflar qisqarishi radikal tarzda ro‘y berdi. Ayrim tovarlar guruhiga bojlar umuman bekor qilindi. Bu ayniqsa, AQShning raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo‘lgan tovarlar (qurilish hamda tibbiyot uskunalari, ximikatlar, dori-darmonlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, sement, pivo, mebel kabilar) guruhiga tegishli bo‘ldi. 15 %dan yuqori poshlina qo‘yiladigan tovarlar uchun tarifni qisqartirish darajasi 30 % ni tashkil etdi.

Xalqaro savdoda bojxona bojlarini qisqartirish bilan bir qatorda, savdo qoidalarini va ularni qo‘llash tartibini soddalashtirish bo‘yicha ham qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Subsidiyalar hamda antidemping (kompensatsiya) poshlinalar to‘g‘risidagi muzokaralarning borishi og‘ir nuqtalardan biri bo‘ldi. Bevosita eksport subsidiyalaridan foydalanishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bartaraf etish ishlari taklif etildi. Agrar mahsulotlar eksportini dotatsiya qiluvchi (Yevropa Ittifoqi davlatlari e’tiroziga ko‘ra) sezilarli ishlar qilindi.

Tokio hamda Urugvay raundlari GATT faoliyatida muhim bosqich bo‘ldi. Turli savdo to‘siqlarining amalda bartaraf etilishi ana shu raundlarda ro‘y berdi. 1994-yilda, Urugvay raundida GATTning 1947-yilgi matni qayta ko‘rib chiqildi. Mazkur mukammallashtirilgan GATT matni JST uchun poydevor bo‘ldi. Vaqtinchalik bitim sifatida tuzilgan GATTning asosiy maqsadi, sanoat mollari savdosini erkinlashtirishdan iborat edi. Urugvay raundida mazkur bitim vazifalarini o‘z zimmasiga olgan JST tuzish to‘g‘risidagi bitim ma’qullandi . Mazkur tashkilot GATTga nisbatan ko‘proq vakolatga ega bo‘ldi.

GATT hamda JST orasidagi prinsipial farq shundan iboratki, GATT bir necha umumlashtirilgan qoidalardan iborat ko‘p tomonlama bitim bo‘lib, kichik bir kotibiyatni o‘z tarkibiga olgan edi. JST esa doimiy xalqaro tashkilot bo‘lib, ishtirokchi mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan kelishuvlar asosida ish yurituvchi o‘z kotibiyatiga ega. GATT bitim bo‘lgani bois tomonlardan iborat edi. JST esa a’zo mamlakatlardan iborat. GATT vaqtinchalik xarakterga ega edi. JST esa doimiy faoliyat yurituvchi tashkilotdir. GATT kelishuvlarining deyarli barchasi tovarlar savdosiga bag‘ishlangandi. JST zimmasiga esa nafaqat tovarlar savdosini, balki xizmatlar savdosi, shu jumladan, intellektual mulk savdosini ham tartibga solish vazifasi yuklatildi. GATT tarkibidagi ko‘pgina kelishuvlar GATT ishtirokchilarining ayrimlarini qamrab olgan edi xolos, shu sababdan o‘z ta’siriga ko‘ra selektiv xususiyatga ega edi. JST doirasidagi barcha bitimlar ko‘ptomonlama bo‘lib, ularning ta’sir doirasi kengaygan va nihoyat GATT doirasida amal qilib kelayotgan savdo nizolarini hal etish tizimi samarasiz bo‘lib, ayrim mamlakatlar qaror qabul qilishni to‘xtatib qo‘yishga ham qodir edi. JST doirasida amal qilib kelayotgan boshqaruv mexanizmi ko‘pgina qarorlarni avtomatik tarzda qabul qilish imkonini beradi.

JST GATT doirasida qabul qilingan barcha bitimlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham JSTga a’zo mamlakatlarning barchasi shu bitimlarning shartlariga amal qilishadi. Shunday qilib, jahon savdosini erkinlashtirish maqsadida GATT o‘rniga kelgan JST XVF hamda Jahon banki bilan yonma-yon holda uchinchi bir tashkilot sifatida dunyo yuzini ko‘rdi.

2004-yil ma’lumotiga ko‘ra, JST 148 a’zo mamlakatdan iborat edi. 2008-yilga kelib bu tashkilotga 153 mamlakat a’zo bo‘ldi. G‘arbning barcha sanoatlashgan mamlakatlari JST a’zosidir. Sotsialistik xo‘jalik tizimi parchalangach, Polsha, Ruminiya, Chexiya va Sloveniya kabi Sharqiy Yevropa mamlakatlari GATTga, keyinchalik JSTga qo‘shildi. Sovet Ittifoqi parchalangach, sobiq ittifoq respublikalari Qirg‘iziston, Gruziya, Moldova ham tashkilotga a’zo bo‘ldi.

JST dunyo savdosini erkinlashtirish maqsadiga erishishi uchun a'zo davlatlar teng manfaatlariga amal qilib, tashqi savdoning har bir to'sig'ini bartaraf etishlari lozim. JST faoliyatida xalqaro savdoni qiyinlashtiruvchi turli texnik to'siqlar bartaraf etilib, tarifga aylantirilishi ko'zda tutilgan.

JST tashkil etilishi bilan xalqaro savdoni tartibga solishning mustahkam mexanizmi yaratildi va u quyidagilardan iborat bo'ldi:

– Sanoat tovarlariga boj tariflari. Rivojlangan davlatlarda sanoat tovarlariga boj tariflari o'rtacha 34 % ga kamaytirilishi ko'zda tutildi. Bu kamaytirish jarayonlari 1995-yil 1 yanvardan boshlab 4 yil ichida 5 bosqichda amalga oshirildi. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarda sanoat tovarlariga boj tariflari Urugvay raundidan oldin o'rtacha 4,7 % bo'lsa, Urugvay raundidan so'ng 3 % ga tushdi.

– Ixtiyoriy eksport cheklovlari. «Kulrang hudud tadbirlari» deb nomlangan ixtiyoriy eksport cheklovlari yoki ichki bozorni tartibga solish uchun belgilangan tadbirlar to'rt yillik muddat ichida bartaraf etilishi ko'zda tutildi.

– Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar. Urugvay muzokaralarida iqtisodiy past rivojlangan mamlakatlar uchun tariflarni kamaytirish ma'qullandi.

– Qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Urugvay muzokaralarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ham JST kun tartibiga kiritildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari mavzusi Urugvay muzokaralari chog'ida AQSh hamda Yevropa Ittifoqi orasida fikrlarning qarama-qarshiligiga yo'l qo'yildi. Nihoyat, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq masalalar uch guruhga (bozorga kirish, eksport subsidiyalari, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash) ajratildi.

A'zo mamlakatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi bilan bog'liq tariflarni pasaytirdilar. Bundan maqsad, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarish va savdosini erkin raqobat shartlariga ko'ra amalga oshirishni ta'minlashdir.

Bitim shartlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini bozorga kirishda import tariflarini rivojlangan mamlakatlar 6 yilda 36 % ga, iqtisodiy past rivojlangan davlatlar esa 1 yilda 24 % ga qisqartiradigan bo‘lishdi. Qisqartirishga 1986-yildagi import tarif stavkalari asos qilib olindi. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari erkin savdosiga to‘siq bo‘luvchi ichki himoya stavkalari rivojlangan davlatlarda 6 yilda 13 % ga qisqartiriladigan bo‘ldi. Qisqartirish uchun 1986–1988-yillardagi stavkalar asos qilib olindi.

– Eksport subsidiyalarini bartaraf etish byudjet harajatlarini va subsidiyadan foydalanayotgan ishlab chiqarish miqdorini pasaytirish shaklida amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bunga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlar 6 yil ichida byudjet harajatlarini 36 % ga, subsidiya berilgan mahsulot miqdorini esa 24 % ga tushiradigan bo‘ldi. Iqtisodiy past rivojlangan mamlakatlar esa, kamaytirish stavkalarini 10 yil ichida byudjet xarajatlarini 24 % ga, subsidiya berilgan mahsulotlar miqdorini esa 14 % ga tushirilishi belgilandi. Kamaytirish uchun 1986–1990-yillar ko‘rsatkichlari asos qilib olindi.

– Xizmatlar savdosi. Jahon savdosining 20 % dan ortiqrog‘ini xizmatlar savdosi tashkil etadi. Xizmatlar savdosini erkinlashtirish mavzusi birinchi marotaba Urugvay raundida o‘rtaga tashlandi. Muzokaralar chog‘ida xizmatlar sohasini erkinlashtirish uchun xizmatlar savdosining umumiy bitimi (General Agreement on Trade in Services – GATS) qabul qilindi va xizmatlar savdosini erkinlashtirish ishlari Urugvay raundidan keyin ham davom ettirilishi ma’qullandi.

– Intellektual mulk huquqlari. Mazkur masala ham rivojlangan mamlakatlar, xususan, AQShning istagi bilan shartnomaga kiritildi. Shunday qilib, xalqaro savdoda ilk bor intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq xalqaro standartlar vujudga keldi.

GATTdan oldin tuzilgan barcha shartnomalar (1967-yilgi Parij, 1971-yilgi Bern, Rim shartnomasi va boshqalar) o‘z kuchini saqlab qoldi. Faqat a’zo mamlakatlar amal qilishi lozim bo‘lgan ayrim me’yoriy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Intellektual

mulk huquqlarining xalqaro qonun va nizomlarini ishlab chiqish muddatlari rivojlangan davlatlar uchun 20 yil qilib belgilandi. Iqtisodiy past rivojlangan mamlakatlar uchun patentlarni himoyalash muddati esa 10 yil deb kelishildi.

– Miqdoriy cheklashlar. Qonundan tashqari bo‘lgan miqdoriy cheklashlar sanoatlashgan mamlakatlar uchun ikki yilda, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa besh yil ichida voz kechilishi ma’qullandi.

– Savdo siyosatini ko‘rib chiqish mexanizmi (Trade Policy Review Mechanizm – TPRM). Oldingi bitimlardan farqli o‘laroq, ushbu muzokaralar chog‘ida birinchi marotaba savdo siyosatini ko‘rib chiqish mexanizmi va uning doirasida faoliyat yurituvchi tashkilot tuzildi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mexanizm va tashkilotning tashkil etilishi JST faoliyatini anchagina yaxshiladi. Ushbu mexanizm vositasida a’zo davlatlarning olib borayotgan savdo siyosati va amaliyotlarining ko‘ptomonlama tijorat tizimiga ta’siri kuzatib boriladigan bo‘ldi.

Shunday qilib, 1947-yilda bitim sifatida tashkil topgan (GATT) va 1995-yilda alohida bir yirik tashkilotga aylangan JST jahon savdosini nazorat qilishda yirik vakolatga ega bo‘ldi. Shu bois mazkur tashkilotga a’zo bo‘lmagan jahonning biron-bir davlatining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi juda qiyin.

Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuv (GATT/JST). Jahon iqtisodiyotini tartibga solish jarayonlarida (20 – 40-yillarda), ayniqsa, jahon savdosining borishida bojxona bojlari va boshqa turli cheklashlar paydo bo‘lgan edi. Bu esa davlatlararo tovarlar yetkazib berish hajmining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Buning natijasida xalqaro tovarlar savdosida bir qator muammolar (ikki tomonlama bitimning kelishuvida) paydo bo‘ldi. Ana shu davrda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar doirasida ko‘p tomonlama kelishuv shartnomalariga o‘tish zaruriyati tug‘ildi. XX asrning 30-yillarida bunday tashkilotlarni yaratish to‘g‘risidagi qarashlar konsepsiyasi J.M.Keyns tomonidan ilgari surilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuv (GATT) bitimi dastlab uch qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

– Bitimning birinchi qismi 2 ta moddadan iborat bo‘lib, o‘zaro qulay rejim va bojxona tariflari ro‘yxatini o‘z ichiga olgan.

– Bitimning ikkinchi qismi 21 moddadan iborat bo‘lib, savdo siyosatining asosiy tamoyillarini o‘z ichiga olgan.

– Bitimning uchinchi qismi 13 moddadan iborat bo‘lib, GATTning tashkiliy (protsedura) masalalarini o‘z ichiga olgan.

1964-yilda Bitimning to‘rtinchi yakunlovchi qismi GATT tomonidan ishlab chiqilib, mustamlakachilik tizimidan ozod bo‘lgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining yosh mustaqil davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan rivojlanishi muammolariga qaratilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida GATT moddalari tuzilmasi o‘zining murakkabligi va ziddiyatliligi bilan bir-biridan ajralib tursada, ushbu moddalar tarkibida xuquqiy asoslangan, xalqaro savdoga xizmat qiladigan mustahkam bir qator tamoyillar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

– xalqaro savdoni yanada rivojlantirish rejimini aks ettiruvchi o‘zaro yon berish tamoyili;

– barcha a’zo davlatlar bilan bir xil (teng huquqli) munosabatda bo‘lish tamoyili;

– tashqi savdoni erkinlashtirish maqsadida savdoda bojxona tariflari va tarifsiz cheklash usullarini qisqartirish tamoyili;

– bir tomonlama harakatlar olib borishning nomaqbulligi tamoyili (bunda TIF da qarorlar qabul qilishdan oldin pishiq har tomonlama maslahatlar o‘tkazish ko‘zda tutilgan);

– xususiy savdo munosabatlarini olib borishdagi huquqiy tamoyil (ushbu tamoyil bo‘yicha sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlarning GATT tarkibiga kirishiga yo‘l qo‘yilmagan).

. Jahon iqtisodiyotida GATT ining har tomonlama kelishuv vazifalari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– jahon savdosining monitoringi;

– savdo sohasidagi kelishuvlar bo‘yicha xalqaro arbitraj;

– xalqaro savdo masalalari bo‘yicha zaruriy hujjatlar tayyorlashda BMTga yordam berish;

– bojxona to‘siqlari va tarifsiz cheklashlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

GATT/JSTga a’zo davlatlarning hukumat rahbarlari tomonidan o‘zaro kelishuv masalalari imzolanganidan so‘ng, barcha joriy vazifalarni bajarish ishlari Kotibiyatning zimmasiga yuklatildi. Kotibiyat Jenevada (Shveytsariya) joylashgan bo‘lib, yilda bir marta o‘z Anjuman va Sessiyalarini o‘tkazib turadi. GATT/JSTning ish faoliyati davomida «raund»lar deb nom olgan ko‘p tomonlama maslahat yig‘ilishlar – 1947, 1949, 1951, 1956, 1960–1961, 1964, 1967, 1978–1979, 1986–1993 va boshqa yillarda ham o‘tkazib turilgan. GATT/JSTning Urugvay raundida (1986-yil) jahonning 125 mamlakatidan vakillar qatnashdi. Olib borilgan muzokaralar deyarli 8 yilga cho‘zilgan bo‘lsa-da (97 oy) o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etdi. 1994-yilda yakunlangan Urugvay raundining natijalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

– Jahon savdo tashkilotini (JST) tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi;

– GATTning savdo va xizmatlar bo‘yicha Bosh kelishuvi (GATS) tashkil topdi;

– JST uchun juda muhim bo‘lgan uchinchi hujjat – intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha Bosh kelishuvga (TRIPS) erishildi;

– raqobatbardosh tovarlarga nisbatan (rivojlangan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqarilgan) bojxona bojlarini bartaraf etish yoki radikal qisqartirishga (5 % ga qadar) kelishildi;

– bojxona bojlarini soddalashtirish masalalari kelishib olindi;

– eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar uchun (qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan tashqari) subsidiyalar berishni taqiqlash masalalari kelishib olindi.

Jahon iqtisodiyotida Urugvay raundining ushbu masalalari Montevideo Anjumanida yakuniy hujjat sifatida o‘z aksini topgan bo‘lib, ushbu Anjuman XX–XXI asrlar bo‘sag‘asidagi

jahon savdosini isloh qilish yo‘llarini belgilab berdi. 1948-yilda imzolangan Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuvning (GATT) «merosxo‘ri va davomchisi» bo‘lgan JSTni tashkil etish haqidagi kelishuv 1994-yilda Urugvay raundi yakullangandan so‘ng Marokashda imzolandi. Shunday qilib, 1995-yilda GATT tashkiloti o‘z faoliyatini JSTga bo‘shatib berdi. JST tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayonini kengayishida muhim ahamiyat kasb etib, eng obro‘li tashkilotlardan biriga aylandi.

Jahon savdo tashkilotining asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- diskriminatsiyalarsiz, kelishgan tomonlar bojxona bojlari va yig‘imlaridan foydalanishda bir-biriga qulayliklar yaratishi;
- savdoda tarifsiz cheklashlarni asta-sekin bartaraf etib borish;
- bozorga kirish yo‘llarni uzluksiz kengaytirib borish;
- adolatli sof raqobatga ko‘maklashish;
- savdo sohasidagi islohotlarni rag‘batlantirish va boshqalar.

JSTning asosiy maqsadi va vazifasi – davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, xalqaro savdoni kengaytirish, investitsiyani rag‘batlantirish, bandlik darajasini oshirish, aholining turmush tarzini yaxshilashdan iboratdir. Hozirgi kunda jahonning 153 ta (2008y.) davlati ushbu tashkilotga a’zodir. Jahonning ba’zi bir mamlakatlari JSTning barcha shartlarini bajargan holda ushbu tashkilotga a’zo bo‘lib kirmoqda. MDH mamalakatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi ham JSTga a’zo bo‘lishning turli bosqichlarida turibdi.

JSTning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan bo‘lib, uning oliy organi a’zo mamlakatlarning vakillaridan tashkil topgan Vazirlar Anjumani hisoblanadi. U ikki yilda kamida bir marta chaqiriladi. JSTning birinchi Anjumani 1996-yilning dekabrida Singapurda bo‘lib o‘tdi. JSTning Bosh Kengashi (nizolarni hal etish va shuningdek, savdo siyosatini nazorat qilish bo‘yicha komissiya va savdo siyosatini nazorat qilish bo‘yicha komissiyalar) joriy ishlarning bajarilishiga mas’uldir. JSTning Bosh Kengashi o‘zining vazifalarini asosan uchta yordamchi tashkilotlar (tovar

savdosi bo‘yicha, xizmatlar savdosi bo‘yicha va intellektual mulk huquqlarini yo‘nalishlari bo‘yicha savdo kengashi) orqali bajaradi. JST tuzilmasi Kotibiyat, Bosh direktor, shuningdek, uning to‘rtta o‘rinbosari tomonidan boshqariladi. (8-rasm)



8-rasm. Jahon Savdo Tashkiloti tuzilmasi

1994-yilning iyunida O‘zbekiston Respublikasi JSTning kuzatuvchisi maqomini oldi. Respublikamiz JST bilan boshlangan muzokaralirini hozirgi kunda ham davom ettirmoqda. Agar Respublikamiz JSTga a’zo bo‘lsa, mazkur tashkilotga a’zo davlatlarning 100 dan ortig‘i bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni olib borishning mustahkam xuquqiy imtiyozlariga ega bo‘ladi.

Xulosa

XX asrning 50-yillardan so‘ng jahon iqtisodiyotida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy-siyosiy va madaniy tashkilotlarni tashkil topish jarayonlari tezlashib borgan edi. Ekspertlarning fikricha, jahon iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkaza

oladigan 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ular turli shakldagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, rivojlantirish va takomillashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shuning uchun ham xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy rivojlanishini ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tipologiyasi haqida fikr yuritganda ikkita mezondan: geografik keng qamrovli xalqaro iqtisodiy munosabatlar mezoni va shuningdek, keng qamrovli faoliyat ko‘rsatish xususiyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning keng qamrovli faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida fikr yuritganda ixtisoslashgan global tashkilotlarga e’tiborni qaratmoq zarur. Bularning ichida, ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tassarrufidagi iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari alohida o‘ringa ega.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) 1945-yil 24-oktabrda 50 ta davlat vakillari, jumladan, Antigitler koalitsiyasi a’zolari (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya) tomonidan tashkil etilgan eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi. BMT iqtisodiy sohada asosan to‘rt yo‘nalish bo‘yicha (global muammolarni hal etish, davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko‘maklashish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi uzilishlarining oldini olish mintaqaviy va shuningdek, hududiy rivojlanishlarni qo‘llab-quvatlash) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

BMTning bosh organlari Bosh Assambleya (BA), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS), Xavfsizlik kengashi, BMTning Xalqaro sudi hamda Kotibiyat hisoblanadi. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida bir qator muammolarni hal qilishda BMTning Savdo taraqqiyoti bo‘yicha Anjumani YuNKTAD (1964-yilda ta’sis etilgan) va Sanoat taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti YuNIDO (1967-yilda tashkil topgan) muhim rol o‘ynaydi.

YuNKTAD Yevropa va Amerika bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning mahsulotlari uchun ma’lum imtiyozlar berish rejasini qo‘llab-quvvatlaydi.

YuNIDOga jahonning 166 davlati a'zo bo'lib, ushbu tashkilotning asosiy vazifasi Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Okean orollarida joylashgan iqtisodiyoti past rivojlangan mamlakatlar guruhini iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqish jarayonlarini rag'batlantirishdan iborat.

XX-XXI asrlar bo'sag'asida jahon mamlakatlari guruhining hududiy belgilari va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining muayyan sohalari bo'yicha birlashgan bir qator iqtisodiy tashkilotlar (Xalqaro savdo tashkiloti, Xalqaro ishlab chiqarish tashkiloti, Xalqaro transport tashkiloti, Xalqaro moliya tashkiloti va boshqalar) tashkil topdi. Ushbu belgilarga ko'ra jahon iqtisodiyotidagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tashkilotlarni quyidagi guruhlarga ajratib o'rganish mumkin: huquqiy doirasi keng bo'lgan va shuningdek, iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar guruhi, umumiqtisodiy masalalarni muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar guruhi, iqtisodiy birlashgan tashkilotlar guruhi, ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar guruhi

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar jahon valyuta tizimini, xalqaro kredit munosabatlarini, investitsion hamkorlik aloqalarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi alohida o'ringa ega bo'lib, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatishda, xalqaro kreditlar ajratishda, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni ta'minlashda yetakchilik qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan, EKOSOS, YuNIDO, YuNKTAD, YuNSITRAL kabi tashkilotlar jahon iqtisodiyotida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida moliya–valyuta sohalarini va shuningdek, sarmoyalarni himoyalash sohasidagi xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib, bunday xalqaro tashkilotlarga – Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Umumjahon

banki (UB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YETTB), Xalqaro hisob banki (XXB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) va ko‘ptomonlama sarmoyaviy kafolatlar beruvchi agentliklar, sarmoyaviy nizolarni tartibga soluvchi xalqaro markazlar kiradi.

Jahon iqtisodiyotini tartibga solish jarayonlarida (20–40-yillarda), ayniqsa, jahon savdosining borishida bojxona bojlari va boshqa turli cheklashlar paydo bo‘lgan edi. Bu esa davlatlararo tovarlar yetkazib berish hajmining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Buning natijasida xalqaro tovarlar savdosida bir qator muammolar (ikki tomonlama bitimning kelishuvida) paydo bo‘ldi. Ana shu davrda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar doirasida ko‘p tomonlama kelishuv shartnomalariga o‘tish zaruriyati tug‘ildi. Xalqaro savdo tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi bitimning tarif masalalariga bag‘ishlangan qismi bo‘yicha Jenevada maxsus muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Natijada, Savdo va tariflar bo‘yicha bosh bitim (GATT) imzolandi. Mazkur bitim 1948-yil 1-yanvarda kuchga kirgan. GATT faoliyatida bojxona bojlarini qisqartirish yoki umuman bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etgan.

GATT qoidalari bo‘yicha bir kelishuvga, to‘xtamga kelish qiyin bo‘lgani bois muzokaralar bir necha yillarga cho‘zilib ketardi. GATTning oxirgi ikkinchi, ya’ni Tokio hamda Urugvay raundlari shunday bo‘ldi. Urugvay raundida GATT mexanizmi ancha yaxshilandi, xizmatlar savdosi bo‘yicha umumiy kelishuvlar ishlab chiqilib, Jahon savdo tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi bitim ma’qullandi. Shunday qilib, 1947-yilda bitim sifatida tashkil topgan (GATT) va 1995-yilda alohida bir yirik tashkilotga aylangan JST jahon savdosini nazorat qilishda yirik vakolatga ega bo‘ldi. JST tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayonining kengayishida muhim ahamiyat kasb etib, eng nufuzli tashkilotlardan biriga aylandi.

JSTning asosiy maqsadi va vazifasi – davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, xalqaro savdoni kengaytirish, investitsiyani rag‘batlantirish, bandlik darajasini oshirish, aholining

turmush tarzini yaxshilashdan iboratdir. Hozirgi kunda jahonning 153 ta (2008y.) davlati ushbu tashkilotga a'zodir. 1994-yilning iyunida O'zbekiston Respublikasi JSTning kuzatuvchisi maqomini oldi. Respublikamiz GATT/JST bilan boshlangan muzokaralirini xozirgi kunda ham davom ettirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bir qator xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Mamlakatimizning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi masalasi respublika rivojlanishining ustuvor, davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamiz tashqi aloqalarni kengaytirishi va shuningdek, jahon iqtisodiy munosabatlarida faol ishtirok etishi uchun huquqiy negizlar yaratildi. Bular, avvalo, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoyalar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun asosiy shart-sharoitni yaratishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning ko'zga ko'ringan yirik va nufuzli xalqaro tashkilotlari BMT, YeI, YETTB, XVF, Osiyo banki va boshqalar bilan va shuningdek, dunyoning barcha mintaqalarida joylashgan o'nlab davlatlar bilan aloqalarni o'rnatgan bo'lib, ularning yirik bank va moliyaviy tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib bormoqda. O'zbekistonda hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning 43 ta elchixonasi va shuningdek, 15 ta davlatlararo tashkilotlari akkreditatsiya qilingan. Respublikamiz eng muhim xalqaro konvensiyalarning qatnashchisidir.

Tayanch iboralar: xalqaro tashkilotlar, ixtisoslashgan global tashkilotlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar YuNKTAD, YuNIDO, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, moliya-valyuta sohalarini, sarmoyalarni himoyalash tashkilotlari, Jahon savdo tashkiloti , xalqaro savdo tashkilotlari.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlarning tashkil topish sabalari nimalardan iborat?

2. Zamonaviy jahon xo‘jaligi va XIM tizimining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib kelayotgan qanday xalqaro tashkilotlarni bilasiz?

3. BMT va uning tasarrufidagi iqtisodiy tashkilotlarni (YuNKTAD, YuNIDO va boshqalar) xarakterlab bering.

4. Jahon xo‘jaligida ijtimoiy-iqisodiy sohalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatib kelayotgan xalqaro tashkilotlarga (xalqaro savdo, xalqaro ishlab chiqarish, xalqaro transport tashkiloti va boshqalar) tavsif bering.

5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizmida moliya-valyuta sohalariga oid xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni (Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqalar) faoliyat yo‘nalishlarini ochib bering.

6. Jahon savdo tashkilotining (JST) rivojlanish bosqichlarini xarkterlab bering.

6-BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI DOIRASIDA INTEGRATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISHI

6.1.Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining tashkil topishi va rivojlanish xususiyati

1991-yilning 8 dekabrida Belorussiyaning hukumat rezidensiyasida (Viskuli shahrida) Rossiya, Belorussiya va Ukraina respublikalarining hukumat rahbarlari MDH davlatlari ittifoqini tu’zish to‘g‘risida bitimni imzolashdi. Shu yilning 21-dekabrida Olma-Ota shahrida 11 ta suveren davlatlarning hukumat rahbarlari (Boltiq bo‘yi davlatlari va Gruziyadan tashqari) Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston va Ukraini respublikalari MDH ning teng huquqli davlatlari ekanligini qayd etuvchi Bayonnomani imzoladilar. 1993-yilning dekabrida esa, Gruziya ham MDH ga a’zo bo‘lib kirdi (biroq, Gruziya 2008-y. 14 avgustda ushbu ittifoqdan chiqishga qaror qildi). MDH o‘z a’zolarining suveren tengligiga asoslangan bo‘lib, xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli subyekti hisoblanadi.

MDH faoliyatining dastlabri yillarida (1991–1994-yillar) MDHga a’zo mamlakatlarda milliy manfaatlar ustuvor o‘ringa ega bo‘ldi. Buning natijasida o‘zaro tashqi savdo aloqalari sezilarli darajada zaiflashdi, MDH mamlakatlarining aksariyati uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga ustuvorlik berdilar. Ekspertlar fikricha, sobiq Ittifoq respublikalari o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarining buzilishi natijasida pirovard mahsulot ishlab chiqarish hajmi 35-40 foizga kamaydi.

MDH doirasida qabul qilingan dastlabki eng muhim hujjat Iqtisodiy ittifoq to‘g‘risidagi Shartnoma hisoblanadi (1993-yil sentabr). Mazkur hujjatda iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning asosiy bosqichlari belgilab berildi:

– davlatlararo (ko‘p tomonlama) erkin savdo uyushmasi;

– bojxona ittifoqi;
– tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi umumiy bozori;
– valyuta (pul) ittifoqi.

MDH doirasida mamlakatlarning muvofiqlashgan institutlari bo‘lib, uning boshqaruv organlari – davlat va hukumat rahbarlari Kengashi, Ijroiya kotibiyati hisoblanadi. MDH ustavida mamlakatlarning a’zo bo‘lish shartlari, maqsad va tamoyillari belgilab berilgan.

Uzoq tarixiy rivojlanish mobaynida yuzaga kelgan chuqur integratsion aloqalar, ishlab chiqarishning mamlakatlar bo‘yicha ixtisoslashuvi, korxona va tarmoqlar darajasidagi keng tarmoqli kooperatsiya, umumiy infratuzilmaning majudligi MDH tashkil topishining obyektiv asosi hisoblanadi.

MDH ulkan tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, ular MDHga a’zo mamlakatlarga yirik raqobat afzalliklarini taqdim etadi va jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashga imkoniyat yaratadi. Yer kurrasi hududining 16,3 foizi, jahon aholisining 5 foizi, jahon sanoat ishlab chiqarishining 10 foizi MDH hissasiga to‘g‘ri keladi. Hamdo‘stlik hududida jahon bozorida talab yuqori hisoblangan tabiiy resurslarning yirik zaxiralari mavjud. Faqat Rossiyada aniqlangan neft zaxiralari jahon neft zaxiralarining 13 foizini tashkil etadi. Ozarbayjonda bu ko‘rsatkich 10 foizdan ko‘proqqa, Qozog‘iston va Turkmanistonda qariyb 10 foizga teng. Rossiyada jahon gaz zaxiralarining 35 foizi joylashgan bo‘lsa, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekistonda birgalikda qariyb 20 foiz gaz zaxiralari joylashgan. Toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir ishlab chiqarish bo‘yicha Rossiya, Ukraina va Qozog‘iston jahonda ikkinchi o‘rinni egallaydi. Olmos, boksit, mis, nikel, kobalt va qo‘rg‘oshin rudalarining asosiy zaxiralari Rossiyada joylashgan bo‘lsa, temir rudalari, boksitlar va mis rudalarining yirik zaxiralari Ukraina, Qozog‘iston va Gruziyada joylashgan. Rossiya va Belarusda eng yirik o‘rmon hududlari (yer kurrasidagi o‘rmonlarning to‘rtdan bir qismi) va kaliy tuzining eng yirik zaxiralari mavjud. Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyoni

tutashtiruvchi eng qisqa quruqlik va dengiz (Shimoliy Muz okeani orqali) yo‘li MDH hududidan o‘tib, u XXI asrda eng muhim global iqtisodiy markazga aylanadi.

MDHning raqobatbardosh resurslari jumlasiga, shuningdek, arzon ishchi kuchi va energiya resurslarini kiritish mumkin. MDH bo‘yicha har yili jahon elektr quvvatining 10 foizi ishlab chiqariladi va iqtisodiy o‘sish uchun muhim shart-sharoit bo‘lib xizmat qiladi. Ammo MDH mamlakatlari jahon xo‘jaligida va savdosida uncha katta bo‘lmagan o‘ringa ega. MDH mamlakatlarining jahon YaIM dagi ulushi 2006-yilda 3,8 % ni tashkil etgan (1999-yilda 3,6 %) edi.

MDH doirasida hamkorlikning iqtisodiy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, a’zo davlatlar bilan ikkiyoqlama va shuningdek, ko‘p tomonlama olib borilayotgan iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarida teng huquqli prinsiplarga asoslangan hamkorlik qilish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. MDH doirasida yangi mustaqil davlatlarning o‘zaro hamkorlik qilishlari uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar ham yaratib berilgan.

MDH doirasida qabul qilingan bitimlar va shartnomalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinmoqda:

- integratsion aloqalarni rivojlantirish ixtiyoriylik asosida va ham ikkiyoqlama, ham ko‘p tomonlama shartnomalardan foydalanish yordamida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda;

– hududiy integratsiya o‘zaro manfaatdorlikka asoslanmoqda va hamkor davlatlarga ziyon yetkazmaslikra alohida e’tibor qaratilmoqda;

– zaruriyat tug‘ilganda MDH qatnashchilariga ularning mas’uliyati ostida va aniq iqtisodiy natijalarni ko‘zda tutib jamoaviy yordam ko‘rsatilmoqda;

– hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy islohotlar rag‘batlantirilmoqda va ularga har tomonlama yordam ko‘rsatilmoqda;

– mamlakatlararo munosabatlarda bozor subyektlari orasidagi gorizontal aloqalarga ustuvorlik berilmoqda, mikrodarajadagi

integratsion aloqalarni, iqtisodiy hamkorlikning yangi-yangi shakllarini keng ko‘lamda rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda.

MDH doirasida bir necha submintaqaviy tashkilotlar tashkil etilgan. Bu o‘z navbatida MDH doirasida integratsiyaning «turli tezlikda», «ko‘p darajali» borayotganligidan dalolat bermoqda (21-jadval).

21-jadval

MDH doirasidagi integratsion birlashmalar

Tashkilotlar / Davlatlar	GUAM	YevrosiyoIH	YalH	KXShT	MOHT	QIHT	Ittifoqchi davlatlar	ShHT
Ozarbayjon	x					x		
Armaniston				x		x		
Belarus		x	x	x			x	
Gruziya	x					x		
Qozog‘iston		x	x	x	x			x
Qirg‘iziston		x		x	x			x
Moldova	x					x		
Rossiya		x	x	x	x	x	x	x
Tojikiston		x		x	x			x
Turkmaniston								
O‘zbekiston		x		x	x			x
Ukraina	x		x			x		

Manba: Mualliflar tomonidan tuzilgan

Izoh: MDH (СНГ)* – Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi;

YevrosiyoIH (ЕВРАзЭС)* – YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati;

KXShT (ОДКБ)* – Kollektiv xavfsizlik bo'yicha shartnoma tashkiloti;

ShHT (ШОС)* – Shanxay hamkorlik tashkiloti (Xitoy ham a'zo);

MOHT (ОЦАС)* – Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti, (2005-yilda YevrosiyoIH bilan birlashdi);

YaIH (ЕЭП)* – Yagona iqtisodiy hudud;

QIHT (ОЧЭС)* – Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti,

GUOM (ГУАМ) – Demokratik va iqtisodiy rivojlanish tashkiloti (Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari bosh harflaridan olingan)

* – qavs ichida rus tilidagi nomlanishi.

x – a'zolik belgisi.

MDH doirasidagi integratsion jarayonlar yuksak marralarni egallamayotgan va o'z oldiga qo'ygan vazifalarning barchasini uddalamayotgan bo'lsa-da, ammo uning mavjudligi ko'p afzalliklarga ega.

MDHga a'zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining strategik maqsadlari bo'lib xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish, Hamdo'stlikka kiruvchi barcha mamlakatlar aholisi turmush farovonligini yaxshilash hisoblanadi.

Jahon xo'jaligida a'zo davlatlar uchun yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda yuqori natijalarga erishish jarayonlarini tartibga soluvchi platformaga aylanish – MDHning asosiy maqsadidir. Ushbu jarayonlar esa MDH davlatlarining jahon xo'jalik tizimiga bosqichma-bosqich, ishlab chiqarishni rivojlantirib kirishiga imkon beradi. Bunda samarali faoliyat yuritayotgan erkin savdo hududining yaratilishi to'laqonli bozor infratuzilmasining va xo'jalik hamkorligining yuqori bosqichlarga o'tishida obyektiv zaruriyat kasb etadi. MDHga a'zo-davlatlar jahon xo'jalik aloqalari tizimiga va shuningdek, iqtisodiy

hamnafaslik darajasiga bog‘liq holda integratsiya jarayonlarining keyingi rivojlanish bosqichlarida va mintaqaviy birlashmalarida to‘laqonli qatnashishi uchun mustaqil qarorlarni qabul qilishgan. Qabul qilingan ushbu qarorlarning amaliy bajarilishi esa MDH doirasida samarali hamkorlikda namoyon bo‘ladi.

90-yillarning boshiga qadar sotsialistik tuzumni boshidan kechirgan MDH mamlakatlari jahon xo‘jaligiga kirib borishi va zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun quyidagilarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:

– MDH mamlakatlari jahonda ro‘y berayotgan «ochiq iqtisodiyot» tamoyillari konsepsiyasini ilmiy jihatidan tahlil qilib, amalda keng qo‘llashlari lozim;

– Sotsialistik rejali tuzumni boshidan kechirgan (XXR, Polsha, Chexiya, Vengriya va h.k.lar) va hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanib borayotgan mamlakatlarning iqtisodiy islohotlarini chuqur tahlil etib, amaliy hayotda keng qo‘llashlari lozim;

– MDH mamlakatlari iqtisodiyotda eksport strategiyasi bilan sanoat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklardan amaliyotda foydalanishlari lozim;

–MDH mamlakatlari jahon mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion jarayonlarning borishini tahlil etib, tashqi iqtisodiy faoliyatning jahon standartlariga mos mexanizmini ishlab chiqishlari va takomillashtirishlari lozim.

XX – XXI asrlar bo‘sag‘asi jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, tashqi savdo sohasida iqtisodiy munosabatlar global ko‘lamda rivojlanganligi bilan va shuningdek, integratsion jarayonlar kengayib borganligi bilan xarakterlanadi. Ana shu davrda Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy tiklanganligi, jahonning ko‘plab mamlakatlarida (asosan Yaponiyada) Osiyo krizisi oqibatlari bartaraf etilganligi, MDH mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida uzoq yillik (5–10 yillik) tushkunlikdan so‘ng barqarorlashish jarayonlari ro‘y berganligi yaqqol ko‘zga tashlandi.

1996–2002-yillar davomida MDH mamlakatlarining (Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Armaniston va h.k.lar) savdo-iqtisodiy aloqalarini borishida ayniqsa sanoati rivojlangan (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya) va rivojlanayotgan (Turkiya, Eron, Hindiston) davlatlar alohida o‘rinni egallab keldi. (22-jadval)

YeTTB o‘zining 2004-yil 9 noyabridagi hisobotida MDH mamlakatlarida iqtisodiy o‘sish 7,4 %, Berlin devorining qulashidan so‘nggi 15 yil ichida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoning sobiq sotsialistik davlatlari bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ulkan muvaffaqiyatga erishganligini qayd etgan (2003-yilda bu ko‘rsatkich 5,6% ni tashkil etgan). YeTTB bergan ma’lumotlarga ko‘ra, eng yuqori iqtisodiy ko‘rsatkich MDH mamlakatlarida ku’zatilgan (7,4%) bo‘lsa, Janubi–Sharqiy Yevropa davlatlarida iqtisodiy o‘sish 5%ga, Markaziy Yevropa va Bolqon mamlakatlarida esa 4.9% ga o‘sgan. Eng yirik iqtisodiyotga ega bo‘lgan Rossiyaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari 6,9% dan 7,3% gacha o‘sgan. 2005-yilda mazkur mintaqaning umumiy ko‘rsatkichi 5,5% ni tashkil etgan.

22-jadval

MDH va boshqa mamlakatlarning
eksport va import operatsiyalar umumiy hajmidagi ulushi, %

	1996y.			2001y.			2002y.		
	Jami	MDH	Boshqalar	Jami	MDH	Boshqalar	Jami	MDH	Boshqa lar
Eksport									
Ozarbayjon	100	45	55	100	10	90	100	12	88
Armaniston	100	63	37	100	26	74	100	19	81

Belarus	100	63	37	100	60	40	100	55	45
Gruziya	100	62	38	100	45	55	100	47	53
Qozog‘iston	100	55	45	100	30	70	100	23	77
Qirg‘iziston	100	66	34	100	35	65	100	35	65
Moldova	100	63	37	100	61	39	100	54	46
Rossiya	100	19	81	100	15	85	100	15	85
Tojikiston	100	34	66	100	32	68	100	27	73
Turkmaniston	100	49	51	100			100		
O‘zbekiston	100	39	61	100			100	36	64
Ukraina	100	53	47	100	29	71	100	25	75
Import									
Ozarbayjon	100	34	66	100	31	69	100	39	61
Armaniston	100	50	50	100	25	75	100	30	70
Belarus	100	66	34	100	70	30	100	70	30
Gruziya	100	40	60	100	37	63	100	39	61
Qozog‘iston	100	70	30	100	52	48	100	46	54
Qirg‘iziston	100	68	32	100	55	45	100	55	45
Moldova	100	68	32	100	38	62	100	39	61
Rossiya	100	29	71	100	27	73	100	22	78
Tojikiston	100	59	41	100	78	22	100	24	76
Turkmaniston	100	55	45	100			100		
O‘zbekiston	100	41	59	100			100	37	63
Ukraina	100	65	35	100	56	44	100	54	46

Manba: Содружество Независимых Государств в 2002 году. Статистический справочник. Межгосударственный статкомитет СНГ. М.:2003.

Garchi MDH doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish sohasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, MDH mamlakatlari iqtisodiyotlarining integratsiyalashuvi past darajada saqlanib qolmoqda. Sobiq Ittifoqda respublikalararo tovar aylanmasi ittifoqdosh respublikalar jami tashqi savdo aylanmasining 69 foizini, Yevropa Ittifoqida unga a’zo mamlakatlar o‘zaro tashqi savdo aylanmasining jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 62 foizni tashkil etsa, MDHda bu ko‘rsatkich 28 foizga teng, xolos.

MDHga a’zo alohida mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatlari turlicha. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Rossiya alohida o‘ringa ega. MDH aholisining yarmidan ko‘prog‘i, YAIMning 70,1 foizi, va sanoat mahsulotining 51 foizi Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

MDH aholisining 9 foizi, yalpi ichki mahsulotning 2,5 foizi, yalpi sanoat mahsulotining 2 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. MDHning ko‘plab respublikalari mustaqillikni qo‘lga kiritgach, tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirishga erishdilar. Eksport va importning YaIMdagi ulushining o‘sishi fikrimiz dalilidir. Xususan, Belarusda eksportning YaIMdagi ulushi 1990-yilda 46 foizdan 2002-yilda 70 foizgacha, Rossiyada 18 foizdan 35 foizgacha, Ukrainada 28 foizdan 56 foizgacha, O‘zbekistonda 29 foizdan 38 foizgacha o‘sgan.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiyaga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammo tashkiliy-huquqiy asos va Hamkorlikka a’zo mamlakatlar o‘zaro harakat mexanizmining takomillashmaganligi hisoblanadi. Shuningdek, MDHga a’zo mamlakatlar iqtisodiy salohiyatining turli darajada ekanligi, alohida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi tafovut, milliy qonunchilik hujjatlarining muvofiqlashtirilmaganligi kabi omillar ham integratsiya imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelmoqda.

Erkin savdo hududlarini tashkil etish, to‘lov ittifoqini shakllantirish, yagona kommunikatsion va axborot makonini barpo etish, ilmiy-texnika va texnologik hamkorlikni takomillashtirish asosida umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish orqali MDHga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi integratsion aloqalarni yanada

rivojlantirish mumkin. A'zo mamlakatlar investitsiya salohiyatlari integratsiyasi, Hamdo'stlik doirasida kapital oqimini samarali yo'lga qo'yish eng muhim muammolardan hisoblanadi.

MDHning har bir a'zosi boshqa bir a'zo davlatlarning manfaatlariga to'g'ri yondashgandagina Hamdo'stlikning istiqboli porloq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, avvalo barcha a'zo davlatlar manfaatlariga mos keladigan masala va mavzuni ko'tarish, keyin hammaning bu masalaga munosabatini inobatga olish lozim.

6.2. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida integratsiyalashuv hususiyatlari

Sotsialistik xo'jalik tizimidagi davlatlar (sobiq SSSR) ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy jihatdan inqirozga uchragandan so'ng, suveren mustaqillikka erishgan davlatlar o'rtasidagi integratsion jarayonlar MDH davlatlarining tashkil topishi (1992-yil) bilan boshlandi. Biroq, shu davrda a'zo davlatlar o'rtasida bir qator masalalar bo'yicha, jumladan, savdo-iqtisodiy masalalarni o'zaro kelishish jarayonlari umuman o'z yechimini topa olmagan edi. MDH rahbarlari bu masalaning yechimini topish uchun o'zlarining bir qator takliflari bilan chiqishdi. Jumladan, 1994-yilda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboev MDH davlatlari doirasida YevrOsiyo ittifoqini tuzish taklifi bilan chiqqan edi. Biroq, ushbu taklif MDH davlatlarining boshqa Davlat rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

1995-yilda Rossiya Federatsiyasi (RF) MDH davlatlarining integratsion rivojlanishining yangi konsepsiyasini taklif etdi. Ushbu konsepsiya 1995-yilning 6 yanvarida Rossiya, Belarus va Qozog'iston o'rtasida tuzilgan bayonnomalarda o'z aksini topdi. Keyinchalik bu bayonnomaga Qirg'iziston (1996 y.)va Tojikiston (1999 y.) respublikalari ham qo'shildi.

1996-yilning 29 martida Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiya o'rtasida iqtisodiy va gumanitar yo'nalishlar bo'yicha

integratsion jarayonlarni chuqurlashtirish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Ushbu shartnoma asosida MDH davlatlari o‘rtasida yangi tashkilot–Bojxona Ittifoqi (BI) tashkil topdi (1995-yil). Bojxona Ittifoqining oliy organi Davlatlararo yig‘in hisoblanib, uning tarkibi davlat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlaridan iborat bo‘ldi. 1999-yilda Tojikiston ham BI ga a’zo bo‘lib kirdi. 2000-yilda besh davlat (Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Qirg‘iziston, Tojikiston) BIni YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga aylantirish to‘g‘risida kelishib olishdi va natijada xalqaro maqomga ega bo‘lgan YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati tashkil topdi.

Bojxona Ittifoqiga a’zo davlatlarning rivojlanish xususiyatlari. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati asosan BI huquqiy kelib chiqishining davomchisi hisoblanadi. Ya’ni, uning rivojlanish jarayoni BI davrining boshlanishi bilan bog‘liqdir. Jahon iqtisodiyotida umumiy belgilangan Xalqaro me’yorlar va qoidalarga asosan BI savdo-iqtisodiy birlashma holida quyidagilarga ega bo‘lishi mumkin:

– yagona bojxona hududi;

– yagona bojxona tarifi;

– tarif va notarif chegirmalarga ega bo‘lmagan rejim (bitimda ko‘zda tutilgan holatlardan tashqari);

– bojxona chegirmalarida bojxona nazoratini yengillashtirish huquqi;

– iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlaridan kelib chiqqan holda, bozor prinsiplarini qo‘llash huquqi;

– boshqaruv organlari;

– umumiy bojxona siyosatida bojxona rejimlarini qo‘llab – quvvatlash huquqi va boshqalar.

Jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida BIni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – yagona bojxona hududining (BH) tashkil topishidir. Bu esa o‘z navbatida umumiy bojxona tarifini (UBT) va tashqi savdoni boshqarishda umumiy notarif choralarini taqozo etadi. Agar UBT ni qo‘llayotgan a’zo davlatlardan biri import qilinayotgan tovarlarga nisbatan boshqa tariflarni qo‘llamoqchi

bo‘lsa, u holda ushbu davlat a’zo davlatlar bilan bu o‘zgarishni kelishgan holda amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

1995-yilning iyulida Olma-Ota (Qozog‘iston) shahrida bo‘lib o‘tgan Sammit yig‘ilishida Belarus va Qozog‘iston o‘rtasida tashqi savdoni muvofiqlashtirishning birinchi bosqich yakunlari bo‘yicha Bayonnomaga davlat rahbarlari qo‘l qo‘yishdi. Shu davrda Rossiya va Belarus davlatlarining rahbarlari tashqi savdoda tariflarning 100 % ga birxillashishiga erishgan edi. Faqatgina Qozog‘istonda eksport tovarlaridan bo‘lmish rangli metallar bo‘yicha 8 xil turdagi tovarlar pozitsiyasida tafovutlar saqlanib qolgan edi, xolos. Shuni alohida qayd etish joizki, ushbu davlatlarda BI tariflarini belgilash mexanizmi to‘liq amalda qo‘llanilmagan bo‘lib, ba’zi bir davlatlar obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra o‘zlarining milliy iqtisodiy xavfsizligini o‘ylagan holda xalqaro savdoda tariflarni o‘zgartirishga majbur bo‘lishgan edi. 1999-yilda ushbu davlatlarda tariflarning bir xil me’yorga keltirilgan darajasi bor-yo‘g‘i 57 % ni tashkil etgan, xolos.

Jahon iqtisodiyoti va XIM tizimida umumiy bojxona tariflarining ijobiy tomonini biz a’zo davlatlar o‘rtasida Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish istagining paydo bo‘lishida ko‘ramiz. JST ning asosiy qoidalaridan biri bu – tashkilotga bir davlat yoki bir necha davlatlar birdaniga a’zo bo‘lishlari ham mumkinligidir. BI ga a’zo davlatlarning har biri turli davrlarda JSTga a’zo bo‘lishsa, ular xalqaro savdo tariflari va boshqa tashqi savdo bo‘yicha turli shartlarni bajarishiga to‘g‘ri keladi. Bunday holatni biz 1998-yilning noyabrida Qirg‘izistonning JST ga a’zo bo‘lishida ham ko‘rishimiz mumkin. Qirg‘izistonning bojxona tariflari BIga a’zo davlatlar orasida tariflarga qaraganda majburiyatlarni 17% ga kam olganligidir. Xullas, 2000-yillarda ham MDH mamlakatlari doirasida yagona bojxona hududini tashkil etish masalasi to‘liq hal etilmagan edi.

YevrOsiyo beshligining paydo bo‘lishi va uning sabablari. Bojxona ittifoqiga a’zo davlatlarning integratsion Qo‘mitasining besh yil mobaynida olib borilgan ish faoliyati tahlilidan kelib

chiqqan muammolar, yangi xalqaro tashkilotni tashkil etishni taqozo etgan edi.

MDH mamlakatlari doirasida BIning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iboratdir:

1. Konsensus asosida qabul qilingan qarorlarning samarasizligi. BIga a'zo davlatlar ko'pgina masalalarni hal qilishda bir tomonlama xarakterga ega bo'lgan javoblarni berib, integratsion jarayonlarda yechilishi zarur bo'lgan masalalarni ko'rmaganligidir. Bu o'z navbatida integratsion jarayonlarda muhim rol o'ynagan tashqi savdoni samarali amalga oshirishda prinsipial masalalarning yechimsiz qolishiga olib kelgan edi. Agar biz YeI misolida bu holatni ko'radigan bo'lsak, ushbu davlatlar doirasida qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinayotganligi natijasida integratsion jarayonlar ushbu davlatlarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

2. BIda milliy davlat organlarini boshqaradigan yagona tashkilotning yo'qligi. Bu o'z navbatida yagona tashqi savdo siyosatini olib borishga yo'l bermadi. Ya'ni, har bir a'zo davlat o'z tashqi savdo siyosatini olib borishda kelishib olishmasdan, alohida qarorlarni qabul qilgan edi.

3. BIga a'zo davlatlar tomonidan olingan majburiyatlarning bajarilmasligi yoki buzilishi. Ya'ni, iqtisodiy ahvoli notinch bo'lgan ko'pgina a'zo davlatlar BI doirasiga xos bo'lmagan qarorlarni qabul qilishligidir.

4. BI qoidalarini buzgan a'zo davlatlarga nisbatan sanksiyalarning qo'llanilmasligi.

5. MDH mamlakatlari doirasida BI yuridik jihatdan yetarli darajada rasmiylashtirilmaganligi. 1995-yilda tashkil topgan BI xalqaro tashkilot statusini to'liq olmagan edi.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan bir qator kamchilik va muammolar shuni ko'rsatib turibdiki, BIga a'zo davlatlar o'rtasida tashqi savdoni rivojlantirish va uni yangi bosqichga olib chiqish, davlatlararo normativ hujjatlarni ishlab chiqish, savdoni to'g'ri va teng taqsimlashda BI o'zining boshqaruv faoliyatini tugallab,

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishning yangi yo‘nalish va mexanizmlari paydo bo‘la boshlagan edi. BIga a’zolik davri va YevrOsiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga a’zolikning dastlabki yillarida mamlakatlar o‘rtasidagi savdo munosabatlari quyidagicha xarakterlanar edi (23-jadval).

23-jadval

YevrOsiyo Iqtisodiy Hamjamiyati mamlakatlarining o‘zaro savdodagi ulushi, %

	1995-y.	2000-y.	2001-y.	2002-y. (yanvar–sentabr)
Eksport				
Belarus	20,8	26,6	15,5	28,7
Qozog‘iston	23,2	13,5	15,5	11,8
Qirg‘iziston	1,7	0,8	0,9	0,8
Rossiya	53,3	57,1	67,1	57,9
Tojikiston	1,0	1,9	0,9	0,8
Import				
Belarus	28,6	38,2	35,8	38,3
Qozog‘iston	19,1	17,1	20,0	17,5
Qirg‘iziston	2,2	1,3	1,2	1,6
Rossiya	48,5	42,1	41,5	40,9
Tojikiston	1,6	1,3	1,5	1,7

Manba: Содружество Независимых Государств в 2002 году. Статистический справочник. Межгосударственный статкомитет СНГ. М.:2003.

Shu nuqtai nazardan, hududiy integratsion birlashma bo'lmish BI yangi xalqaro tashkilot – YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga transformastiya qilindi.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining rivojlanish konsepsiyasi. 2000-yilda YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo besh davlat rahbarlari quyidagi masalalarni hal etish uchun bayonot berishdi:

Tashqi savdo va bojxona siyosatini amalga oshirish bo'yicha:

– erkin savdo rejimini amalga oshirish yo'lidagi yuridik masalalarni oxiriga yetkazish;

– bojxona tarifi va shuningdek, savdoni notarif boshqarishda yagona tizimga erishish;

– tovar va xizmatlar savdosida yagona qoidalarga amal qilish;

– Jahon savdo tashkiloti va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan aloqalarni olib borishda yagona tashqi savdo siyosatiga amal qilish;

– bojxona tizimini boshqarish va qo'llab-quvvatlashda unifikatsiyalashtirilgan tizimni yaratish;

– YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining tashqi chegaralarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, kontrabanda va boshqa bojxona qoidalari buzilishining oldini olish;

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha:

– o'zaro ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;

– tadbirkor ishlab chiqaruvchilarga nisbatan teng huquqli shart–sharoitlarni yaratish;

– umumiy energetika bozorini tashkil etish;

– texnik-texnologik va axborot vositalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

– YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida qarorlar qabul qilishda mahalliy qonunchilik mexanizmini tatbiq etish va takomillashtirish.

YevrOsiyo iqtisodiy integratsiyasi: rivojlanishining o'ziga xos tomonlari va a'zo davlatlar rivojining ustuvor

yo‘nalishlari. 2002-yilning avgustida YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining davlatlararo yig‘ilishining raisi N. Nazarboev rahbarlariga YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining ikki yil (2000–2002y.) mobaynida qilgan ishlari bo‘yicha hisobotida integratsion jarayonlarni YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida samarali rivojlantirish uchun quyidagi bir qator masalalarni hal etish zarurligini ko‘rsatib o‘tgan edi:

– a’zo davlatlar tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sinxron tarzda bormayotganligi, ya’ni qonunchilikda o‘zaro kelishuvchilik darajasining pastligi;

– iqtisodiy o‘sish darajasi a’zo davlatlar o‘rtasida har xil ekanligi, ya’ni, integratsiyaning har bir bosqichidan o‘tish paytida a’zo–davlatlar ma’lum bir iqtisodiy o‘sish darajasiga erishgan bo‘lishi;

– erishilgan kelishuvlarning amaliyotdagi holati, ya’ni, qabul qilingan qarorlarning ko‘pchiligi faqatgina xujjatlarda (qog‘oz-larda) qolib ketayotganligi;

– savdo siyosatida ziddiyatlarning sodir bo‘lib turishi va boshqalar.

YevrOsiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga a’zo davlatlar rivojining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida ro‘y berayotgan hamkorlikning barchasini milliy davlatlarning tashqi savdo siyosati deb belgilanishi va ushbu yo‘nalishda qilinayotgan ishlarni milliy davlatlar aholisining ijtimoiy hayotiga olib kirish;

– iqtisodiy rivojlanishni muvofiqlashtirish;

– texnik yordam ko‘rsatishni tashkillashtirib muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha masalahatlar berish;

– qabul qilingan qarorlarni, shuningdek, qo‘yilgan masalalarni samarali hal etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha muammoli masalalarni hal etish mexanizmini ishlab chiqish;

– iqtisodiy siyosatni a'zo davlatlar bilan kelishilgan holda belgilash. Bunda, a'zo davlatlarning makroiqtisodiy barqarorlikka erishishi va shuningdek, iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish ko'zda tutilgan;

– YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida bojxona ittifoqini tashkil etish. Bunda umumiy bojxona tarifini ishlab chiqish, yagona savdo siyosatini amalga oshirish, boshqaruv tizimida bojxona ittifoqining yagona organini tashkil etish, JST ga a'zo bo'lish pozitsiyasini a'zo davlatlar manfaatini inobatga olgan holda belgilash ishlari ko'zda tutilgan;

– iqtisodiyotning real sektoridagi bog'liqlik. Bunda xo'jalik subyektlarining faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoit yaratish, investitsion muhitni yaratish, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarida investitsion loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish, xalqaro lizingni rivojlantirish, tadbirkor biznes subyektlarining samarali ish olib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan;

– energetika bozorini tashkil etish va birgalikda rivojlantirish;

– agrosanoat kompleksi bo'yicha ishlab chiqarish aloqalarini olib borib, subsidiyalashning yagona mexanizmini ishlab chiqish;

– umumiy moliya bozorini tashkil etish va valyuta integratsiyasini rivojlantirish. Bunda:

- pul-kredit siyosatini kelishilgan holda olib borish;
- valyuta boshqaruvi bo'yicha qonunchilikni birxillashtirish;
- bank qonunchiligini garmonizatsiyalash (birxillashtirish);
- umumiy kafolatlash va fond bozorini tashkil etish;
- yagona valyutga o'tish prinsiplari va sharoitlarini kelishish;
- byudjet va soliq siyosati sohasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab olish.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlar va shuningdek, migratsiya bo'yicha hamkorliklarni amalga oshirish. Bunda:

- fuqarolarning bir davlatdan boshqa bir davlatga erkin o'tishlarini (migratsiyasini) ta'minlash;
- mehnat migratsiyasini boshqarish.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining huquqiy tizimini tashkil etish. Bunda:

- hamjamiyatning oliy organlarini huquqiy rasmiylashtirish;
- YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining dalolatnomalari bajarilishining huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish;
- YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.

2005-yilning 6 oktyabrida Sankt–Peterburg shahrida Markaziy Osiyo hamjamiyati tashkilotining (O‘OHT) shakllanish konsepsiyasi a’zo davlatlar (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston) tomonidan tasdiqlandi. Ushbu tashkilotning maqsadi va boshqaruv mexanizmi aslida YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati tashkilotining prinsiplariga (masalan, bosqichma-bosqich bojxona ittifoqi va umumiy bozorni tashkil etish prinsiplari) mos edi. Bular o‘z navbatida tovar va xizmatlar bozorini kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishini nazarda tutadi. Xullas, yuqorida qayd etilgan fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda a’zo davlatlarning rahbarlari O‘OHT bilan YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatini birlashtirishga kelishib olishdi. 2005-yilning 26 dekabrida Sankt–Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi Sammit yig‘ilishida bu kelisuv tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasiningning YevrOsiyoIHga a’zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish ko‘rsatkichlari ushbu jadvalda berilgan.

24-jadval

O‘zbekistonning YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a’zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari ko‘rsatkichlari

(2006-y.)

(mln. AQSh doll.)

Mamlakatlar	Eksport hajmi		Import hajmi		Saldo	
	01.12.05	01.12.06	01.12.05	01.12.06	01.12.05	01.12.06
Hammasi	4652,2	5390,1	3676,5	3953,5	975,7	1436,6
Belarus	6,4	8,9	50,5	51,7	- 44,1	-42,8

Qozog‘iston	204,7	277,2	244,7	386,6	-40	-109,4
Qirg‘iziston	41,0	68,4	23,2	27,9	17,8	40,5
Rossiya	911,4	1483,5	930,2	1021,8	- 18,8	461,7
Tojikiston	125,5	153,1	8,9	15,3	116,6	137,8
Jami YevrOsiyo bo‘yicha	1289,0	1991,1	1257,5	1503,3	31,5	487,8

Manba: MDH mamlakatlari statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2006-y.

Jadvalda 2005–2006- yil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining YevroOsiyo IH davlatlari bilan tashqi savdo saldosi, eksport va import ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, Belarus, Qozog‘iston davlatlariga eksportning o‘sayotganligiga qaramasdan, hamon salbiy saldo miqdori saqlanib qolgan, lekin asosiy strategik hamkor Rossiya bilan esa tashqi savdo operatsiyalari ijobiy natijalarga erishilganini, shuningdek, hamjamiyatga a’zo Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari bilan ham eksportning miqdori importga nisbatan yuqoriligini qayd etish mumkin.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlarida byudjet va ovoz berish tartiblari. Iqtisodiyotda O‘OHTning amaldagi organi yo‘qligi tufayli bu tashkilotning byudjeti ham yo‘q edi. Shuning uchun ham davlatlararo kelishish ishlari ushbu tashkilotda konsensus orqali amalga oshirilib turilgan. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida esa (davlatlararo yig‘in, a’zolikni to‘xtatish yoki bekor qilish masalalaridan tashqari) barcha masalalar bo‘yicha konsensus qarorlar qabul qilinadi.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati o‘zining doimiy harakatdagi organi va byudjetiga ega. Integratsion qo‘mitada qarorlarning ko‘pchiligi 2/3 qism ovoz bilan qabul qilinadi. Bunda ovozlar soni a’zo davlatlarning hamjamiyat byudjetiga qo‘shgan ulushiga qarab taqsimlanadi. Jumladan, RF uchun 20 %, Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari uchun 10 % ni tashkil etgan.

2006-yilda YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati byudjeti 4 mln. AQSh dollarini takshil etgan.

2007-yilga kelib YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida 80ga yaqin shartnoma, bayonnoma, konvensiya va memorandum-dan iborat umumiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ularni respublikaning tegishli tashkilot rahbarlari chuqur o‘rganib, tahlil etishlari maqsad-ga muvofiqdir.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyaning rivojlanish muammolari. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a’zo davlatlar o‘rtasida umumiy bojxona tariflarini qo‘llash borasida qizg‘in ishlar olib borilmoqda. Buni Qozig‘iston tomoni o‘zining import tariflarini ishlab chiqish arafasida turganligidan ham ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a’zo davlatlarning umumiy bojxona tariflar bazasi 53 % ni tashkil etgan holda, Qozog‘istonda bojxona tariflari darajasiga o‘zgartirish-lar kiritgandan keyin esa, 62 % gacha ko‘tarilishi kutilmoqda. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati miqyosida savdo masalalaridan tashqari transport sohasida ham hal etilishi qiyin bo‘lgan muammolar mavjud. Hamjamiyat doirasida haligacha ichki va tashqi transport tariflarida tafovutlar mavjud. Masalan, Rossiyaning xalqaro transport tariflari Qozog‘iston Respublikasining xalqaro transport tariflariga qaraganda juda yuqoridir. Qozog‘istonlik tovar ishlab chiqaruvchilar Rossiya hududida tranzit mahsulotlar uchun Rossiya ishlab chiqaruvchilariga nisbatan 2,5 barobar ko‘p mablag‘ni transport xarajatlariga sarflashni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida hamjamiyatga a’zo tomonlarning transport sohasida bojxona siyosatini olib borishda o‘zaro bir fikrga kela olmaganligidan dalolat beradi. Bunda ikki tomonlama savdoni rivojlanishida transportning bir xil sharoitda harakatlanishi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bu holatni tranzit rejimida ko‘rish. Muammolardan eng muhimi bu transport vositalarining a’zo davlatlarning chegara postlaridan o‘tishida ko‘p vaqt davomida turib qolishidir. Erkin savdo rejimida aksizlar ichki ishlab chiqaruvchilarga qanday darajada qo‘llanilsa,

import tovarlarni olib kelishda ham shu darajadan oshmasligi kerak.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlarning savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish imkoniyatlari mavjud. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar o'rtasida erkin savdo hududining mavjudligi kelajakda transport sohasida bir xil shart-sharoitlarga mos kelgan bojxona tariflarini joriy etish imkoniyatini beradi. Bu esa respublikalarning eksport salohiyatini yanada oshishiga olib keladi. A'zo davlatlar doirasida aksiz solig'ining unifikastiyasiga erishish, ya'ni, ichki ishlab chiqarish va import tovarlariga nisbatan aksiz solig'ini bir xil darajada qo'llanishi muhim rol o'ynaydi.

6.3. O'zbekiston Respublikasining MDH doirasidagi hamkorligi

MDH mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz dastlabki-yillardanoq Hamdo'stlik tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning muassislaridan biri sifatida qatnashdi.

MDH tashkil qilingan dastlabki kundan boshlab, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, xo'jalik aloqalarini saqlash va kengaytirish, siyosiy ishlarga aralashmaslik, bir-biriga sun'iy ta'sir qilmaslik tarafdori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin oldi. MDH mamlakatlari bilan bo'lgan munosabatda O'zbekistonning o'rni quyidagilardan iborat edi:

– MDHning barcha ishtirokchi davlatlari o'zaro manfaatlari va teng huquqli shartlarni e'tiborga olgan holda, iqtisodiy integratsiyaning ustuvorlikda bo'lishligi sharti;

– O'zbekiston Respublikasi o'zaro manfaatli hamkorlik qilishda ixtiyoriylik tamoyiliga amal qilish tarafdori ekanligi va boshqalar.

MDH sammitlarida, davlat rahbarlari kengashning tor doiradagi uchrashuvlarida hamda kengaytirilgan tartibdagi muzokaralarda yalpi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda, terrorchilik,

diniy ekstremizm va uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yaroq va narkotik moddalar kontrabandasiga, noqonuniy muhojirlikka qarshi ku'rashda amaliy hamkorlikni har tomonlama kuchaytirish masalalari ko'rib chiqdilgan. Shu jumladan, terrorizmga qarshi o'zaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. MDH doirasida noqonuniy muhojirlikka qarshi kurashdagi hamkorlik konsepsiyasi, jinoyatchilikka qarshi kurashning 2005–2007-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlarning davlatlararo dasturi, narkotik vositalar, psixotrop moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi ku'rashda 2005-2007-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlarining imzolangani buning dalilidir. MDH a'zolari energetika, suv zaxiralari, transport va boshqa sohalarda mamlakatlarining hamkorligini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratadilar. Oliy darajadagi uchrashuvda ko'riladigan asosiy masalalardan yana biri MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishdir.

Jahon iqtisodiyotida tovar va xizmatlarning erkin harakati o'zaro ishonch va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi, axborot almashuvini kuchaytiradi. Ayni paytda qonunga zid bo'lgan savdo-sotiqqa chek qo'yiladi. Bu esa nafaqat kontrabanda va noqonuniy muhojirlik kabi iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar ham sezilarli ravishda rivoj topib bormoqda. Jumladan, 2003-yilda Ukraina bilan bo'lgan savdo aylanmasi 1.5-2 barobarga, Rossiya bilan 20-25 % ga, Markaziy Osiy davlatlari bilan 1.5-2 barobarga o'sgan edi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy aloqalar Ozarbayjon, Armaniston, Belarus va Gruziya kabi mustaqil davlatlar bilan ham kengayib bormoqda.

MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanmaning rivojlanishi teng xuquqli va o'zaro foydali prinsiplarga asoslangan. 2000–2007-yillar davomida O'zbekiston bilan yirik savdo-iqtisodiy aloqalarni olib boruvchi davlatlar – Rossiya, Qozog'iston, Ukraina va Belarus hisoblanadi.

1-diagramma

O‘zbekistonning mamlakat guruhlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi, foiz hisobida.



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. 2010-y.

So‘nggi yillarda tashqi savdoning geografik tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi (1-diagramma). Agar 1994-yilda tashqi savdo aylanmasining 58 foizi MDH mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib bu ko‘rsatkich 35,8 foizga teng bo‘ldi. Uzoq xorij mamlakatlarining salmog‘i esa 1994–2004-yillarda muvofiq ravishda 42 foizdan 64,2 foizgacha o‘sdi.

O‘zbekiston tashqi savdo aloqalarida MDH mamlakatlari ulushining pasayib, uzoq xorij mamlakatlari ulushining oshishiga, bizning fikrimizcha, quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

– MDH mamlakatlarida iqtisodiy inqiroz va ushbu mamlakatlarda to‘lov qobiliyatining pasayib ketishi;

– tovarlarni o‘zaro yetkazib berish bo‘yicha hukmatlararo savdo bitimlari salmog‘ining pasayishi;

– yangi texnika va ilg‘or texnologiyalarni uzoq xorij mamlakatlari, eng avvalo, rivojlangan mamlakatlardan sotib olish imkoniyatining yuqoriligi;

– eksport tushumlarini erkin almashinadigan valyutada olish maqsadida rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishga ustuvorlik berilishi va h.k.

Albatta, tashqi savdo aylanmasida uzoq xorij mamlakatlari ulushining o‘sib borishi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari faollashib borayotganligidan, uning jahon xo‘jalik aloqalariga kirib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday tendensiyalarning salbiy jihatlari ham mavjud. O‘zbekiston geografik joylashuvi nuqtai nazaridan anklav davlat bo‘lib, bevosita dengiz yo‘llariga chiqish imkoniga ega emas.

Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatda transport xarajatlarining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, qo‘shni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mahsulot tannarxiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va raqobatbardoshlik darajasining oshishiga olib keladi.

O‘zbekiston MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoda ijobiy saldoga ega bo‘lib, 2004-yilda bu ko‘rsatkich 94,8 mln dollarni tashkil etdi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda bu ijobiy saldo o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

25-jadval

O‘zbekiston eksporti va importining MDH respublikalari bo‘yicha taqsimlanishi (jami eksportga nisbatan % hisobida)

	Eksport			
	Qozog‘iston	Rossiya	Ukraina	Boshqalar
2000	3,1	16,7	4,7	11,4
2001	3,7	15,8	4,7	10,2
2002	2,7	10,6	5,4	8,9

2003	2,7	12,3	3,9	7,1
2004	3,8	14,9	2,3	10,5
Import				
2000	7,3	15,8	6,1	9,0
2001	6,2	19,2	7,1	4,7
2002	6,7	22,0	4,5	3,7
2003	6,6	23,3	4,6	3,8
2004	6,3	24,0	4,5	3,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

O‘zbekistonning MDH mamlakatlari orasida asosiy savdo hamkorlari Rossiya, Qozog‘iston va Ukraina hisoblanadi. Xususan, 2004-yilda jami eksport operatsiyalarining 3,8 foizi Qozog‘iston, 14,9 foizi Rossiya va 2,3 foizi Ukraina hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, import bo‘yicha mazkur ko‘rsatkich muvofiq ravishda 6,3 foiz, 24 foiz va 4,5 foizga teng bo‘lgan.

2005-yilda jami eksportning 19,0 foizi Rossiya, 4,7 foizi Qozog‘iston, 1,5 foizi Ukraina hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2005-yilda jami importda mazkur mamlakatlarning ulushi muvofiq ravishda 25,3; 6,7 va 6,0 foizni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik aloqalari ham rivojlanmoqda.

1992-yilning 20 martida O‘zbekiston – Rossiya o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Ushbu munosabatlar uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo‘lib, har ikki mamlakat parlamentlarining raislari, hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlarining oliy maqomdagi tashriflari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1991–2007-yillarda respublikamiz hukumat rahbariyati tomonidan 160 dan ortiq xalqaro shartnoma va 40 dan ortiq boshqa

hujjatlar (mintaqalararo hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlarni ham olganda) imzolandi. Jumladan, 1992-yilning 30 mayida imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya o‘rtasida davlatlararo ahamiyatga ega bo‘lgan Do‘stlik va hamkorlik Shartnomasi va shuningdek, 1998-yilning 12 oktabrida imzolangan O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida 1998–2007-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash haqidagi bitim ikki davlat o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardir. Ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy sohada 40 dan ortiq,ijtimoiy va ilmiy-texnik hamkorlik sohasida 10ta, harbiy hamkorlik masalalari bo‘yicha 10 ta, soliq qonunlari va huquqiy munosabatlar sohasi yuzasidn esa 10 dan ortiq hujjatlar imzolangan. Bundan tashqari, ikki davlat o‘rtasida imzolanishga tayyorlangan 50dan ortiq hujjatlar chuqur o‘rganilib, tahlil qilinmoqda.

2003-yilning birinchi yarmida O‘zbekistondan Rossiyaga eksport qilingan tovarlar tarkibi quyidagicha bo‘lgan: transport vositalari – 25,6%, xizmatlar – 17,1 %, paxta tolasi – 14,6 %, tabiiy yoqilg‘i, neft’ va neft’ mahsulotlari – 9,6%, sabzovotlar – 4,6% gazlama, paxta kalavasi – 4,1%, paxta, jun – 3,9%, sabzavot va bog‘dorchilik mevalaridan ishlangan mahsulotlar – 3,5% ni tashkil qilgan. Rossiyadan O‘zbekistonga keltirilgan import mahsulotlar quyidagilar: mexanik uskunalar – 11,2 %, xizmatlar – 7,5 %,elektr asbob-uskunalar – 6,9 %, transport vositalari – 5,1%, o‘rmon mahsulotlari – 5,1%, kauchuk va rezina mahsulotlari – 4,5%, optik asbob-uskunalar – 4,3 %, farmatsevtika mahsulotlari – 3,4%ni tashkil etgan.

2006-yilning yanvar–avgustida Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo aylanishi 1,387 mlrd. dollarni tashkil etdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanishi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 20,9 % ga oshdi. Tovar aylanishining umumiy hajmida Rossiya ulushi 21,8 % ni tashkil etadi. O‘zbekistonda Rossiya investorlari ishtirokidagi 433 ta qo‘shma korxona ishlab turibdi. Rossiya hududida ishlayotgan 284 ta qo‘shma korxonalarga O‘zbekiston investitsiyalari sarflangan. O‘zbekistonda Rossiyaning

82 ta kompaniyasi akkreditatsiyadan o‘tkazilgan (2004-yilda 66 ta edi). Rossiya bilan O‘zbekistonning tovar aylanishi hajmi 2005-yil yakunlariga ko‘ra 2,060 mlrd. dollardan iborat bo‘ldi. 2004-yildagiga nisbatan o‘sish – 25,5 % (2004-yil yakunlariga ko‘ra 1,641,9 mlrd. dollar). O‘z.R TIAIS vazirligi matbuot xizmatining axborotlariga ko‘ra, O‘zbekistondan Rossiyaga mahsulotlar eksporti 2005-yilda 41,6 % ga o‘sdi va 1,026 mlrd. dollarni tashkil etdi. Rossiyadan O‘zbekistonga mahsulotlar importi hisobot davrida 12,7 % ga oshdi va 1,034 mlrd. dollardan iborat bo‘ldi. 2006–2007-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanib bordi. Bunda export ko‘rsatkichlari mos ravishda 1661,7 va 2473,0 mln. AQSh dollarini, import 1228,6 va 1565,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston–Rossiya hukumatlararo komissiyasining 10 dan ortiq yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Rossiyaning kapitali ishtirokida qurilgan 300dan ortiq ishlab chiqarish korxonalari respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ularning 42 tasi to‘liq (100%) Rossiya investitsiyasi hisobiga qurilgan bo‘lsa, 258 tasi qo‘shma korxonadir. 1998–2008-yillar iqtisodiy hamkorlik dasturlari doirasida 20 dan ortiq hukumatlararo shartnoma, bitim va bayonnomalar imzolandi.

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hamkorliklar ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. 2001-yilning martidan boshlab Toshkent shahrida Rossiya xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik markazining («Roszarubejsentr») vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

2001-yilning noyabrida Moskva shahrida Xalqaro Fanlar Akademiyasining oliy maktabida o‘zbek milliy bo‘limi tashkil etildi. 2002-yilning 25 sentyabrida Sankt – Peterburg shahrida Piskarevo memorial majmuasining «Xotira maydoni»da Leningrad shahri mudofaasida halok bo‘lgan O‘zbekistonlik jangchilar xotirasiga bag‘ishlab marmartosh o‘rnatildi. Moskva shahrida 2002-yilning

noyabrida Alisher Navoiy haykalining ochilishi muhim voqea bo‘ldi.

O‘zbekistonda «Roszarubejsentr» qator madaniy tadbirlarni olib bormoqda. 2002-yilning dekbrida O‘zbekiston badiiy akademiyasi bilan birgalikda P. Tretyakov galereyasining asoschisiga bag‘ishlangan ko‘rgazma ochildi. Shu yili O‘zbekistonda Rossiya kinosi kunlari bo‘lib o‘tdi. 2003-yilning yanvarida esa Samarqand shahrida rus tili va madaniyatini o‘qitish borasida Xalqaro ilmiy amaliy konferenstiya bo‘lib o‘tdi.

2003–2004-yillarda O‘zbekistonga oliy ta’lim sohasida Rossiya oliy o‘quv yurtlarining magistratura, aspirantura va doktoranturalarida ta’lim olish uchun 40 ta stipendiya va shuningdek, MGIMO (U) MID RF va Diplomatik Akademiyasiga kvotalar ajratildi.

1992-yilning 25 avgustida O‘zbekiston–Ukraina o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Ikki davlat o‘rtasida olib borilayotgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning yuqori bosqichga ko‘tarilishida hukumat rahbarlari va ikki davlat tashqi ishlar vazirlarining tashriflari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o‘rtasida ikki yoqlama manfaatli xususiyatga ega bo‘lgan 140ga yaqin hujjat va Shartnomalar imzolangan bo‘lib, ularning 84 tasi davlatlararo, hukumatlararo xususiyatga, 25 tasi idoralararo xususiyatga, 24 tasi esa boshqa hujjatlarni (hukumatlararo qo‘shma komissiyasining bayonnomalari va boshqalar) tashkil etgan edi. 2006–2007-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining Ukraina bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanib bordi. Bunda export ko‘rsatkichlari mos ravishda 361,2 va 630,0 mln. AQSh dollarini, import 266,1 va 430,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2006–2007-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanib bordi. Bu o‘z navdatida respublikamizning MDH mamlakatlari bilan aloqalari chuqurlashib borganligidan dalolat beradi (26- jadval).

26-jadval

O‘zbekiston Respublikasining dunyo mamlakatlari bilan o‘zaro savdo iqtisodiy hamkorligi (mln. AQSh dollarida)

	2006-yil	2007-yil	2006-yilga nisbatan o‘zgarish, % da
Tashqi savdo aylanmasi	**11171,4**	**14227,1**	**127,4**
jumladan:			
MDH davlatlari	4746,1	6994,8	147,4
Boshqa xorijiy davlatlar	6425,3	7232,3	112,6
Eksport	**6389,8**	**8991,5**	**140,7**
jumladan:			
MDH davlatlariga	2685,5	4273,0	159,1
Boshqa xorijiy davlatlarga	3704,3	4718,5	127,4
Import	**4781,6**	**5235,6**	**109,5**
jumladan:			
MDH davlatlariga	2060,6	2721,8	132,1
Boshqa xorijiy davlatlarga	2721,0	2513,8	92,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi. 2008-y.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 2006-yilda 11 171,4 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa,

2007-yilda 14 227,1 mln. AQSh dollarini tashkil etganligini, ya'ni 2006-yilga nisbatan 27,4 % ga o'sganligini ko'ramiz. O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan olib borgan tashqi savdo aylanmasi 2006-yil 4 746,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 6 994,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 47,4 % ga o'sgan. Respublikaning boshqa xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan tashqi savdo aloqalari 2006-yili 6 425,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 7 232,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 12,6 % ga o'sgan. Bunda export hajmi 2006-yil 6 389,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 8 991,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 40,7 % ga o'sgan.

Respublikaning import hajmi 2006-yilda 4 781,6 mln. AQSh dollaridan 2007-yilga kelib 5 235,6 mln. AQSh dollariga yetgan, ya'ni 9,5 % ga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan bo'lgan export hajmi 2006-yilda 2 685,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda

4 273,0 mln. AQSh dollariga yetgan, ya'ni 59,1 % ga o'sgan. O'zbekistonning boshqa xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan export hajmi 2006-yilda 3 704,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 4 718,3 mln. AQSh dollariga yetganligini, ya'ni 27,4 % ga o'sganligini ko'ramiz.

2006-yilda O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan bo'lgan import hajmi 2 060,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, 2007-yilda 2 721,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 32,1 %ga o'sgan. Respublikaning boshqa xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan import hajmi 2006-yilda 2 721,0 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 2 513,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya'ni bu yerda biz import hajmining 7,6 % ga pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

27-jadval

O‘zbekiston Respublikasining eksport-importi hajmi va tarkibining o‘zgarish dinamikasi

	Umumiy eksport-import hajmiga nisbatan % da		2007-yil 2006-yilga nisbatan % hisobida o‘zgarish
	2006-yil	2007-yil	
Eksport	100,0	100,0	140,7
Jumladan			
Paxta tolasi	17,2	12,5	102,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	7,9	8,5	150,7
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	5,6	6,8	172,4
Neft va energetika	13,1	20,2	216,7
Rangli va qora metallar	12,9	11,5	125,4
Mashina va texnologiyalar	10,1	10,4	144,3
Xizmatlar	12,1	10,7	124,6
Boshqalar	21,1	19,4	129,1
Import	100,0	100,0	109,5
Jumladan			
Oziq-ovqat mahsulotlari	7,7	7,9	112,7
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	13,8	14,8	117,0
Neft va energetika	4,2	3,3	87,7
Rangli va qora metallar	6,7	8,3	136,4
Mashina va texnologiyalar	47,0	46,6	108,5
Xizmatlar	8,4	7,4	96,8
Boshqalar	12,2	11,7	104,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi. 2008 y.

O‘zbekiston Respublikasining exporti 2007-yilda 2006-yilga nisbatan 40,7 % o‘sgan, bunda respublika paxta tolasining exporti 2006-yilda 17,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 12,5 % ni tashkil etgan. Exportning pasayish sabablaridan biri respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash sanoat korxonalarining yildan-yilga rivojlanib borayotganligidir. Umumiy miqdorda paxta tolasi exporti 2007-yili 2006-yilga nisbatan 2,8 % ga o‘sgan. Oziq-ovqat mahsulotlari exporti 2006-yili 7,9 % ni tashkil etgan, 2007-yilda 2,5 % ni tashkil etgan, ya’ni 50,7 % ga o‘sgan. Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar exporti 2006-yili 5,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 6,8 % ni tashkil etgan, ya’ni 72,4 % ga o‘sgan. Neft va energetika mahsulotlari exporti 2006-yili 13,1 % dan 2007-yilda 20,2 % ga, ya’ni 116,4 % ga o‘sgan.

O‘zbekiston Respublikasining importi 2007-yili 2006-yilga nisbatan 9,5 %ga o‘sgan. Bunda neft va energetika mahsulotlari importi 2006-yili 4,2 %ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 3,3 %ni tashkil etgan. Respublikamiz hozirgi kunda o‘z ehtiyojini neft va energetika mahsulotlari bilan ta’minlab kelmoqda.

Neft va energetika mahsulotlari 2007-yili 2006-yilga nisbatan 12,3 % ga o‘sgan. Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar importi 2006-yili 13,8 %ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 14,8 %ni tashkil etgan, ya’ni 17,0 %ga o‘sgan. Oziq-ovqat mahsulotlari importi 2006-yili 7,7 %ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 7,9 %ni, ya’ni 12,7 foizga o‘sgan.

Qora va rangli metallar importi 2006-yili 6,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 8,3 % ni, yani 36,4 % ga o‘sganligini ko‘ramiz. Mashina va tehnologiyalar importi 2006-yili 47,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa 2007-yilda 46,6 % ni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ko‘ptomonlama aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Haqiqatan ham, MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy tarixiy rivojlanishlari bilan yagona madaniy odatlari, hayotiy turmush tarzlari va mentalitetlarining o‘xshashligi bilan bir-biriga

yaqindir. Ushbu mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik muammolari ham ko‘ptomonlama o‘xshash bo‘lib, bu o‘xshashliklar istiqbolda mustahkam integratsiyalashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa

1991-yilning 8 dekabrida Belorussiyaning hukumat rezidensiyasida (Viskuli shahrida) Rossiya, Belorussiya va Ukraina respublikalarining hukumat rahbarlari MDH davlatlari ittifoqini tu’zish to‘g‘risida bitimni imzolashdi. MDH doirasidagi integratsion jarayonlar yuksak marralarni egallamayotgan va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarning barchasini uddalamayotgan bo‘lsa-da, ammo uning mavjudligi bir qancha ko‘p afzalliklarga ega. MDH tashkil qilingan dastlabki kundan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, xo‘jalik aloqalarini saqlash va kengaytirish, siyosiy ishlarga aralashmaslik, bir-biriga sun’iy ta’sir qilmaslik tarafdori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin oldi.

MDHga a’zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining strategik maqsadlari bo‘lib xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish, Hamdo‘stlikka kiruvchi barcha mamlakatlar aholisi turmush farovonligini yaxshilash hisoblanadi. MDH doirasida bir necha submintaqaviy tashkilotlar tashkil etilgan. Bu o‘z navbatida MDH doirasida integratsiyaning «turli tezlikda», «ko‘p darajali» borayotganligidan dalolat bermoqda.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati asosan BI ni huquqiy kelib chiqishining davomchisi hisoblanadi. Ya’ni, uning rivojlanish jarayoni BI davrining boshlanishi bilan bog‘liqdir.

Jahon iqtisodiyotida MDHga a’zo davlatlar umumiy va shuningdek, milliy davlat manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zaro foydali hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda.

Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni MDH doirasidagi asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan biri MDH doirasida maqsadlar amalga oshgunga qadar integratsiyaga sakrab o‘tmasdan, bosqichma–bosqich ishlab chiqarishni rivojlantirib erkin savdo hududlarini tashkil qilishdir:

Erkin savdo hududlari MDHni integratsiya jarayonlari asosida yuksak darajada rivojlangan hamjamiyatga aylantirishi mumkin. Bir-biriga bog‘lanib ketgan transport tarmoqlari, neft-gaz quvurlari, shuningdek, xalq xo‘jaligining o‘zaro bog‘liqligi, a’zo davlatlarning bevosita qo‘shniligi va boshqa omillar savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun qulay imkoniyatdir.

MDHning har bir a’zosi boshqa bir a’zo davlatlarning manfaatlariga to‘g‘ri yondashgandagina hamdo‘stlikning istiqboli porloq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, avvalo barcha a’zo davlatlar manfaatlariga mos keladigan masala va mavzuni ko‘tarish, keyin hammaning bu masalaga munosabatini inobatga olish lozim.

MDH mamlakatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatlar ham sezilarli ravishda rivoj topib bormoqda. MDH mamlakatlari bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi tovar aylanmaning rivojlanishi teng huquqli va o‘zaro foydali prinsiplarga asoslangan. 2000–2007-yillar davomida O‘zbekiston bilan yirik savdo iqtisodiy aloqalarni olib boruvchi davlatlar – Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina hisoblanadi.

2006–2007-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanib bordi. O‘zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan olib borgan tashqi savdo aylanmasi 2006-yili 4 746,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2007-yilda 6 994,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya’ni 47,4 % ga o‘sgan. O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan bo‘lgan export hajmi 2006-yilda 2 685,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2007-yilda 4 273,0 mln. AQSh dollariga yetgan, ya’ni 59,1 % ga o‘sgan. 2006-yilda O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan bo‘lgan import hajmi 2 060,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2007-yilda 2 721,8

mln. AQSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 32,1 % ga o'sgan. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi MDH mamlakatlari bilan ko'ptomonlama aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Chunki, ushbu mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik muammolari ko'ptomonlama o'xshash bo'lib, bu o'z navbatida integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Tayanch iboralar: MDH mamlakatlari, Bojxona ittifoqi, submintaqaviy tashkilotlar, savdo- iqtisodiy aloqalar, erkin savdo hududlari, YevrOsiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti.

Nazorat uchun savollar

1. MDH mamlakatlarida integratsion jarayonlarning borishi va uning rivojlanish muammolarini xarakterlab bering.
2. MDH mamlakatlarida mintaqaviy integratstion hamkorlik shakllarini ko'rsanib bering.
3. MDH doirasida qanday submintaqaviy tashkilotlar tashkil etilgan?
4. Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning MDH doirasidagi asosiy yo'nalishlari qaysilar?
5. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatlarni xarakterlab bering.

7-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON XO‘JALIGIGA INTEGRATSIYALASHUVI

7.1. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi yo‘nalishlari

Globallashuv XXI asrdagi asosiy tendensiyalarni anglab olishda, jahonni global makon sifatida tasavvur qilishdan kelib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. O‘z navbatida, global makon milliy tuzilmalar majmuasi emas, balki milliy iqtisodiyotlar simbiozi, o‘z qonunlari bilan ishlay boshlagan geoiqtisodiyot va integratsiyalangan tizimdir. Jahonning turli qit’alarida – G‘arbiy Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikada umumiy iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlar bilan aloqador bo‘lgan yirik mintaqaviy birlashmalar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida ularning barchasi avvalo a’zo davlatlarning korporativ manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu uyushmalarning alohida olingan mamlakat imkoniyatlari bilan taqqoslab bo‘lmaydigan kuchi ham mana shundadir.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilning 31 avgustida mustaqillikka erishdi. Shu kundan boshlab respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida rivojlanishning yangi davri boshlandi. O‘zbekiston hududiy jihatdan O‘rta Osiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, respublikada Markaziy Osiyo aholisining 45 % yashaydi. O‘zbekiston qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston davlatlari bilan chegaralanib, Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlari bilan transport va telekommunikatsiya va axborot vositalari orqali bog‘lanib turuvchi muhim strategik yo‘lak hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi jahonning ko‘zga ko‘ringan yirik va obro‘li xalqaro tashkilotlari, dunyoning o‘nlab davlatlari bilan alo-

qalarni o‘rnatgan bo‘lib, ularning yirik bank va moliyaviy tashkilotlari bilan, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda. O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlarning 43 ta elchixonasi, 49 ta nodavlat va shuningdek, 15 ta davlatlararo tashkilotlari akkreditatsiya qilingan. Respublikamiz eng muhim xalqaro konvensiyalarning qatnashchisidir. O‘zbekiston turli davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar asosida intensiv rivojlanib boruvchi davlatlardan biridir.

Rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga o‘tgan O‘zbekiston nufuzli xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlarining teng huquqli a’zosidir. Respublikamiz Xalqaro valyuta fondi, Jahon banklar guruhi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro elektr aloqalari ittifoqi, Osiyo – Tinch okeani mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning a’zosidir. Respublikamiz Xalqaro atom energiyasini nazorat qilish bo‘yicha tashkilotga, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishi uchun faol tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini erkinlashtirish sharoitida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish jarayonlarini rivojlantirish va yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida kuch-g‘ayratni jamlash zarurati yuzaga keldi. Yetakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, va gumanitar tashkilotlar, ilg‘or Yevropa mamlakatlari va AQSh, Osiyo–Tinch Okeani mintaqasi davlatlari, MDH mamlakatlari jumladan, Rossiya, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ana shunday yo‘nalish hisoblanadi. Prezident I. Karimov integratsiya haqida fikr bildirib, «O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda dunyo miqyosida va mintaqa ko‘lamida integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: «bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu

sababli O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi serqirra jarayondir», – deb alohida ta’kidlagan edi [1].

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi muammolarini hal qilish uchun respbulikaning eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport qilinayotgan tayyor mahsulotlar hajmini oshirish va kengaytirish, shuningdek, respublikaning jahon bozoridan o‘z o‘rinini olishini ta’minlash zarur. Hozirgi kunda amal qilayotgan rag‘batlantirishlar va imtiyozlardan foydalangan holda milliy ishlab chiqarishning eksportga yo‘naltirilganligini kuchaytirish, import qilinadigan mahsulotlarning o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish muhimdir.

Aytib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda, bizning nazarimizda, davlatlararo iqtisodiy integratsiya–iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo‘lgan davlatlarning birlashishining obyektiv jarayonidir. U faqat tegishli mamlakatlarning tashqi savdo almashuvi sohasini, ularning bozor aloqadorligini (xalqaro hamkorlikda bu ko‘pincha uchrab turadi) qamrab qolmay, balki mazkur mamlakatlarning moddiy ishlab chiqarishi sohasiga ham chuqur kirib boradi va turli darajadagi qayta ishlab chiqarish tuzilmalarining o‘zaro hamkorligiga olib keladi.

Jahon xo‘jalik aloqalarining moddiy-ashyoviy asoslarini u yoki bu mintaqaviy guruhlar yoki ittifoqlarga birlashgan mamlakatlarning integratsion salohiyati tashkil qiladi. Mamlakatning integratsion salohiyati deganda, xalqaro iqtisodiy integratsiya subyektlari (integratsiyalashayotgan mamlakatlar) amalga oshiradigan xalqaro ishlab chiqarish va iqtisodiy hamkorlik predmeti bo‘lgan tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, savdo resurslari, ilmiy xodimlar va insonlarning aqliy qobiliyati bilan bog‘liq majmuini tushunmoq zarur. O‘zbekistonning integratsion aloqalarini

---

[1]Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-том, Т.: Ўзбекистон.1997. 241–242 бетлар.

jadallashtirishga xizmat qiladigan omillarning (integratsion salohiyatining) quyidagi ustunliklarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

– O‘zbekistonning YevroOsiyo mintaqasida qulay geostrategik joylashuvi;

– yer, mineral xomashyo va o‘simliklarning katta zaxirasi;

– qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay bo‘lgan tuproq-iqlim sharoitlari;

– tashqi savdoda eksport salohiyati;

– davlatlararo kooperatsiyalashuv va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishga imkon beradigan yirik ishlab chiqarish salohiyati;

– insonlar salohiyati, nisbatan arzon va tez ko‘payib borayotgan mehnat resurslarining, (jahon miqyosida olib qaraganda) mavjudligi;

– rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, birinchi navbatda, MDHning boshqa mintaqalari bilan bog‘lab turadigan avtomobil va temir yo‘l magistrallari, telekommunikatsiya tizimining mavjudligi;

– respublikada chet el kapitalini investitsiya qilish va o‘zaro foydali tashqi iqtisodiy integratsion hamkorlikni kafolatlaydigan barqaror siyosatning mavjudligi.

Ko‘rsatilgan pozitsiyalar bo‘yicha milliy iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan sharoitida mamlakatning integratsion salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun uning hozirgi holatiga baho berish kerak.

Birinchi navbatda, bu salohiyatning tarkibiy qismlari bo‘lgan geostartegik joylashuv, tabiiy xomashyo va mehnat resurslari, shuningdek eksport imkoniyatlarni tavsiflash lozim.

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon mamlakatlari o‘rtasida integratsion moyillik ko‘zga tashlandi. Xalqaro mehnat taqsimoti shu darajaga yetdiki, milliy xo‘jaliklar tobora ko‘proq integratsiyalashuv xususiyatini kasb eta boshladi. Bu esa o‘z navbatida xalqaro xo‘jalik faoliyatining baynalmilallashuviga olib keldi. Ushbu sharoitda o‘zaro hamkorlikning an’anaviy shakllari–

xalqaro savdo, kapitalning ko‘chishi, ishchi kuchi migratsiyasi yangi va aniq ifodalangan institutsional shakllarga ega bo‘ldi. Bir tomondan, davlatlararo iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqaviy tashkilotlar tashkil topdi (Yevrohukumat va Yevroparlamentga ega bo‘lgan YeI kabi), boshqa bir tomondan esa o‘z faoliyatining xususiyati bo‘yicha jahon mamlakatlarining iqtisodiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) keng faoliyat ko‘rsata boshladi. Integratsiya haqida Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov shunday degan edi: «Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo‘lgan demokratik davlatlar tushunchasiga muvofiq kelgandagina mumkin bo‘ladi. Ayni paytda mamlakatni zamonaviylashtirish uning, shubhasiz, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, ya’ni xalqaro mehnat taqsimotida o‘zining munosib o‘rnini topishi, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimini yaratish shartlari mavjud bo‘lgandagina mumkin bo‘ladi».

Respublikada iqtisodiyotni va eksport salohiyatini rivojlantirish jahon iqtisodiyotiga xos bo‘lgan milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligi va xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi bilan tavsiflanuvchi globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etish imkonini beradi. (28-jadval)

Ko‘p tomonlama xalqaro iqtisodiy, valyuta-moliyaviy va savdo tashkilotlarining aloqalari milliy iqtisodiyot uchun ham, jahon iqtisodiyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu tashkilotlar shunday huquqiy makonni yaratishga yordam beradi, jahondagi tashqi iqtisodiy va integratsion aloqalar shu makon doirasida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning BMT, YETTB, YeI, NATO, Jahon banki, XVF, IXT va boshqa tashkilotlar bilan faol aloqalari mamlakatimizga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish borasidagi jahon tajribasidan foydalanish, zamonaviy ilmiy-texnikaviy axborotlar, «nou-xau»larni, beg‘araz beriladigan yordam va materiallarni olish imkoniyatini beradi. BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari turli tarmoqlarda ko‘p tomonlama hamkorlikni tartibga solishning

tengi yo‘q mexanizmidir. Valyuta-moliya va savdo muassasalari esa savdo hamda valyuta-kredit sohalarini tartibga soluvchi rolni o‘ynab, O‘zbekistonga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashadi.

28-jadval

O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	**2004**	**2005**	**2006**	**2007**
Aholi, mln. kishi	26	26,3	26,6	27,1
YaIM	12189,5	15210,4	27 759,3	28 186,2
Aholi jon boshiga YaIM	468,4	584,5	777,5	1040,1
Sanoat ishlab chiqarishi, mln. so‘m	8074,8	10913,4	14521,1	18318,7
Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, mln. so‘m	4732	5395,5	7314	18998,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar, mln. so‘m	2473,2	3012,9	3383,3	5479,4
Qurilish, mln. so‘m	1067,9	1377,5	1843,4	2593,2
Savdo balansi				
Tashqi savso aylanmasi, mln. AQSh dollari	8669	9500,1	10780,7	14227,1
Shu jumladan				
Eksport	4853	5408,8	6384,5	8991,5
Import	3816	4091,3	4396,2	5253,6
Savdo balansi (+,-)	1037	1317,5	1988,3	3755,9

* Manba: O‘zbeksiton Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 2008-y.

Jahon tajribasi sivilizatsiyalashgan, integratsiyalashayotgan davlatlarning umumiy rivojlanishning muayyan bir darajada bo‘lishini nazarda tutadi (buni YeI tajribasi ham tasdiqlab turibdi). Biroq sobiq Ittifoq respublikalarining (hozirgi MDHga a’zo mamlakatlar) umumiy rivojlanish darajasi, ularning milliy xo‘jaliklarida bozor islohotlarining poyoniga yetmaganligi uchun ham bu davlatlarga G‘arbiy Yevropa davlatlariga o‘xshash biror-bir yangi ittifoqni tashkil etish imkonini bermaydi.

Davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng O‘zbekiston uchun rivojlanishning o‘z modelini (o‘zbek modeli) ishlab chiqish imkoniyati ochildi. Ushbu rivojlanish modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo‘jalik aloqalariga integratsiyalashuvi kabi masalalarga katta e’tibor qaratilgan. Mamlakatning jahon xo‘jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng ko‘lamda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni qurishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning kelajagini uning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi aloqalarda ochiqlik, teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik, o‘z milliy-davlat manfaatlari ustunligini saqlagan holda o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, e’tirof etilgan xalqaro huquq me’yorlariga rioya qilish va xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o‘tish tamoyillari yotadi.

Respublikamizning o‘z taraqqiyot modelini takomillashtirish va joriy etishni ishlab chiqishda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish uchun respublikada islohotlarni yanada samaraliroq amalga oshirish va boshqa xorijiy davlatlar yo‘l qo‘ygan xatolarni takrorlamaslik zarurdir. Respublikamiz boshqa xorijiy mamlakatlar yo‘l qo‘ygan xatolardan saboq olish va shu bilan birgalikda, ularning yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Respublikamiz Prezidenti I. Karimov: «Alohida mamlakatlar rivojlanish modelidan ko‘r-ko‘rona andoza olish kerak emas,

ko‘plab davlatlar tajribasini ichki shart-sharoitlarga muvofiq ravishda uyg‘unlashtirish zarurdir», – deb ta’kidlagan edi[1].

O‘zbekistonda ochiq tashqi siyosat tamoyilini amalga oshirish barcha tinchliksevar davlatlar bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu tamoyilga rioya qilish, mafkuraviy omillardan qat’i nazar, qisqa muddatlarda keng ko‘lamdagi tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish, bir asrlik tashqi olamdan ajralganlik iskanjasidan qutulish imkoniyatini beradi. G‘ayritabiiy hodisaga duch kelamiz: umuman olganda «ochiq» iqtisodiyotga ega bo‘lgan holda, ya’ni ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning taxminan 30% respublikadan tashqariga olib chiqilgan, iste’mol qilinadigan tovarlarning 65% import qilingani holda respublikamiz amalda yopiq mamlakat edi, jahon bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emasdi. Shu bilan birgalikda respublikamizning eksport salohiyatidan (paxta, oltin, rangli metallar, gaz va boshqalar) Markaziy hukumat (sobiq SSSR) ayovsiz foydalangan.

Tashqi iqtisodiy siyosat respublikaning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga, uning to‘lov balansini yanada yaxshilashga, qulay investitsion muhitni yaratishga yo‘naltirilishi kerak. Buning uchun respublikamizda zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlar mavjud.

O‘zbekistonning tashqi savdosida, shuningdek, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor sanaladi:

– Respublikaning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish. Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni respublikada shakllantirish bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

– Eksport tarkibini foydali xomashyo resurslari bilan ta’minlashning ko‘rinishlarini (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta

---

[5] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон.1997.

ishlash orqali tayyorlangan mahsulotlar, yengil sanoat, ilm-fanni ko‘plab talab qiladigan tarmoqlar va boshqalarni) tubdan o‘zgartirish lozim. Paxtani esa respublikaning qudratli zamonaviy yengil sanoat tarmoqlari vujudga kelgunga qadar eksport qilish darkor.

– Nafaqat ichki bozorda, balki, eng avvalo, jahon bozorida ham xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlash.

Jahon bozorlarida allaqachon talabga ega bo‘lishga ulgurgan, kiritilgan investitsiyalarni qisqa vaqtda qoplabgina qolmasdan, balki respublikamizga valyuta tushumlarining mustahkam manbai sifatida xizmat qiladigan eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni ustuvor rivojlantirsh darkor. Respublikaning eksport salohiyatini kengaytirishda, jahon bozorlariga kirib borish uchun, eng avvalo, nodir xomashyo mahsulotlarni qayta ishlaydigan qo‘shma korxonalarni rivojlantirish, xorijiy hamkorlar bilan mehnat resurslariga yaqin joylarda ixcham korxonalarni tashkil etish zarur. Odatda, bu korxonalarning barchasi ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlanishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi darkor. Ushbu yo‘llar orqali bir necha yillardan so‘ng respublikamiz zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan mahalliy aholini tashkil etuvchi zamonaviy ishchi kuchiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston o‘zining ishlab chiqarishi negizida mahalliy xomashyolardan tayyorlangan yuqori sifatli tovarlar bilan to‘lib-toshadi.

Eksportni kengaytirish siyosati bo‘yicha strategiyani faol olib borish bilan birga aniq yo‘naltirilgan import o‘rnini qoplash bo‘yicha siyosatni o‘tkazish talab qilinadi. Bunda o‘zimiz ishlab chiqara oladigan tovar va mahsulotlar importini mumkin darajada kamaytirish kerak. Import o‘rnini qoplash dasturi doirasida asosiy e’tiborni oziq-ovqat mahsulotlari va resurslar importi sohasidan ekinlarning yuqori hosil beradigan navlari va bu ekinlarga ishlov beruvchi sanoat texnologiyalari, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo‘lgan zamonaviy asbob-uskunalar, shuningdek, fermer (dehqon) xo‘jaliklari uchun texnikalar importi sohasiga ko‘chirish kerak. Ilg‘or texnologik qurilmalar, ilg‘or texnologiya,

ishlab chiqarishni qaytadan texnik jihozlash uchun litsenziyalar, shuningdek, eng zarur bo‘lgan iste’mol tovarlari, xomashyo va dori-darmonlar importiga ham diqqat-e’tiborni qaratish darkor.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni bundan buyon ham erkinlashtirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan siyosat olib borish darkor. Buning uchun xo‘jalik subyektlariga xorijiy hamkorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatishda katta erkinliklar berish, respublikamizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijda sotish, tovarlar eksporti va importiga yanada imtiyozli tartiblarni joriy qilish zarur.

Bularning barchasi siyosatimizning zamonaviy bosqichdagi ustuvor yo‘nalishlaridir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida ko‘plab tovar turlariga import bojlari allaqachon olib tashlangan, eksport va importga bojxona boji stavkalari sezilarli darajada pasaytirilgan, valyuta tushumlarini taqsimlash tizimi tubdan o‘zgartirilgan. Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarini ustun ravishda keng ko‘lamda jalb qilish uchun zarur bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratishga, qo‘shma korxonalarni tashkil qilishga, shuningdek, investorlar manfaatlarini himoya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini yaratish bu – tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlariga va shart-sharoitlariga javob beradigan ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug‘urta firmalari, transport tizimi, aloqa va kommunikatsiya tizimlarini barpo qilish demakdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatning bu va boshqa yo‘nalishlarini amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining tez orada jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy zamin yaratish imkonini beradi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi sharoitida tashqi savdoning rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasi uchun tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi sharoitida

o‘ta muhimdir. Respublikamiz Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasini, export va importni diversifikatsiyalashga alohida e’tibor qaratmoqda. Yaqin kunlargacha O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida MDH mamlakatlariga nisbatan uzoq xorij mamlakatlariga ustuvorlik berish shakllangan, eksportning asosiy qismini jahon bozorida barqaror talabga ega bo‘lgan xomashyo resurslari tashkil etar edi. Importni diversifikatsiyalash siyosatini amalga oshirish va import siyosatiga bozor tamoyillarining joriy etilishi sharoitida asosan rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyani import qilish zaruriyati ham mamlakatimiz importi tarkibida uzoq xorij mamlakatlari ulushining o‘sishiga olib keldi.

So‘nggi yillarda tashqi savdoning geografik tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi (2-diagramma).

2-diagramma

O‘zbekiston tashqi savdosida MDH va boshqa xorijiy mamlakatlar ulushi %



Agar 2006-yilda tashqi savdo aylanmasining 42,5 foizi MDH mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2007-yilga kelib bu ko‘rsatkich 49,2 foizga teng bo‘ldi. Uzoq xorij mamlakatlarining salmog‘i esa muvofiq ravishda 57,5 foizdan 50,8 foizgacha pasaydii.

O‘zbekiston Respublikasi tovar aylanmasi geografik tarkibda MDH mamlakatlaridan eng yuqori ko‘rsatkichlar Rossiya (28,4%), Qozog‘iston (8,4%), Ukraina (7,5%) kabilarga tegishli. Boshqa xorijiy mamlakatlar – Turkiya (5,3%), Xitoy (5,3%), Koreya Respublikasi va Eron (4,1%), Shveytsariya (3,0%) kabilar O‘zbekiston Respublikasi tovar aylanmasida yuqori ulushga ega bo‘lmoqdalar (29-jadval).

29-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tovar aylanmasi geografik tarkibi

Mamlakatlar	Respublikaning tovar aylanvasidagi ulushi, %	2006-y % da
Rossiya	28,4	139,7
Qozog‘iston	8,4	163,3
Ukraina	7,5	169,0
Turkiya	5,3	100,6
Xitoy	5,3	102,0
Koreya Respublikasi	4,1	82,2
Eron	4,1	88,7
Shveytsariya	3,0	6,4p.
Germaniya	2,3	84,9
Fransiya	2,3	2,4p.
Afg‘oniston	2,3	2,0p.
Tojikiston	1,5	111,8
AQSh	1,4	79,1
Qirg‘iziston	1,2	158,3
Buyuk Britaniya	1,1	61,9

Latviya	0,9	139,3
Belarus	0,8	164,6
BAA	0,7	82,2
Turkmaniston	0,6	187,1
Xindiston	0,5	104,7
Yaponiya	0,5	95,5
Avstraliya	0,5	144,2
Ozarbayjon	0,4	106,0
Niderlandiya	0,4	135,1
Italiya	0,4	109,9
Belgiya	0,3	89,6

Manba: O‘zbekiston statistika axborotnomasi. 2008-y.

Tashqi savdoni diversifikatsiyalashning ikkinchi yo‘nalishi uning tovar tarkibini diversifikatsiyalash bilan bog‘liq. Bunday diversifikatsiyalash eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini oshirib borish va xomashyo ulushini pasaytirishga, shuningdek, import tarkibini optimallashtirishga qaratilmog‘i lozim.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining ham tovar tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi (30-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz eksport tarkibida bir qator o‘zgarishlar yuz berib, ushbu o‘zgarishlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

– garchi paxta tolasi mamlakat eksportining asosiy moddasi sifatida saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, uning ulushi mustaqillik yillarida 3.5 martadan ziyodroqqa pasaydi (1992-yilda 47,9 foizdan 2007-yilda 12,5 foizgacha);

– mamlakat eksport hajmida asosiy o‘rinni egallagan boshqa tovarlar: energiya manbalari, mashina va asbob-uskunalar, rangli va qora metallar hisoblanib, ularning ulushi 1992-yilga nisbatan birmuncha ozgardi (tahlil qilinayotgan davr mobaynida energiya manbalarining ulushi 14,8 foizdan yilda 20,2 foizga, mashina va

asbob-uskunalarning ulushi 9,4 foizdan 10,4 foizga, rangli va qora metallarning ulushi 9,4 foizdan 11,5 foizga);

– mustaqillik yillarida eksport tarkibida yangi modda – xizmatlar moddasi paydo bo‘ldi va uning jami eksportdagi ulushi 2007-yilda 10,7 foizni tashkil etdi.

O‘zbekiston eksportining tovar tarkibini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqatlar, mashina va asbob-uskunalar, shuningdek, boshqa tayyor mahsulotlar eksportini ko‘paytirish orqali mamlakat eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Jadval ma’lumotlaridan yana shuni ko‘rish mumkinki, unda haligacha xomashyo mahsulotlari sezilarli o‘ringa ega. Bunday holat bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

– xomashyo mahsulotlari qiymatida tayyor mahsulotlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat salmog‘i past bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligini yaxshilashni ta’minlashga iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarilayotgan va eksport qilinayotgan tovarlar tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini oshirish orqaligina erishish mumkin;

30-jadval

O‘zbekiston Respublikasi eksporti tovar tarkibining o‘zgarishi dinamikasi, %

	Paxta tolasi	Oziq-ovqatlar	Kimyo mahsulotlari va plastmassalar	Energiya manbalari	Qora va rangli metallar	Xizmatlar	Mashina va uskunalar	Boshqalar	Jami
1992	47,9	3,2	4,0	14,8	9,4	0,0	9,4	11,3	100
1993	50,0	2,9	4,7	19,5	6,0	1,9	9,1	5,9	100

1994	56,4	4,1	3,0	14,2	4,0	5,2	8,1	5,0	100
1995	48,4	4,7	2,5	11,7	4,7	7,7	2,0	18,3	100
1996	38,1	4,5	2,4	6,0	3,5	8,3	2,8	34,4	100
1997	36,0	3,8	1,7	12,0	4,6	8,2	6,3	27,4	100
1998	38,6	3,2	1,5	7,9	5,1	8,8	4,1	30,8	100
1999	27,3	6,4	3,1	11,5	4,3	9,5	3,2	34,7	100
2000	27,5	5,4	2,9	10,3	6,6	13,7	3,4	30,2	100
2001	22,0	3,9	2,7	10,2	7,0	14,6	3,9	35,7	100
2002	22,4	3,5	3,0	8,1	6,4	15,9	3,9	36,8	100
2003	19,8	2,7	3,1	9,8	6,4	14,4	5,9	37,9	100
2004	18,1	3,8	4,7	12,4	8,6	11,8	7,4	33,2	100
2005	19,1	3,8	5,3	11,5	9,2	12,2	8,4	30,5	100
2006	17,2	7,9	5,6	13,1	12,9	12,1	10,1	21,1	100
2007	12,5	8,5	6,8	20,2	11,5	10,7	10,4	19,4	100

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

– jahon xomashyo mahsulotlari bozori konyunkturasi tayyor mahsulotlar bozoridan farqli o‘laroq nobarqaror va unda tebranishlar darajasi yuqori hisoblanadi. Buning eng asosiy sababi shundaki, xomashyo mahsulotlarining narx va daromadlar bo‘yicha talab elastikiligi past. Shu sababli bu holat makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O‘zbekiston hukumati milliy iqtisodiyotni qayta ishlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirmoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi O‘zbekistonning jahon xo‘jalik tizimiga xomashyo yetkazib beruvchi sifatida emas, balki ishlab chiqarish va eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi yuqori bo‘lgan mamlakat sifatida integratsiyalashuvini ta’minlashdin iborat.

Ushbu maqsadga erishishda import tarkibini optimallashtirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarida bu sohada ham sezilarli ijobiy natijalarga erishildi (31-jadval).

–jadval ma’lumotlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, islohotlar yillarida oziq-ovqat mahsulotlarining O‘zbekiston jami importidagi salmog‘i sezilarli darajada pasaydi: agar 1992-yilda jami importning 36,8 foizi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2007-yilga kelib bu ko‘rsatkich 7,9 foizga teng bo‘ldi.

Bu, eng avvalo, oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan dasturning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida yuz berdi.

Import tarkibidagi yana bir muhim o‘zgarish shundan iboratki, mustaqillik yillarida energiya manbalari importi sezilarli darajada pasaydi. Agar 1992-yilda jami importning 25,5 foizini energiya manbalari tashkil etgan bo‘lsa, 2007-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,3 foizga teng bo‘ldi.

31-jadval

O‘zbekiston Respublikasi importi tovar tarkibining o‘zgarishi dinamikasi, %

	Oziq-ovqatlar	Kimyo mahsulotlari va plastmassalar	Energiya manbalari	Qora va rangli metallar	Xizmatlar	Mashina va uskunalar	Boshqalar	Jami
1992	36,8	7,5	25,5	8,1	0,0	9,2	12,9	100
1993	34,2	8,2	28,0	9,9	0,3	10,4	9,0	100
1994	31,5	7,6	13,5	8,5	0,3	16,2	22,0	100
1995	17,7	9,4	1,9	5,7	5,0	57,3	14,6	100

1996	29,4	12,5	1,1	6,7	0,2	35,8	14,3	100
1997	19,3	12,5	0,6	7,5	7,5	45,9	6,7	100
1998	15,6	12,4	0,5	9,2	5,0	47,2	10,1	100
1999	13,1	11,7	2,1	7,9	8,7	44,8	11,7	100
2000	12,3	13,0	3,8	8,6	8,5	35,4	17,8	100
2001	10,8	10,6	1,9	10,9	10,3	41,2	14,3	100
2002	12,5	15,1	1,3	8,0	10,6	41,4	11,1	100
2003	9,9	12,8	2,7	7,9	10,2	44,4	12,1	100
2004	6,8	12,5	2,1	10,3	11,1	46,0	11,2	100
2005	7,0	13,6	2,5	10,3	10,4	43,3	12,9	100
2006	7,7	13,8	4,2	6,7	8,4	47,0	12,2	100
2007	7,9	14,8	3,3	8,3	7,4	46,6	11,7	100

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bunday natijaga mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilgan energetika mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, amalga oshirilgan maqsadga muvofiq chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda tabiiy gaz qazib olish 1991-yilda 41,9 mlrd kub metrdan 2005-yilda 59,7 mlrd kub metrgacha, ya’ni 1,4 martaga o‘sgan bo‘lsa, neft ishlab chiqarish 1991-yilda 2,8 mln tonnadan 2005-yilda 8,9 mln tonnagacha, ya’ni 3,2 martaga o‘sdi.

O‘zbekiston import tarkibida yuz bergan muhim o‘zgarishlardan yana biri xizmatlar ulushining sezilarli darajada o‘sganligi bilan bog‘liq. Bu, eng avvalo, MDH mamlakatlari hududida mahsulotlarni transportlarda tashish tariflarining sezilarli darajada qimmatlashuvi natijasida yuz berdi. Mamlakatimizning dengiz yo‘llari va asosiy savdo hamkorlardan uzoqda joylashganligi respublikamizda tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Shu sababli mamlakatimizning tashqi bozorlarga chiqishi uchun yangi transport yo‘laklarini rivojlantirish masalasi bugungi kundagi eng asosiy masalalardan hisoblanadi.

Import tarkibini optimallashtirish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlardan yana biri mashina va asbob-uskunalarning jami importdagi ulushining 1992-yilda 9,2 foizdan 2007-yilda 46,6 foizgacha o‘sganligi hisoblanadi. Bu holat respublikamiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish strategiyasiga muvofiq keladi.

7.3. O‘zbekistonning mintaqaviy integratsion markazlar mamlakatlari bilan hamkorligi

O‘zbekistonning ilg‘or Yevropa mamlakatlari, AQSh, Osiyo –Tinch Okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishi va mustahkamlashi uning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2007-yilda O‘zbekiston jahonnig 157 mamlakati bilan savdo operatsiyalarini amalga oshirdi. Ularning 87 tasi bilan ijobiy saldo qayd etilgan. O‘zbekiston tashqi savdosining qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

32-jadval

Qit’alar	2006-y.	2007-y.
Yevropa	53.4	59.3
Osiyo	42.4	38.0
Amerika	3.8	2.5
Afrika	0.3	0.1
Avstraliya va Okeaniya	0.1	0.1

Manba: O‘zbekiston statistika axborotnomasi. 2008-y.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida 1992-yilning 15 aprelida O‘zbekiston – YeI komissiyasi (YeIK) o‘rtasida «O‘zaro hamkorlik»

to‘g‘risidagi memorandumning tasdiqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. 1994-yilning 16 noyabrida O‘zbekiston bilan YeI o‘rtasida o‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1995-yilning yanvaridan boshlab Bryussel shahrida YeI komissiyasi tarkibida O‘zbekistonning diplomatik missiyasi o‘z ishini boshladi. 1994-yilning 24 yanvarida YeI komissiyasining (O‘zbyuro YeIK) «Texnik hamkorlikni koordinatsiyalash byurosini tashkil etish» to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. 1996-yilning 21 iyunida O‘zbekiston Respublikasi bilan YeI o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy aloqalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida hukumat rahbarlarining sammit yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu sammit yig‘ilishida «O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar o‘rtasida hamkorlik va sherikchilik to‘g‘risida» bitim imzolandi. Bu bitim O‘zbekiston Respublikasining YeI va Yelga a’zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asosini tashkil qiladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimiz uchun YeI bilan iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni o‘rnatish imkoniyatini ochdi. 1999-yilning 1 iyulida «O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar o‘rtasida hamkorlik va sherikchilik to‘g‘risida» bitim kuchga kirishi bilan «YeI-O‘zbekiston» qo‘shma qo‘mitasi o‘rniga «O‘zbekiston–YeI» hamkorlik qo‘mitasi tashkil topdi. 1999-yilning 14 dekabrida Bryussel shahrida «YeI va O‘zbekiston o‘rtasida to‘qimachilik sanoat mahsulotlari savdosi» to‘g‘risidagi shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnoma 2000-yilning 1 yanvarida kuchga kirib, 2004-yilning 31 dekabriga qadar amal qilishi kelishib olingan edi. Atom energiyasi va undan tinchlik yo‘lida foydalanish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitim 2003-yil 6-oktabrda imzolandi.

Jahon iqtisodiyotida O‘zbekiston Respublikasi uchun YeI davlatlari eng muhim savdo–iqtisodiy munosabatlarni olib boruvchi hamkor davlatlardir. 2002-yilda O‘zbekiston bilan YeI davlatlari o‘rtasida tovar aylanmasi hajmi 1 mlrd. 066,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning 521 mln. dollari eksport tovarlarga, 545,2

mln. AQSh dollari esa import tovarlarga to‘g‘ri keldi. 2002-yilda O‘zbekiston Respublikasi bilan samarali savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borgan davlatlar – GFR (250,8 mln. dollar), Buyuk Britaniya (302,0 mln. dollar), Italiya (123,8 mln. dollar), Belgiya (95,5 mln. dollar), Fransiya (91,5 mln. dollar), Niderlandiya (68,5 mln. dollar) bo‘ldi.

2004-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 1 429 mln. doll.ni tashkil etdi.

Respublikaning asosiy savdo sheriklari bo‘lib, Buyuk Britaniya (453,1 mln. AQSH doll.), Germaniya (320,3 mln. AQSh doll.), Italiya (125,5 mln. AQSh doll.), Latviya (65,4 mln. AQSh doll.), Polsha (28,1 mln. AQSh doll. A), Chexiya (14,3 mln. AQSh doll.) hisoblandilar.

Eksportning asosiy moddalari paxta tolasi, matolar va paxta ip,xizmatlar, plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, rangli metallar, ulardan tayyorlangan mahsulotlar va b. Import moddalari: mexanik asbob uskunalar, elektr uskunalar, xizmatlar, farmasevtika mahsulotlari, shakar va konditer mahsulotlari, qog‘oz va karton, optik apparatlar, asboblar va b.

YEI mamlakatlari O‘zbekistonda yetakchi investorlardan bo‘lib, 2006-yilda O‘zbekistonda YEI a’zo davlatlarining 204 firma va kompaniyalari akkreditatsiya qilingan edi. Respublika hududida YeI mamlakatlari firma va kompaniyalari kapitali ishtiroki bilan 583 korxona o‘z faoliyatini amalga oshirdi, ulardan 426 tasi qo‘shma korxonalar, 105 tasi –100% lik Yevropa kapitali bilan, 1995-2002-yillar davomida YeI firma va kompaniyalari, shuningdek, bank tuzilmalari O‘zbekistonda umumiy qiymati 8 mlrd. AQSH dollari atrofida bo‘lgan yirik investision loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etdi. Shu bilan birga oxirgi-yillarda Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Avstriya, Gresiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa qator davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki tomonlama aloqalar izchil va barqaror rivojlanmoqda.

O‘zbekiston – YeI munosabatlari kelajagi ko‘p jihatdan transport muammolari hal bo‘lishiga bog‘liq. Bu sohada YeI ning TRASEKA dasturi nihoyatda istiqbolli bo‘lib O‘zbekiston – YeI hamkorligi kelajagining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston – YeI hamkorligining istiqbolli sohalari quyidagilar bo‘lishi kutilmoqda:

• Kompaniyalarni turli investision loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishga jalb etish (Germaniya, Fransiya, Daniya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va b.);

• Kadrlar tayyorlashdagi keng qamrovli hamkorlik (Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya);

• Eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida YeI davlatdarida o‘zbek savdo uylarini ochish (YeI barcha mamlakatlari);

• Qo‘shma korxonalar tashkil etish yo‘li bilan YeI texnologiya va nou-xaularni O‘zbekistonga keltirish (Germaniya, Fransiya, Daniya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va b.)

• Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda YeI a’zolari tajribasidan foydalanish (Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Irlandiya, Portugaliya);

• Qurilish sohasi va qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi hamkorlikni kengaytirish (Italiya, Fransiya, Avstriya, Shvetsiya va b.);

• Paxta tolasini qayta ishlash va kiyim-kechak, poyafzal ishlab chiqarishda hamkorlikni kengaytirish (Italiya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya va b.);

• Turizm sohasidagi keng qamrovli hamkorlikni kengaytirish (YeIning barcha mamlakatlari);

• Kommunikatsiya sohasida hamkorlikni kengaytirish. YeI a’zolari portlari, avtomobil va temir yo‘llaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish (Niderlandiya,Germaniya, Finlyandiya, Gretsiya);

• Bank sohasini isloh qilishda YeI a’zolari tajribasidan foydalanish (Germaniya, Fransiya, Belgiya va b.);

• Suvni tozalovchi moslamalarga doir YeI yetakchi texnologiyalaridan foydalanish (Shvetsiya, Daniya, Germaniya);

• Farmatsevtika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va O‘zbekistonda dori-darmon ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish (Belgiya, Avstriya, Germaniya, Fransiya, Irlandiya, Gretsiya);

• Foydali qazilmalar ishlab chiqarish va qayta ishlashdagi hamkorlikni kengaytirish (Fransiya Shvetsiya va b.)

• Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashdagi hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish (Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Irlandiya)

• Metallurgiya sohasidagi hamkorlik (Avstriya, Italiya, Lyuksemburg)

• O‘zbekiston aeroportlaridan tranzit uchun foydalanish masalalarida hamkorlikni amalga oshirish. (YeI ning barcha mamlakatlari.)

Yevropa Ittifoqining Tempus dasturi asosida tayyorlangan loyihalar respublika iqtisodiyotining ustivor yo‘nalishlari bo‘lgan tibbiyot, axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligida boshqaruv tizimi, atrof-muhit (ekologiya), uzluksiz va masofaviy o‘qitish kabi sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi kunda 25 ta oliy ta’lim muassasi 22 ta Tempus loyihalarida faol ishtirok etib kelmoqda. 2005-yil uchun Yevropa Komissiyasi tomonidan ajratilgan mablag‘ 2,6 million yevroni va mazkur dasturning O‘zbekistondagi faoliyati davrida ajratilgan umumiy byudjet miqdori esa 15,4 million yevroni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining savdo-iqtisodiy aloqalarida NAFTA davlatlari ham o‘z o‘rniga ega. Bunday aloqalarda AQShning ulushi salmoqlidir. Respublikamizning AQSh bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanib borishida 2002-yilning martida «AQSh – O‘zbekiston o‘rtasidagi strategik hamkorlik» to‘g‘risidagi Deklaratstiya muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston–AQSh o‘rtasidagi ikki tomonlama savdo–iqtisodiy aloqalar rivojlanib, 2002-yilda tovar aylanmasi 400 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan edi.

2004-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi va AQSH o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 543,6 mln. dollarni tashkil qilgan. Shu jumladan, eksport 149,5 mln. doll., import 394,1 mln. doll. Salbiy saldo 244,6 mln. doll ni tashkil etgan. Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2006 va 2007-yillar yakuni bo‘-yicha export mos ravishda 119,1 va 85,6 mln. AQSh dollarini, import esa 128,4 va 110,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

Respublikada Amerika investorlari ishtirokidagi 379 korxona ro‘yxatga olingan, ulardan 248 tasi qo‘shma korxonalar va 89 tasi 100% chet el kapitali bilan. AQSh kapitali asosan respublikaning tog‘-kon sanoati va neft, gaz komplekslari qurilishi sohalarida, agrokompleks bazasini texnologik rivojida, oziq-ovqat va transport infratuzilmasi sohalarida amal qilmoqda. O‘zbekiston mustaqilligining 15 yilida Amerika kompaniyalari va moliyaviy institutlari tomonidan amalga oshirilgan investitsion loyihalar 2,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning 1,4 mlrd. AQSh dollari Amerikaning moliyaviy institutlari tomonidan sug‘urta qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Osiyo–Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan olib borayotgan savdo–iqtisodiy hamkorligi-yildan-yilga rivoj topib bormoqda. Jumladan, Osiyo–Tinch okeani mintaqasini sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlaridan biri Yaponiya O‘zbekistonning suveren mustaqilligini 1991-yilning 28 dekabrida tan oldi. 1992-yilning 26 yanvarida ikki davlat o‘rtasida do‘stona hamkorlik qilish to‘g‘risida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Diplomatik munosabatlarni o‘rnatilishi, respublikamiz Prezidenti I. Karimovning 1994-yilning may va 2002-yilning iyul oylarida Yaponiyaga qilgan tashrifi muhim rol o‘ynadi. Ushbu tashriflar chog‘ida O‘zbekiston – Yaponiya davlatlararo aloqalarining o‘rnatilishi to‘g‘risida qator muhim hujjatlar imzolandi. Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning o‘rnatilishida 1994-yilda tuzilgan O‘zbekiston-Yaponiya va Yaponiya-O‘zbekiston qo‘mitalarining iqtisodiy va madaniy tashkilotlari muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Yaponiyalik tadbirkorlar tomonidan respublikamizning xom-ashyo resurslari bazasida neft-gaz va tekstil sanoatini rivojiga bag‘ishlangan seminarlar, eksport imkoniyatlarnining rivojiga bag‘ishlangan moliyaviy hamkorlik to‘g‘risidagi konferensiyalar, prezentatsiyalar o‘tkazib turibdi. Yaponiyaning iqtisodiyot, savdo va sanoat hamda moliya vazirliklari bilan birgalikda doimiy asosda moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish masalalari bo‘yicha maslahatlar o‘tkazilmoqda. O‘zbekistonda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan Yaponiyaning xalqaro hamkor agentligi (JICA) va tashqi savdo tashkiloti (JETRO) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Toshkentda O‘zbekiston – Yaponiya madaniy markazi tashkil etilgan.

Yaponiya O‘zbekistonga Markaziy Osiyodagi vaziyatga katta ta’sir ko‘rsata oladigan mintaqaviy yirik davlat sifatida qaraydi. Hozirgi vaqtda ikki davlat o‘rtasida savdoda eng qulay rejim o‘rnatilgan.

2002-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 31,9 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning 11,6 mln. AQSh dollari eksport tovarlariga, 20,3mln. AQSh dollari esa import tovarlariga to‘g‘ri kelgan edi. O‘tgan davrda respublika eksportining asosiy moddalari: yigirilgan ip va materiallar, alyuminiy va uning mahsulotlari, shuningdek, xizmatlar. Import: kauchuk va rezina mahsulotlari, zamonaviy asbob-uskuna va texnologiya, kimyoviy shtapel tolasi, oltindan ishlangan asbob va apparatlar, mebel, transport vositalari va xizmatlar.

Import hajmining ilgarilab borayotgan o‘sish sur’ati va Yaponiya bilan savdoda salbiy saldoning mavjudligi ustuvor investision loyihalarni amalga oshirish uchun yangi asbob-uskunalarni keltirish bilan izohlanadi.

O‘zbekiston va Yaponiyaning iqtisodiy hamkorligi oxirgi yillar mobaynida barqaror rivojlanmoqda. O‘tgan davrda Yapon kapital qo‘yilmalari umumiy hajmi 2 mlrd.dan ortiq AQSH dollarini tashkil etdi.

Xalqaro hamkorlik Yapon banki (JBIC) tijoriy kreditlari orqali respublika yoqilg‘i-energetika va to‘qimachilik komplekslarida umumiy summasi 820 mln. AQSH dollari bo‘lgan 8 ta investision loyihalarning amalga oshirilishi moliyalashtirildi.

Bundan tashqari Yaponiya Hukumati «Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi orqali O‘zbekistonga (telekommunikatsiya, transport infrastrukturasi, energetika va maorif sohalari bo‘yicha) umumiy summasi 910 mln. AQSH dollari ajratdi. Beg‘araz va insonparvarlik yordamlari bo‘yicha sog‘liqni saqlash, maorif, transport va madaniyat sohalariga umumiy summasi 130,83 mln. AQSH dollari bo‘lgan resurslar Yaponiya tomonidan ajratildi.

2005-yil yakunlariga ko‘ra ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 85,3 mln. dollarni, shu jumladan, eksport 31,7 mln. doll, import – 53,56 mln. dollarni tashkil etdi.

O‘zbekistonda Yapon kapitali ishtirokida 9 ta qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu korxonalarning asosiy faoliyat sohalari bo‘lib savdo operatsiyalari, transport, sog‘liqni saqlash, turizm sohasidagi xizmatlar, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil sanoat hisoblanadi. O‘zbekistonda Mitsui, Mitsubishi, Itochu, Sumitomo, Marubeni, NEC kabi yirik yapon kompaniyalarining 21 ta vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Janubiy Koreya bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini rivojlanib borishida Respublikamiz Prezidenti I. Karimovning 1992-yilning iyunida Janubiy Koreyada bo‘lishi, shuningdek, Janubiy Koreya respublikasi Prezidenti Kim En Samning javob tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1994-yilning iyunida ikki davlat o‘rtasida o‘zaro tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning huquqiy asoslari hisoblangan «Savdo to‘g‘risida», «Ilmiy-texnologik hamkorlik to‘g‘risida» qator shartnomalar imzolandi. 1996-yilning 19-iyulida Asaka shahrida avtomobil zavodi «UzDEU Avto» qo‘shma korxonasini prezentastiyasi bo‘lib o‘tdi, unda Respublikamiz Prezidenti I.Karimov va Janubiy Koreya Respublikasini siyosiy

ishlar bo‘yicha vaziri muovini Kim Tok Leng, «DEU guruhi»ning raisi Kim U Jung qatnashdilar.

O‘zbekiston – Janubiy Koreya o‘rtasida o‘zaro hamkorlik qilishning yangi impulsi sifatida 1999-yil oktyabrida respublikamiz Prezidenti I. Karimovning Janubiy Koreyaga qilgan maxsus safari muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston – Janubiy Koreya o‘rtasida 20 dan ortiq davlatlararo shartnoma va hujjatlar imzolangan. 2002-yilda ikkala davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 326,0 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning 67,0 mln. AQSh dollari eksportga, 259,0 mln. AQSh dollari importga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston eksportida asosiy o‘rinni paxta tolasi, xizmat ko‘rsatish, plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar turgan.

2003-yilda O‘zbekiston – Janubiy Koreya o‘rtasidagi tovar aylanmasi 179,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning 39,1 mln. AQSh dollari eksportga, 140 mln. AQSh dollari esa importga to‘g‘ri kelgan. 2003-yilda Janubiy Koreya Respublikasi eksport-import bankining O‘zbekistonga ajratgan krediti 96,4 mln. AQSh dollarini tashkil qilib, ushbu yordam asosan respublikamizning telekommunikatsiya uzatishlar, «UzDEU-AVTO» qo‘shma korxonasida yangi avtomobil modellarini yaratish, kasb-hunar kollejlarini texnik vositalar bilan ta’minlash, «O‘zbek ipagi» assotsiatsiyasini texnik jihozlash ishiga sarf etilgan.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2006 va 2007-yillar yakuni bo‘yicha Janubiy Koreya bilan tovar aylanmasi mos ravishda 709,8 va 583,8 mln. AQSh dollarini, shu jumladan export 44,8 va 69,7 mln. AQSh dollarini, import esa 665,0 va 514,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidaga savdo-iqtisodiy hamkorliklar asosan Respublikamiz Prezidenti I. Karimovning 1992-yilning mart, 1994-yilning oktyabr, 1999-yilning noyabr oylarida XXRga qilgan rasmiy tashrifi chog‘larida va shuningdek, 1994-yilning aprelida XXR davlat maslahatchisi Li Pen va XXR raisi Szyan Szeminning

O‘zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida belgilab olindi. 1992-yilning yanvarida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida o‘zaro savdo iqtisodiy munosabatlarni olib borish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaga muvofiq 2002-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 130 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, uning 17,3 mln. AQSh dollari eksportga, 112.7 mln.AQSh dollari esa importga to‘g‘ri kelgan. (33-jadval)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 2005-yil yakunlari bo‘yicha 485,5 AQSH dollarini tashkil etdi, ya’ni 2004-yilga nisbatan 32,2 % ga o‘sdi. Eksport hajmi 228,3 mln. dollar (125 % ga o‘sdi), import hajmi esa 257,2 mln. dollarga (3,2 % ga kamaydi) teng bo‘ldi.

33-jadval

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanish dinamikasi (mln.AQSH dollari)

Yillar	1999-y.	2000-y.	2001-y.	2002-y.	2003-y.	2004-y.	2005-y.
Tovar aylanmasi	80.3	95,5	107	130	216,5	367,1	485.5
Eksport	19.2	22,5	15	17,3	53.4	101.5	228.3
Import	61.1	73	92	112,7	163,1	265.6	257.2
Qoldiq	-41.9	-50,5	-77	-95,4	-109,7	-164.1	-28.9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan

Bu davrda asosiy eksport mahsulotlari – neftdan qayta ishlangan mahsulotlar (10,9 %), paxta tolasi (68,3 %), mineral o‘g‘itlar (5,4 %), plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar (4,4 %), o‘simlik

yog‘i (3,8 %), ipak (1,8 %), xizmatlar (4,2 %) va boshqalardan iborat bo‘ldi. Xitoydan esa asosan mexanik uskunalar (17,8 %), elektr uskunalari (33,6 %), optik asbob-anjomlar (8,5 %), choy (3,5 %), rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (2,6 %), plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar (2,6 %), organik kimyo birikmalari (2,5 %) va noorganik kimyo mahsulotlari (2,2 %), keramik buyumlar (1,9 %), qora metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (1,7 %), kimyo mahsulotlari (1,3 %), yog‘och va undan tayyorlangan buyumlar (1,1 %), qimmatbaho bo‘lmagan metallardan tayyorlangan buyumlar (1,1 %), yer transporti vositalari (1%), xizmatlar (6,3 %) va boshqalar import qilindi.

Bugungi kunga kelib moliyaviy-investision hamkorlik ham mustahkamlanib bormoqda. Taqdim etilgan moliyaviy vositalarning umumiy hajmi 428,1 mln. AQSH dollarini, jumladan beg‘araz yordam doirasida 8,8 mln. AQSH dollari, tovar kreditlari liniyalari bo‘yicha 9,6 mln. AQSH dollari, foizsiz kreditlar 13,3 mln. AQSH dollarini, imtiyozli kreditlar 64,1 mln. AQSH dollarini, tijorat kreditlari 32,3 mln. AQSH dollarini, eksport kreditlari 300 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

1999-yil oktabrda bo‘lib o‘tgan hukumatlararo komissiyaning uchinchi majlisidan so‘ng investitsiyaviy hamkorlik kuchaydi. Xitoyning bir qator kompaniyalari neft-gaz, qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish, ipakchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarida qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda. 2000-2001-yillarda O‘zbekistonga umumiy miqdori 230 mln. yuanga teng uchta imtiyozli kredit berildi.

Qator Xitoy kompaniyalari O‘zbekistonga elektrovozlar va rels mustahkamlagichlar yetkazib berish, Toshkent aeroporti yo‘lkalarini rekonstruksiya qilish, Orol bo‘yida suv ta’minoti tizimlarini barpo etish bo‘yicha yirik xalqaro tenderlarda g‘olib chiqishdi.

2001-yilda O‘zbekistonga 450 mln. yuanlik gaz hisoblagichlar yetkazib berish bo‘yicha shartnoma, shuningdek, 100 mln. yuan

(12 mln. dollar) miqdoridagi imtiyozli kredit ajratish haqida hukumatlararo kelishuv imzolandi. Erishilgan kelishuvga binoan «O‘zkimyosanoat» DAK buyurtmasi bo‘yicha Xitoyning International Coorporation Co Ltd kompaniyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida 32,3 mln. dollar qiymatga ega bo‘lgan Qo‘ng‘irt soda zavodi qurilishini tugalladi. Bu loyihani Xitoy sanoat-tijorat banki krediti hisobiga moliyalashtirdi.

2001-yil sentabrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va Xitoy Seysmologiya Byurosi o‘rtasida imzolangan shartnoma doirasida Xitoydan beshta seysmostansiya keltirildi, shuningdek O‘zbekiston Seysmologiya institutiga 300 ming dollarlik uskuna va jihozlar beg‘araz yordam sifatida berildi.

2002-yil boshida yana bir qo‘shma korxona – Xonobodda quritilgan milliy ugra ishlab chiqarish bo‘yicha «Xon-bug‘da» korxonasi tashkil etildi. Bunga har ikki tomondan 150 ming dollardan mablag‘ ajratildi.

2003-yil fevralda Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston–Xitoy hukumatlararo komissiyasining beshinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Ko‘p masalalar bo‘yicha ikki davlat pozisiyalarining bir-biriga mosligi ta’kidlandi. Bu jihatdan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi aloqalar va uning oldida turgan asosiy vazifalarga, ya’ni mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, xalqaro terrorizm, separatizm, ekstremizmga qarshi kurashish, shuningdek, narkotiklar va ommaviy qirg‘in vositalari tarqalishiga qarshi kurashish masalalariga katta ahamiyat beriladi.

2005-yil oktabrda umumiy summasi 505,2 mln. AQSH dollariga teng bo‘lgan 12 ta loyihani moliyalashtirish ko‘zda tutildi, shu jumladan:

240,4 mln. AQSH dollari – neft-gaz tarmog‘i uchun 3 ta loyiha;

93,3 mln. AQSH dollari – kommunal sohada 3 ta loyiha;

65,9 mln. AQSH dollari – melioratsiya va irrigatsiya sohasida 3 ta loyiha;

64,1 mln. AQSH dollari – kimyo tarmog‘i uchun 1 ta loyiha;

29,5 mln. AQSH dollari – elektrotexnika tarmog‘i uchun 1 ta loyiha;

12.0 mln. AQSH dollari – telekommunikatsiya sohasiga 1 ta loyiha.

O‘zbekistonda Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatdiki, respublikamiz hududida Xitoy investitsiyalari ishtirokidagi 83 ta korxona faoliyat olib bormoqda. Ularning 64 tasi qo‘shma korxonalar, 19 tasi 100 foiz Xitoy investitsiyasi ishtirokidagi korxonalardir. Bu korxonalar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, vositachilik xizmatlarini amalga oshirish va boshqalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida Xitoy kompaniyalarining 26 ta vakolatxonasi akkreditatsiyadan o‘tgan. Akkreditasiyadan o‘tgan vakolatxonalarning asosiy faoliyat sohasi eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, axborot texnologiyalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida 1992-yil yanvarda imzolangan savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuvga muvofiq mamlakatlar o‘rtasida eng qulay sharoit rejimi o‘rnatilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining savdo hamkorlari o‘rtasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2006 va 2007-yillar yakuni bo‘yicha Xitoy bilan tovar aylanmasi mos ravishda 734,2 va 748,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan, export 356,6 va 314,4 mln. AQSh dollarini, import esa 377,6 va 434,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

7.4. O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalar

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng (1991-yil) investitsion muhit sezilarli darajada yaxshilandi. Xorijiy mamlakatlar kapitalinining ahamiyati yildan-yilga ortib bordi. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar faoliyatining yaxshilanishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30 apreldagi o‘n birinchi sessiyasida «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi va «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risidagi» qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

2002–2004-yillarda Respublikada YeTTBning 60 mln. AQSh dollari miqdoriga teng bo‘lgan birinchi va ikkinchi kredit liniyalari va shuningdek, Osiyo Taraqqiyot Bankining 50 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan kredit liniyalari to‘liq o‘zlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Kanada, Xitoy, Turkiya, Gollandiya, Shveytsariya kabi davlatlarning bank va firmalarining 40 ga yaqin hukumatlararo bitimlari imzolangan bo‘lib, hozirda ular o‘z faoliyatini olib bormoqda. Respublikada xorijiy investorlarning kreditlari hisobiga Asaka avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Zarafshon – Nyumont qo‘shma korxonasi kabi muhim sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan qurilish ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonda yaratilgan qulay investitsion muhit tufayli yildan-yilga respublikamiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi ortib bormoqda. 1994-yilda ushbu mablag‘larning umumiy kapital qo‘yilmalar hajmidagi ulushi 0,6% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2002-yilda 20-21 %, ya’ni 1,5-2 mlrd. AQSh dollariga etdi.

O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish jarayonlari quyidagi keng ko‘lamli me’yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida olib borilmoqda:

- 1995-yil 22 dekabrda davlatlar va xorijiy shaxslararo investitsion nizolarni hal etish tartiblari haqidagi konvenstiya;

• 1995-yil 11 oktyabrda investitsiyani kafolatlash bo‘yicha keng ko‘lamli faoliyat yurituvchi agentlikni tuzish haqidagi bitim;

• 1997-yil 28 martda investorlarning huquqlarini himoyalash konvenstiyasi;

• 1997-yil 22 dekabrda investitsion jarayonlarini rag‘batlantirish va himoyalash haqida O‘zbekiston – Rossiya o‘rtasida tuzilgan bitim;

• 1998-yil 17 aprelda O‘zbekiston Respublikasi bilan Belgiya-Lyuksemburg iqtisodiy ittifoqi o‘rtasida investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish va himoyalash haqidagi bitim;

• 1998-yil 28 iyunda investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish va himoyalash haqida O‘zbekiston – Bolgariya o‘rtasida tuzilgan bitim;

• 2001-yil 29 mayda investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish va himoyalash haqida O‘zbekiston – Shvetsiya qiroliigi hukumati o‘rtasida tuzilgan bitim;

• 2001-yil 9 sentyabrda investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish va himoyalash bo‘yicha O‘zbekiston – Portugaliya o‘rtasida tuzilgan bitim va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining investitsion siyosatini asosiy yo‘nalishlaridan O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy normativ hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

– O‘zbekiston hududida amalga oshirilayotgan investitsion siyosatning konstitustion asoslarini belgilab beruvchi qonuniy hujjatlar;

– O‘zbekiston hududida xo‘jalik ishlarini (asosan tijorat) amalga oshiruvchi subyektlar o‘rtasida mulkiy munosabatlarni belgilab beruvchi qonuniy aktlar;

– Xorijiy investorlarni jalb etish asosida ish yurituvchi korxonalarning faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar;

– O‘zbekiston Respublikasi hududida investitsion faoliyatni tartiblashtirishga va xorijiy investorlarni himoyalashga yo‘naltirilgan qonuniy aktlar va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida 2004-yilda umumiy hisobda 3090 ta xorijiy investorlar hamkorligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 2497 tasi qo‘shma korxonalarni tashkil etgan. Ushbu qo‘shma korxonalarni tashkil etishda AQSh, Buyuk Britaniya, GFR, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, RF. Ukraina, Belarus, Qozog‘iston Respublikalari kabi davlatlarning investorlari faollik ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda Turkiya respublikasi bilan 50 ta, AQSh bilan 49 ta, Rossiya bilan 56 ta, Buyuk Britaniya bilan 40 ta, Janubiy Koreya bilan 23 ta, Shveytsariya bilan esa 18 ta qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eksportni kengaytirish va import o‘rnini qoplashga qaratilgan ustivor loyihalar qo‘llab-quvvatlandi. Kimyo sanoatida Farg‘ona «Azot», Chirchiq «Elektrkimyosanoat» ishlab chiqarish birlashmalari qayta ta’mirlandi. Andijon, Qo‘qon, Yangiyo‘l va boshqa shaharlarda qator zavodlar, Qizilqum «Fosfat» kombinati qurilish ishlari olib borilib, ishga tushirildi. Mashinasozlik sanoatida Asaka, Andijon avtomobil zavodi ishga tushirildi. Janubiy Koreya bilan hamkorlik da butlovchi buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalar qurilish ishlari davom ettirilmoqda.

1995-yillardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi issiqlik-energetika kompleksini rivojlantirish maqsadida yirik ko‘lamli investitsion siyosat sohasidagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ko‘kdumaloq (Qashqadaryo) va Mingbuloq (Namangan) neft foydali qazilmalaridagi ishlar, Buxorodagi Qorovulbozor neftni qayta ishlash sanoat korxonalarining qurilishi, Farg‘onadagi neftni qayta ishlash zavodining qayta ta’mirlanishi, Andijondagi yer osti gaz omborlarining qurilishi respublika xalq xo‘jaligini yuqori sifatli neft va gaz yoqilg‘isi bilan ta’minlash imkonini berdi. O‘zbekistonda neft (160dan ortiq neft konlari borligi

aniqlangan), gaz (zaxirasi 2 trl.tonna) va ko‘mir (zaxirasi 2 mlrd. tonna) sanoat tarmoqlarining rivojlanishi yoqilg‘i-energetika sanoat kompleksini rivojlantirish imkoniyatini bermoqda. Mustaqillik yillarida quvvati 300 ming kvt kuchga ega bo‘lgan Yangi energiya GRESining ettinchi energobloki, Tallimarjon GRESning birinchi energoblokida qurilish ishlari olib borilib, foydalanishga topshirildi.

O‘zbekistonda AQShning «Nyumont mayning» kompaniyasi bilan bir qatorda YeTTB kreditlari jalb qilinishi natijasida Muruntovda (Navoiy viloyati) ruda chiqindilari tarkibidan oltin ishlab chiqaruvchi Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati tashkil topdi. 1994-yilda «Omontov Goljfilds» O‘zbekiston-Britaniya qo‘shma korxonasi tashkil topdi. Ushbu qo‘shma korxona ishchi va xizmatchilarining mehnatlari natijasida Dovonletov va Omonletov kabi oltin konlari 1998-yilda ishga tushirildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kimyo sanoati kompleksini rivojlantirish ishlari uchun katta mablag‘ ajratildi. Ajratilgan ushbu mablag‘lar hisobidan Qizilqum fosforit kombinati (2,7 mln. tonna fosforit konsentrati olinadi) va Qo‘ng‘irot soda zavodlarida juda katta qurilish ishlari olib borildi. O‘zbekiston fosforitlarga juda boy o‘lka bo‘lib, Jeroy Sardara fosforitlar konidagi ma’dan Marokash turiga mansub zarradonadir. Kondagi aniqlangan zaxira taxminan 100mln. tonnani tashkil etadi. Andijon va Qo‘qon shaharlarida spirt ishlab chiqarish zavodlarini qurish ishlari olib borildi va foydalanishga topshirildi. Qashqadaryodagi Tubakat va Surxodaryodagi Xo‘jaikon konlaridan kaliy osh tuzi qazib olinmoqda. Ushbu konlarda kaliy osh tuzlarining zaxirasi taxminan 100-yildan ko‘proqqa etar ekan. Tubakat kaliy tuzi konlari negizida chet ellik investorlar hamkorligida kaliy o‘g‘itlarini ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan. Tuz konlarini kompleks qayta ishlash natijasida bromli temir, magneziy, gips va boshqa ko‘plab xo‘jalik uchun ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni olishga katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi kunda Xo‘jaikon, Tubakat.

Borsakelmas, Boybichakon va Oqqal'a kabi 5 ta tosh tuzi konlarida taxminan 90 mlrd. tonna xomashyo zaxirasi borligi aniqlangan. 2000-yilda xorijiy investorlar yordamida Farg'ona «Azot» va Chirchiq «Elektrkimyo mahsulotlari» zavodlarini qayta ta'mirlash ishlari olib borilib, nihoyasiga etkazildi. Mustaqillik yillarida Respublikaning mahalliy byudjeti va shuningdek, chet el investorlarining asosiy yordamlari mahalliy sanoatning mashinasozlik, tog'-kon metallurgiya, yoqilg'i-energetika komplekslarini rivojlantirish ishlariga qaratilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi investitsion siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri – bozor munosabatlariga faol integratsiyalashuv asosida jahon xo'jaligiga bosqichma-bosqich kirib borish va mustahkam, barqaror rivojlanishdan iboratdir.

Istiqlol yillarida Respublika iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar kapitalining kirib kelishi kuchaydi. 1993-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'yilgan umumiy kapital hajmining 0,8% xorijiy mamlakatlar investitsiyasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilda 20,3%ni, 2007-yilda 30-35% tashkil etdi. 2000-yilda birgina Toshkent viloyatida xorijiy investorlarning yordamida 23 ta yangi sanoat korxonalari qurilgan bo'lib, ushbu qo'shma korxonalar asosan kichik va o'rta biznes ko'rinishida bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2005-yilga qadar Respublika eksport potenstialini rivojlantirishning Davlat dasturi»ga ko'ra Toshkent viloyatida 556 mln. AQSh dollari qiymatiga teng bo'lgan loyiha ishlab chiqildi. Bunday investitsion loyiha «Davlatning investitsion dasturi»ga kiritilgan bo'lib, 303,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan edi. 2001-yilda ana shu loyiha bo'yicha 195,5 mln. AQSh dollarlik ish bajarilgan. Xorijiy investorlar yordamida bolalar uchun iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha AO «Bolalar taomlari – Xolding» qo'shma korxonasi, O'zbekiston, Yaponiya va Turkiya hamkorligida «Chinoz to'qimachi LTD» qo'shma korxonasi, Yangiyo'ldagi qog'oz-sellyuloza mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qog'oz kombinati va boshqalar Davlat dasturi asosida qurilib ishga

tushirildi. 2001-yilda ushbu dastur bo‘yicha respublikada 60 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan sanoat qurilish ishlari bajarilgan edi.

2001-yilda gigraskafik vatalar ishlab chiqarish bo‘yicha Germaniyaning Tamed Farma GmbX va Shveytsariyaning MRS «Investment end konsalting» firmalari bilan hamkorlikda 50,2 mln. AQSh dollari qiymatiga ega bo‘lgan PO «Uzbekrezinotexnika» QK. Tualet qog‘ozlari va salfetkalar ishlab chiqaruvchi Shveytsariyaning «Petroleks AG» firmasi bilan hamkorlikda 18,0 mln. AQSh dollarli qiymatiga ega bo‘lgan PO «Promkartontorg» qo‘shma korxonalari qurilib foydalanishga topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi xomashyo mahsulotlarni eksport qilishdan, tayyor sanoat mahsulotlarni eksport qilishga o‘tishda muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Buni Italiyaning «FATA Grupp» firmasi bilan hamkorlikda olib borilgan loyiha ishlarida ko‘rish mumkin. Italiyaning ushbu loyihasi bo‘yicha O‘zbekistonda 48 mln. AQSh dollari qiymatiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (sharbat va meva konsentratlari, muzqaymoq, pechenye, makaron mahsulotlari) qayta ishlaydigan sanoat korxonalari, pivo ichimligi ishlab chiqaradigan kichik zavodlar va texnologik liniyalar qurildi. 2001-yilda Respublikada 192,4 mln. AQSh dollari qiymatiga ega bo‘lgan «Olmaliq TMK» QK, 63,0 mln.AQSh dollari qiymatiga ega bo‘lgan «Kobul-O‘zbek Kompaniya» QK, 17,7 mln. AQSh dollari qiymatiga ega bo‘lgan «Uzmetkombinat» QK, 6,9 mln. AQSh dollari qiymatiga ega bo‘lgan PO «Elektroximprom» qo‘shma korxonalari qurilib ishga tushirildi. Xullas, O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda uzoq xorijiy mamlakatlarning 100 dan ortiq, shuningdek, yaqin xorijiy mamlakatlarning 30 ga yaqin qo‘shma korxonalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston xorijiy mamlakatlarga asosan paxta tolasi, rangli metallar, mashina va uning asbob-uskunalari, yengil sanoat mahsulotlari, iste’mol mahsulotlari, meva-sabzavot mahsulotlari eksportga chiqarmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish O‘zbekiston hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan

qayta qurish sharoitida bevosita xorijiy investitsiyalar milliy jamg‘armalar imkoniyatlaridan ko‘proq investitsiyalarni amalga oshirishda va ishlab chiqarish bazasini yangilashda muhim o‘rin tutadi.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali texnologik uskunalar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini import qilish, jahonda mashhur kompaniyalarning savdo belgilaridan, nau-xaulardan, transmilliy kompaniyalarning mahsulot eksportini kengaytirish uchun jahon bozorlariga kirib borish kanallaridan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Zamonaviy ishlab chiqarishning mazkur omillari har doim ham jahon bozorlarida sotilmaydi va ko‘pincha bevosita xorijiy investitsiyalar kirib kelishi bilan birga o‘zlashtiriladi.

Bevosita xorijiy investitsiyalar boshqa xorijiy investitsiyalarga nisbatan ikkita muhim afzallikka ega: birinchidan, ular uzoq muddatli xarakterga ega, shu sababli qisqa muddatli kapitallarning chiqib ketishi va kirib kelishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirmaydi. Bu esa jahon xo‘jalik aloqalarining globallashuvi va baynalmilallashuvi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish uchun muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, bevosita xorijiy investitsiyalar to‘lov majburiyatlarini vujudga keltirmaydi va shundan kelib chiqqan holda tashqi qarzlarning vujudga kelishi yoki oshishiga olib kelmaydi. Bu, ayniqsa, tashqi qarz jiddiy muammo bo‘lgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, O‘zbekiston o‘zining ichki imkoniyatlariga asoslanib, qulay investitsiya muhitini yaratishga kirishdi. Islohotlar davrida, eng avvalo, investitsiya faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari barpo etildi. Qabul qilingan va amalda bo‘lgan qonunlar va me’yoriy hujjatlar iqtisodiy faoliyat erkinligini ta’minlash, xususiy mulkni himoya qilish, iqtisodiy faoliyat subyektlariga davlat organlarining aralashuvini cheklashga qaratilgan. Ayniqsa, xorijiy investorlarga

qator kafolatlar tizimi taqdim etilgan bo‘lib, ular milliy, diniy va hududiy belgilar bo‘yicha cheklashlarning mavjud emasligida, o‘z mablag‘laridan erkin foydalanishlari uchun shart-sharoitlarning barpo etilganligida, investorlar faoliyatiga tegishli axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarining mavjudligida va boshqalarda o‘z aksini topmoqda.

Ishlab chiqilgan imtiyozlar tizimi xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini barpo etadi. Mazkur imtiyozlar orasida respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishda qatnashayotgan korxonalarning yetti yil davomida foydadan olinadigan soliqdan ozod etilishini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Mamlakat eksport salohiyatini oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotning 30 foizidan ko‘prog‘ini mamlakatdan tashqariga sotayotgan korxonalar foydasiga soliq stavkasi ikki barobardan ziyodroqqa kamaytirilgan.

Mutaxassislar fikricha, O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar kirib kelishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– arzon va malakali ishchi kuchining mavjudligi;

– respublikamizning tabiiy-iqtisodiy resurlarga boy ekanligi;

– mamlakatimiz tabiiy-iqlim sharoitlarining yirik miqdorda qishloq xo‘jaligi xomashyosi ishlab chiqarishga imkon berishi;

– milliy bozorning istiqbolli ekanligi;

– mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning mavjudligi;

– qulay me’yoriy-huquqiy bazaning shakllanganligi va h.k.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar jalb etish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bevosita xorijiy investitsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirishdagi roli o‘sib bormoqda (34-jadval).

Xususan, 1994-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 15,3 foizga yetdi.

34-jadval

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni	1246	1878	3055	3554	3445	3301	3400	3301	3400	3539	3742	3875
Tegishli yillarda bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi hajmi (mln. AQSH dollari)	70	352	169	275	133	111	105	108	58	40	57	62
Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi (mlrd. so‘m)	1,7	6,2	42	125	177	267	386,7	611,7	1049,5	1441,3	1958,4	2327,1
XIIKning YalMdagi ulushi, %	2,6	2	7	12	13	13	10,9	12,5	14,7	14,9	15,1	15,3
XIIKda band bo‘lganlarning jami band aholi sonidagi ulushi, %	0,3	0,4	0,6	0,9	1	1	1	1	1	1,1	1,1	1,2
XIIK eksporti (mln. AQSH dollari)	2	73	192	400	336	372	452	417	443	564	785,2	823,1
XIIK importi (mln. AQSH dollari)	39	421	1579	1778	21118	1028	761	937	705	858	1165,7	1592,9
XIIKning jami eksportdagi ulushi, %	1	2	4	9	10	11	14	13	15	15	16,2	15,2
XIIKning jami importdagi ulushi, %	6	15	33	39	34	33	26	30	26	29	30,5	38,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi 1994-yilda 2 mln. dollardan 2005-yilda 823,1 mln. dollargacha o‘sdi. Ushbu korxonalarning mamlakat jami eksportidagi ulushi tahlil qilinayotgan davr mobaynida 1 foizdan 15,2 foizgacha o‘sdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning jami importdagi ulushi sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Agar 1994-yilda bunday korxonalarning jami importdagi salmog‘i 6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 38,9 foizga yetdi.

Bevosita xorijiy investitsiyalar jalb etishning asosiy maqsadlaridan biri eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Ammo O‘zbekistonda hozirga qadar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importining eksportga nisbatan yuqori bo‘layotganligi ushbu vazifaning yetarli darajada bajarilmayotganligini ko‘rsatadi. Xususan, 2005-yilda ushbu korxonalar tomonidan amalga oshirilgan import operatsiyalari eksportga nisbatan 1,9 martaga ko‘p bo‘lgan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining tovar tarkibini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, unda mashina va asbob-uskunalar (43,3 foiz), xizmatlar (4,9 foiz), oziq-ovqat (4,5 foiz), energiya manbalari (3,5 foiz) asosiy o‘rinni egallaydi.

Mashina va asbob-uskunalar eksportida O‘zDEUavto korxonasining yengil avtomobillari salmoqli ulushga ega bo‘lgan. Rossiya avtomobil bozorida «Neksiya» va «Matiz» eksporti 2005-yilda 2004-yilga nisbatan 1,7 martaga o‘sgan. Natijada «O‘zDEUavto» qo‘shma korxonasi Rossiyada sotilgan xorijiy markadagi avtomobillarning umumiy soni bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinni egalladi.

Mazkur korxona eksporti hajmining oshishiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan lokalizasiya dasturiga asosan butlovchi qismlarni mamlakat ichkarisida ishlab chiqarishni o‘zlashtirish natijasida mashinalar tannarxining pasayishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan birga mashina va asbob-uskunalar eksportining asosiy qismini bitta korxona mahsulotlari tashkil etishi uning jami eksportdagi ulushining beqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Yuqoridagi jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, 1998-2005-yillar orasida mashina va asbob-usunalarning xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportidagi ulushi 16 foizdan (2000-yilda) 43,3 foizgacha (2005-yilda) o‘zgargan.

35-jadval

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining tovar tarkibi, %

Yillar	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Paxta tolasi	0	0	4,8	2,4	1	3,3	2,3	1,0
Oziq-ovqat	2,2	8,3	7,4	4,4	4,1	4,2	3,9	4,5
Kimyo mahsulotlari	2,7	1,4	1,5	2,6	2,1	2,3	2,6	4,2
Energiya manbalari	0,1	3,3	3,7	4,7	2,9	3,4	3,6	3,5
Qora va rangli metallar	0,3	0,3	0,3	0,2	0,5	0,8	0,7	1,2
Mashina va asbob-uskunalar	34,1	17,8	16,0	21,1	16,5	19,4	28,4	43,3
Xizmatlar	4,7	5,1	3,9	4,4	3,8	4,4	5,0	4,9
Boshqalar	55,9	63,8	62,4	60,2	69,1	62,3	57,0	37,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida yuz bergan ijobiy o‘zgarishlardan biri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportida paxta tolasi ulushining pasayishi hisoblanadi. Agar 2000-yilda jami eksportning 4,8 foizi paxta tolasi hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 1,0 foizgacha pasaydi.

Ayni vaqtda so‘nggi yillarda qora va rangli metallar ulushining o‘sishi jahon rangli metallar bozorida mamlakatimiz uchun qulay konyunkturaning shakllanganligi bilan bog‘liq.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining tovar tarkibi yengil avtomobillar, avtobuslar, elektrtexnika mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, aloqa xizmati, to‘qimachilik mahsulotlari, neftni qayta ishlash mahsulotlari va boshqalar asosiy o‘rinni egallaydi. Eksport hajmi bo‘yicha «O‘zavtosanoat» Hissadorlik jamiyati, «O‘zbekeniglsanoat» DAK, «Yog‘moytamakisanoat» uyushmasi, «Oziq-ovqatsanoati» uyushmasi, «O‘zeltexsanoat» uyushmasi tizimidagi korxonalar yetakchi mavqega ega.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksporti tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish natijalari bir qator muammolarni ham ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Xususan, respublikamizda bir yilda 5 mln. tonnadan ortiqroq meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarilishiga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlarining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportidagi salmog‘i atigi 4,5 foizni tashkil etadi, xolos.

2006-yilda jami eksport hajmida xomashyo mahsulotlari jami eksportning taxminan 2/3 qismini tashkil etmgan. Vaholanki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etishdan asosiy maqsad qo‘shilgan qiymat darajasi yuqori bo‘lgan, iste’molga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar import tarkibini tahlil qilish natijalari shundan dalolat beradiki, unda mashina va asbob-uskunalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, import tarkibida investision tovarlar asosiy o'rinni egallaydi, chunki xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Nizom kapitaliga asosiy qo'yilmalarni (60 foizga yaqin) uskunalar, texnologiyalar va boshqa moddiy aktivlar shaklida amalga oshirganlar. Ta'kidlash joizki, bu tovarlar importiga boj to'lovlari joriy etilmagan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar iste'mol tovarlari importini qisqartirish va eksporti hajmini oshirishga, paxta tolasi va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishga, shuningdek, mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot asoslarini barpo etishga qaratildi.

36-jadval

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importining tovar tarkibi, %

Yillar	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Oziq-ovqat	13,6	11,9	12,9	8,8	15	15,1	12,0	9,8
Kimyo mahsulotlari	13,8	12,4	20,5	13,3	13,2	12,4	13,9	12,8
Energiya manbalari	0,4	0,4	0,8	0,6	0,6	0,4	0,5	0,4
Qora va rangli metallar	4,6	5,4	5,1	5,9	4,4	5,4	6,0	8,9

Mashina va asbob-uskunalar	57,4	57,9	47,4	62,5	57,5	55,4	56,3	56,2
Xizmatlar	1,3	4,0	1,1	1	1,1	2,7	4,5	4,9
Boshqalar	8,9	8,1	12,2	7,9	8,2	8,5	6,8	6,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importida asosiy o‘rinni mashina va asbob-uskunalar egallaydi. Agar 1998-yilda mazkur korxonalar tomonidan amalga oshirilgan import operatsiyalarining 57,4 foizi mashina va asbob-uskunalar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib bu ko‘rsatkich 56,2 foizni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importida mashina va uskunalarning yuqori ulushga ega bo‘lishi o‘tish iqtisodiyoti sharoitida maqsadga muvofiq bo‘lib, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiyalashga, ishlab chiqarishga eng ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importida keyingi o‘rinlarni kimyo mahsulotlari (2005-yilda 12,8 foiz) va oziq-ovqat mahsulotlari (9,8 foiz) egallaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga (baliq, soya doni, o‘simlik yog‘i, go‘sht, go‘sht mahsulotlari) ilgari amal qilgan nolli stavka o‘rniga 5-10 foizlik import boji stavkalarining joriy etilishi natijasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 2003-yilda 15,1 foizdan 2005-yilda 9,8 foizgacha pasaydi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importi tarkibi dinamikasini tahlil qilish natijalari ham ba’zi bir muammolarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Xususan, respublikamizdagi qulay

tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga qaramasdan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importida oziq-ovqat mahsulotlarining 9,8 foiz ulushga ega bo'lishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatadi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi 1991-yilning 31 avgustida mustaqillikka erishdi. Shu kundan boshlab respublikaning ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida rivojlanishning yangi davri boshlandi.

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini erkinlashtirish sharoitida jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlarini rivojlantirish va yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarida kuch-g'ayratni jamlash zaruriyati yuzaga keldi. Yetakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, va gumanitar tashkilotlar, ilg'or Yevropa mamlakatlari va AQSh, Osiyo–Tinch Okeani mintaqasi davlatlari, MDH mamlakatlari va ayniqsa, Rossiya, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ana shunday yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning ko'zga ko'ringan yirik va obro'li xalqaro tashkilotlari, dunyoning o'nlab davlatlari bilan aloqalarni o'rnatgan bo'lib, ularning yirik bank va moliyaviy tashkilotlari bilan, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda. O'zbekistonda xorijiy mamlakatlarning 43 ta elchixonasi, 49 ta nodavlat va shuningdek, 15 ta davlatlararo tashkilotlari akkreditatsiya qilingan. Respublikamiz eng muhim xalqaro konvensiyalarning qatnashchisidir. O'zbekiston turli davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar asosida intensiv rivojlanib boruvchi davlatlardan biridir.

Rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga o‘tgan O‘zbekiston nufuzli xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlarning teng huquqli a’zosidir. Respublikamiz Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banklar guruhi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro elektr aloqalari ittifoqi, Osiyo–Tinch okeani mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) kabi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning a’zosi hisoblanadi. Respublikamiz Xalqaro atom energiyasini nazorat qilish bo‘yicha tashkilotga, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishi uchun faol tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Jahon xo‘jalik aloqalarining moddiy-ashyoviy asoslarini u yoki bu mintaqaviy guruhlar yoki ittifoqlarga birlashgan mamlakatlarning integratsion salohiyati tashkil qiladi. Mamlakatning integratsion salohiyati deganda, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning subyektlari (integratsiyalashayotgan mamlakatlar) amalga oshiradigan xalqaro ishlab chiqarish va iqtisodiy hamkorlik predmeti bo‘lgan tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, savdo resurslari, ilmiy xodimlar va insonlarning aqliy qobiliyati bilan bog‘liq majmuini tushunmoq zarur.

Tashqi iqtisodiy siyosat respublikaning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga, uning to‘lov balansini yanada yaxshilashga, qulay investitsion muhitni yaratishga yo‘naltirilishi kerak. Buning uchun respublikamizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud.

Tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini yaratish bu – tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlariga va shart-sharoitlariga javob beradigan ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug‘urta firmalari, transport tizimi, aloqa va kommunikatsiya tizimlarini barpo qilish demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi uchun tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi sharoitida

o‘ta muhimdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasini, export va importni diversifikatsiyalashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ham siyosiy, ham iqtisodiy sohada ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Ularning eng muhimlaridan biri bu – respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etib, milliy manfaatlarga mos keladigan ko‘p tomonlama siyosat yuritishi va shu asosda jahon xo‘jaligida tutgan o‘z o‘rnini mustahkamlab borishdir.

Davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng O‘zbekiston uchun rivojlanishning o‘z modelini (o‘zbek modeli) ishlab chiqish imkoniyati ochildi. Ushbu rivojlanish modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo‘jalik aloqalariga integratsiyalashuvi kabi masalalarga katta e’tibor qaratilgan. Respublikamizning o‘z taraqqiyot modelini takomillashtirish va joriy etishni ishlab chiqishda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish uchun respublikada islohotlarni yanada samaraliroq amalga oshirish va boshqa xorijiy davlatlar yo‘l qo‘ygan xatolarni takrorlamaslik zarurdir.

Endilikda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat maydonida borgan sari munosib o‘rinni egallab bormoqda. Qo‘yilgan ko‘pgina amaliy qadamlar O‘zbekistonning Xalqaro hamjamiyatda uzoq muddatli, istiqbolli yaratuvchilik faoliyatini olib borishga mo‘ljallangandir.

Ayniqsa, bu mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa qilish imkoniyatidan mahrum edi. Bundan tashqari xo‘jalik yuritishning yopiq, Sotsialistik boshqaruv tizimi sharoitida, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi, valyuta-kredit munosobatlari kabi xalqaro ayriboshlash turlari deyarli

rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning barchasi O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi tizimiga teng huquqli kirishiga va barcha mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorligini ta’minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy integratsiya bir tomondan, yangi texnologiyalardan, xorijiy sarmoyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni tezda o‘stirishga ko‘maklashsa, boshqa tomondan, O‘zbekistonning boy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlarining jahon xo‘jaligiga qo‘shilishi, uning umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Integratsiya – O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borshini tezlashtiradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston iqtisodietida xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishi muhim o‘rin tutmoqda.

O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo Hamjamiyati (MOH), MDH va Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotlari (IHT) miqyosidagi integratsion aloqalarini kuchaytirishi, balki istiqbolda jahondagi boshqa bir qator integratsion uyushmalar bilan ham mustahkam munosabatlar o‘rnatishi lozim.

Jahon iqtisodiy tizimining globallashuvi va integratsiyalashuvi zamonaviy jahon xo‘jaligining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi jarayonida ishtirok etishdan eng ko‘p foyda olish va tavakkalchiliklar xavfini kamaytirish maqsadida jahon xo‘jaligiga moslashishi zarur.

Tayanch iboralar: Strategik joylashuv, xorijiy mamlakatlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, iqtisodiyotning «ochiqligi», MDH mamlakatlari, turli xalqaro tashkilot va uyushmalar, respublikaga xorijiy investitsiyalar, rivojlanish istiqbollari, texnik-texnologik sarmoya, kadrlar tayorlash, qo‘shma korxonalar.

Nazorat uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuv jarayonlar qanday kechmoqda?

2. O‘zbekiston Respublikasi bilan YeI davlatlari o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi qanday kechmoqda?

3. Respublikaning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida xalqaro hamjamiyat va tashkilotlarning ahamiyati nimadan iborat?

4. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati nimadan iborat?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.:«O‘zbekiston», 2003.

2. «Chexiya, Estoniya, Kipr, Vengriya, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Sloveniya va Slovakiya Respublikalarining Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi, bir tomondan, Yevropa hamjamiyatlari hamda ularga a’zo davlatlar, ikkinchi tomondan, o‘rtasida Sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida» gi Bitim Bayonnomasini (Bryussel, 2004-yil 30-aprel) ratifikatsiya qilish haqida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2005-yil 18-may.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-mayda qabul qilingan «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati to‘g‘risida» gi 222 II sonli qarorining 1-ilovasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida 07/17/2007.

4. «Kredit uyushmalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida 04/06/2006

5. «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga o‘zgartishlar kiritish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish masalalariga oid ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida 04/05/2006.

6. O‘zbekiston Respublikasining 1968-yil 8-oktabrda Lokarnoda imzolangan Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta’sis etish to‘g‘risidagi bitimiga qo‘shilishi haqida 03/14/2006.

7. O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini ta’sis etish to‘g‘risida 2000-yil 10 oktabrdagi Shartnomaga qo‘shilishi to‘g‘risida Bayonnomani (Sankt-Peterburg, 2006-yil 25-yanvar) ratifikatsiya qilish haqida 03/07/2006.

8. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida 12/14/2005.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari

1. «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF – 3594-son Farmoni.

2. «Bozor isloqotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi PF–3618-son Farmoni.

3. «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi Pq – 24-son Qarori.

4. «Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11- martdagi PQ – 26-son qarori.

5. «2005-2006-yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-martdagi Pq – 29-son qarori.

6.«Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni raqbatlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 01/05/2006.

7.«Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 10/05/2005.

8.«Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 07/21/2005.

9.«Tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik sohasidagi huhuq-buzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 06/24/2005.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1.«Xalqaro shartnomalar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarish tartibi to‘g‘risida» 12.12.2000-yil. 473-sonli qarori.

2. «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 02.05.2003-yil. 205-sonli qarori.

3.«Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (O‘zR Prezidentining 21.01.1994 y. PF – 745-sonli Farmoni).

4.«O‘zR Vazirlar Maqkamasining 1995-yil 12-sentabrdagi 354-son qarori bilan tasdiqlangan moliya-sanoat guruhlari to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida» (O‘zR VM 10.03.1998-yil. N 105-sonli qarori).

5.«Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» (O‘zR 29.08.1998 yil. 670–I-son qonuni).

6.«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida» (O‘zR 25.05.2000-y. 69 – II-son qonuni).

7. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida (O‘zR Oliy Majlisining 25.05.2000-yil. 70 – II-son qarori).

8. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (O‘zR VM 02.05.2003-yil. 205-son qarori).

9. Xo‘jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida (O‘zR Prezidentining 22.12.2003-y. PF – 3366-son Farmoni).

10. Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida (O‘zR VM 24.12.2003 y. 563-son qarori).

11. «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunini amalga kiritish haqida (O‘zR OM 29.04.2004-y. 614-II-son qarori).

12. Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (O‘zR Prezidentining 14.06.2005-y. PF-3619-son Farmoni).

13. Reeksport bojxona rejimi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zR AV 17.11.2003-y. 1134-1-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR DBQ 10.11.2003-y. 01-02/20-47-son qarori).

14. O‘zR Davlat bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (O‘zR Prezidentining 09.03.2006-y. PQ-302-son qarori).

15. O‘zR Bojxona organlarida kontraktlar (shartnomalar) va bitimlarni hisobga qo‘yish tartibi (O‘zR AV tomonidan ro‘yxatga olingan 15.10.1999-y. N 832, tasdiqlangan O‘zR Davlat bojxona qo‘mitasi 10.09.1999-y. N 02/19-67)

16. Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (O‘zR VM 30.09.2003-y. 416-son qarori).

17. Import kontraktlarini hisobga qo‘yish va tashqi savdo operatsiyalarining bojxona monitoringini amalga oshirish tartibi

to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 30.09.2003-y. 416-son qaroriga 1-ilova).

18. Import shartnomalarini hisobga qo‘yish va ular to‘lovini xo‘jalik subyektlarining o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida (O‘zR AV 04.10.2005-y. 1514-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MBB 24.09.2005 y. 268-V-son, O‘zR IV 64-son, O‘zR MV 94-son va O‘zR DBq 01 – 02/19 – 22-son qarori).

19. Import shartnomalarini hisobga qo‘yish va ular to‘lovini xo‘jalik subyektlarining o‘z mablaqlari qisobidan amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom (O‘zR AV 04.10.2005 y. 1514-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MBB 24.09.2005 y. 268-V-son, O‘zR IV 64-son, O‘zR MV 94-son va O‘zR DBq 01 – 02/19 – 22-son qarori bilan tasdiqlangan).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy isloqotlarni chuqurlashtirishning eng muqim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. 02/08/2008 www.gov.uz qukumat rasmiy sayti

2. Tinch-osoyishta hayotni qadrlash va mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama ravnaq toptirish – barchamizning asosiy vazifamiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi 10/14/2006 www.gov.uz O‘zR qukumat rasmiy sayti.

3. Tinchlik va barqarorlikni saqlashning ishonchli kafolati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ShHT Davlat rag‘barlari kengashining sammitida so‘zlagan nutqi 06/16/2006 www.gov.uz O‘zR hukumat rasmiy sayti.

4. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Prezident Islom Karimovning

2005-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy isloqotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi 02/11/2006 “Xalq so‘zi” gazetasi, 2006-yil 11-fevral.

5. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo‘lishi darkor. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2006-yil 25-fevral.

6. Mintaqada xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida. Prezident Islom Karimovning Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida so‘zlagan nutqi 07/05/2005 www.gov.uz O‘zR hukumat rasmiy sayti.

7. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqi 01/28/2005 www.gov.uz O‘zR hukumat rasmiy sayti.

8. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» -T. O‘zbekiston, 2005 y. - 92 b.

9. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasidagi ma’ruza, 29 avgust 2002-yil.

10. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”.– T.:O‘zbekiston, 1999.

5. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining me’yoriy hujjatlari

1. Постановление Агентства по внешним экономическим связям, Министерства финансов, Государственного таможенного комитета Республики Узбекистан от 11 ноября 2004 года №№ ЭГ-01/10-4238, СР/13-01/3-46/128, 01-02/20-35 «О внесении дополнений в Перечень стран, с которыми подписаны

Соглашения о торгово-экономическом сотрудничестве с предоставлением режима наибольшего благоприятствования».Зарегистрировано Министерством юстиции Республики Узбекистан 14 января 2005г. Регистрационный № 426-4.

6.Darsliklar

6.1. O‘zbekistonda chop etilgan

1. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S.. T.: MChJ “RAM-S”, 2007-y

2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Nazarova G.G., Xaydarov N.X.,Akbarov M. T.: MChJ “RAM-S”, 2007-y

3. Nazarova G.G., Xalilov X., Eshtaev A., Xakimov N., Salihova N., Bobojonov B. “Jahon iqtisodiyoti va XIM”. – T., 2005. - 216 b.

4. Shodiev R.X. “Jaqon iqtisodiyoti”. – T.: “G‘ofur G‘ulom”, 2005. 215-b.

5. Nazarova G.G, Xalilov X.X. va boshq’alar “Jahon iq’tisotiyoti” – T., 2005. 220-b.

6.2. Xorijda chop etilgan

1. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 474 с.

2. Мировая экономика и международный бизнес: учебник/кол. авторов ; под общ. Ред. д-ра экон. Наук, проф. В.В.Полякова и д-ра экон. Наук, проф.р.к.Щенина.- 5-е изд., стер.- М.:КНОРУС, 2008. – 688 с.

3. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.

4. Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А. Дынкина / ИМЭМО РАН. – М.: Магистр, 2007. – 429 с.

5. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник /Под ред. Л.Н. Красавиной. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 576 с.

6. Внешнеэкономическая деятельность: учеб. для студ. сред. проф. учеб. заведений /[Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелов, С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелова. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: «Академия», 2007. – 304 с.

7. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / Под ред. В.В. Попкова. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. – 295 с.

8. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: Учебник. – М.: ЗАО «Экономика», 2007. – 359 с.

9. Кочетов Э. Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2006. – 528 с: ил.

10. Комаров М.П. «Инфраструктура регионов мира»: учебник. – СПб: . Изд. 2004-

11. Николаева И.П. «Мировая экономика» Учеб. пособие для вузов М., Юнити, 2004

12. Цыпин И.С., Веснин В.Р. Мировая экономика: Учебник. – М.: ТК Велби, Изд-во Поспект, 2006. – 248с.

13. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2006. – 528с.

14. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004-196 б.

15. Ломакин В.К.. Мировая экономика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. -735 б.

16. Кудров В.М. Мировая экономика. – М.: Дело 2004.-528 б.

17. Погорлецкий А.И. Экономика зарубежных стран. – СПб., 2003.- 492 б.

18. Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. – СПб.:Питер. 2004. -831 б.

7. O‘quv qo‘llanmalar

7.1. O‘zbekistonda chop etilgan

1. Xalqaro menejment. Nazarova G.G., Salixova N.M., Muhamedjanova G.A., Ismailova N.S. T.: МЧЖ «RAM-S», 2007- y.

2. Теория и практика дипломатических отношений. Назарова Г.Г.,Ли Д.М.,Адилова З.Д. Т.:ТГЭУ, 2007 г.

3. Халқаро дипломатик муносабатлар. Назарова Г.Г.,Эштаев А.А.,Юсупов А.С., Азимов А.Э.. Т.: МЧЖ «RAM-S», 2007й.

4. Тенденции развития международной торговли. Назарова Г.Г., Адилова З.Д., Сафаров Н.Ч. Т.:ТГЭУ, 2007-г.

5. Международный маркетинг. Назарова Г.Г., Адилова З.Д., Мухамедрахимов У.Х. Т.: МЧЖ «RAM-S», 2007-у.

6. Международная бизнес стратегия. Назарова Г.Г., Адилова З.Д.,Розметова Н.Б.,Исмаилова Н.С. Т.: МЧЖ «RAM-S», 2007-у.

7. Inson resurslari menejmenti. Nazarova G.G., Salixova N.M., Muxamedjanova G.A., Ismailova N.S.,Rozmetova N.B. T.: MChJ “RAM-S”, 2007-y.

8. Jahon iqtisodiyoti. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R. T.: MChJ “RAM-S”, 2007-y.

9. Эканомика зарубежных стран. Назарова Г.Г., Адилова З.Д., Мухамеджанова Г.А. Т.:ТГЭУ, 2007-у.

10. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. Nazarova G.G.,Xakimov N.Z., Bobojonov B.R., Ergashev D.R., Sultanova N.A. T.:TGEU, 2007-y.

11. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlari. Xaydarov N.X. T.:TGEU, 2007-y.

12. Mualliflar guruhi. O‘zbekistonda biznes keyslar: O‘zbekiston Respublikasidagi biznes ta’limotida “Keys-Stadi” uslubining qo‘llanilishi. – T.: Akademiya, 2006. – 645 b.

13. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: TDIU, 2005.-273 b.

7.2. Xorijda chop etilgan

1. Спиридонов И.А. Мировая экономика: Учеб. пособие. – М.: РИОР, 2007. – 128 с.

2. Ломакин В.К. Мировая экономика. Практикум: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 223 с.

3. Мировая экономика и международный бизнес : учебник / кол. авторов; под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. В.В. Полякова и д-ра экон. наук, проф. Р.К. Щенина. – 5-е изд., стер. – М. : КНОРУС, 2008. – 688 с.

4. Шевчук В.А., Шевчук Д.А. Международные экономические отношения: Учеб. пособие.- М.: Издательство РИОР, 2006.-192 с.

5. Фигурнова, Н. П. Международная экономика: учеб. пособие / Н.П. Фигурнова. – Москва: Издательство «Омега-Л», 2007. – 304 с.

6. Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пособие / Под ред. д-ра экон. наук, проф. М.Н. Осьмовой, канд. экон. наук, доц. А.В. Бойченко. – М.: ИНФРА-М, 2006. – VIII, 376 с.

7. Саввина О. В.Международные финансовые организации: Учебное пособие. – М.: Российская Академия предпринимательства, 2006. – 146 с.

8. Смирнов Е.Н. Введение в курс мировой экономики (экономическая география зарубежных стран): учеб. пособ. –М.: Кнорус, 2008.-416с.

9. Международный финансовый рынок: учеб. пособие /

д ред. д-ра экон. Наук, проф. В.А. Слепова, д-ра экон. Наук, оф. Е.А. Звоновой. – М.: Магистр, 2007. – 543 с.
10. Международные стратегии экономического развития: еб. пособие / Под ред. Ю.В.Макогона.- К.: Знамя, 2007.-461 с.

8. Ilmiy monografiyalar va maqolalar

1. «Об итогах социально – экономического развития в 2005 у и важнейших приоритетах углубления экономических орм в 2006 году». Газета. «Правда Востока» 15 февраль 6 й.
2. Bekmuradov A. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyotini rallashtirish yillarida. 5-qism. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo nvestitsiyalar oqimlari – T.: TDIU, 2005.
3. Nazarova G.G., Nazarova R.R., Yusupov A.S., Jahon odiyotiga integratsiyalashuv – T. TDIU, 2005 178 b.
4. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Axmedov I.A., Azimov A.E. maniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2005. b.
5. Искандаров О. «Для привлечения иностранных инвесто-». Газета «Правда Востока» 9 февраля 2006 г.
6. Кораблев Д. «Инвестиционные возможности отраслей». та «Правда Востока» 14 февраля 2006 г.
. Бобожонов Б.Р. «Региональная экономическая политика нии», материалы Международной научно-практической еренции на тему «Развития юридических, экономических дагогических наук в ВУЗе», ТГЭУ, 2004.
. Мухаммеджанова Г.А., Эштаев А. Основные принципы вления персоналом в США и Японии. Материалы XVII кановских чтении. – М.: 2004 – 350 с.

. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiya ishlari omzodlik dissertatsiyalari

Azimov A. «GFR iqtisodiyoti va uning jahon hamjamiyati-integratsiyasi», avtoreferat, T.: TDIU. 2005.

2. Umarxodjayeva M.G. “Italiyada o‘rta va kichik biznesning rivojlanishi”. T. TDIU. 2004.

3. Eshtaev A.A. “AQSh iqtisodiyotining o‘sish omillari”.T.: TDIU. 2001.

Magistrlik dissertatsiyalari:

2. Хаустова Л. «Использование японского опыта развития легкой промышленности в РУз.» Т.: ТГЭУ-2004.

3. Иванов С. «Управление людскими ресурсами в Центральноазиатском регионе».

10. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma’ruzalar to‘plami

1. Мухамеджанова Г.А. «Роль развивающихся стран в мировом движении капитала», Сборник научных трудов. – Т.: ТГЭУ, 2004.

2. Yusupov A.S. «Xorijiy investitsiyalar-korxonalar iqtisodiy taraqqiyoti garovi», «Bozor, pul, kredit», 11-son, 2004.

3. “Milliy iqtisodiyot sohalarida xalqaro tajribani o‘rganish va uni kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda tatbiq etish” – noyabr 2004-y.

11. Gazeta va jurnallar

1. Xalq so‘zi. Gazeta. 2004-2008-yy. sonlari.

2. Правда Востока.Газета. 2004-2008-yy. sonlari.

3. Экономическое обозрение. Журнал. 2004-2008-yy. sonlari.

12. Statistik ma’lumotlar to‘plamlari

1. Узбекистан в цифрах 2007. Статистический сборник. – Т.: Статистика, 2007.

13. Internet saytlar

1. www.gov.uz
2. www.tseu.uz
3. www.cer.uz
4. www.review.uz
5. www.businesspress.ru

3. Yevropa Ittifoqining (YeI) tashkil topishi va rivojlanish istiqbollari.

Tayanch iboralar: Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlar, iqtisodiy makon, iqtisodiy institutlar, evro valyuta, evro hududiga kirish mezonlari (byudjet, davlat qarzi, yillik inflyastiya, o‘rtacha nominal foiz stavkasi, valyuta kursini tebranishi).

3-variant

1. Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlaridagi integratsion jarayonlar. Mintaqaviy hamkorliklardagi tashkilotlar.

Tayanch iboralar: LAI, LAES, KARIKOM, And pakti davlatlari (Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya).

2. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarni aniqlovchi omillar.

Tayanch iboralar: Mamlakatlarning baynalmilallashuvi, iqtisodiyotning «ochiqligi», xalqaro mehnat taqsimoti, bozor miqyosining kengayishi.

3. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy tashkilotlarning rivojlanish xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Mintaqaviy va submintaqaviy iktisodiy integratsion tashkilotlarning maqsadi, EKOVAS, YuDEAK tashkilotlari, Afrika iqtisodiy hamjamiyati.

4-variant

1. MDH mamlakatlari doirasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, bojxona ittifoqi, Rossiya bilan Qozog‘iston, Rossiya bilan Tojikiston, Kirg‘iziston o‘rtasida hamkorliklar.

2. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy tizimdagi o‘zgarishlar, xususiylashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatini olib borilishi, moliya va bank tizimidagi islohtlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi.

Tayanch iboralar: Strategik qulay joyda joylashganligi, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar.

5-variant

1. O‘zbekiston Respublikasi bilan YeI davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning borishi.

Tayanch iboralar: olib borilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar, texnik- texnologik sarmoya, kadrlar tayyorlash, qo‘shma korxonalar qurishdagi hamkorlar.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada zamonaviy ilmiy-texnik va texnologik hamkorlar.

Tayanch iboralar: Ilmiy–tadqiqot markazlari, laboratoriyalar, kadrlar tayyorlash, tajriba va maslahat markazlari, xalqaro hamjamiyatlar va tashkilotlar, kommunikatsion o‘zaro bog‘lanishlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida xalqaro hamjamiyat va tashkilotlarning ahamiyati.

Tayanch iboralar: BMT, YeI, ERTB, ORTB (Osiyo rivojlanish va taraqqiyot banki).

6-variant

1. Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (OKEAN) integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Okean davlatlarini geografik o‘rni, resurslar, xalqaro savdosining borishi, bojxona ittifoqi, bandlik, kadrlar tayyorlash.

3. Yevropa Ittifoqining (YeI) tashkil topishi va rivojlanish istiqbollari.

Tayanch iboralar: Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlar, iqtisodiy makon, iqtisodiy institutlar, evro valyuta, evro hududiga kirish mezonlari (byudjet, davlat qarzi, yillik inflyastiya, o‘rtacha nominal foiz stavkasi, valyuta kursini tebranishi).

3-variant

1. Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlaridagi integratsion jarayonlar. Mintaqaviy hamkorliklardagi tashkilotlar.

Tayanch iboralar: LAI, LAES, KARIKOM, And pakti davlatlari (Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya).

2. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarni aniqlovchi omillar.

Tayanch iboralar: Mamlakatlarning baynalmilallashuvi, iqtisodiyotning «ochiqligi», xalqaro mehnat taqsimoti, bozor miqyosining kengayishi.

3. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy tashkilotlarning rivojlanish xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Mintaqaviy va submintaqaviy iktisodiy integratsion tashkilotlarning maqsadi, EKOVAS, YuDEAK tashkilotlari, Afrika iqtisodiy hamjamiyati.

4-variant

1. MDH mamlakatlari doirasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, bojxona ittifoqi, Rossiya bilan Qozog‘iston, Rossiya bilan Tojikiston, Kirg‘iziston o‘rtasida hamkorliklar.

2. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy tizimdagi o‘zgarishlar, xususiylashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatini olib borilishi, moliya va bank tizimidagi islohtlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi.

Tayanch iboralar: Strategik qulay joyda joylashganligi, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar.

5-variant

1. O‘zbekiston Respublikasi bilan YeI davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning borishi.

Tayanch iboralar: olib borilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar, texnik- texnologik sarmoya, kadrlar tayyorlash, qo‘shma korxonalar qurishdagi hamkorlar.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada zamonaviy ilmiy-texnik va texnologik hamkorlar.

Tayanch iboralar: Ilmiy – tadqiqot markazlari, laboratoriyalar, kadrlar tayyorlash, tajriba va maslahat markazlari, xalqaro hamjamiyatlar va tashkilotlar, kommunikatsion o‘zaro bog‘lanishlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida xalqaro hamjamiyat va tashkilotlarning ahamiyati.

Tayanch iboralar: BMT, YeI, ERTB, ORTB (Osiyo rivojlanish va taraqqiyot banki).

6-variant

1. Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (OKEAN) integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Okean davlatlarini geografik o‘rni, resurslar, xalqaro savdosining borishi, bojxona ittifoqi, bandlik, kadrlar tayyorlash.

2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Osiyo – Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, YeI mamlakatlari, NAFTA davlatlari, MDH mamlakatlari, Shanxay guruhi tashkiloti.

3.Yevropa davlatlari Ittifoqining tashkil topishi va moliya-byudjet sohasida olib borayotgan siyosat.

Tayanch iboralar: Tashkil topgan moliyaviy institutlar, hisob-kitob palatasi, daromad, harakat, soliq siyosati, mintaqaviy dasturlar.

7-variant

1.O'zbekiston Respublikasining rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Milliy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, olib borilayotgan eksport va import siyosati, qo'shma korxonalarning tashkil etilishi.

2. Zamonaviy jahon xo'jaligining global muammolari va ularni hal etishda xalqaro integratsiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Ekologik muammo, oziq-ovqat muammosi, demografik muammo, resurslardan foydalanish muammosi.

3. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi uchun xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar beradigan imkoniyatlar.

Tayanch iboralar: ishlab chiqarishning kengayishi va samaradorlikning oshishi, ishlab chiqarilayotgan tovarlar mahsuloti uchun bozorlarning kengayishi, ilmiy-texnik va texnologik taraqqiyot.

8-variant

1. «Xalqaro iqtisodiy integratsiya» mazmuni va mohiyati, iqtisodiy fanlar ichida tutgan o'rni, iqtisodiy fanlar bilan aloqasi.

Tayanch iboralar: Integratsion jarayonlarning jahon markazlari. Integratsion guruhlarning asosiy shakllari, Xalqaro tashkilot (BMT) va iqtisodiy uyushmalar.

2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiyani belgilovchi asosiy omillar.

Tayanch iboralar: Ilmiy iqtisodiyotning baynalmilnallashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiyotning «ochiqligi», kommunikatsion o‘zaro bog‘lanishlar.

3. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlarni borishi.

Tayanch iboralar: G‘arbiy Yevropa integratsion markazining shakllanishi, iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, boshqaruv mexanizmi.

9-variant

1. Jahon xo‘jaligida xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik, texnologik hamkorlar.

Tayanch iboralar: Ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikning birinchi bosqichida mamlakatlarning umumiy mehnat taqsimoti bilan xalqaro ixtisoslashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi.

2. YeI davlatlarida valyuta ittifoqiga oid harakatlarning uch bosqichda amalga oshirilishi va evro hududiga kirish mezonlari.

Tayanch iboralar: 1992-yildagi Maastrixt shartnomasi, valyuta ittifoqiga oid harakatlarning bosqichlari.

3. Iqtisodiy integratsiyada xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining asosiy ko‘rinishlari.

Tayanch iboralar: Ishlab chiqarish va savdoni o‘zaro muvofiqlashtirish, qo‘shma korxonalarning tashkil rtilishi, qurilishning pudrat sohasi, ilmiy-texnik sohasidagi hamkorlar.

10-variant

1. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy tashkilotlar tashkil topishi ikkinchi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: XX asrning 50 – 60-yillarida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida mustamlakachilik tuzumining yemirilishi, milliy davlatlarning paydo bo‘lishi.

2. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tashkil topishi uchinchi to‘lqinining (bosqichi) o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Jahon iqtisodiyotida XX asrning 60 – 70-yillarida ro‘y bergan iqtisodiy chayqalish va turg‘unliklar, iqtisodiy integratsion jarayonlarning global ko‘lamda borishi.

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot ekanligi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, shtab-kvartirasi, a’zo-davlatlar, tuzilmaviy bo‘limlari (Bosh Assambelya), Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS), Sekretariat, YuNKTAD, YuNIDO.

11-variant

1. Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: NAFTA davlatlari uyushmasining tashkil topishi, maqsadi, iqtisodiy samarasi, rivojlanish xususiyatlari, tajribasining xalqaro ahamiyati.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarni belgilovchi omillar.

Tayanch iboralar: Mamlakatlarning baynalmilallashuvi, iqtisodiyotning «ochiqligi», xalqaro mehnat taqsimoti, bozor miqyosining kengayishi, a’zo davlatlar obro‘-e’tiborining oshishi, raqobatbardoshligi.

3. BMT jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot ekanligi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, shtab kvartirasi, 190 ga yaqin a’zo davlatlar borligi. BMT Bosh tuzilmaviy bo‘limlari – Bosh Assambleya (BA), Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash (EKOSOS),Sekretariat. BMT savdo va taraqqiyot bo‘yicha Anjumani, (YuNKTAD), sanoat taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti (YuNIDO).

12-variant

1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanishida iqtisodiy birlashgan tashkilotlar guruhi.

Tayanch iboralar: Yevropa hamjamiyati (EX) davlatlari, NAFTA, ASEAN, Lotin Amerikasi davlatlari birlashgan uyushmasi, Shanxay guruhi davlatlari tashkiloti.

2. Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar guruhi.

Tayanch iboralar: GATT (JST) tashkiloti, savdo va taraqqiyot bo‘yicha BMTning Anjumani YuNKTAD, OPEK, YuNIDO, FAO, YuNESKO.

3. Moliya-valyuta va kredit munosabatlari va shuningdek, sarmoyalar kirib kelishini himoyalash sohasidagi xalqaro tashkilotlar.

Tayanch iboralar: Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro hisob banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.

13-variant

1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishida tovarlar va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuv – «GATT-JST».

Tayanch iboralar: XX asr-ning 20 – 40 -yillarda jahon savdosida boshxona bojlari va boshqa turli cheklashlarning

«protekitsonizm» siyosati paydo bo‘lishi. Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuv – «GATT».

2. Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: NAFTA davlatlari uyushmasining tashkil topishi, a’zomamlakatlar, maqsadi, samarasi, rivojlanish xususiyatlari, NAFTA tajribasining xalqaro ahamiyati.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarni borishida xalqaro valyuta fondi (XVF).

Tayanch iboralar: Tashkil topishida Bretton-Vuds anjumanining ahamiyati.

14-variant

1. Yevropa ittifoqining (YeI) tashkil topishi va rivojlanish istiqbollari.

Tayanch iboralari: Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlar, iqtisodiy makon, iqtisodiy institutlar, evrovalyuta, evro hududiga kirish.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar, xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU).

Tayanch iboralar: XTTBning shoxobchasi sifatida tashkil topganligi (1960-y.), maqsadi, moliyaviy resurslari, kreditlarning asosiy yo‘nalishlari.

3. Integratsion birlashmalarning rivojlanish xusisiyatlari.

Tayanch iboralar: Rivojlanish bosqichlari, integratsiyani belgilovchi omillar, integratsion jarayonlarning rivojlanishidagi ustuvor yo‘nalishlar.

15-variant

1. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik turlari va uning o‘ziga xos belgilari.

Tayanch iboralar: Xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro tashkilotlar (YeI, ERTB, BMT, NAFTA va boshqalar) va ularning integratsion jarayonlar borishidagi ahamiyati.

2. Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiyani belgilovchi asosiy omillar.

Tayanch iboralar: Ilmiy iqtisodiyotning baynalmilallashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiyotning «ochiqligi», kommunikatsion o‘zaro bog‘lanishlar.

3. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy birlashma va uyushmalar.

Tayanch iboralar: Afrika iqtisodiy hamjamiyati , EKOVAS, YuDEAK, mintaqaviy va submintaqaviy birlashmalarni tuzishdan maqsad.

16-variant

1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi.

Tayanch iboralar: Strategik qulay joyda joylashganligi, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar.

2. Osiyo – Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: A’zo davlatlar (11 ta), davlatlar hissasiga jahon mamlakatlarining YaMMsi, raqobatbardoshligi.

3. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi global muammolar.

Tayanch iboralar: Demografik muammolar, ekologik muammolar, oziq-ovqat muammosi, muammolarni hal qilishning mintaqaviy ko‘rinishlari.

17-variant

1. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida xalqaro hamjamiyat va iqtisodiy tashkilotlarning ahamiyati.

Tayanch iboralar: BMT, YeI, ERTB, ORTB (Osiyo rivojlanish va taraqqiyot banki).

2. Savdo va sanoat sohasidagi xalqaro tashkilot – neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK).

Tayanch iboralar: OPEKning tashkil topishi (1960-y.), a'zo mamlakatlar, jahonda qazib olinadigan neft, jahon neft zahiralari.

3. Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (OKEAN) integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Okean davlatlarini geografik o'rni, resurslar, xalqaro savdosini borishi, bojxona ittifoqi, bandlik, kadrlar tayyorlash.

18-variant

1. Osiyo – Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: A'zo davlatlar (11 ta), davlatlar hissasiga jahon mamlakatlarining YaMMsi, raqobatbardoshligi.

2. O'zbekiston Respublikasining rivojlanishida iqtisodiy integastiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Milliy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, olib borilayotgan eksport va import siyosati, qo'shma korxonalarning qurilishi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi va bandlik, tovarlar ishlab chiqarishdagi standart va raqobat.

3. Shimoliy Amerika mamlakatlarida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: NAFTA xalqaro iqtisodiy integratsion tashkilotining tashkil topishi, vazifasi, maqsadi, iqtisodiy samarasi, xalqaro ahamiyati.

19-variant

1. MDH mamlakatlari doirasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, bojxona ittifoqi, Rossiya bilan Qozog‘iston, Rossiya bilan Tojikiston, Qirg‘iziston o‘rtasida hamkorlik.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada zamonaviy ilmiy- texnik va texnologik hamkorlar.

Tayanch iboralar: Ilmiy tadqiqot markazlari, laboratoriyalar, kadrlar tayyorlash, tajriba va maslahat markazlari, xalqaro hamjamiyatlar va tashkilotlar, kommunikatsion o‘zaro bog‘lanishlar.

3. Shimoliy Amerika mamlakatlarida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: NAFTA xalqaro iqtisodiy integratsion tashkilotining tashkil topishi, vazifasi, maqsadi, iqtisodiy samarasi, xalqaro ahamiyati.

20-variant

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Osiyo – Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, YeI mamlakatlari, NAFTA davlatlari, MDH mamlakatlari, Shanxay guruhi tashkiloti.

2. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida xalqaro hamjamiyat va iqtisodiy tashkilotlarning ahamiyati.

Tayanch iboralar: BMT, YeI, ERTB, ORTB (Osiyo rivojlanish va taraqqiyot banki).

3. Yevropa davlatlari Ittifoqining tashkil topishi va moliya-byudjet sohasida olib borilayotgan siyosat.

Tayanch iboralar: Tashkil topgan moliyaviy institutlar, hisob-kitob palatasi, daromad, harakat, soliq siyosati, mintaqaviy dasturlar.

21-variant

1. O‘zbekiston Respublikasi bilan YeI davlatlari o‘rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarning borishi.

Tayanch iboralar: O‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum, diplomatik aloqaning o‘rnatilishi, O‘zbekistonda hamkorlik kengashining tashkil topishi.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya fanining mazmuni va mohiyati. Iqtisodiy fanlar ichida tutgan o‘rni.

Tayanch iboralar: Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifasi. Iqtisodiy integratsiya to‘g‘risidagi qarashlar konsepsiyasi. Integratsion jarayonlarning borishi.

3. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy birlashma va uyushmalar.

Tayanch iboralar: Afrika iqtisodiy hamjamiyati, EKOVAS, YuDEAK, mintaqaviy va submintaqaviy birlashmalarni tuzishdan maqsad.

22-variant

1. O‘zbekiston Respublikasi bilan Janubiy Koreya, XXR o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning borishi.

Tayanch iboralar: davlat rahbarlari tomonidan shartnomalarning imzolanishi, qo‘shma korxonalarning ishga tushirilishi, kompaniyalarning akkreditatsiya qilinishi.

2. Iqtisodiy integratsiyada xalqaro ishlab chiqarish hamkorliklarning asosiy ko‘rinishlari.

Tayanch iboralar: Ishlab chiqarish va savdoni o‘zaro muvofiqlashtirish, qo‘shma korxonalarning tashkil etilishi, qurilishning pudrat sohasi, ilmiy-texnik sohasidagi hamkorliklar

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot ekanligi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, shtab-kvartirasi a'zo-davlatlar, tuzilmaviy bo'limlar, (Bosh assambyela), iqtisodiy va ijtimoiy kengash, (EKOSOS), YuNKTAD, YuNIDO.

23-variant

1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanishida iqtisodiy birlashgan tashkilotlar guruhi.

Tayanch iboralar: Yevropa hamjamiyati (EX) davlatlari, Shimoliy Amerika davlatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (NAFTA), Osiyo – Tinch okeani mintaqasi davlatlari (ASEAN), Lotin Amerikasi davlatlari birlashgan uyushmasi, Shanxay guruhi davlatlari tashkiloti.

2. Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar guruhi.

Tayanch iboralar: GATT (JST) tashkiloti, savdo va taraqqiyot bo'yicha BMTning Anjumani (YuNKTAD), neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK).

3. Moliya-valyuta va kredit munosabatlari va shuningdek, sarmoyalar kirib kelishini himoyalash sohasidagi xalqaro tashkilotlar.

Tayanch iboralar: Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro hisob banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.

24-variant

1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlardagi global muammolar.

Tayanch iboralar: Demografik muammolar, oziq- ovqat muammosi, ekologik muammo, ishsizlik muammosi, savodsizlik muammosi, resurslardan foydalanish muammosi.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani aniqlovchi asosiy omillar.

Tayanch iboralar: Milliy davlatlar iqtisodiyotining baynalminallashuvi, xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, umumiy bozor, ochiq iqtisodiyot, xalqaro kommunikatsiya, iqtisodiy ittifoq.

3. Integratsion birlashmalarning rivojlanish xususiyati.

Tayanch iboralar: Rivojlanish bosqichlari, integratsiyani belgilovchi omillar, integratsion jarayonlarning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlar.

25-variant

1. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik turlari va uning o'ziga xos belgilari.

Tayanch iboralar: Xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro tashkilotlar (YeI, ERTB, BMT, NAFTA va boshqalar) va ularning integratsion jarayonlarni borishidagi ahamiyati.

2. Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi global muammolar.

Tayanch iboralar: Demografik muammolar, ekologik muammolar, oziq-ovqat muammosi, muammolarni hal qilishning mintaqaviy ko'rinishlari.

3. Osiyo – Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: A'zo davlatlar (11 ta), davlatlar hissasiga jahon mamlakatlari YaMM (23-24%ni), jahon savdosi (40-42%ni), dunyo aholisining (40-41%ni) to'g'ri kelishi, rivojlanish istiqbollari tovarlar ishlab chiqarishdagi raqobatbardoshligi.

26-variant

1. Jahon iqtisodiyotida moliya-valyuta va kredit ittifoqlari.

Tayanch iboralar: Maastrixt kelishuvi (1992-y). Yagona Yevropa Ittfoqi, siyosiy ittifoqi, iqtisodiy valyuta itifoqi, konvertastiya mezonlari, valyuta ittifoqining shakllanish bosqichlari.

2. Jahonning «yangi industrial mamlakatlarida» integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi «yangi industrial davlatlar», Lotin Amerikasidagi «yangi industrial davlatlar». Ushbu YaIDni rivojlanish sur'atlari, iqtisodiy rivojlanishdagi farqlari.

3. Shimoliy Amerika mamlakatlarida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: NAFTA xalqaro iqtisodiy integratsion tashkilotining tashkil topishi, vazifasi, maqsadi, iqtisodiy samarasi, xalqaro ahamiyati.

27-variant

1. Jahon mamlakatlari uchun iqtisodiy integratsiyaning ijobiy va salbiy tomonlari.

Tayanch iboralar: Xalqaro savdo, bojxona ittifoqi, bandlik, valyuta birligi, kommunikatsion bog'lanish va h. k.

2. Jahon xo'jaligida integratsion jarayonlarning borishi va ilmiy- texnik, texnologik rivojlanish.

Tayanch iboralar: Xalqaro savdo, mahsulot ishlab chiqarishdagi raqobat, o'zaro hamkorlar, shartnomalar asosida tuzilgan xalqaro dasturlar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari.

3. Jahon xo'jaligida globallashuvning asosiy ko'rinishlari.

Tayanch iboralar: Milliy davlatlarning xo'jalik hayoti, ishlab chiqarish shakllari, xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, qo'shma korxonalarning tashkil etilishi, TMKlar.

28-variant

1. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy birlashmalar.

Tayanch iboralar: Afrikada mintaqaviy va submintaqaviy birlashma va ularni tashkil etishdan maqsad, Afrikada iqtisodiy hamjamiyat, EKOVAS, YuDEAK.

2. YeI davlatlarining iqtisodiy rivojlanish istiqbollari.

Tayanch iboralar: YeI davlatlarining tashkil topishi, iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, boshqaruv mexanizmi, moliyaviy institutlar, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan olib borayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlari.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada YeIning asosiy maqsadi, vazifalari.

Tayanch iboralar: Davlatlararo uzviy aloqani tashkil etish, taraqqiyotga ko‘maklashish, umumiqtisodiy makonni yaratish, iqtisodiy,ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalarni kuchaytirish, a’zo mamlakatlar fuqarosiga hurmat bilan qarash, yagona valyuta-evroni joriy etish.

29-variant

1. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy birlashma va uyushmalar.

Tayanch iboralar: Afrika iqtisodiy hamjamiyati , EKOVAS, YuDEAK, mintaqaviy va submintaqaviy birlashmalarni tuzishdan maqsad.

2. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy tashkilotlar tashkil topishi birinchi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Jahon xo‘jaligida Birinchi(1914 – 1918-y) va Ikkinchi jahon urushlari (1939 – 1945-y) yillari oralig‘ida iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqaviy tashkilotlari.

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot ekanligi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, shtab-kvartirasi, a’zo-davlatlar, tuzilmaviy bo‘limlar, (Bosh assambyela), iqtisodiy va ijtimoiy kengash, (EKOSOS), Sekretariat. BMT savdo va taraqqi-

yot bo‘yicha a anjumani (YuNKTAD), savdo taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti (YuNIDO).

30-variant

1. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy birlashma va uyushmalar.

Tayanch iboralar: Afrika iqtisodiy hamjamiyati , EKOVAS, YuDEAK, mintaqaviy va submintaqaviy birlashmalarni tuzishdan maqsad.

2. O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Milliy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, olib borilayotgan eksport va import siyosati, qo‘shma korxonalarning tashkil etilishi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi va bandlik, tovarlar ishlab chiqarishdagi standart va raqobat.

3. Jahon mamlakatlari uchun xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ijobiy va salbiy tomonlari.

Tayanch iboralar: Xalqaro savdo, bojxona ittifoqi, valyuta birligi, bandlik, bozor miqyosining kengayishi, milliy xo‘jaliklarda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi.

31-variant

1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishida huquqiy doirasi keng bo‘lgan iqtisodiy tashkilotlar guruhi.

Tayanch iboralar: BMT, Arab davlatlari ittifoqi, Afrika birdamlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti (NAFTA), MDH mamlakatlari tashkiloti, Shanxay guruhi davlatlari tashkiloti.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot (IXTT) tashkiloti.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi,(1961), shtab-kvartirasi (Parij), maqsadi, a’zo davlatlar(29ta), doimiy a’zolari (katta yettilik

davlatlari),IXTT a'zo mamlakatlar hissasiga jahonda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining 2/3 qismi to'g'ri kelishi.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya fanining mazmuni va mohiyati. Iqtisodiy fanlar ichida tutgan o'rni.

Tayanch iboralar: fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifasi. Iqtisodiy integratsiya to'g'risida qarashlar konsepsiyasi. Integratsion jarayonlarning borishi.

32-variant

1. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Tayanch iboralar: Xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimot(XMT), yirik integratsion guruhlar (YeI, NAFTA, Osiyo – tinch okeani mintaqasi), ishlab chiqarishning globallashuvi.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishida umumjahon banki (UB).

Tayanch iboralar: UB ning moliyaviy taminotida xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki «XTTB», Xalqaro moliya korparatsiyasi (XMK), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU), investitsiyani kafolatlash bo'yicha xalqaro agentliklar (IKXA).

3. Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlaridagi integratsion jarayonlar. Mintaqaviy hamkorlikdagi tashkilotlar.

Tayanch iboralar: LAI, LAES, KARIKOM, And pakti davlatlari (Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya).

33-variant

1. MDH mamlakatlari doirasida integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, bojxona ittifoqi, Rossiya bilan Qozog'iston, Rossiya bilan Tojikiston, Qirg'iziston o'rtasida hamkorlik.

2. Jahon iqtisodiyotida moliya-valyuta va kredit ittifoqlari.

Tayanch iboralar: Maastrixt kelishuvi (1992-y). Yagona Yevropa Ittfoqligi, siyosiy ittifoqi, iqtisodiy valyuta ittifoqi, konvertastiya mezonlari, valyuta ittifoqining shakllanish bosqichlari.

3. Osiyo – Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarni ng borishi.

Tayanch iboralar: A'zo davlatlar (11 ta), davlatlar hissasiga jahon mamlakatlari YaMM (23-24%ni), jahon savdosi (40-42%ni), dunyo aholisining (40-41%ni) to'g'ri kelishi, rivojlanish istiqbollari, tovarlar ishlab chiqarishdagi raqobatbardoshligi.

34-variant

1. Jahonning «yangi industrial mamlakatlarida» integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi «yangi industrial davlatlar», Lotin Amerikasidagi «yangi industrial davlatlar». Ushbu YaIDning rivojlanish sur'atlari, iqtisodiy rivojlanishdagi farqlari.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani belgilovchi asosiy omillar.

Tayanch iboralar: Milliy davlatlar iqtisodiyotining baynalmilallashuvi, xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, umumiy bozor, ochiq iqtisodiyot, xalqaro kommunikatsiya, iqtisodiy ittifoq.

3. Yevropa davlatlari Ittifoqining tashkil topishi va moliya-byudjet sohasida olib borilayotgan siyosat.

Tayanch iboralar: Tashkil topgan moliyaviy institutlar, hisob-kitob palatasi, daromad, harakat, soliq siyosati, mintaqaviy dasturlar.

35-variant

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Osiyo – Tinch okeani mamlakatlari, Yel davlatlari, NAFTA davlatlari, MDH mamlakatlari, Shanxay guruhi tashkiloti davlatlari.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada Osiyo taraqqiyot banki (OTB).

Tayanch iboralar: tashkil topishi (1967-y), a'zo mamlakatlar, maqsadi, imtiyozli kredit berish shartlari, kredit berishning uzoq muddatliligi, tijorat shartlari bo'yicha kredit berish ekanligi.

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eng obro'li va eng yirik xalqaro tashkilot ekanligi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, shtab-kvartirasi, a'zodavlatlar, tuzilmaviy bo'limlar, (Bosh assambleya) , iqtisodiy va ijtimoiy kengash, (EKOSOS), Sekretariat. BMT savdo va taraqqiyot bo'yicha anjumani (YuNKTAD), savdo taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti (YuNIDO).

36-variant

1. Janubi – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (OKEAN) integratsion jarayonlarning borishi.

Tayanch iboralar: Okean davlatlarining geografik o'rni, resurslar, xalqaro savdosining borishi, bojxona ittifoqi, bandlik, kadrlar tayyorlash.

2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi.

Tayanch iboralar: Strategik qulay joyda joylashganligi, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar, iqtisodiyotning «ochiqligi».

3. Xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlardagi global muammolar.

Tayanch iboralar: Demografik muammolar, oziq-ovqat muammosi, ekologik muammo, ishsizlik muammosi, savodsizlik muammosi, resurslardan foydalanish muammosi.

37-variant

1. Afrikadagi mintaqaviy va submintaqaviy birlashma va uyushmalar.

Tayanch iboralar: Afrika iqtisodiy hamjamiyati, EKOVAS, YuDEAK, mintaqaviy va submintaqaviy birlashmalarni tuzishdan maqsad.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eng obro‘li va eng yirik xalqaro tashkilot ekanligi.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, shtab-kvartirasi a’zo-davlatlar, tuzilmaviy bo‘limlar, (Bosh assambelya) , iqtisodiy va ijtimoiy kengash, (EKOSOS), Sekretariat, YuNKTAD, YuNIDO.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani aniqlovchi asosiy omillar.

Tayanch iboralar: Milliy davlatlar iqtisodiyotini baynalminallashuvi, xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, umumiy bozor, ochiq iqtisodiyot, xalqaro kommunikatsiya, iqtisodiy ittifoq.

38-variant

1. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni borishi.

Tayanch iboralar: O‘zbekiston ushbu davlatlar uchun asosiy sheriklik qiluvchi davlat ekanligi, bog‘liqligi, strategik joylashganligi, tadbirkorlarning uchrashuvi.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani aniqlovchi asosiy omillar.

Tayanch iboralar: Milliy davlatlar iqtisodiyotini baynalminallashuvi, xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, umumiy bozor, ochiq iqtisodiyot, xalqaro kommunikatsiya, iqtisodiy ittifoq.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyada iqtisodiy hamkor va taraqqiyot (IXTT) tashkiloti.

Tayanch iboralar: Tashkil topishi, (1961), shtab kvartirasi (Parij), maqsadi, a'zo-davlatlar (29ta), doimiy a'zolari(katta ettilik davlatlar), IXTT a'zo mamlakatlar hissasiga jahonda tavorlar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

«XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA» FANIGA OID ATAMALARNING IZOHLI LUG‘ATI

«Aqlli kishilarning ketib qolishi» – mamlakatdan «intellektual elita» vakillarining chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Avanslash – yetkazib beriladigan tovarlar uchun importchi tomonidan qisman oldindan haq to‘lashdan iborat. Eksportchi uchun foydali o‘zaro hisob-kitob ko‘rinishi hisoblanadi.

Akkreditiv – mijozning iltimosiga ko‘ra bank tomonidan hujjatda ko‘rsatilgan shartlarda uchinchi shaxs (benifistiar)ga to‘lovni amalga oshirish yoki benifistiar tomonidan qo‘yilgan o‘tkazma vekselni (tratta) to‘lashni amalga oshirish (akstept) bo‘yicha bank majuriyati bo‘yicha bitim.

Akstept – bitim amalga oshganligini anglatuvchi ofertani qabul qilinganligiga rozilik berish.

Aksiz – davlat organlari tomonidan belgilanadigan tovar bojxona qiymatiga narx qo‘shimchasi.

Anderrayterlar – moliya bozoridagi muvofiqlashtirilgan kurs bo‘yicha zayomni joylashtiruvchi garant kompaniyalar.

Bank o‘tkazmalari – o‘tkazuvchi (to‘lovchi) talabiga muvofiq uning hisobidan oluvchi (benifistiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka to‘lov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob ko‘rinishi.

Barter – tovarni tovarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayirboshlanadigan savdo bitimi.

Bojxona boji – tovar davlat chegarasini kesib o‘tganda solinadigan maxsus pul soligi.

Bojxona ittifoqi – ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o‘tkazishi.

Bojxona tarifi – tovar oqimlarining chegarani kesib o‘tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko‘rsatilgan tartiblangan tovarlar ro‘yxati.

Bufer zaxiralari – salbiy iqtisodiy tamoyillarning milliy iqtisodiyotga ta’siri va favqulodda vaziyatlar uchun moddiy boyliklarning jami.

Valyuta – ma’lum bir davlatning qonun bilan o‘rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valyutasi ko‘rinishidagi jahon rezerv pullari, Xalqaro valyuta fondi va Yevropa valyuta tizimi a’zolari tomonidan ko‘p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklari.

Valyuta arbitraji – svoplar va ssuda kapitali bozorida bitimlar birgalikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi banklararo operatsiyalar.

Valyuta bozorlari – milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta’sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

Valyuta intervenstiyasi – davlat organlari tomonidan milliy bozorda xorijiy valyutani sotish va sotib olish.

Valyuta kliringi – ikki va undan ortiq hukumatlar o‘rtasida moliyaviy talablar va majburiyatlarni o‘zaro hisobga olish haqida kelishuv.

Valyuta kotirovkasi – bir valyuta bahosini boshqa valyutalarda ifodalanishining sonli yozuvi.

Valyuta kursi – milliy valyutalar o‘rtasidagi nisbat, bir mamlakat valyutasining xorijiy pul birliklarida ifodalanishi.

Valyuta pozitsiyasi – bankning xorijiy valyuta talab va majburiyatlari nisbati.

Valyuta rejimi – valyuta ayirboshlash kursini aniqlash asosidagi mexanizm.

Valyuta rezervlari – xorijiy valyuta, oltin, SDR, XVFdagi rezerv pozitsiya ko‘rinishidagi valyuta-likvid vositalarning jami.

Valyuta siyosati – mamlakatda xorijiy valyutalarning pul-kredit aylanmasini tartibga solishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimi.

Valyuta xatari – valyuta kursi o‘zgarishi oqibatida eksportchi, importchining zarar ko‘rish imkoniyati.

Valyuta cheklashlari – xorij valyutasi va boshqa qimmatli narsalar (oltin) bo‘yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo‘naltirilgan ma’muriy va qonuniy tartibda belgilangan me’yoriy qoidalar tizimi.

Valyutaning konvertirlanganligi – milliy valyutani xorijiy valyutalarga rezidentlar uchun ham, rezident bo‘lmaganlar uchun ham to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha almashtirish imkoniyati.

Veksel – belgilangan ko‘rinishda tuzilgan yozma qarzdorlik majburiyati, veksel egasi unda ko‘rsatilgan muddat tugagandan so‘ng belgilangan pul summasini qarzdordan talab qilishga haqli.

GATT – Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh kelishuv – tashqi savdo operatsiyalarini o‘tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo‘lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo‘yicha xalqaro akt

Global muammolar – umumjahon ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi siviliziatsyamizning eng dolzarb masalalari

Demografik portlash – jahonning kam rivojlangan va kambag‘al mamlakatlarida nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada aholi sonining o‘sishi.

Devalvatsiya – milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon – revalvatsiya).

Evro – universal Yevropa hisob-kitob-to‘lov birligi bo‘lib, YeI ga a’zo mamlakatlar hududida EKYu o‘rniga joriy etilgan.

Yevropa valyuta tizimi (EVT) – YeI a’zolarining hududiy valyuta guruhi.

Yevropa Ittifoqi (YeI) – G‘arbiy Yevropaning 27 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Jahon bahosi – talab va taklif egri chiziqlari ta’sirini hisobga olgan holda milliy narx ko‘rsatkichlari ta’sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo‘ladi.

Jahon bozori – moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarishsh, taqsimlash. ayirboshlash va iste’mol bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi XIM subyektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o‘zaro iqtisodiy ta’sirlashish global muxitidir.

Jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT) –xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish ko‘rinishi.

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) – milliy xo‘jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta’sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o‘rtasida jami migratsion aylanmasi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) – BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo‘lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya – hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik komplekslarini o‘zaro yaqinlashuvi va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq – iqtisodiy integratsiyaning oliy ko‘rinishi, u umumiy huquqiy me’yorlar, soliq bazasini soddalashtirilish, ishlab chiqarishsh va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish. yagona valyutaga o‘tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Immigratsion kvota – xorijiy fuqarzolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

Investitsion muhit – mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo‘lgan shart-sharoitlar kompleksi.

Injiniring – ishlab chiqarishshni ta’minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarishsh obyektini qurib, ishga tushirish bo‘yicha xizmatlar.

Inkasso – mijoz (eksportyor) buyrug‘iga ko‘ra jo‘natilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun importyordan to‘lovni qabul qilish va bu mablag‘larni eksportyor hisobiga o‘tkazish operatsiyasi.

Innovastion faoliyat – Nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayon.

Informastiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB) – intellektual faoliyat natijalari ayirboshlash xalqaro sohasi.

Kartel – tashqi savdo assotsiatsiyasi (uning a’zolari alohida tovar guruxlari bo‘yicha ishlab chiqarishsh va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).

Kvotalash – davlat tomonidan eksport va importning qiymat va jismoniy hajmini to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash amaliyoti.

Kliring – qarama-qarshi tovar oqimlarida valyutadan foydalanmasdan (naqdsiz) vositachi orqali o‘zaro hisob-kitobni nazarda tutuvchi savdo operatsiyasi.

Konversiya–Harbiy sanoat kompleksi korxonalarini fuqarolarga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishshga o‘tkazish jarayoni.

Konsalting – konsalting firma tomonidan har qanday iste’molchiga keng ko‘lamdagi maslahat xizmatlari ko‘rsatish.

Kredit kartochkasi – eletron bank tizimlari orqali tovar va xizmatlarni naqdsiz to‘lash instrumenti.

Kross-kurs – ikki xorijiy valyutaning kesishuvchi kotirovkasi, bu valyutalarning hech biri kursni belgilovchi bitim imzolovchi ishtirokchining milliy valyutasi emas.

Ko‘ngilli eksport cheklashlari (KECh) – bir tashqi savdo hamkori tomonidan ikkinchisi bilan kelishilgan holda eksport operatsiyalari hajmini chegaralash.

Lizing – mashina, qurilmalar, texnologiya va ko‘chmas mulkni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun uzoq muddatga ijaraga berish.

Litsenziyalash – davlat tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslarga tashqi iqtisodiy operatsiyalar olib borishga ruxsat berish amaliyoti.

Marja – valyuta xaridori va sotuvchisi kurslari o‘rtasidagi farq.

Marjinal (qo‘shilgan) foyda – sotish narxi va o‘zgaruvchan harajatlar yig‘indilari orasidagi farq.

Maxsus qarz olish huquqi – Xalqaro valyuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko‘rinishidagi xalqaro aktivlar (ya’ni zaxira va to‘lov vositalar) bo‘lib, ularning mikdori XVFga a’zo mamlakatlarning kvotalariga mos keladi.

Monetarizm – bu nazariyaga ko‘ra, davlat tomonidan pul massasi o‘sish sur’atlarini barqarzor ushlab turish (yiliga 3-5 foiz) va davlat xarajatlarini qisqartirish xususiy kapital uchun bir iqtisodiyotdan boshqasiga erkin oqib o‘tish kanallarini ochadi, bu yangi ish joylarini yaratish va aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatinii beradi.

Monitoring (xo‘jalik) – jami iqtisodiy ko‘rsatkichlarni kuzatish va statistik ishlov berish jarayoni.

Mutlaq ustunlik – xo‘jalik subyektlari (mamlakatlar)ning ishlab chiqarish harajatlari miqdorining turlichaligidan (masalan, bir geografik sharoitga ega bo‘lmaslik) foydalanishi tufayli ko‘rgan foydasi.

Narx – tovarning ijtimoiy foydaliligi qiymatining pul birligida ifodalanishi.

Nisbiy ustunlik – xo‘jalik subyektlari (mamlakatlar)ning ishlab chiqarish harajatlari yig‘indisidagi nisbiy farqdan foydalanishi tufayli ko‘rgan foydasi.

Nou-xau – mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalanmagan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.

Oziq-ovqat xavfsizligi – milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.

Oferta – aniq shart-sharoitlar asosida bitim tuzish taklifi.

Offshor hududlar – milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, bu erda xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirashadi.

Ochiq hisob – hisob-kitob tovar importchi tomonidan olingandan so'ng amalga oshiriladigan shakl. Eksportchi importchiga hisob-fakturani hujjatlar bilan birgalikda pochta orqali banklar ishtirokisiz yuboradi.

Panjaralash (xedjirlash) – valyuta xatarlarini sug'urtalash usullari majmui.

Portfel investitsiyalar – xo'jalik obyektini ekspluatastiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital ko'yilmalari.

Proteksionizm – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning bevosita va bilvosita usullar orqali faol aralashuvini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

Rezident – fuqarzoligi va pasport statusidan qat'iy nazar davlat hududida bir yildan oshiq yashagan jismoniy va huquqiy shaxs (bu mamlakatda shtab-kvartiraga ega bo'lgan diplomatik missiya ishchilari, harbiy personal va xalqaro tashkilotlar xodimlaridan tashqarzi).

Rollover kreditlar – asosiy miqdor, qo'shimcha (marja) va komission to'lovlardan tarkib topgan foiz stavkasini qayta ko'rish mumkin bo'lgan holda ssuda berish.

Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YuNKTAD) – BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi – mamlakatlar o'rtasida kelishilgan holda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Sanoat taraqqiyoti bo‘yicha BMT Anjumani (YuNIDO) – BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Svop – forvard bitimi va spot sharti bo‘yicha bitim asosida amalga oshadigan turli xildagi valyuta operatsiyalari

Spot – bitimni imzolash paytida kontragentlar qayd etgan kurs bo‘yicha valyutani darhol etkazib berish bilan bog‘liq kassa operatsiyalari.

Sug‘urta kafolati – ma’lum bonus evaziga sug‘urta kompaniyasining eksportchilar (kreditorlar)ga zararni qoplash haqida majburiyati.

Tashqi qarzdorlik inqirozi – davlat tomonidan tashqi qarzlar va zayomlarni to‘lash grafigining buzilishi.

Tashqi savdo siyosati – eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va geografik yo‘nalishini tartibga solish bilan bog‘liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biri.

TIFni tartibga solishning tarifli usullari – soliq cheklashlari (bojxona yig‘imlari, bojlar, aksizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta’sir o‘tkazish vositalari yig‘indisi.

TIFni tartibga solishning tarifsiz usullari – tashqi savdoga ta’sir o‘tkazishning bevosita, ma’muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik standartlarni joriy qilish, sanitar me’yorlar va boshqalar).

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) – chet el aktivlariga ega bo‘lgan yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirish ko‘rinishi.

To‘g‘ri investitsiyalar – foyda olish bilan birgalikda kapital qo‘yilayotgan obyekt ustidan nazoratni ta’minlash huquqini beruvchi kapital qo‘yilmalari.

To‘lov balansi – mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma’lum vakt oraligidagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarining sistemalashtirilgan holda qayd etilishi.

To‘lov balansining asosiy moddalari – tovar va xizmatlar eksport-importi, xorijiy investitsiya kapitali harakatini o‘z ichiga oladi.

To‘lov balansining balanslovchi moddalari – valyuta zaxiralarining harakati, qisqa muddatli aktivlar hajmining o‘zgarishi, davlat qarzlari va kreditlari, ikki tomonlama bitimlar XIMda xalqaro tashkilotlar liniyasi bo‘yicha moliyaviy yordamlarni aks ettiradi.

Umumjahon banki – o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq beshta institutdan tarkib topgan ko‘p tomonlama kredit tashkiloti.

Umumiy bozor – ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko‘chib o‘tishi ta’minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko‘rinishi.

JST – jahon savdo tashkiloti – xalqaro savdoni institustional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Faktoring – bank yoki faktor-kompaniyalarning mahsulot yetkazib beruvchi va haridor o‘rtasidagi hisob-kitoblarda yetkazib beruvchining moliyaviy talabini qarzni keyinchalik xaridordan undirib olish yo‘li bilan to‘lash vositasidagi jami vositachilik operatsiyalari.

Fiksing – har bir valyutaga talab va taklif hajmini navbatma-navbat solishtirish orqali valyutalarning banklararo kursini aniqlash va qayd etish jarayoni.

Forvard – bitim imzolangandan keyin ikki kun davr uchun qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug‘urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo‘yicha banklararo valyuta-moliyaviy operatsiyalar.

Forfetirlash –bir kompaniyaning tijoriy huquqlarini boshqa kompaniyaga naqd to‘lov bilan ayirboshlash.

Franchayzing – bir kompaniyaning boshqa yirikrok yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanishi

Fritred (erkin savdo) – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning

davlatning eng kam darajada aralashuvi sharoitida o‘z faoliyatlarini erkin ravishda tanlashini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

Fyuchers – qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug‘urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo‘yicha fond birjasida bajariladigan tezkor muddatli valyuta-moliyaviy operatsiyalar.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) – yirik hukumatlararo valyuta-moliya tashkilot bo‘lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimi.

Xalqaro ishlab chiqarishsh kooperatsiyasi – ishlab chiqarish bosqichlarining o‘zaro bir-birini to‘ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishi.

Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi – mamlakatlar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti ko‘rinishi bo‘lib, unda o‘zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.

Xalqaro kredit – valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinchlik va to‘lovlilik shartlarida berish.

Xalqaro savdo – milliy xo‘jaliklar o‘rtasida to‘lanadigan jami tovar aylanmasi ko‘rinishidaga mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o‘ziga xos shakli.

Xalqaro tovar nomenklaturasi – mamlakatlar o‘rtasida kelishilgan, tasniflangan tovar pozitsiyalari ro‘yxati bo‘lib, har bir tovar pozitsiyasi kodlashtirilgan raqamlarga ega.

Xalqaro Hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) – eng rivojlangan industrial mamlakatlar birlashmasi.

Xalqaro hisob-kitoblar – turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chiquvchi pul talablari va majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni tashkil etish va tartibga solish jarayoni.

Xarid qobiliyati pariteti nazariyasi – valyuta kursi ikki mamlakat pul birliklarining nisbiy qiymati bilan aniqlanadi, u mu-
omaladagi pul miqdoriga bog‘liq. Jumladan, J.M.Keyns tamoyiliga ko‘ra, davlat tomonidan foiz stavkasini manipulyatsiya qilish mamlakatga xorijdan investitsiya oqimlarini quyidagicha o‘zgartiradi: foiz stavkasi kamaytirilsa, tashqi qarzlar hajmi ortadi, foiz stavkasi oshirilsa, aksincha, kamayadi.

Xeksher–Olin–Samuelson tamoyili – mamlakatning eksportga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyotdagi ortiqcha ishlab chiqarishsh omillarining mavjudligiga asoslangan.

Chek – chek imzolaganning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o‘tkazish haqida bankka bergan yozma farmoyishi.

Eksport kvotasi – mamlakat eksporti qiymatining yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).

Embargo – alohida mamlakat yoki davlatlar guruxi bilan savdoni butunlay ta’qiqlash.

Erkin iqtisodiy hududlar – mamlakatning shunday hududiki, bu erga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdikstiyasidan tashqarzida hisoblanadi, binobarin, bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya’ni – bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu erda mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llamaydigan o‘ziga xos imtiyozlar va rag‘batlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESX) – preferenstial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – ma'lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

«Yangi industrial mamlakatlar» («YaIM») – iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruxi.

Qarz konversiyasi – qarz majburiyatlarini ikkilamchi bozorda likvidli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga aylantirish.

Qarzga xizmat ko'rsatish me'yori – qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar va milliy eksport orasidagi nisbat.

Qarzni diskontlash – kreditor va qarz beruvchi o'rtasida kredit summasini yoki uning bir qismini o'chirish.

Qarzni restrukturizastiyalash – kreditni to'lash muddatlarini foizlarni to'lashni orqaga surish orqali cho'zish.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Мировая экономика: прогноз до 2020 года/под ред. акад. А.А. Динкина/IMEMO RAN. – М.: Магистр, 2007. – 429 с.

2. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник/под ред. Л.Н. Красивиной. – 3-е изд., перереб. и доп. – М.: Финанси и статистика, 2007. – 576 с.

3. Внешнеэкономическая деятелность: учеб. для студ. сред. проф. учеб. заведений/[Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелов, С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелова. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: «Академия», 2007. – 304 с.

4. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / Под ред.. В.В. Попкова. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. – 295 с.

5. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: Учебник. – М.: ЗАО «ЭКОНОМИКА», 2007. – 359 с.

6. Кочетов Е. Г. Геоэкономика. Освоения мирового экономического пространства: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2006. – 528 с.

www.gov.uz–O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.

www.press-service.uz–O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.

www.mfer.uz–O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.

www.omad.uz–Biznes rivoji uchun axborot portali.

www.UzA.Uz–O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.

www.review.uz – «Экономическое обозрение» jurnalining rasmiy sayti.

www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.

MUNDARIJA

Kirish..... 3

1-bob.Xalqaro iqtisodiy integratsiya – jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida 7
1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati 7
1.2. Iqtisodiy integratsiya: nazariy qarashlar tahlili..... 15
1.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o‘rni 26
1.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jahon markazlari – G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi 31

2-bob.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning xususiyatlari va milliy davlatlar iqtisodiyotiga ta’siri 47
2.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish shakllari 47
2.2. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik hamkorliklarning rivojlanish xususiyatlari va asosiy ko‘rinishlari..... 54
2.3. Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning ijobiy va salbiy jihatlari uning milliy davlatlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni 57

3-bob. G‘arbiy Yevropada integratsion jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari 65
3.1. Yevropa Ittifoqining shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlari..... 65
3.2. Yevropa Ittifoqining boshqaruv tuzilmasiga tavsif..... 70
3.3. Yevropa Ittifoqida yagona valyuta tizimining shakllanishi 73

4-bob. Shimoliy Amerika mintaqasidagi integratsion jarayonlar..... 81
4.1. Shimoliy Amerika erkin savdo hududi to‘g‘risidagi kelishuv (NAFTA)ga a’zo davlatlarning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni 81
4.2. Shimoliy Amerika erkin savdo hududida integratsiyaning rivojlanish xususiyatlari 89

5-bob. Jahon xo‘jaligidagi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan global tashkilotlar 98
5.1. Xalqaro iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlarga umumiy tavsif 98

5.2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tasarrufidagi iqtisodiy tashkilotlar 99
5.3. Jahon xo‘jaligida ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat sohalari bo‘yicha birlashgan tashkilotlar 102
5.4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida moliya-valyuta sohalarini, sarmoyalarni himoyalash bo‘yicha xalqaro iqtisodiy tashkilotlar 104
5.5. Jahon savdo tashkiloti xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida 114

6-bob. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida integratsion jarayonlarning rivojlanishi 130
6.1. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining tashkil topishi va rivojlanish xususiyati 130
6.2. YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida i ntegratsiyalashuv xususiyatlari 139
6.3. O‘zbekiston Respublikasining MDH doirasidagi hamkorligi 150

7-bob.O‘zbekiston respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi 165
7.1. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi yo‘nalishlari 165
7.2. O‘zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiyotiga integratsiya-lashuvi sharoitida tashqi savdoning rivojlanishi 174
7.3. O‘zbekistonning mintaqaviy integratsion markazlar mamlakatlari bilan hamkorligi 182
7.4. O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalar 195

Adabiyotlar ro‘yxati 214
«Xalqaro iqtisodiy integratsiya» fani bo‘yicha yozma ish variantlari 227
«Xalqaro iqtisodiy integratsiya» faniga oid atamalarning izohli lug‘ati 249

65.5
X21

Xalqaro iqtisodiy integratsiya: darslik/ G.G‘. Nazarova (va boshq.); O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 264 b.

I. Nazarova G.G‘

Gulchexra Gaziyevna Nazarova, Xamro Xalilov,
Abror Ergashovich Azimov, Ixtibarxan Mansurovna Xanova.

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA
(darslik)

Muharrir A. SA’DULLAYEV
Badiiy muharrir O.MUXTOROV
Texnik muharrir H.SAFARALIYEV
Sahifalovchi D. AKROMOV

Bosishga 12.08.2010-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasi.
Hajmi 16,5 b.t. Adadi 500.
Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma № 090.

«Tafakkur» nashriyoti. www.tafakkur.uz
E-mail: maktub@tafakkur.uz

Original-maket
«TAFAKKUR» nashriyoti
media markazida tayyorlandi.

«TAFAKKUR» nashriyoti bosmaxonasi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.

αυδγγ.